

M.RASULOV



**XALQARO
MUNOSABATLAR VA
DIPLOMATIYA TARIXI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

M. F. RASULOV

Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi

O‘QUV QO‘LLANMA

**5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun**

Farg‘ona - 2023

UO‘K:327(09)(075.8)

KBK:66.4ya73

R 25

Rasulov M.F. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi: O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir R.Arslonzoda. – Farg‘ona: Classic, 2023. – 176 b.

Farg‘ona davlat universiteti rektorining 2022-yil 23-dekabrda “562”-sonli buyrug‘iga asosan oliy ta’lim muassasalarining 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun “Jahon tarixi”, “Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi” mutaxassislik fanlaridan oliy ta’lim muassasalarining 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. Ro‘yxatga olish raqami: 342-013.

Qo‘llanmada “Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi” o‘quv predmetining mazmuni, fanning ahamiyati va metodik asoslari, xalqaro munosabatlar va diplomatiya haqida, dunyodagi qadimgi va hozirda mavjud bo‘lgan davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, tuzilgan turli shartnoma va ittifoqlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, harbiy-siyosiy bloklar va ularning faoliyati haqida bahs yuritiladi.

Mas’ul muharrir: *R.Arslonzoda, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

Taqrizchilar: *M.G‘.Abdullayev, tarix fanlari doktori*
O.V.Mahmudov, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

ISBN:978-9943-9112-8-4

© “Classic”-2023

Kirish

Insoniyat jamiyatida davlatlar paydo bo'libdiki, ular o'rtasida u yoki bu darajada siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatilgan. Diplomatiya belgilarining paydo bo'lishi juda qadim zamonga, ya'ni urug'chilik tizimi davriga borib taqaladi. Faqat diplomatik aloqalarning rasmiy ko'rinishga kelishi davlatchilik tarixi boshlanishi bilan bog'liqdir. Davlatlararo tashqi siyosat sohasidagi vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, chet elda huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyat diplomatiya orqali amalga oshiriladi. "Diplomatiya"¹ atamasi hozirgi ma'noda G'arbiy Yevropada XVIII asr oxiridan qo'llanila boshlangan. Diplomatiya davlat tashqi siyosatining eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi, ana shu siyosatning maqsad va vazifalari diplomatiya shakli hamda uslublarini belgilab beradi. Qadimgi dunyo tarixida diplomatiya davlatning iqtisodiy siyosat bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni bajargan.

Zamonaviy diplomatik faoliyatning asosiy shakllari:

- diplomatik kongresslar, konferensiyalar yoki kengashlar;
- nota, memorandum, bayonot va hokazo shakllardagi diplomatik yozishmalar;
- xalqaro shartnomalarni tayyorlash va imzolash;
- davlatning elchixonalar va missiyalar orqali amalga oshiradigan chet eldagi vakilligi;
- xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish;
- tashqi siyosiy masalalar bo'yicha hukumat nuqtai nazarini matbuotda yoritish.

Diplomatik muassasalar va ularning mas'ul xodimlari diplomatik imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi. Xalqaro huquqqa binoan, diplomatik vakillarga o'zlari ishlayotgan mamlakat ichki ishlariga aralashish man etiladi. Diplomatiya faoliyati diplomatik va konsullik munosabatlarda namoyon bo'ladi. Diplomatik va konsullik munosabatlari Vena konvensiyalari (1961 va 1963-yy.)da belgilab qo'yilgan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi.

"Diplomatik munosabatlar to'g'risida"gi Vena konvensiyasi 1961-yil 18-aprelda Vena shahri (Avstriya)da diplomatik munosabatlar va immunitetlar masalalari bo'yicha BMT konferensiyasida qabul qilingan (mazkur konvensiya 53 moddadan iborat).

¹ Qarang: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 624.

“Konsullik aloqalari to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasi 1963-yil mart–aprelda BMTning Vena konferensiyasi (92 davlat vakillari qatnashgan)da qabul qilingan hamda 1967-yil 19-martda kuchga kirgan. Mazkur konvensiya xalqaro muomalada ishtirok qiluvchi barcha davlatlar o‘rtasidagi konsullik aloqalarini tartibga solib turadi. O‘zbekiston mazkur konvensiyaga 1994-yil 6-mayda qo‘shilgan.

Agar XV asrda dunyoda atigi 5–6 ta davlat mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1900-yilga kelib ularning soni 30 taga yetdi². Hozirgi kunda dunyoda xalqaro huquqning *de-yure* yoki *de-fakto* subyektlari deya tan olingan, muayyan hududni egallaydigan, mustaqil yoki o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga ega va davlat sifatida tan olingan 250 dan ortiq mamlakatlar mavjud. Mazkur davlatlardan 195 tasi xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektlari va BMTning a‘zolari hisoblanadi (Vatikan va Falastin – kuzatuvchi sifatida)³.

Dastlabki davlatchilik Misr, Mesopotamiya, Elam (hoz. Eron hududi), Hindiston va Xitoyda bundan V–VI ming yillar muqaddam vujudga kelgan. Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida davlatchilik tarixi salkam 3000 yilga borib taqaladi. Xuddi mana shu davrlardan boshlab davlatlarning bir-biri bilan tashqi aloqalari yo‘lga qo‘yila boshlangan. Ilk davlatlararo aloqalar, asosan, tovar ayirboshlash, ya’ni o‘zaro savdo orqali amalga oshirilgan. Davlatlarning o‘zaro savdo aloqalari natijasida qadimgi karvon, dengiz yo‘llari vujudga kelgan. Buyuk ipak yo‘li mil. avv. II asrdan to mil. XV asrgacha, ya’ni buyuk geografik kashfiyotlarga qadar, davlatlararo tashqi aloqalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Boshqa qadimgi savdo yo‘llari ham xalqaro munosabatlarda muhim rol o‘ynagan:

- “Shoh yo‘li” – mil. avv. VI asrning so‘nggi choragida, Doro I hukmronligi davrida qurilgan tranzit aloqa yo‘li. Bu yo‘l dastlab ahamoniylarning yirik savdo va ma‘muriy markazlaridan biri bo‘lgan Suza shahrini Kichik Osiyo hamda O‘rta Yer dengizi bo‘yidagi shaharlar bilan bog‘lagan. Savdo yo‘lining umumiy uzunligi 2400 km.ga cho‘zilgan. “Shoh yo‘li”ning bir tarmog‘i shimoliy-sharqqa yo‘naltirilgan bo‘lib, Marg‘iyona va Baqtriya hududlari orqali Hindistongacha yetib borgan⁴.
- Ziravorlar yo‘li – Hindiston bilan Sharqiy Afrika va O‘rta Yer dengizi mamlakatlarini bog‘lagan;

² Davlatlar va xalqaro tashkilotlar. – Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 5.

³ <https://www.un.org/ru/about-us/member-states>

⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. – Toshkent: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 107–108.

- Xushbo‘y moddalar yo‘li – Arabiston yarim orolini O‘rta Yer dengizi mamlakatlari va Ikki daryo oralig‘i (Mesopotamiya) bilan bog‘lagan;
- Qahrabo (Yantar) yo‘li – Boltiqbo‘yi bilan O‘rta Yer dengizi mamlakatlarini bog‘lagan. Bu yo‘l haqida Gerodot ham yozib o‘tgan;
- Choy yo‘li – Xitoyda Tan sulolasi (618–907-yy.) davridan boshlanib, Sun sulolasi (907–1270-yy.) davrida kuchaygan;
- Tuz yo‘li – Adriatika dengizi qirg‘oqlaridan Rimgacha cho‘zilgan uzunligi 242 km. bo‘lgan yo‘l. Bu yo‘ldan Rimga tuz tashilgan;
- Sahroi Kabir (Transsaxara) savdo yo‘li Afrikaning shimoli (Karfagen va Qadimgi Rim)ni Janub bilan bog‘lagan. Bu yo‘ldan ko‘proq qullar tashilgan;
- Qalay yo‘li – Qozog‘iston, Oltoy va Markaziy Osiyoning shimoliy qismlaridagi qalayi konlaridan qazilgan metallni Volgabo‘yi va Uralbo‘yi hududlariga olib borilgan⁵.
- Buyuk ipak yo‘li – qadimda va o‘rta asrlarda Sharq va G‘arb mamlakatlarini ilk bor o‘zaro bog‘lagan qit‘alararo karvon yo‘li (mil. avv. II asr – mil. XV asr). Buyuk ipak yo‘li atamasi ushbu yo‘ldan tashilgan qimmatbaho mahsulot – Xitoy ipagi bilan bog‘liq.

⁵ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Оловянный_путь](https://ru.wikipedia.org/wiki/Оловянный_путь)

1-mavzu: Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi (1-qism)

Reja

- 1. Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari**
- 2. Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya (Qadimgi Mesopotamiya, Qadimgi Misr, Xett podsholigi, Ossuriya davlati)**

Tayanch iboralar: *despotiya, kontragent, lugal, malakat, Qadimgi Sharq,*

Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari

Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari:

- Shartnoma va bitimlarda mustahkamlangan qabilalararo huquq me'yorlarini tan olish;
- Urf-odatlarini xalqaro huquqning asosiy manbai deb hisoblash;
- Davlatlararo munosabatlarning mintaqaviyligi;
- O'zaro aloqalarda diniy me'yorlarning kuchliligi;
- Munosabatlarning o'z-o'zidan (stixiyali) paydo bo'lishi va rasman belgilangan tartib-qoidalarining mavjud emasligi;
- Xalqaro munosabatlarning asosiy subyektlari davlatlar emas, balki ularning hukmdorlari bo'lishligi.

Qadimgi Sharqdagi davlatlar – Misr, Mesopotamiya davlatlari, Xett podsholigi, Ossuriya va Fors podsholigi, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Hindistondagi davlatlar tashqi siyosatda harbiy kuchga tayanganlar. Bunda ular, asosan, hududlarni bosib olish, qullarni qo'lga kiritish, chorva mollarini talash uchun urush olib borganlar. Xalqaro muammolar harbiy kuch bilan hal etilgan. Lekin, shu bilan birga, diplomatik faoliyat turi ham jonlana boshlangan. Diplomatiya munosabatlar hukmdor nomidan olib borilgan. Xalqaro munosabatlar tarixida eng qadimgi shartnomalardan biri mil. avv. 3100-yilda Mesopotamiya nom (shahar-davlat)lari Umma va Lagash o'rtasida tuzilgan bo'lib, unda davlat chegaralari belgilangan, agarda biror-bir

bahs-munozara paydo bo'lsa, hakamlik sudi orqali hal qilishlik ta'kidlangan⁶.

Sharqning harbiy-teokratik hukmdorlari bosqinchilikka asoslangan diplomatiyasi bir qancha masalalarni hal qilish imkonini bergan. Ana shunday bir vaziyatda shartnomalarning bir qancha turlari, xalqaro masalalarni hal qilish uchun qo'shni mamlakatlarga elchilar jo'natish va harbiy-siyosiy josuslik (razvedka) paydo bo'la boshladi.

Yunon shahar-davlat ("polis")lari tashqi siyosatidagi asosiy vazifalar hududini kengaytirish, ko'proq qullarga ega bo'lish, bozorlarni egallash bo'lgan. Bundan tashqari, gegemonlikka, mustamlaka (koloniya)larga ega bo'lish, davlatning tashqi xavfsizligini ta'minlash, ittifoqchi izlash va harbiy ittifoqlar tuzish kabi iqtisodiy-siyosiy maqsadlar bo'lgan. Shunday qilib, diplomatiyaning usul va vositalari doimiy ravishda rivojlanib borgan.

Elchilik tarkibi har xil bo'lib, o'sha vaqtdagi muammoning ko'lamiga bog'liq edi. Elchilikdagi barcha a'zolarining huquqlari bir xil bo'lgan. Keyinchalik elchilik hay'ati (missiyasi)ga boshchilik qiladigan "oqsoqol" tayinlanadigan bo'ldi. Elchilik ha'yati o'zi bilan ikki joyiga mum surtilib, so'rg'ichlangan yorliq (δίπλωματα) bilan kelgan. Diplomat atamasi yunoncha yorliq atamasidan kelib chiqqan.

Klassik Yunonistonda diplomatik faoliyat yunon-fors urushlari, Afina va Peloponnes ittifoqi o'rtasida Ellin dunyosiga gegemonlik uchun kurash, keyinchalik esa Makedoniyaning umumiy yunon hududida gegemonlik va Sharqni bosib olish uchun kurashi natijasida yanada rivojlandi.

G'arbda esa Rim respublikasi davrida Puni urushlari va Sharqdagi ellin hukmdorlari bilan kurash natijasida diplomatik aloqalar faollashgan.

Rim Imperiyasi tashqi siyosatida asosiy maqsad davlatni mustahkamlash va hududini kengaytirish bo'lib, atrofidagi hududlarni qo'shib olish hamda chegaralarni qo'shni xalqlar hujumlaridan mudofaa qilish edi. Imperiyaning dastlabki asrida bosqinchilik siyosati va shunga mos ravishda diplomatik siyosat ustunlik qilgan. Keyinchalik esa Imperiya o'z hududini himoya qilish siyosatiga o'tishga majbur bo'lgan.

Rim imperatori tashqi siyosatni o'zining maxsus devonxona (kanselyariya)si orqali olib borgan. Imperiyaning so'nggi davridagi

⁶ <https://www.litres.ru/vyacheslav-scherbako/istoriya-mezhdunarodnyh-otnosheniy-ot-drevnosti-do-so/chitat-onlayn/>

diplomatik faoliyatida Fors podsholigi va varvar davlatlarining ta'siri kuchaygan.

Xitoy va Hindistonda diplomatik munosabatlarning boshlanishi bu hududlarda qadimgi davlatlarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Qadimgi hind va xitoy sivilizatsiyasi o'zaro elchilik aloqalarda yozma shartnomalar, bir hukmdorning ikkinchi hukmdorga murojaati, elchilik vakolatini isbotlaydigan yozuv yoki moddiy narsalar, elchilarning o'z missiyalarini bajarganligi haqidagi hisobotlar ko'rinishida rivojlangan. Diplomatik muzokara davomida o'ziga xos etiket (odob-axloq qoida)lar shakllana boshlagan.

Xitoy va Hindiston elchilarining faoliyatlari mamlakatlaridan uzoqda shakllangan. Hindistondagi Mauri va Kushon hukmdorlari Markaziy Osiyo davlatlari, Misr, Suriya, Makedoniya kabi mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaganlar. Hatto, hind elchisining Rimga kelganligi haqida manbalarda ma'lumotlar mavjud.

Xan sulolasi (mil. avv. 206 – mil. 220-yy.)ga mansub Xitoy imperatorlari Eron podsholari, Markaziy Osiyo hukmdorlari, Markaziy Osiyodagi ko'chmanchi qabila birlashmalarining yetakchilari, Koreya hukmdorlari, janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari va Yapon davlati bilan diplomatik munosabatlar olib borganlar.

Xitoy hukmdorlari tashqi shartnomalar tuzishda o'zlarining xohishlarini amalga oshirish yo'lida davlatlar o'rtasida o'zaro nizo chiqarishga harakat qilganlar. Xitoy hukmdorlari, hatto, Rim Imperiyasi bilan ham diplomatik aloqalar o'rnatishga harakat qilganlar. Ammo, Parfiya davlatining qarshiligi tufayli bunday aloqa o'rnatilmay qolgan.

Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo hududlarida ham bir qator sivilizatsiyalashgan davlatlar paydo bo'ldi. Ammo, transport vositalarining soddaligi ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarning zaif va rivojlanmasdan qolishiga sabab bo'lgan. Mil. avv. I – mil. II asrning oxirigacha bo'lgan uch asr mobaynida Buyuk Ipak yo'li faol harakatda bo'lgan. Lekin, III asr boshlarida boshlangan ko'chmanchilar harakati tufayli ma'lum vaqtgacha faoliyatdan to'xtagan.

**Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya (Qadimgi Mesopotamiya, Qadimgi Misr, Xett podsholigi, Ossuriya davlati)
Qadimgi Mesopotamiya shahar-davlatlari o'rtasidagi
o'zaro munosabatlar**

Mil. avv. III–II ming yilliklardagi Mesopotamiyaning tashqi siyosiy tarixi, birinchi galda, Mesopotamiya ichkarisida mavjud bo'lgan shahar-davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tarixidir. Yozuv paydo bo'lmasdan oldingi davrning oxiri va ilk sulolalar davri boshida Mesopotamiyada yigirmaga yaqin “nom” turidagi shahar-davlatlar mavjud edi. Mesopotamiyada gegemonlik qilishga qaratilgan da'volar dastavval “Kish podshosi” unvoniga ega bo'lish bilan bog'liq edi. “Kish lugali” unvoni podsho gegemonligining an'anaviy unvoni bo'lib qoldi.

Mesopotamiyaning tashqi aloqalari, asosan, sharq tomon qaratilgan edi. Mil. avv. IV ming yillikda Mesopotamiya Eronning yassi tog'lik hududlari bilan savdo aloqalarini olib borgan.

Mil. avv. III ming yillikda Mesopotamiyaga keltirilgan mahsulotlarning aksariyat qismi aynan savdo orqali ta'minlanar edi. Bu esa tabiiyki, savdo almashinuvining yo'lga qo'yilgan tartibini nazarda tutardi. Qolversa, savdo karvonlarining erkin qatnovini ta'minlovchi o'zaro kafolatlar ham mavjud bo'lishi kerak edi. Kish hukmdori Menbaragessi (mil. avv. 2600-y.) ishtirokida bizga ma'lum bo'lgan harbiy to'qnashuvlardan eng qadimgisi Elam bilan bog'liq edi. Elam keyingi asrlar davomida Mesopotamiya davlatlarining eng xavfli dushmani bo'lib keldi. Mesopotamiya aynan shu paytda to'xtovsiz harbiy to'qnashuvlar davriga kirib borgandi. Kish hukmdorlaridan tashqari, Ur, Uruk, Lagash hukmdorlari ham o'zlarini “Kish podshosi” deb atay boshladilar. Akkad sulolalariga tegishli bo'lgan shohlar keyinchalik ushbu unvonni o'zlarining unvonlari qatoriga kiritdilar. Ikki yirik “nom”lar – Lagash va Umma o'rtasida ikki asrdan ko'proq vaqt davomida cho'zilgan to'qnashuvni hamda “Kish podshosi” Mesilimning ushbu nizoda o'ynagan rolini yoritib bergan bir qator matnlar bizgacha yetib kelgan. Shunday matnlardan birida Shumer oliy xudosi Enlil Lagash xudosi Ningursu va Umma xudosi Shara o'rtasida chegara o'rnatdi, ya'ni ular o'rtasidagi nizoni hal etdi. Shunday qilib, “nom”lar o'rtasidagi to'qnashuv ularning ilohalari o'rtasidagi nizo sifatida ifodalanadi va xudolar orasida hal etiladi. Demak, bizga ma'lum bo'lgan

eng qadimgi kelishuvlardan birida zamonaviy xalqaro-huquqiy amaliyotning ko‘plab elementlarini ko‘rishimiz mumkin⁷.

Butun Mesopotamiya hududlarini o‘z ichida qamrab olgan davlatni birinchi bor Sargon⁸ (mil. avv. 2316–2261-yy. hukmronlik qilgan) barpo etdi. Ushbu davlat o‘zining ichki tuzilishi jihatdan ham konfederatsiya, ham markazlashgan davlatni eslatadigan ko‘rinish kasb etgandi. Sargon tomonidan barpo etilgan davlat Osiyodagi birinchi “buyuk” davlat edi. Yaqin Sharqda esa – ikkinchi (Misrdan so‘ng) edi. Old Osiyodagi xalqaro vaziyat shahar-davlatlar ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid solgan “buyuk” davlat o‘rtasidagi qarama-qarshilik bilan ifodalanadi. Sharq (Elam) va G‘arb (Suriya)ga qaratilgan yurishlar endi Mesopotamiya uchun an‘anaviy tus oldi. “To‘rt iqlim podshosi” Naram-Sin (taxm. mil. avv. 2237–2200-yillarda hukmronlik qilgan) va elamliklar hukmdori Xit o‘rtasida bizga ma‘lum bo‘lgan birinchi xalqaro shartnoma qadimgi Elam davridan hozirgi kungacha yetib kelgan. Ushbu shartnomaga ko‘ra, Elam podshosining majburiyatlari quyidagilardan iborat edi:

- Akkadga nisbatan to‘la loyallik (samimiyat) (Elamda Naram-Singa nisbatan g‘animlikka yo‘l qo‘ymaslik, Akkadning har qanday dushmanlariga qarshi harakatlarda unga harbiy yordam ko‘rsatish);
- Qochoqlarni tutib berish, ya‘ni Naram-Singa dushmanlik qilganlarga panoj berishdan voz kechish⁹.

Ittifoqlar (teng huquqli yoki tengsiz) turli shartlar asosida tuzilardi. Agar ittifoq teng huquqli bo‘lmasa, unda gegemon podsho qaram podsholiklarga, ularni doimo nazorat qilish maqsadida o‘zining maslahatchi (xazianu)larini yuborardi. Qaram podsholar bunday ittifoqning rahbariga yuborgan maktublarida uni “ota” yoki “hukmdor” deb nomlashardi. Aftidan ularning majburiyatlari bitimlarda aniq belgilangan va birinchi galda harbiy yordam ko‘rsatishdan iborat edi. Ittifoq tuzilishi xudolar oldida qasam ichish bilan mustahkamlangan. Siyosiy maqsadlarga erishish yo‘lida harbiy kuch, ayyorlik, pora berib sotib olish, isyonlarni keltirib chiqarishdan foydalanilgan. Bobil podsholari ushbu usullarni muvaffaqiyatli tarzda qo‘llagan. Siyosiy maqsadlarga erishish yo‘lida iqtisodiy “yordam”dan foydalanilgan holat birinchi marotaba tarixda Mari va Bobil o‘rtasidagi munosabatlarda qayd etilgan.

⁷ <https://kitobsevar.uz/> Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (Ўқув қўлланма). – Тошкент: Тафаккур, 2009. – Б. 5-6.

⁸ Qarang: https://ru.wikipedia.org/wiki/Саргон_Древний.

⁹ <https://kitobsevar.uz/> Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (Ўқув қўлланма). – Тошкент: Тафаккур, 2009. – Б. 7.

Xammurapi (mil. avv. 1793–1750-yy.) barpo etgan davlat garchand ko‘p umr ko‘rmagan bo‘lsa ham butun Mesopotamiyani va, hattoki, Elamning bir qismini qamrab olgandi.

Mil. avv. II ming yillikning o‘rtalarida Yaqin Sharqda ma‘lum darajada bir-biriga teng hisoblangan bir necha “buyuk” davlatlar mavjud edi: Misr, Kassitlar Bobili, Shimoliy Mesopotamiyadagi Mitanni va Kichik Osiyodagi Xett podsholigi.

Suriya, Flastin, Shimoliy Mesopotamiya hamda Kichik Osiyodagi mayda podsholiklar yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan “buyuk” davlatlarga qaram bo‘lib kelganlar.

“Buyuk” davlatlar podsholari o‘zaro yozishmalar chog‘ida bir-birlariga “birodar” deb murojaat qilganlar. Muayyan munosabatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular, albatta, davr talabi va kuchlarning amaldagi nisbatiga asoslanardi. Misr malikasiga uylanish masalasiga Bobil hukmdorlari ulkan tashqi siyosiy obro‘ga ega bo‘lish imkoniyati sifatida qarardilar. Ammo, fir‘avnlr bunda nisbatan o‘zgacha fikrga ega edilar: ular bunday nikohni Misrning obro‘cini yerga uradigan deb hisoblardilar. O‘zaro sovg‘alar almashish diplomatik munosabatlarning muhim tarkibiy qismi edi¹⁰.

1933–1936-yillarda qadimgi Mesopotamiyadagi Mari davlatining poytaxti xarobalarida arxeologik qazishmalar chog‘ida katta ibodatxona, saroy va qadimgi hujjatlardan iborat arxiv topilgan. Arxivda saqlangan tarixiy matnlar orasida diplomatik hujjatlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu hujjatlar orasida Mari podshosi Zimri-Lim (taxm. mil. avv. 1774–1759-yy.) va Bobil podshosi Xammurapi o‘rtasida tuzilgan harbiy ittifoq haqida shartnoma diqqatga sazovordir. Kurda* taxtiga da‘vogarlardan biri o‘sha paytda Bobilda edi. Zimri-Lim Xammurapini qo‘llab-quvvatlashini ta‘minlash orqali undan yordam olishga harakat qilgan. An‘anaga ko‘ra, hukmronlikni yangi boshlagan, uzoq vaqt hukmronlik qilgan keksa hukmdorlarga alohida hurmat ko‘rsatgan, Zimri-Lim o‘z maktubida Xammurapini “ota” deb atagan va o‘zini “o‘g‘li” deb atagan. Ammo, bu shunchaki o‘tkinchi imtiyoz edi: keyinchalik Zimri-Lim o‘zini har doim Bobil shohi bilan teng deb hisoblardi va o‘sha davrning diplomatik tartiblariga ko‘ra, o‘zini “aka” deb atagan¹¹.

¹⁰ Ўша жойда. – Б. 8.

* **Kurda** – Qadimgi Mesopotamiyaning janubida yashagan amoriylar podsholigi (shahar-davlati). <https://ru.wikipedia.org/wiki/Kurda>

¹¹ Арслонзода Р. Архившунослик (маърузалар матни). – Фарғона. 2018. – Б. 12; https://ru.wikipedia.org/wiki/Зимри-Лим#Мари_и_Вавилон

Qadimgi Misrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi

Qadimgi Sharq tarixida saqlanib qolgan diplomatik xatlar, shartnomalar va boshqa xalqaro hujjatlar bizga o'sha davrda davlatlararo munosabatlarning qanday darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Qadimgi Sharqning eng yirik davlati bu Misr edi. Mil. avv. III ming yillikda Misr fir'avnlari qo'shni davlatlar bilan aloqalar o'rnatishga harakat qilganlar. VI sulola hukmdorlari (mil. avv. XXV asr) davrida misrliklar Qizil dengizning janubiy qismida joylashgan Punt mamlakatiga elchilik hay'atini jo'natganlar. Elchilar yerli qabilalar hukmdorlari bilan muzokaralar olib borganlar.

Mil. avv. II ming yillik boshlarida Misr hukmdorlarining qo'shni Osiyo davlatlari hukmdorlari bilan aloqalari jonlangan. Misr hukmdori saroyida Osiyo mamlakatlariga elchi sifatida jo'natiladigan maxsus choparlar guruhi tashkil topgan. Qadimgi Sharqda harbiy harakatlar boshlanishi oldidan diplomatik muzokaralar o'tkazish amaliyoti mavjud bo'lgan. Mil. avv. XVI asrda Misrning shimoliy qismini bosib olishga kirishgan giksoslar Fiva hukmdorlari oldiga bajarib bo'lmaydigan talablarni qo'ygan va talablar bajarilmagan taqdirda urush e'lon qilinishi haqida ogohlantirilgan. Bu xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta harbiy harakatlar oldidan qo'yilgan ultimatum edi.

Giksoslar hukmronligi davridagi Misrning davlat tuzumi turli shartnomalarning imzolanishini hamda giksos hukmdorlari va ularga qaram bo'lgan mahalliy hokimlar o'rtasidagi sulolaviy nikohlarning yuzaga kelishini rag'batlantirardi. Giksoslarga qarshi uzoq davom etgan ozodlik kurashi Fiva fir'avnlarning to'liq g'alabasi bilan yakunlandi.

Yangi podsholik davri (mil. avv. 1550–1069-yy.)¹² diplomatik munosabatlariga oid ko'plab ma'lumotlar beruvchi manbalar ichida Al-amarna arxivi o'zining boyligi bilan ajralib turadi. Bu arxiv Qadimgi Misr diplomatiyasining ayrim jihatlarini ochib beradi. Al-amarna arxivi¹³ 1887–1888-yillari qadimgi Axexaton shahri atrofidan topilgan bo'lib, 360 ta (ayrim ma'lumotlarda 382 ta) sopol taxtachaga yozilgan yozuvlardan iborat edi¹⁴. Mazkur yozuvlar, asosan, fir'avnga boshqa davlatlar hukmdorlari va qaram suriyalik qabilalar yetakchilaridan kelgan xatlar edi. Al-Amarna arxivining deyarli barcha sopol lavhalarida

¹² Qarang: https://ru.wikipedia.org/wiki/Новое_царство

¹³ Qarang: https://ru.wikipedia.org/wiki/Амарнский_архив

¹⁴ <https://www.rulit.me/books/istoriya-diplomatii-tom-1-read-385917-2.html>

* **Artsava** – hozirgi Anado'li (Turkiya)ning g'arb va janubiy-g'arbiy qismida mil.avv. XV asr oxiri – XII asrning boshlarida mavjud bo'lgan podsholik. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Арцава>

diplomatik tuzdagi xatlar qayd etilgan. Ushbu xatlar Amenxotep III va Amenxotep IV saroyiga Bobil, Mitani, Ossuriya, Xett podsholigi, Artsava* mamlakati, Kipr oroli hamda Misr tomonidan bo'ysundirilgan Falastin, Suriya, Finikiya shahar-davlatlari hukmdorlaridan kelgan. Bu davrda Misr Yaqin Sharqning eng qudratli davlatlaridan biri edi.

Al-Amarna arxivi hujjatlari ichida Misr fir'avni Ramzes II va Xett hukmdori Xattusili III o'rtasida mil. avv. 1278-yil (ayrim ma'lumotlarda: mil. avv. 1296-yilda deb berilgan – R.M.)¹⁵ da tuzilgan shartnoma matni ham mavjud. Shartnoma uzoq muddatli, lekin natijasiz urushdan so'ng abadiy tinchlik, do'stlik va birodarlik, hamkorlik, tajovuzdan o'zaro voz kechish, ittifoqchilik va biror-bir tomon harbiy tajovuzga uchraganda unga ko'maklashish, ichki tartibsizliklar yuzaga kelganda o'zaro yordam berish, qochoqlarni, oqsuyak yoki oddiy inson bo'lishidan qat'iy nazar, ularga muruvvatli munosabatda bo'lish sharti bilan qaytarib berish to'g'risida tuzilgan¹⁶.

Old Osiyoda Misr hokimiyati ostidagi yerlarni idora qilishga taalluqli masalalar bilan podshoning "Fir'avn maktublar uyi" nomli maxsus muassasa shug'ullangan. "Fir'avn maktublar uyi"ga rahbarlik qilgan amaldor juda katta ta'sirga ega bo'lgan. Ushbu shaxs Misrning Old Osiyodagi egaliklarini boshqaishga oid barcha masalalar bo'yicha fir'avnning maslahatchisi edi.

Misrliklar, odatda, zabt etilgan Old Osiyo viloyatlarining an'anaviy siyosiy tuzumini o'zgartirmaganlar. Fir'avn va Misrga qaram bo'lgan Falastin hamda Suriya hukmdorlari o'rtasidagi yozishmalarda murojaat qilishning ma'lum qoidalariga rioya qilingan. Teng huquqli va do'stona munosabatlarda bo'lgan podsholar bir-birlarini "birodar" deb ataganlar. Qudrat jihatdan ustunroq yoki yoshi kattaroq hukmdorga "ota" deb murojaat qilingan, o'zlarini esa "o'g'il" deya ataganlar. Qaram hokimliklar yuborgan xatlarida fir'avnni "hukmdor" (yoki "janob"), o'zlarini "qul", "qarol" (xizmatkor) deb nomlaganlar. Olqishlash, tabriklash kabi aloqa qilishning ma'lum shakllari mavjud bo'lgan. Qaram hokimlar o'zlarining tayinlanishi chog'ida hamda Misrda yangi hukmdorning hukmronligi boshlanganda, maxsus qoida (formula) bo'yicha sodiqlik qasamini ichishi lozim edi. Garovga olish mahalliy hokimni itoatkorlikda saqlab kelishga va bo'ysundirilgan yerlarda Misrning ta'sirini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim vosita edi.

¹⁵ История дипломатии. Том I. Москва: Огиз-Соцэжгиз, 1940. – С. 20.

¹⁶ <https://kitobsevar.uz/> Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (Ўқув қўлланма). – Тошкент: Тафаккур, 2009. – Б. 12.

Al-Amarna arxivida saqlangan xatlarning aksariyatini Misrga maxsus elchi va choparlar yetkazganlar. Elchi va choparlarni ikki toifaga bo'lish mumkin:

- alohida ishonchga ega bo'lgan shaxslar, ular vositasida fir'avnlarning mustaqil davlatlar podsholari bilan munosabatlarni ta'minlagan;
- mansabdor xizmatchilar, ular orqali esa Misr saroyining noiblari hamda Falastin, Suriya va Finikiyada joylashgan ko'plab shahar-davlatlarning hokimlari bilan aloqalari amalga oshirilgan¹⁷.

Ham fir'avning, ham Osiyo hukmdorlarining har bir elchisi u yuborilgan mamlakatni, uning urf-odatlarini, madaniyati, yo'llari, geografik xususiyatlarini yaxshi bilishi lozim edi. U mohir diplomat va jangchi bo'lishi shart edi. Ko'p hollarda elchi yuborilgan mamlakatning tilini ham yaxshi bilardi, aks holda tarjimon unga hamkorlik qilgan.

Elchining shaxsiy daxlsizligi, diplomatik immunitet to'g'risidagi tasavvur hali xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan me'yorlariga aylanmagan edi. Shuning uchun ham, u yoki, bu podshoning huzuriga kelgan elchining taqdiri hukmdorning to'la ixtiyorida bo'lgan.

Xett podsholigida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Kichik Osiyo yerlarining katta qismida tashkil topgan va mil. avv. XVII–XII asrlar davomida mavjud bo'lgan Xett podsholigi (yoki Xatti mamlakati) Qadimgi Sharqning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan.

Xetlar poytaxti bo'lgan Xattusa shahri arxivlaridan topilgan mixxat bilan yozilgan sopol parchalari ushbu podsholik diplomatiyasi tarixiga oid asosiy manbalar hisoblanadi.

Xett davlati faol tashqi siyosati Qadimgi podsholikning ilk hukmdorlari davrida boshlangan. Xetlar “dengizdan dengizgacha yoyilgan mamlakat” konsepsiyasi asosida tashqi siyosat olib borganlar. Ular qudratli harbiy kuch tufayli tashqi siyosatda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Xett hukmdorlari diplomatik hujjatlar – shartnomalar orqali o'z mavqelarini mustahkamlaganlar. Shartnomalarda davlatlar o'rtasidagi chegaralar kelishib olingan, ularni buzmaslik, bironing hududida yangi shaharlarga asos solmaslik va biror tomonning shunga o'xshash urinishlariga yo'l qo'ymaslik kabi majburiyatlar belgilangan. Qaram bo'lgan podshoga uchinchi tomon bilan ittifoq tuzish man etilgan. Xett podshosi urushga kirgan paytda u bilan shartnoma tuzgan tomonning “betarafligi” yoki xetlar dushmani

¹⁷ Ўша жойда. – Б. 11.

bilan maxfiy aloqalarda bo‘lganligi g‘animlik harakati deb baholangan. Shartnomalarning ko‘plab moddalari ichki va tashqi dushmanlarning har qanday tajovuzlariga qarshi birgalikda kurashishga bag‘ishlangan. Birinchi da‘vatning o‘zida kontragent (shartnoma tuzgan har ikki tomonning biri – R.M.) o‘zining qo‘shinlari bilan yordamga kelishi lozim bo‘lgan. Shartnomaning ayrim bandlari faqat bir tomon uchun taalluqli bo‘lishi mumkin edi. Shartnomada ko‘zda tutilgan shartlarning to‘liq bajarilishi ustidan nazorat qilish asosiy guvoh – xudolar zimmasiga yuklangan.

Xett mamlakatining tashqi siyosatida sulolaviy nikoh muhim o‘rin egallagan. Xett podsholarining qizlariga bosh xotin, ya’ni mamlakat malikasi maqomini kafolatlovchi shartlar ilgari surilgan. Xettlarning sulolaviy nikohlariga oid qarash (konsepsiya)lari aynan shunda o‘z ifodasini topgan.

Xett podsholigining tashqi siyosatida elchilar, vakillar, choparlar va boshqalar muhim rol o‘ynagan. Xett an’analarida diplomatik elchilik vazifasini ado etuvchi mansabdor shaxs – “aso odami” (gerold) unvoniga ega bo‘lgan inson uchraydi. Ushbu daraja elchi va vakil darajasidan yuqori hisoblangan, chunki “aso odami” unvoniga ko‘p hollarda podsho urug‘lariga a’zo bo‘lgan amaldorlar ega edi.

Hukmdorlarning diplomatik munosabatlarida mirzalar (kotiblar) muhim rol o‘ynagan. Aynan ular nafaqat o‘z hukmdorining ko‘rsatmalariga, balki, birinchi galda xettlarning o‘zida shakllangan mezonlarga tayanib shartnomalar va xatlarning matnlarini tayyorlaganlar. Xett jamiyatining talablaridan kelib chiqib, mirzalar bir necha tillarni bilishlari lozim edi. Ular maxsus mirzalik maktablarida ta’lim olganlar.

Xett davlatida diplomatik munosabatlarni o‘rganishda 1906–1907-yillarda Bogazko‘y (Turkiya)dan topilgan va 20 ming mixxat hujjatdan iborat arxiv katta ahamiyatga egadir¹⁸.

Ossuriya davlatida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Keyingi yuz yilliklarda Misr va Xett podsholiklari kuchsizlanib, Sharqdagi hukmronlik mavqealarini yo‘qota boshladilar. Old Osiyoda yetakchilik mavqei Ossuriya (poytaxti – Ashshur, Nineviya) qo‘liga o‘tadi. Bu davlat mil. avv. 2400–605-yillarda mavjud bo‘lgan.

¹⁸ Арслонзода Р. Архившунослик (маърузалар матни). – Фарғона. 2018. – Б. 12.; https://ru.wikipedia.org/wiki/Богазкёйский_архив

Al-amarna arxivi hujjatlarida Ossuriya elchisining Misrga kelishi haqidagi ma'lumot uchraydi. Amenxotep IV Ossuriya elchisini qabul qilgan.

Ossuriya Sargoniylar – Sargon II (taxm. mil. avv. 722–705-yillar), Sinaxxerib (taxm. mil. avv. 705–681-yillar), Assarxaddon (taxm. mil. avv. 680–669-yillar) va Ashshurbanipal (yoki Ashshurbanapal, taxm. mil. avv. 669–627-yillar)lar hukmronligi davrida, ya'ni mil. avv. VIII–VII asrlar eng qudratli davlatga aylanadi. Sargoniylar davrida qo'shin kuchaytirilib, keng miqyosda bosqinchilik siyosatini amalga oshirganlar. Ossuriya hukmdorlari o'z tashqi siyosatlarida hosildor hududlar va metall konlarini bosib olishga, boyliklar va qullar sonini ko'paytirishga, savdo yo'llari ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatishga harakat qilganlar. O'sha davrda ushbu geografik hududdan ikkita savdo yo'li o'tgan edi:

- O'rta Yer dengizidan Mesopotamiyaga, u yerdan sharqiy hududlarga;
- Mesopotamiyadan janubiy-g'arbga, Suriya-Falastin hududlariga, u yerdan esa Misrga ketar edi.

Fors podsholigi kuchaygunga qadar Ossuriya Qadimgi Sharqdagi eng kuchli Imperiya hisoblangan. Uning geografik o'rni doimiy ravishda qo'shni davlatlar bilan tinimsiz urushlar olib borishga, harbiy sohada yangi texnikalar va diplomatik sohada yangi usullarni qo'llashga sabab bo'lar edi.

Ossuriyaning bosqinchilik tashqi siyosati uning atrofidagi davlatlarning umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurash boshlashiga sabab bo'ldi. Ossuriyaga qarshi uchta katta ittifoq (koalitsiya) vujudga keldi:

- Misr boshchiligidagi janubiy-g'arbiy ittifoq;
- janubiy-sharqdagi Elam;
- shimoldagi Urartu davlati edi¹⁹.

Lekin bu ittifoqlar zaif bo'lib, Ossuriyaning g'alaba qozonishiga qarshilik qila olmadilar. Mil. avv. VIII asr oxirida Sargon II Falastinda Misr fir'avni boshchiligidagi ittifoqchilarni mag'lubiyatga uchratdi. Keyin sharqdagi Elam–Xaldey ittifoqiga qarshi kurash boshladi. Ossuriya hukmdori Xaldey shaharlari erkinligini himoya qiluvchi sifatida maydonga chiqdi. Natijada Xaldey shaharlari o'zlarining erkinliklarini qo'lga kiritdilar, Sargon II esa o'zini Bobil podshosi deb

¹⁹ <https://www.rulit.me/books/istoriya-diplomatii-tom-1-read-385917-4.html>

e'lon qildi. Shunday qilib, Ossuriya va Bobil ma'lum bir vaqtga birlashtirildi, Ossuriya esa siyosiy gegemonlikni qo'lga kiritdi.

Ossuriyaga qarshi uchinchi ittifoqqa Urartu boshchilik qilar edi. Urartu davlati o'zining metall buyumlari, murakkab sug'orish inshootlari, chorvasining mo'lligi va mevali bog'larga boyligi bilan shuhrat qozongan edi. Urartlar tog'li hududlar va daryo bo'ylarida mahalliy vakillar tomonidan boshqariladigan kichik hokimliklar tuzgan edilar. Keyinchalik bu hokimliklar siyosiy jihatdan birlashib, Ossuriya uchun xavfli dushmanga aylangan edi.

Uzoq inqirozdan keyin tiklangan Misr Ossuriyaning yana xavfli raqibiga aylanadi. Ayni paytda Sharqda Ossuriyaga qarshi yana bir ittifoq vujudga keladi. Bu ittifoqning markazlari Elam va Bobil edi. Chunki, bir paytlar birlashgan Ossuriya–Bobil ittifoqi mustahkam bo'lib chiqmadi. Mil. avv. 689-yilda Ossuriyaliklar Bobil shahrini qaytadan ishg'ol etganlar.

Ossuriyaning so'nggi afsonaviy hukmdori Ashshurbanipal davrida mamlakatga qarshi kuchlar bilan to'xtovsiz kurash olib borishga to'g'ri keldi. Ayniqsa, Misr bilan kurash nihoyatda og'ir kechgan.

Ashshurbanipal Misr bilan kelishuvdan mahrum bo'lgach, asosiy e'tiborini Elam va Bobilga qaratadi. Qadimgi savdo va madaniy markaz hisoblangan Bobilning bosib olinishi Ossuriya hukmdorlariga Misr va Elam hududlari bilan bog'lanish imkonini beradi.

Ashshurbanipal davrida Bobil hokimi sifatida ukasi Shamash-Shumukin qo'yilgan edi. Ammo, u akasiga xiyonat qilib, mustaqilligini e'lon qiladi. Bobil shahridan atrofdagi mamlakatlarga Ossuriyaga qarshi umumiy ittifoq tuzish taklifi bilan elchilar yuboriladi. Shamash-Shumukin taklifiga Misrdan Fors qo'ltig'igacha bo'lgan hududlardan ijobiy javoblar olinadi.

Misrliklardan tashqari, bu ittifoqqa midiyaliklar, elamiylar, Finikiya shahar-davlatlari, Lidiya podsholigi va arab qabilalari ham qo'shiladilar. Ashshurbanipal Shamash-Shumukinning harbiy tayyorgarligi haqida xabar topgach, uni isyonchi deb e'lon qiladi va unga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Shunda bobilliklar Shamash-Shumukindan yuz o'girib, Ashshurbanipal tarafga o'tganlar. Bobilning Ashshurbanipal bilan ittifoqi Shamash-Shumukin boshchiligidagi ittifoqqa qattiq zarba bergan²⁰.

Shamash-Shumukinning halokatidan keyin ko'plab bobilliklar qo'shni Elam davlatiga qochib o'tganlar. Natijada Elam Ossuriyaga

²⁰ <https://www.rulit.me/books/istoriya-diplomatii-tom-1-read-385917-4.html>

qarshi ittifoqchilar markaziga aylanadi. Bu voqelik Ossuriya podshosining noroziligiga sabab bo‘ladi va u Elamga qarshi tezlik bilan harbiy harakatlarni boshlaydi. Ashshurbanipal vaqtdan yutish maqsadida Elamga elchi yuborib, darhol qochoqlarni qaytarishni talab qiladi. Elamlilarga qo‘yilgan talab nihoyatda qat‘iy bo‘lgan: “Agar sen men talab qilgan odamlarni bermasang, men sening yurtingga boraman, shaharlaringni vayron qilaman va odamlaringni qul qilib olib ketaman, seni taxtdan ag‘darib, o‘rningga boshqasini qo‘yaman”. Elam hukmdori Indabigas qochoqlarni qaytarishga qarshilik qiladi. Shundan so‘ng ko‘p o‘tmasdan, Indabigas o‘zining harbiy sarkardalaridan biri tarafidan o‘ldiriladi va xoin sarkarda Ummalxaldesh o‘zini podsho deb e‘lon qiladi. Lekin, Ummalxaldesh ham Ashshurbanipalning ishonchini oqlay olmaydi va mil. avv. 642-yilda u ham o‘ldiriladi. Elam vayrona bir o‘lkaga aylanadi. Ashshurbanipal yana bir qancha janglardan so‘ng, Elam poytaxti Suzani ishg‘ol qiladi. Shundan so‘ng, Elam o‘zining siyosiy mustaqilligini yo‘qotib, Ossuriya tarkibiga kiritiladi²¹.

Ashshurbanipal davrida Ossuriya o‘z rivojining cho‘qqisiga erishgan bo‘lib, Yaqin va O‘rta Sharqda muhim rol o‘ynagan davlatga aylangan. Uning davrida Ossuriyaning hududi Urartu tog‘laridan Nubiya chegaralarigacha, Kipr va Kilikiyadan Elamning sharqiy chegaralarigacha cho‘zilgan edi. Shunga qaramasdan, Ossuriya inqirozga uchray boshlaydi. Inqirozning belgilari Ashshurbanipal davridayoq ko‘rina boshlagan. Tinimsiz urushlar ilk sabablardan biri edi. Shimol va janubdan kelayotgan yangi xalqlar ham Ossuriyaning holatini og‘irlashtirdi. Ossuriya bu siquvga bardosh bera olmadi va Sharqdagi yetakchilik mavqeidan mahrum bo‘ladi.

Mil. avv. VI asrda tarix sahnasiga yangi davlat Oldi Osiyoni, hatto Misrni ham birlashtirgan Fors podsholigi chiqadi. Ahamoniylar davrida Fors davlati o‘sha davrda mavjud bo‘lgan Osiyo hukmdorlari g‘arbiy va sharqiy yo‘nalishlarda bo‘ysundirgan hududlardan ham kengroq hududlarga yoyilgan.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro munosabatlar tarixida davlat chegaralari masalasidagi dastlabki shartnoma qaysi qadimgi davlatlar o‘rtasida tuzilgan?
2. “Buyuk” davlatlar podsholari o‘zaro yozishmalar chog‘ida birbirlariga nisbatan qanday murojaat qilishgan?

²¹[https://ru.wikipedia.org/wiki/ Элам#Новоэламская_династия](https://ru.wikipedia.org/wiki/Элам#Новоэламская_династия)

3. Qadimgi Misr elchilari tarixda ilk bor qaysi davlat bilan o‘zaro munosabat o‘rnatgan?
4. Misr va Xett davlatlari o‘rtasida tuzilgan shartnoma matni qaysi yodgorlikdan topilgan?
5. Kotragen so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?
6. Qadimgi “Shoh yo‘liqaysi hududlarni bir-biri bilan bog‘lagan?
7. “Lugal” so‘zining ma‘nosi nima va bu so‘z kimga nisbatan ishlatilgan?

2-mavzu: Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi (2-qism)

Reja

- 1. Qadimgi Hindiston va Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya**
- 2. Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlarida xalqaro munosabatlar**

Tayanch iboralar: *“Manu”, “Artxashastra”, mandala, duta, van, xuasya, “o‘rtadagi podsholiklar”, “vertikal bo‘yicha ittifoqlar”, “gorizontal bo‘yicha ittifoqlar”, muxtor elchi, yuyshi, “szun xen” maktabi, “teng davlatlar” konsepsiyasi.*

Qadimgi Hindiston va Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Qadimgi Hindiston xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Mil. avv. I ming yillikning dastlabki choragida Shimoliy Hindistonda ilk davlatlar shakllanib bordi, ammo manbalarning taqchilligi tufayli davlatlararo munosabatlarning to‘liq manzarasini ochish imkonini bermaydi. Hindiston shimolida davlatlararo munosabatlar to‘g‘risidagi ayrim ma‘lumotlar Aleksandr Makedonskiyning Hindistonga yurishi haqidagi yozma manbalarda uchraydi.

Qadimgi Hindiston diplomatiyasi haqidagi ayrim qiziqarli ma‘lumotlar qadimgi hind qonunlari to‘plami “Manu”²²da keltirilgan. Manu qonunlarining asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Ushbu qonunlarning bizgacha yetib kelgan qismi mil. avv. I asrga oid bo‘lib, she‘riy shaklda yozilgan. Ushbu qonunlar to‘plami sanskrit tilida yozilgan va dastlab XVIII asrda ommaga e‘lon qilingan. XIX–XX asrlar mobaynida bir qancha tillarga tarjima qilingan.

Manu qonunlarida mil. avv. I ming yillikdagi hindlarning ijtimoiy-siyosiy tizimi, xalqaro aloqalari, savdosi va harbiy sohasiga oid ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan. Manu qonunlari falsafiy fikrlar to‘plami bo‘lib, uning tashqi siyosatga oid bo‘limida diplomatik san‘atning asosiy vazifasi, asosan, urushning oldini olish va tinchlikni saqlash ekanligi ta‘kidlangan. Tinchlik va urush masalasi diplomatlarga bog‘liq bo‘lib,

²²Дипломат и дипломатия по учению Ману (I тысячелетие до нашей эры). <https://history.wikireading.ru/159193>

ular ittifoqchilar o'rtasida janjallar uyushtirsa urush kelib chiqadi, deb hisoblangan.

Manu qonunlariga ko'ra, diplomat, asosan, o'z hukmdorining buyruqlarini bajarsa-da, elchilikka borgan davlat hukmdorining istaklarini ham hisobga olishga majbur. Shu bilan birga, u o'z davlatini har qanday hiylalardan saqlashi lozim. Shuning uchun, diplomat ziyrak, har tomonlama bilimli, o'ziga murojaat qilgan kishilar bilan munosabatda nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi kerak. Elchi qo'shni davlat hukmdorining nafaqat so'zlari va harakatlaridan, balki yuz ifodasidan ham uning maqsadlarini ochiq o'qiy olishi lozim edi.

Davlat rahbari elchilarni juda ehtiyotkorlik bilan tanlagan. Diplomat yoshi ulug', hurmatga sazovor, aqlli, shirin so'zli, o'z vazifasiga sodiq, to'g'riso'z, ustasi farang, o'tkir xotirali, qayerda va nima qilishni biladigan shaxs bo'lishi lozim edi²³. Davlatlar o'rtasidagi eng murakkab masalalar diplomatik yo'l bilan echilishi kerak edi. Kuch ishlatish ikkinchi darajali masala, deb qaralgan. Manu qonunlarida diplomatiyaga qo'yilgan talablar ana shulardan iborat bo'lgan²⁴.

Qadimgi hind tashqi siyosat nazariyasi bo'yicha yana bir asosiy manba mil. I asrga oid Kautilyaning "Artxashastra" nomli falsafiy asari hisoblanadi. Asarda davlat tuzilishi, ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi, sud ishlari, harbiy va diplomatik san'at bo'yicha ma'lumotlar mavjud.

Nitishastra – "Artxashastra"ning bir qismi bo'lib, u, asosan podsholarga axloqiy nasihatlar, shuningdek, ichki va tashqi siyosatga oid maslahatlardan iborat.

Qadimgi Hindistonda davlatlararo munosabatlar nazariyasining asosida mandala ("doira", odatda "davlat doirasi") konsepsiyasi yotadi.

Mandala – bu tashqi siyosatga oid muayyan harakatlar va chora-tadbirlar majmui bo'lib, buyuk davlat (va u oxir-oqibat "jahon saltanati" – R.M.) barpo etish tashqi siyosatning oxirgi maqsadi, deb hisoblangan. Mandala tushunchasi bilan bir qatorda qadimgi hind siyosiy nazariyasida "yetti xadli (a'zoli) davlat" konsepsiyasi muhim o'rin egallaydi. Uning asosiy tarkibiy qism (element)lari quyidagilardan iborat:

- podsho;
- vazirlar;
- shahar-qal'alar;
- qishloq yerlari;

²³ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэ́гиз, 1940. – С. 20.; <https://www.litres.ru/vyacheslav-scherbako/istoriya-mezhdunarodnyh-otnosheniy-ot-drevnosti-do-so/chitat-onlayn/>

²⁴ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэ́гиз, 1940. – С. 33-34.; <https://www.litres.ru/vyacheslav-scherbako/istoriya-mezhdunarodnyh-otnosheniy-ot-drevnosti-do-so/chitat-onlayn/>

- xazina;
- qo‘shin va ittifoqchilar²⁵.

“Artxashastra”da “qo‘shinlar” va “ittifoqchilar” tavsifi tez-tez tilga olinadi, chunki davlatlararo munosabatlarda aynan shularning ahamiyati kattadir. “Artxashastra”ga binoan, ittifoqchining asosiy xususiyati – foyda keltirish, eng yaxshi fazilati – itoatkorlik edi. Siyosat san’atini egallagan podsho, birinchi galda shartnomalarning murakkab tizimiga tayanib, yakka hokimlik intilishi lozim. Har xil tinchlik bitimlari siyosatning eng birinchi va muhim vositasi sifatida nazarda tutilgan. Tinchlikka erishish faqatgina kuchliroq dushman ustidan g‘olib chiqishning eng yaxshi vositasi sifatida tavsiya etiladi. Murosai madora munosabati bilan “siyosatning to‘rt usuli” ham tilga olinadi:

- o‘g‘itlar, pand-nasihatlar;
- sovg‘alar;
- nizo urug‘ini sepmaq;
- kuch ishlatish.

Ushbu usullar dushmanga nisbatan ochiqdan-ochiq kuch bilan qarshilik qilishga ojiz bo‘lgan zaif podsholarga tavsiya etiladi²⁶.

“Artxashastra”da diplomatik tUSDagi turli xil shartnomalar ta’rifiga ham katta e’tibor qaratilgan. Ular orasida teng huquqli va tengsizlari, foydali va foydasizlari, shartlari mavjud va shartlari yo‘q shartnomalar alohida belgilab ko‘rsatilgan. Tashqi siyosatning an’anaviy usullari orasida ahamiyati jihatidan ikkinchi o‘rinda urush turadi. Urush barcha usullardan foydalanib bo‘lgandan keyingina, oxirgi vosita sifatida ko‘rilgan. Podshoga g‘alabalarga jangsiz erishish tavsiya qilingan, chunki tinch yo‘l bilan bo‘ysundirish kamroq kuch va xarajatni talab qiladi.

Kautiliyaning “Artxashastra”sida maxsus bob elchi (chopar)larning vazifalariga, turkumlariga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, chopar “duta” deb atalgan va quyidagicha tavsif berilgan:

- muxtor^{*} ;
- cheklangan vakolatlarga ega;
- chopar (maktublar yetkazuvchi).

²⁵<https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnye-otnosheniya-i-diplomatiya-v-traditsii-drevneindiyskoy-politicheskoy-mysli/viewer>

²⁶<https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnye-otnosheniya-i-diplomatiya-v-traditsii-drevneindiyskoy-politicheskoy-mysli/viewer>

* **МУХТОР** (араб. сайланган, танлаб олинган, ихтиёри ўзида) – Бирор иш қилиш ҳуқуқи бўлган, ихтиёрига бирор иш топширилган. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент. 2006. Т. 2. – Б. 657.

“Artxashastra”da diplomatik tUSDagi yozishmalarning shakl (formulyar)lari ham berilgan²⁷.

Hind hukmdorlari elchilardan josuslik maqsadlarida ham foydalanganlar.

Qadimgi Hindiston siyosiy tarixini mil. avv. I ming yillik o‘rtalarida paydo bo‘lgan yozma manbalar asosida o‘rganish mumkin. Taxminan mil. avv. VI asrda Shimoliy Hindistonda bir necha davlatlar mavjud bo‘lgan. Ular orasida eng ko‘zga ko‘ringanlari Magadxa (poytaxti – Radjargxa (hozirgi Radjgir)) va Koshala (poytaxti – Shravasti (hozirgi Savattxi)) podsholiklari edi. Magatxa podsholigi Gang daryosining o‘rta oqimida, Koshala podsholigi esa Magadxadan shimoliy-g‘arbda joylashgan edi. Bu ikki davlat mil. avv. VI–V asrlar mobaynida Shimoliy Hindiston hududlarida gegemonlikka erishish uchun o‘zaro kurash olib bordilar.

Mil. avv. V asrda Magadxa podsholigi Shimoliy Hindistonda eng kuchli davlatga aylanadi. Mil. avv. IV asrda Koshala podsholigini mag‘lubiyatga uchratadi va Ganga bilan Himolay tog‘lari o‘rtasidagi juda katta hududlarni o‘z davlatiga qo‘shib oladi. Bu davr Magadxa davlatining vaqtinchalik gullab-yashnagan davri edi²⁸. Keyinchalik uning o‘rnida Mauriya davlati vujudga keldi.

Qadimgi Mauriya davlati (mil. avv. 322–187-yillar)ning asoschisi Chandragupta (mil. avv. 322–298-yy.) Aleksandr Makedonskiyning vorislaridan biri Salavka bilan o‘ziga qulay bo‘lgan shartlar asosida sulh tuzishga muvaffaq bo‘lgan²⁹. Chandragupta Salavkaga 500 ta fil berish evaziga Eronning janubiy-sharqdagi tog‘li hududlarini qo‘lga kiritgan. Salavka va Chandragupta o‘rtasida bir necha marta elchilik almashadi va ittifoqni mustahkamlash maqsadida Chandragupta Salavkaning qiziga uylanadi. Salavkaning Hindistonga jo‘natgan elchilaridan biri Megasfen edi. Megasfen qadimgi Hindiston poytaxtida bo‘lib, u haqidagi xotiralarini yozib qoldirgan. Uning xotiralari Strabonning asarlarida saqlanib qolgan.

Ellin davlatlari va Hindiston o‘rtasidagi diplomatik aloqalar mil. avv. III asrda ham davom etgan. Chandraguptaning nevarasi Ashoka (mil. avv. 273–232-yy.) davrida esa hind elchilari nafaqat Salavkiylar davlati, hatto Makedoniyaga ham yetib borganlar. Bu haqda Ashokaning toshga o‘yib yozilgan farmonlari xabar beradi. Bu farmonlarda uning

²⁷<https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnye-otnosheniya-i-diplomatiya-v-traditsii-drevneindiyskoy-politicheskoy-mysli/viewer>

²⁸<http://historic.ru/books/item/f00/s00/z0000054/st205.shtml>

²⁹<http://historic.ru/books/item/f00/s00/z0000054/st205.shtml>

siyosati va yutuqlari ko'rsatilgan. Farmonlar qadimgi prakrit (o'rta hind tili va shevasi)da yozilgan, ulardan faqat ikkitasi yunon, bittasi yunon va oromiy tilida yozilgan. Ashoka farmonlarida yunonlar, kambodjaliklar va gandarlar uning Imperiyasi chegaralarida yashovchi xalqlar sifatida ta'kidlanadi. Shuningdek, farmonlar Ashokaning O'rta Yer dengizigacha bo'lgan yunon hukmdorlariga elchilar yuborganligidan guvohlik beradi. Farmonlarda Amtiyoka (Antioxiya), Tulamaya (Ptolomey), Amtikini (Antigon), Maga (Magas) va Alikasudaro (Aleksandr) kabi yunon dunyosi hukmdorlarining nomlari aniq keltiriladi³⁰.

Strabon mil. I-II asrlarda Hindistonda hukmronlik qilgan kushonlar elchilarining Rim imperiyasida bo'lganliklari haqida yozib qoldirgan. Trayan davri (mil. 100-yil)da Rimga hind elchilarining kelganliklari ham manbalarda yozib qoldirilgan.

Qadimgi Xitoyda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida Xuanxe daryosining o'rta oqimida Shan davlati mavjud edi va uning ta'siri Xitoydagi ilk davlatchilik tuzilmalariga hamda qabilaviy uyushmalarga yoyilgandi. Mil. avv. II ming yillikning oxirida Xitoyning shimoliy-g'arbiy qismida istiqomat qilgan chjou qabilalari shanliklarni zabt etadi va G'arbiy Chjou nomi bilan ma'lum bo'lgan yirik davlatni barpo etadilar. Chjou davlatining poytaxti Xao shahridan Loi shahriga (hozirgi Loyan) ko'chirilishi bilan (mil. avv. 770-y.) Sharqiy Chjou podsholigi boshlanadi³¹.

Xuanxe daryosining o'rta oqimi va Buyuk Xitoy tekisligida joylashgan davlatlar qolgan barcha xalqlar va podsholiklardan farqli ravishda o'zlarini "o'rtadagi davlatlar" yoki "o'rta podsholiklar" deb nomlaganlar. "O'rta podsholiklar"ning barchasi Chjou davlatining ustunligini tan olgan. Chjou hukmdori "van" deb atalgan va ("Samo o'g'li") ilohiy unvonga ega edi. "O'rta podsholik"larning hukmdorlari esa, uni Xitoydagi oliy diniy nufuzga ega bo'lgan shaxs sifatida hurmat qilganlar.

Ushbu podsholiklar o'rtasida doimiy urushlar bo'lib turganligi bois davlatlararo munosabatlar, ular o'rtasida ittifoqlar tuzish tartibi, josuslik (razvedka)ni tashkil etish masalalariga oid boy amaliy tajriba asrlar davomida to'plangan. Shu paytda davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga taalluqli ta'limotlar va doktrinalar yaratildi. "O'rtadagi

³⁰ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Империя_Маурьев#Чандрагупта_Маурья](https://ru.wikipedia.org/wiki/Империя_Маурьев#Чандрагупта_Маурья)

³¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Чжоу](https://ru.wikipedia.org/wiki/Чжоу)

podsholik”lar – “xuasya” va “varvarlar”ning o‘xshash emasligi to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllandi va bu hol tashqi siyosiy aloqalar tamoyillariga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi.

“Samo o‘g‘li”ni butun olamning hukmdori sifatida tasvirlaydigan Chjou doktrinasidagi “o‘rtadagi podsholiklar” aholisining “varavarlar”dan ustunligi g‘oyasi Konfutsiy (mil. avv. 551–479-yy.) ta‘limotining negizini tashkil etadi. Ushbu ta‘limot qadimgi Xitoyda davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga sezilarli darajada ta‘sir qilgan.

Hukmdorlar huzuridagi ayrim amaldorlarning vazifalari doirasiga boshqa davlatlar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish masalasi kirardi va maxsus kishilar elchilar nutqini tayyorlardilar. Dastlab saroyda muhokama qilingan ushbu nutqlar qo‘shni davlatlar bilan muzokaralar olib borishda katta ahamiyatga ega edi.

O‘z paytida Chjou hukmdori Si hukmdori – Xuan Gunning mustaqil ravishda tashqi siyosiy va diplomatik harakatlar olib borish, hamda harbiy ittifoqlar tuzish, shuningdek, “ba” (gegemon) unvoniga ega bo‘lish huquqini tan olgan. Ittifoqchi podsholiklar gegemonga birlashishda qasam ichardilar. Si davlatidan so‘ng gegemonlik birin-ketin boshqa davlatlar qo‘liga o‘tib borgan.

Chjango davrida ittifoqchi davlatlar podsholarining o‘g‘illarini garovga olish davlatlararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatiga aylangan edi. Davlatlar tomonidan mayda podsholiklarni bosib olish jarayoni avj olgan edi. Bu esa, podsholiklar o‘rtasidagi ittifoqlarning yiriklashuviga sabab bo‘lardilar. Davlatlararo yirik birlashmalarning alohida shakllari yuzaga keldiki, ular “vertikal ittifoqlar”, “gorizontal ittifoqlar”, “uzoqdagi davlatlarning yaqindagi davlatlarga qarshi ittifoqi”, deb nomlanishi bilan ma‘lum bo‘ldi. Ushbu sharoitda davlatlararo bitimlarni tuzish amaliyoti bilan bog‘liq maxsus faoliyat turiga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bunday zaruratdan nafaqat urush vaqtida, balki boshqa paytlarda ham foydalanilgan³².

Jamiyatning o‘qimishli qatlamlari orasida diplomatik tushdagi vazifalarni bajarish uchun zarur bilim va tajribaga ega bo‘lgan, vaziyatni nazariy va amaliy jihatdan tushunadigan, gapga chechan, ishining o‘ziga xos ustalari paydo bo‘ldi. Diplomatiyaga taalluqli faoliyatning katta ahamiyatga ega ekanligini Chjango davrida mavjud bo‘lgan barcha g‘oyaviy-siyosiy maktablarning vakillari ta‘kidlagan edilar. Jumladan, Konfutsiy diplomatiya san‘atiga o‘rgatishni podsholikni boshqarishdan

³² Холлиев А. Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (маърузалар тўплами). – Тошкент. 2014. – Б. 16.

keyin ikkinchi o‘ringa qo‘ygan. Elchilar yozma emas, balki og‘zaki ko‘rsatmalar bilan yuborilgan.

Qadimgi Xitoyda diplomatik daxlsizlik haqida tushuncha mavjud bo‘lmasligiga qaramasdan, amalda har qanday podsholikda elchiga o‘ta hurmat bilan qaralgan.

Chjango davri hukmdorlarining saroylari qoshida “yuyshi” deb nomlangan davlat lavozimi mavjud bo‘lgan. Ular hukmdor nomiga boshqa podsholiklardan kelgan barcha maktublarni qabul qilish, hamda kelgusi muzokaralar uchun ma‘lumotlar tayyorlash bilan shug‘ullanganlar. Davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyoti bilan “szun xen” maktabining faoliyati bog‘liq bo‘lgan. Ushbu maktabning paydo bo‘lishi donishmand Guy Gutszi (mil. avv. IV–III asrlar) nomiga taqaladi. Maktabning nomi ikki turdagi davlatlararo ittifoqlarning nomidan kelib chiqqan – “szun” (vertikal bo‘yicha ittifoq yoki shimol-janub ittifoqi) va “xen” (gorizontal bo‘yicha ittifoq yoki sharq-g‘arb ittifoqi)³³.

Mil. avv. 221-yilda Xuanxe va Yanszi daryosi oralig‘idagi hududlarni Sin podsholigi birinchi bor birlashtirib, Sin Shixuandi (Sinning birinchi hukmdori) degan unvon (titul) oladi.

Istilolarni amalga oshirish Sin Shinxuandi tashqi siyosatining asosiy vazifasiga aylangan edi. Hukmronligi davomida qo‘shni qabila va xalqlarni bo‘ysundirish uchun bir necha marotaba harbiy ekspeditsiyalar uyushtiradi. Mil. avv. 209-yilda Sin Shixuandi vafot etdi. Mil. avv. 202-yilda Sin sulolasi ham xalq qo‘zg‘oloni natijasida ag‘darildi, o‘rniga Xan Imperiyasi (mil. avv. 202 – mil. 220-yil) hokimiyat tepasiga keldi. Bu davrda Xitoy yanada markazlashgan qudratli davlatga aylandi, katta miqdordagi harbiy kuchga va yaxshi tashkillangan byurokratik apparatga ega bo‘ldi.

Xan imperyasining tashkil topgan kundan boshlab eng muhim tashqi siyosiy vazifasi – chegaralarni ko‘chmanchi xunn qabilalarining muntazam bosqinlaridan himoya qilish edi. Mil. avv. III asrning oxiriga kelib imperiyaning shimoliy chegaralarida ushbu qabilalarning qudratli birlashmasi vujudga keldi.

Mil. avv. 198-yildagi “Tinchlik va qarindoshlikka asoslangan shartnoma” deb ma‘lum bo‘lgan shartnomaga binoan Lyu Ban shanyuy Mode (xunn qabilalarining oliy sardori)ga o‘lpon to‘lash majburiyatini rasman tan oladi. Mil. avv. 195-yilda Lyu Ban vafot etgach, Mode o‘lgan hukmdorning rafiqasi Lyuyxouni xotinlikka so‘raydi. Lyuyxou

³³ <https://cyberleninka.ru/article/n/genezis-otnosheniy-kitaya-s-tsentralnoy-aziey-v-domongolskoe-vremya/viewer>

qimmatbaho sovgʻalarni xunn sardoriga yuboradi va nikoh toʻgʻrisidagi taklifga rad javobini beradi.

Xitoy hukmdorlari devonxonasi ichki va tashqi siyosatdagi voqealarni diqqat bilan kuzatib, ularning barchasi haqida qaydlar qilib borganlar. Xitoy elchixonasi boshliqlari oʻzlariga topshirilgan vazifalar va ularning bajarilishi haqida batafsil maʼlumotlar berib borganlar.

Xan imperatori U-Di (mil. avv.140–87-yy.) faol tashqi siyosat olib borgan hukmdorlardan biri hisoblangan. U mil. avv. 138-yilda “Gʻarbiy” oʻlkalarga oʻz elchilarini joʻnatadi. Bu elchilikka harbiy boshliq Chjan Szyan boshchilik qiladi. Unga Gʻarbdagi davlatlar hukmdorlari bilan koʻchmanchilarga qarshi ittifoq tuzish topshirilgan. Lekin, u yoʻlda xunnlariga asir tushib qoladi. Elchi tashqi jihatdan xunnlar odatlarini qabul qiladi va u bir xunn qiziga uylanadi. Faqat xunnlar uni kuzatishni toʻxtatganlarini oʻrgangach, u yerdan qochib, sayyohatini davom ettiradi.

Chjan Szyan Fargʻona vodiysiga kelgach, shartnoma tuzish maqsadida kelgan Yunon-Baqtriya davlati allaqachon yoʻq boʻlib ketganini, bir necha yil oldin koʻchmanchi sak qabilalari tarafidan bosib olinib, mustaqil davlat tuzilganligini oʻrganadi. Xitoy elchisi Fargʻona hukmdorlari bilan xunnlariga qarshi ittifoq tuzishga harakat qiladi. Bunga muvaffaq boʻla olmagach, Eron va Osiyo mamlakatlarining umumiy ahvoli, davlat tuzilishi, harbiy kuchlari, shaharlari va savdo yoʻllari haqidagi maʼlumotlarni toʻplab yurtiga qaytadi. Chjan Szyan mil. avv. 126-yilda koʻp qiyinchiliklardan soʻng yurtiga qaytib keladi.

Mil. avv. 115-yilda usunlar huzuriga elchi sifatida yana Chjan Szyan joʻnatiladi. Ushbu elchilik Xitoyning Markaziy Osiyo va Oʻrta Sharqning boshqa davlatlari bilan munosabatlarini iliqlashtiradi.

U-Di davrida Xan Imperiyasi yirik istilochilik urushlarini olib borgan. Lekin, ushbu istilochilik urushlari davlat xazinasini quritadi. Natijada U-Didan keyin bunday koʻlamdagi istilochilik urushlari toʻxtatiladi.

Mil. avv. I asrda xitoyliklar “Buyuk ipak yoʻli” orqali Parfiya davlati bilan bir necha marotaba elchilik va savdo karvonlarini almashadilar.

Mil. 73-yilda Ban Chao elchi sifatida gʻarbiy oʻlkalarga yuboriladi. Uning bu yerlardagi faoliyati Xitoyni gʻarbiy mamlakatlar bilan siyosiy va savdo aloqalarining kengayishi uchun katta ahamiyatga ega boʻldi. 80-yillarning oxiridan boshlab Buyuk ipak yoʻli orqali Kushon davlati, Parfiya, Yaqin va Oʻrta Sharqning boshqa mamlakatlari bilan diplomatik

munosabatlar oʻrnatildi. Rim imperiyasi (qadimgi Xitoy manbalarida Datsin deb nomlanadi) bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqa oʻrnatishga urinishlar ham boʻldi.

Qadimgi Xitoyning deyarli 2000 yillik tarixi davomida yaqin va uzoq qoʻshnilar bilan tashqi munosabatlarni amalga oshirishning muayyan tamoyillari ishlab chiqildi. Davlatlararo aloqalar va shartnomalar negizidagi munosabatlarning Qadimgi Xitoy uchun xos boʻlgan ikki asosiy anʼanasini eʼtirof etish lozim:

- “di go” – “teng davlatlar” konsepsiyasi tamoyili, yaʼni “oʻrtadagi podsholiklar”ning oʻzaro munosabatlari amaliyotidan kelib chiqqan va davlatlar oʻrtasidagi teng huquqli munosabatlar asoslangan;
- U-Di davridan boshlangan Konfutsiylikning “dunyoni tartibga soluvchi monarxiya” doktrinasiga tayanib, “varvar”larni va barcha oʻzga mamlakatlarni Xitoyga oʻlpon toʻlovchi sifatida qarashga, egosentrizm konsepsiyasiga asoslangan³⁴.

Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlarida xalqaro munosabatlar

Mil. avv. I ming yillik birinchi yarmidayoq “Avesto”da diplomatik munosabatlarning paydo boʻlishi haqida maʼlumotlar mavjud boʻlgan. Oʻsha davrda qabilalar oʻrtasidagi kelishuvlar va harbiy qarama-qarshiliklar Mitra xudosining asosiy faoliyati sifatida namoyon boʻladi. Mitra xudosi rahnamoligida qabilalar oʻrtasidagi munosabatlarga oid maʼlumotlar ham mavjud.

Qadimgi Midiya hukmdori Kiaksar hukmronligi (mil. avv. 625–585-yy.) davrida Ossuriyaning bir qismi, shimoliy Mesopotamiya, Girkaniya, Parfiya, Areya, shu bilan birgalikda, Soʻgʻdning bir qismi va Markaziy Osiyoning janubiy qismi ham bosib olinadi. Midiyaliklar va parfiyaliklar oʻrtasida bir necha yil davom etgan kurash natijasida parfiyaliklarning nomigagina Midiyaga qaramligi haqida shartnoma tuzish bilan tugallanadi. Aslida esa parfiyaliklar oʻzlarining amaldagi hududlarini saqlab qoladilar. Bu shartnoma Markaziy Osiyoning mil. avv. VII asr oxiri – VI asr boshidagi tarixiga oid dastlabki shartnoma edi.

Mil. avv. VI asr ikkinchi yarmidan Markaziy Osiyoning gʻarbiy viloyatlari Ahamoniylar Imperiyasi tarkibiga kiritiladi. Kir II (mil. avv. 559–530-yy.) dastlabki yurishlari natijasida Baqtriya, Parfiya, Soʻgʻdiyona, Margʻiyona va Xorazmni bosib oladi. Ahamoniylar

³⁴ Холлиев А. Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (маърузалар тўплами). Тошкент. 2014. Б. 19.

chegaralarining shimoliy-sharqiy hududlar tomonga qarab kengayishi, kuchli sak-massaget ittifoqi bilan to'qnashuvni keltirib chiqaradi. Natijada Kir II Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimida joylashgan sak-massagetlariga qarshi yurish qilishga qaror qiladi. Gerodotning ma'lumot berishicha, yurishdan oldin Kir va To'maris o'rtasida og'zaki elchilar almashinuvi bo'lgan.

Jangdan oldingi o'zaro elchilar almashinuvida Kir To'marisni o'ziga turmushga chiqishni taklif etadi. Ammo, To'maris uning hiylasini o'z vaqtida anglab yetadi va taklifni rad qiladi. Shundan keyin Kir Amudaryoni kechib o'tib, harbiy harakatlarini boshlaydi. To'maris esa Kirga harbiy harakatlarni to'xtatib, o'z yurtiga qaytib ketishini va massagetlarni o'z holiga qo'yishni taklif qiladi. Keyingi voqealar Kirning To'maris maslahatiga quloq solmaganligini ko'rsatadi, shafqatsiz jang natijasida massagetlar g'alaba qozonadilar, Kir va ahamoniylar qo'shinining katta qismi qirib tashlanadi³⁵.

Keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ahamoniylar davrida Markaziy Osiyo qabila va qabila birlashmalari o'rtasida o'rnatilgan diplomatik munosabatlar beqaror xarakterda bo'lib, asosan og'zaki tarzda olib borilgan. Buning sababi hali sak-masagetlarda yozuvning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Aftidan elchilik bilan shug'ullangan maxsus kishilar yetkaziladigan xabarni yodlab olar edilar.

Yunonlarning Markaziy Osiyodagi siyosiy hukmronligi deyarli ikki yuz yil davom etib, mil. avv. II asr ikkinchi yarmida Yunon-Baqtriya davlatining qulashi bilan o'z yakuniga yetgan.

Bu davrdagi diplomatik munosabatlarni ikki davrga bo'lish mumkin:

- Markaziy Osiyo xalqlarining Aleksandr Makedonskiy bilan munosabatlari davri;
- Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirgan janubiy hududlar o'rtasidagi munosabatlar davri.

Birinchi davr. Mil. avv. 329-yilda Aleksandrning Maroqand (Samarqand)ga yurishi paytida uning huzuriga yevropalik skif qabilalaridan elchilar keladi. Do'stlik haqidagi bahona bilan Aleksandr ularga javob elchiligini jo'natadi. Elchilikning asl maqsadi skif yerlarining tabiiy sharoiti, xalqining soni va harbiy qudratini aniqlash edi³⁶.

³⁵ <http://oxus-hotel.com/history/374-diplomaticheskie-otnosheniya.html>

³⁶ <http://oxus-hotel.com/history/374-diplomaticheskie-otnosheniya.html>

Keyingi yillarda Aleksandr Tanais (Sirdaryo) bo'yidagi Ustrushonaga yurish uyushtiradi, u yerda saklarga qarshi Aleksandriya Esxata (taxminan hozirgi Xo'jand shahri yaqinida) shahrini qurdiradi. Shundan keyin Aleksandr daryoning o'ng qirg'og'idagi skif (yoki sak)larga yurish qilib, ularni mag'lubiyatga uchratadi. Natijada skiflar Aleksandr huzuriga elchi jo'natadilar. Undan noto'g'ri harakat uchun kechirim so'rab, tinchlik sulhini tuzishni va unga bo'ysunishlarini aytadilar. Ammo, Aleksandr xushmuomalalik bilan ularga ishonishi, lekin to'liq g'alaba qozonmaguncha harbiy harakatlarni davom ettirish haqidagi javobini aytadi.

Mil. avv. 328-yili Maroqandaga yevropalik skiflardan navbatdagi elchilik missiyasi keladi. Skif elchilari Aleksandrning tinchlik haqidagi taklifini podsholariga yetkazganliklarini aytib, qimmatbaho sovg'alar keltiradilar. Skiflar hukmdori o'z xatida qizini Aleksandrga, skif aslzodalari qizlarini Aleksandrning "ishonchli do'stlari"ga turmushga bermoqchiligi haqidagi taklifini bildiradi. Aleksandr esa javob elchiligida taklifni nazokat bilan rad edi. O'sha yilda Aleksandrga Markaziy Osiyodagi birinchi mustaqil davlat xorazmlik hukmdor Farasmandan elchilik va yordam uchun bir yarim ming otliq askar jo'natiladi.

Farasman Aleksandrga o'z podsholigi haqida ma'lumot berib, davlati chegarasida kolxlar va armorika qabilalari yashashini, ularga va Evksinsk (Qora) dengizi bo'yida yashovchi boshqa qabilalarga qarshi harbiy ittifoq tuzishni taklif qiladi.

Aleksandr Farasmanga minnatdorchilik bildirib, javob maktubida bu yurishning vaqti emasligini va Hindistonga yurishgacha buni amalga oshira olmasligini, Elladaga qaytganidan keyin Qora dengiz bo'yidagi xalqlarga qarshi yurish qilishni taklif qiladi. Maroqanddagi uchrashuvdan so'ng, Farasman Baqtriya hokimi Artabaz kuzatuvida yurtiga qaytadi³⁷.

Shunday qilib, diplomatik munosabatlarning birinchi davrida Markaziy Osiyo xalqlari va Aleksandr Makedonskiy o'rtasida diplomatik munosabatlar masalasida tinchlik shartnomalari va harbiy ittifoqlar tuzish bilan tugallanadi. Istisno emaski, bundan oldinroq diplomatik munosabatlarni olib boruvchi maxsus kishilar guruhi shakllangan edi.

Ikkinchi davr (mil. avv. IV asr oxiri – II asr ikkinchi yarmi boshlari). Markaziy Osiyo janubiy hududlari ellin davlatlari – Salavkiylar (mil. avv. IV asr oxiri –III asr o'rtalari) va Yunon-Baqtriya

³⁷ <http://oxus-hotel.com/history/374-diplomaticheskie-otnosheniya.html>

(mil. avv. III asr oʻrtalari – II asr ikkinchi yarmi boshlari) davlatlari tarkibiga kiradi. Bu davrda mavjud Yunon-Baqtriya davlati bilan birgalikda, mahalliy davlat birlashmalari tashkil topishi ham davom etdi. Shubhasiz, bu davlatlar maʼlum bir diplomatik munosabatlar va ittifoqlar tuzishni qoʻllab-quvvatlar edilar, afsuski, bu haqida yozma manbalarda hech qanday maʼlumot saqlanib qolmagan.

Mil. avv. 237-yilda Yunon-Baqtriya hukmdori Diodot II va Parfiya hukmdori Tiridat oʻrtasida Markaziy Osiyoni qaytadan boʻysundirish va umumiy dushman Salavka II ga qarshi kurash maqsadida harbiy shartnoma va ittifoq tuziladi. Boshqa Yunon-Baqtriya hukmdori bilan tuzilgan shartnoma ham mavjud. Masalan, salavkiylar hukmdori Antiox III (mil. avv. 223–187-yy.) mil. avv. 208-yilda Yunon-Baqtriya hukmdori Yevtidemga qarshi harbiy yurish uyushtiradi. Ushbu yurish Herirud (Tajan) daryosi boʻyida Yunon-Baqtriya qoʻshinining yengilishi bilan tugaydi. Mil. avv. 206-yilda ikki davlat oʻrtasida muzokaralar boshlanib, tinchlik sulhi tuzish bilan yakunlanadi. Sulhga koʻra, Yevtidem oʻzining harbiy fillarini Antiox III ga beradi va qisman unga boʻysunadi, lekin siyosiy mustaqilligini saqlab qoladi.

Mil. avv. 141-yildan 129-yilgacha boʻlgan davrda Yunon-Baqtriya davlati sak va yuechji qabilalari hujumlari natijasida tugatiladi, shu bilan Markaziy Osiyoning janubiy qismlarida ellinlar hukmronligiga barham beriladi.

Shimoliy, keyinchalik Janubiy Baqtriya hududlari yuechjilar tomonidan egallanadi. Bu hududlarda yuechji urugʻlaridan biri – kushonlar Buyuk Kushon saltanatiga asos soladilar.

Xan sulolasi davrida Markaziy Osiyo va Xitoy oʻrtasidagi diplomatik munosabatlarda imperator U-Di tomonidan yuborilgan Chjan Szyan³⁸ missiyasi muhim oʻrin tutadi. U Qangʻ davlati hukmdorini xunnlarga qarshi urushga daʼvat etish maqsadida mil. avv. II asrda bu yerga tashrif buyurgan edi.

Chjan Szyan Qangʻ davlatidan mil. avv. 138-yilda oʻz hamrohlari bilan Katta yuechjilar yurtiga yoʻl olgan. U Baqtriyada bir yilga yaqin boʻladi. Hech nimaga erisha olmay janubiy yoʻl orqali Xitoyga qaytadi³⁹.

Xitoy–Fargʻona oʻrtasidagi oʻzaro diplomatik aloqalar Chjan Szyanning imperatorga “samoviy otlar” haqidagi xabarni olib kelgach,

³⁸Qarang:https://ru.wikipedia.org/wiki/Чжан_Цянь;

https://yandex.ru/turbo/sitekid.ru/s/planeta_zemlya/osvoenie_zemli/chzhan_cyan_i_ego_puteshestvie.html

³⁹https://ru.wikipedia.org/wiki/Чжан_Цянь;

https://yandex.ru/turbo/sitekid.ru/s/planeta_zemlya/osvoenie_zemli/chzhan_cyan_i_ego_puteshestvie.html

faollashgan. Dastlabki, diplomatik aloqalarning oʻrnatilishi qiyin kechgan. Sima Szyanning “Shiszi” (“Tarixiy esdaliklar”) asaridagi maʼlumotlarga koʻra, U-Di Dovon hukmdoriga elchi bilan 100 lan ogʻirlikdagi oltin haykalini joʻnatadi, buning evaziga esa Dovon argʻumoqlarini joʻnatishni iltimos qiladi. Ammo, Dovon hukmdori Xitoy imperatorining iltimosiga rad javobi beradi. Elchi Dovon hukmdorining javobiga qoʻpol muomala bilan javob qaytaradi. Shu sababli elchi oʻldiriladi (chunki bu davrda elchining daxlsizligi degan tushuncha hali shakllanmagan edi). Bunga javoban Xitoy imperatori Li Guanli boshchiligidagi 100 ming kishilik qoʻshinini joʻnatadi. Shunday qilib, 4 yil (mil. avv. 104–101-yy.) davom etgan Xitoy–Dovon urushi boshlanib, Dovonning magʻlubiyati bilan tugaydi. Tuzilgan shartnomaga koʻra, xitoyliklar 3000 ot olib ortga qaytadilar.

Xitoy–Dovon urushidan keyin Xitoyning Gʻarbiy oʻlkalar bilan oʻzaro diplomatik aloqalari yanada kuchayadi. “Buyuk Xan xonadoni tarixi” nomli manbaga koʻra, imperator U-Di davrida Markaziy Osiyoning turli davlatlariga 10 ga yaqin elchilik missiyalari joʻnatilgan.

Mil. avv. 111–105-yillar orasida imperator U-Dining tashabbusi bilan Parfiya podsholigi (xitoy manbalarida Ansi) oʻrtasida diplomatik aloqalar oʻrnatiladi. Xitoy elchisi chegarada tantana bilan kutib olinib, 20 000 otlq kuzatuvda poytaxtga olib kelinadi. Bu elchiliklarning muhim natijasi Buyuk Ipak yoʻlining vujudga kelishi boʻldi. Bu tarixda Gʻarb va Sharqni bogʻlovchi ilk transmintaqaviy (transkontinental) xalqaro savdo yoʻli edi.

Xitoy bilan Qangʻ davlati oʻrtasidagi diplomatik munosabatlarning yoʻlga qoʻyilishi oʻzgacharoq kechgan. Katta harbiy kuchga ega boʻlgan (bu paytda uning tarkibiga Xorazm, Soʻgʻd, Choch va Transoksiananing* bir qancha hududlari ham kirgan) Qangʻ davlati Xitoydan mustaqil ravishda siyosat yuritar, diplomatik munosabatlarda yuksakroq darajada boʻlgan xitoyliklarga boʻysunmas edi. “Buyuk Xan xonadoni tarixi” maʼlumotiga koʻra, xitoylik elchilar Qangʻ saroyidagi qabul marosimida usunlardan quyiroqda turishgan, tushlik vaqtida ham ularga taom usun zodagonlari va oqsoqollaridan keyinroq berilgan.

Xitoy va yuechjilar oʻrtasidagi diplomatik munosabatlarning eng muhim natijasi Xitoyga buddizmni kirib kelishi boʻldi. Natijada ikki oʻrtada bir necha marotaba elchilik missiyalari almashinadi.

* **Transoksiana** – Oʻrta Osiyoni Iskandar Zulqarnayn bosib olgandan soʻng, mintaqa Oks daryosi (hozirgi Amudaryo) nomi bilan “Transoksiana” yoki “Transoksaniya” (lot. Transoxiana / Transoxania) nomi bilan ham mashhur boʻldi.

Ko‘rilayotgan davrda Markaziy Osiyo davlatlari va Xan xonadoni o‘rtasidagi diplomatik aloqalar natijasida turli ko‘rinishdagi shartnomalar tuzilgan. Xitoyning Markaziy Osiyodagi faolligi, ayniqsa, Dovon bilan bo‘lgan harbiy harakatlar natijasida ba’zi davlatlarning Xan xonadoniga bo‘ysunishiga olib keldi.

Xitoy manbalarida G‘arbiy hududlarni boshqarish uchun hokim va harbiy vakil tayinlanar edi, deb ma’lumot berilsa-da, bu shubhalidir. “Buyuk Xan xonadoni tarixi”dagi ma’lumotlarga ko‘ra, xitoylik mansabdorlarga G‘arbiy hududlarda naqd pulsiz na oziq-ovqat, na chorva berilar edi. Agar ushbu hududlar Xitoyga bo‘ysungan bo‘lganida, ularga aytilgan ashyolar bepul berilishi kerak edi. Tayinlangan amaldorlar faqatgina diplomatik aloqalar olib borishga mas’ul edilar, xolos. Ular Markaziy Osiyo hokimliklarini boshqarish bilan shug‘ullana olmaganlar.

Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘rnatilishining muhim natijasi ikki o‘rtadagi savdo va madaniy aloqalarning jonlanishi bo‘ldi. Mil. 25-yilda Kichik Xan xonadonining taxtga kelishi datlabki davrida o‘zaro munosabatlar keng darajada o‘rnatilmagan edi. Faqatgina Tyan-vu imperatorligi davrida Markaziy Osiyo hokimliklari biridan Xitoyga o‘z homiyligi ostiga olishni va bu yerga hokim jo‘natishni so‘rab elchi kelganligi haqida ma’lumot bor, xolos. “Kichik Xan xonadoni tarixi”ga ko‘ra, G‘arbiy o‘lkalar bilan o‘zaro aloqalar 65 yil davomida uzilib qoladi, faqatgina, mil. 74-yilda turli ko‘rinishdagi diplomatik munosabatlar tiklanadi.

“Kichik Xan xonadoni” o‘zining o‘tmishdoshlaridan farqli ravishda G‘arbiy o‘lkalar bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirishda boshqacharoq yo‘l tutadi. Ushbu xonadon vakillari hisobicha, moliyaviy qiyinchilik o‘zaro diplomatik aloqalarni doimiy bo‘lishiga xalaqit bergan.

Markaziy Osiyo hokimliklari va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar qo‘mondon Ban Chaoning G‘arbiy o‘lkalarga yurishi bilan bog‘liq. “Kichik Xan xonadoni tarixi”ga ko‘ra, Ban Chao Markaziy Osiyoni kesib o‘tib, G‘arbiy dengiz, aftidan Kaspiy yoki Orol dengizigacha yetib boradi. Shundan so‘ng, imperator saroyiga Markaziy Osiyo hokimliklaridan sovg‘alar bilan elchilar kela boshlayd⁴¹i. Ammo, bu G‘arbiy o‘lkalar bilan o‘zaro elchiliklar goh to‘xtab, goh qaytadan o‘rnatilar edi. Asosan, bu yerdagi beshta hokimlik: Gi (Buxoro bo‘lishi

⁴¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Бань_Чао#:~](https://ru.wikipedia.org/wiki/Бань_Чао#:~)

mumkin), Suse – Kesh, Fumu – Samarqand, Yuni – Choch, Yuegan – Xorazm bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan edi.

Barcha to‘siqlarga qaramasdan, Parfiya Xitoy bilan o‘zaro aloqalarni davom ettirgan. Faqat, bu aloqalar elchilar kelishi va elchilar bilan birga noyob jonivorlarni jo‘natish bilan cheklanilgan. Masalan, 87-yilda Chjan-di imperatorligi davrida Xitoyga elchi o‘zi bilan arslon va og‘ir so‘yil, 101-yilda esa, Parfiya hukmdori Mankyuy (aftidan, Mitridat) saroyga o‘zi bilan arslon va tuyaqush keltirgan. Shuni ta’kidlash kerakki, aynan Parfiya hududi orqali Ban Chaoning buyrug‘i bilan Gan In 97-yilda xitoyliklardan birinchi bo‘lib, O‘rta Yer dengizi sohillariga yetib boradi.

Mavzuni yakunlar ekanmiz, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

- Qadimgi Hindiston va Xitoyda diplomatik munosabatlar uchun ma’lum bir tizim yaratilgan, xalqaro munosabatlar bo‘yicha davlat doktrinasi ishlab chiqilgan va bular amaliyotga keng joriy qilingan;
- Markaziy Osiyoda qadimda diplomatiya uchun maxsus qonun-qoidalar ishlab chiqilmagan bo‘lsa-da, tom ma’nodagi diplomatik amaliyot mavjud bo‘lgan. Bunga ahamoniylar, yunonlar, xitoylar va boshqalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlarni misol qilish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Hindiston diplomatiyasi haqidagi dastlabki ma’lumotlar qaysi manbada keltirilgan?
2. “Artxashastra” qanday asar?
3. Mandala tizimi (konsepsiya)ni tushuntirib bering
4. Qadimgi hind diplomatiyasida Kautiliyaning qanday o‘rni bor?
5. Chandraguptaning Salavka bilan diplomatik aloqalari haqida qaysi yunon elchisi xabar beradi?
6. Qadimgi Xitoyda “o‘rta podsholiklar” atamasini tushuntirib bering
7. Chjou doktrinasining mazmunini tushuntirib bering
8. Qadimgi Xitoy diplomatiyasining nazariyasi qaysi faylasufning asarlarida asoslab berilgan?
9. “Gorizontal” va “vertikal” ittifoqlarning mohiyatini tushuntirib bering
10. Qaysi Xitoy imperatori davrida G‘arbiy davlatlar bilan faol diplomatik aloqalar o‘rnatilgan?

11. Xitoy–Davan munosabatlarida qaysi Xitoy elchi va sayyohining xizmatlari kata bo‘lgan?
12. Davan davlatiga yurishga boshchilik qilgan Xitoy qo‘mondonini aniqlang
13. Qaysi Xitoy elchisining bosib o‘tgan yo‘li Buyuk ipak yo‘liga asos bo‘lgan?
14. G‘arbiy (Orol yoki Kaspiy) dengizi sohillarigacha yetib borgan Xitoy qo‘mondonini aniqlang
15. O‘rta Yer dengizi sohillarigacha yetib borgan Xitoy elchisini aniqlang

3-mavzu: Qadimgi Yunoniston diplomatiyasi

Reja

1. Qadimgi Yunonistonda xalqaro aloqalar shakllari
2. Klassik davrdagi yunon diplomatiyasi (mil. avv. VIII-IV asrlar)
3. Ellin davrida xalqaro aloqalar va diplomatiya

Tayanch iboralar: *prokseniya, amfiktioniya, ieromaniya, ieromnemlar, pilagorlar, “simmaxiya”, sillagos, ekklesiya, keryuks, angelos, Kalliy sulhi, Yunon-Fors urushlari, Peloponnes urushi, Antalkid sulhi, Axeya ittifoqi, Aramey shartnomasi, Korinf kongressi, Suriya urushlari, Etoliya ittifoqi.*

Qadimgi Yunonistonda xalqaro aloqalar shakllari

Mil. avv. VIII–IV asrlar davomida Yunonistonda shahar-davlatlar, ya'ni polislar paydo bo'la boshladi. Ushbu polislar o'rtasida turli ko'rinishdagi o'zaro aloqalar shakllari vujudga keldi.

Qadimgi Yunonistonda xalqaro aloqalar va xalqaro huquq ko'rinishi “prokseniya”, yoki “mehmondo'stlik” deb atalgan. Prokseniya alohida shaxslar, urug'lar, qabila yoki butun boshli davlatlar o'rtasida amal qilgan. Diplomatik aloqalar proksenlar orqali amalga oshirilgan. Shaharga kelgan elchi dastlab o'zining prokseni (qarindoshi yoki tanishi)ga murojaat qilgan. Proksenlik instituti qadimgi Yunonistonda juda keng tarqalgan. Prokseniya qadimgi yunon dunyosining keyingi barcha xalqaro aloqalari uchun asos bo'lgan.

Shaharda yashovchi muhojir, hatto, quvg'in qilinganlar ham, iloha Zevs-Kseniy (mehmondo'st) homiyligi ostida bo'lgan⁴².

Qadimgi Yunonistondagi diplomatik munosabatlarning yana bir shakli “amfiktioniya” edi. Asosan, mashhur ibodatxonalar atrofida ma'lum bir xudolarga bag'ishlangan ittifoqlar shunday nom bilan atalgan. “Amfiktion” so'zi yunonchadan tarjima qilinganda “atrofida yashovchi” degan ma'noni bildiradi. Dastlabki davrda amfiktionlar bayramlarda umumiy qurbonlik keltirish, ibodatxona va uning boyliklarini qo'riqlash, alohida hamda umumiy xalqdan keladigan qurbonliklarni to'plash, shu bilan birgalikda, diniy qoidalarni buzgan shaxslarni jazolovchi tashkilot sifatida vujudga kelgan. Amfiktionlik yunon qabilalari uchun majburiy bo'lgan munosabatlar va huquqiy majburiyatlarni o'rnatgan edi. Bu majburiyatlar quyidagicha qasamyod

⁴² История дипломатии. Том 1. Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1940. – С. 35.

bilan mustahkamlangan: “Amfiktioniyaga tegishli bo‘lgan har qanday shaharni buzmayman; urush va tinchlik paytida ham suvni to‘xtatmayman; qasamyodni buzganlarga butun kuchim bilan qarshi chiqaman; shaharlarni vayron qilmayman; xudo marhamati bilan bino qilingan boyliklarni vayron qiluvchi shaxslarni butun vosita yordamida jazolayman, qo‘lim yoki oyog‘im bilan himoya qilaman”⁴³.

Alohida vaziyat yoki bayramlar munosabati bilan bo‘lgan yig‘inlarda amfiktion a‘zosi bo‘lgan har bir qabila yoki urug‘ning qiziqishlari o‘rganib chiqilar edi. Bayram davrida urushlar ta‘qiqlangan va bu davr “ilohiy tinchlik” (“ieromaniya”⁴⁴) deb e‘lon qilingan. Shunday qilib amfiktionlik xalqaro xarakterga ega bo‘lgan diniy-siyosiy institut edi.

Qadimgi Yunonistonda bir nechta amfiktionlar mavjud bo‘lgan. Ularning eng qadimgisi Delfa-Fermopil amfiktioniyasi edi. U ikkita amfiktionlik birlashmasidan:

- Delfa shahrida Apollon ibodatxonasidagi;
- Fermopil shahrida Demetra ibodatxonasidagi amfiktionlikdan tashkil topgan edi.

Delfa-Fermopil amfiktionligiga 12 ta qabila birlashgan edi⁴⁵.

Amfiktionlarning oliy organi umumiy majlis bo‘lib, u yilda ikki marta, bahor va kuzda, birinchisi Fermopilda, ikkinchisi esa Delfada chaqirilgan. Umumiy yig‘ilishning qarorlari barcha uchun bajarilishi majburiy edi. Majlis a‘zolari soni 24 kishini tashkil qilgan va tinchlik paytida umumiy ishlarga rahbarlikni amalga oshirgan. Ieromnemlarning asosiy vazifasi “ilohiy tinchlik”ni saqlash va diniy bayramlarni tashkillash edi⁴⁶.

Mil. avv. IV asr oxirida yana bir vakillik – “pilagor”lar paydo bo‘ldi-ki, bular ittifoqchi davlatlarning siyosiy vakillari edi. Pilagorlar va ieromnemlar vositachiligida amfiktionlarga kirgan davlatlar ittifoq doirasida munosabat masalasida qasam ichar edi. Delfa-Fermopil amfiktioni Yunonistonning xalqaro munosabatlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi kuchga ega edi.

Birorta shahar majburiyatlarni buzgan taqdirda uni amfiktion sudiga berilar, unga qarshi “diniy urush” ochish mumkin edi. Amfiktionlik qoidalariga ko‘ra, ittifoqchilar bir-birlarining ichki ishlariga aralashmas edilar. Ammo, amfiktionlikdagi davlatlar ichidagi

⁴³ Всемирная история. Том 4. Эллинистический период. <https://history.wikireading.ru/218335>

⁴⁴ Негоман ие (религиозное помешательство). <https://translate.academic.ru>

⁴⁵ История дипломатии. – Москва: Огиз-Соцэкиз, 1940. Т. 1. – С. 36.

⁴⁶ https://studopedia.ru/8_204623_mezhdunarodnie-svyazi-drevney-gretsii

kuchliroqlari Delfa kohinlarini o‘zlari tomonga og‘dirishga harakat qilar edilar. Chunki, Delfa kohinlari o‘zlarining bashoratlari bilan butun yunon olami umumiy fikrida va yunon davlatlari ichki hayotida katta ta’sirga ega edilar.

Butun yunon qabilalari va shaharlari o‘rtasidagi shartnomalar bevosita va bilvosita delfalik kohinlar tomonidan tasdiqlanishi lozim edi. Xalqaro masalalarda muammo paydo bo‘lsa, Delfa kohinlariga murojaat qilinar edi. Kohinlar nafaqat diniy jihatdan, balki moddiy jihatdan ham katta ta’sirga ega edilar. Delfa shahrida turli vositalar, shaharlar badal to‘lovi, ziyoratchilardan, ibodatxona yarmarkalari va sudxo‘rlik amaliyot (operatsiya)lari orqali juda katta boylik to‘planar edi. Amfiksioniyada ta’sir kuchiga ega bo‘lish uchun yunon polislari o‘rtasida mil. avv. IV asrda ikkita “muqaddas urush” bo‘lib o‘tadi. Fiva shahri turli hiyla-nayrang bilan Fokida shahriga urush e‘lon qiladi.

Qadimgi Yunonistondagi elchilarning asosiy maqsadi qo‘shni davlatlar bilan shartnoma va ittifoqlar tuzish edi. O‘zaro tuzilgan shartnomalar ilohiy kuchga ega va shartnomani buzish xudo tomonidan jazolanishga olib keladi, deb hisoblangan. Shuning uchun, qadimgi Yunonistonda diplomatik muzokaralar qat’iy tarzda olib borilgan. Shartnoma majburiyatlarini tuzishda yuqori darajadagi harbiy amaldorlar guvohligida, go‘yoki muqaddas shartnoma tuzilayotgandek turli qasamyod matnlari bilan mustahkamlangan. Shartnoma tuzilayotganda qasamyodlarga o‘sha shahardagi magistrilar, albatta, chaqirilgan. Qasamyodga shartnoma buzgan tomonning qatl qilinishi haqidagi qarg‘ish ham qo‘shilgan. Shartnoma bandlariga amal qilinmagan taqdirda, bu masala hakamlik komissiyasiga berilgan. Komissiya uni Delfada Apollon, Olimpiyada Zevs va hokazolar sharafi uchun pul jarimasiga hukm qilgan. Manbalarda bunday jarimalar miqdori bir necha o‘n talantni tashkil qilganligi haqida ma’lumot beriladi. Bo‘ysunishi kerak bo‘lgan shaharlar bo‘ysunmagan taqdirda unga hakamlik komissiyasi majburiy choralardan tortib, “muqaddas urush” e‘lon qilishgacha bo‘lgan jazo choralari qo‘llashi ham mumkin edi. Tomonlar o‘zaro kelishuvga erishgach, qasamyod matnlari tosh taxtaga yozilib, maxsus ibodatxonalarda (Afinada Akropoldagi Afina Pallada) saqlanar edi. Muhim hisoblangan shartnomalarning nusxalari joylardagi Delfa, Olimpiya va Delos kabi ibodatxonalarda saqlangan. Shartnomaning bir nusxasi albatta davlat arxivida saqlangan. Diplomatik

munosabatlar buzilib, urush holati eʼlon qilinganida shartnoma matni bitilgan tosh taxta parchalanib, shartnoma bekor qilingan⁴⁷.

Qadimgi Yunonistondagi xalqaro munosabatlarning yana bir koʻrinishi harbiy-siyosiy ittifoqlar boʻlgan – “simmaxiya”lar edi. Ulardan eng muhimlari Lakedemon (Sparta) va Afina (Delos) simmaxiyalari edi.

Lakedemon simmaxiyasi mil. avv. VI asrda Peloponnes polislari ittifoqi sifatida tashkil topgan va unga Sparta boshchilik qilar edi. Uning oliy organi sillagos (majlis) boʻlib, gegemon-shahar Sparta boshchiligida yilda bir marta chaqirilar edi.

Ellin davlatlarining ikkinchi bir ittifoqi Afina shahri boshchiligidagi Afina yoki Delos simmaxiyasi edi. U yunon-fors urushlari davrida eronliklarga qarshi kurash uchun tuzilgan edi.

Jamoatlar va polislar oʻrtasidagi nizolar maxsus vakillar yoki elchilar oqali hal etilgan. “Gomer davri” (mil. avv. XII–VIII asrlar)da bunday vakillar xabarchilar (keryuks, angelos), klassik davrda esa oqsoqol (presbeys) deb atalgan⁴⁸.

Klassik davrdagi yunon diplomatiyasi (mil. avv. VIII-IV asrlar)

Qadimgi Yunonistonning rivojlanishida koʻzga tashlanadigan uch davrni koʻrsatish mumkin:

- Krit-Mikena davri (mil. avv. II ming yillik);
- Polis davri (mil. avv. XI–IV asrlar);
- Ellinizm davri (mil. avv. 334–30-yy.).

Krit davlati qudratli Misr va boshqa qoʻshni davlatlar bilan doʻstona munosabatlarda edi, manbalarda elchilik aloqalari koʻrsatib oʻtiladi. Axeya podsholigi qoʻshni davlatlarga nisbatan tajovuzkor siyosat yuritardi (Troya urushlari – mil. avv. 1240–1230-yy.).

Polislar davrida yunon davlatlari siyosiy mustaqillikka ega boʻlganligi sababli, ular oʻrtasidagi munosabatlarni tashqi xalqaro aloqa sifatida koʻrish mumkin.

Ushbu bosqichning eng muhim voqealarida biri Yunon-Fors urushlari edi. Bu urush mil. avv. 500–449-yillarda bir necha kampaniyalarga boʻlingan holda olib borilgan:

- Mil. avv. 500–494-yy. – Kichik Osiyoda joylashgan yunon shaharlarining forslarga qarshi qoʻzgʻoloni, Afina va Eritreyaning qoʻzgʻolonchilarga yordami;

⁴⁷ Всемирная история. Том 4. Эллинистический период. <https://history.wikireading.ru/218335>

⁴⁸ <https://studbooks.net/738074/pravo/simmahii>

- Mil. avv. 492–490-yy. – forslarning Bolqon Yunonistoniga bostirib kirishga urinishlari;
- Mil. avv. 480–479-yy. – Kserksning Yunonistonga bosqini, Yunon-Fors urushlarining eng yuqori nuqtasi;
- Mil. avv. 478–459-yy. – harbiy harakatlar xarakterining o‘zgarishi, harbiy tashabbusning yunonlar qo‘liga o‘tishi, Egey dengizi orollari va Kichik Osiyoda joylashgan yunon shaharlarining ozod etilishi. Afina harbiy qudratining o‘sishi;
- Mil. avv. 459–449-yy. – Afina va uning ittifoqchilarining Misrga yurishi, Yunon-Fors urushlarining yakuni.

Yunon-Fors urushlari polislar o‘rtasida Delos harbiy ittifoqi (mil. avv. 477-yil) tuzilishiga olib keldi.

Mil. avv. 449-yilda Kalliy sulhi⁴⁹ tuzildi. Eron podshosi bilan tinchlik bitimi tuzish maqsadida Suzaga yuborilgan Afina elchilik missiyasi boshlig‘ining ismi Kalliy bo‘lganligi uchun ushbu bitim shunday nomlangan. Bitim shartlari quyidagilardan iborat edi:

- Eron podshosi yunonlarning Kichik Osiyodagi barcha polislari mustaqilligini tan olish va yunonlarga qarshi harbiy harakatlar olib bormaslik majburiyatini oldi;
- Eron davlati bundan buyon Egey dengizi va bo‘g‘ozlariga harbiy flotini kiritmasligi kerak edi;
- Yunon polislari Sharqiy O‘rta Yer dengizi mintaqasi va Misrga oid masalalarga aralashmaslik majburiyatini o‘z zimmasiga oldi⁵⁰.

Yunon-fors urushidan so‘ng yunon polislarning gullab-yashnash davri bo‘ldi. Afina davlatining strateg Perikl (mil. avv. 443–429-yy.da strateg lavozimiga 15 marta saylangan) birinchi Afina dengiz ittifoqi (mil. avv. 477-yilda tuzilgan)⁵¹ ga kirgan polislarni birlashtirishga va yagona ittifoqchi davlatni tuzishga intilgan. Bu esa dengiz ittifoqining ichida keskin nizolarga va quyidagi to‘qnashuvlarga olib keldi:

- Afina va Korinfning G‘arbga olib boradigan savdo yo‘llari uchun kurashi;
- Afina va Spartaning Yunonistonda gegemonlik qilish uchun kurashi.

Ushbu ziddiyatlar Peloponnes urushi (mil. avv. 431–404-yy.)ga olib keldi. Bu urush ikki asosiy davrga bo‘linadi:

- “Arxidam urushi” (mil. avv. 431–421-yy.);

⁴⁹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Каллиев_мир

⁵⁰ https://ru.wikipedia.org/wiki/Каллиев_мир#Условия_мирного_договора

⁵¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Первый_Афинский_морской_союз

- Afinaliklarning Sitsiliyaga qo‘shin yuborishi va “Dekeley urushi” (yoki “Ioniya urushi”) (mil. avv. 415/13–404-yy.)⁵².

Mil. avv. 421–415-yillar davomida vaqtinchalik sulh saqlanadi. Urushning ikkinchi davrida spartaliklar Eron dan harbiy yordam so‘raydi. Yordam evaziga eronliklar Kichik Osiyoda joylashgan yunon shaharlarini nazorat qilish huquqini talab qiladilar. Spartaliklar bunga rozi bo‘lmaydilar, biroq rad javobini ham bermaydilar. Qisqa muzokaralardan so‘ng fors podshosi foydasiga elchilar va spartaliklar o‘rtasida mil. avv. 412-yil shartnoma tuziladi. Shartnomaga ko‘ra, yunon-fors urushi davrida ozod qilingan Kichik Osiyodagi yunon polislari Ahamoniylarga bo‘ysunadigan va Afinaga to‘lanadigan soliqlarni fors podshosiga to‘laydigan bo‘ldilar. Urush Spartaning g‘alabasi bilan tugaydi. Birinchi Afina dengiz ittifoqi tarqatib yuboriladi.

Mil. avv. 399-yilda esa Eron va Sparta o‘rtasida urush boshlanadi. Ahamoniylar o‘rtasidagi sulolaviy kurashga Spartaning aralashuvi ushbu urushni keltirib chiqaradi. Sparta Peloponnes urushida qilgan sotqinligi tufayli o‘zining yunonlar oldida obro‘-e‘tiborini tiklash va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini ozod qilishga intiladi. Biroq, mil. avv. 395-yilda Ahamoniylar yordamida tuzilgan koalitsiya (Afina, Korinf, Fiva) Sparta ga qarshi urush boshlaydi. O‘zaro urushlar natijasida zaiflashgan yunon polislari Eron davlatiga qaram bo‘lib qolgan edi. Eronliklar urushayotgan yunon polislarni tinchlik shartlarini qabul qilishga majburlaydi (mil. avv. 387-yilda tuzilgan “Antalkid” sulhi). Sulhga ko‘ra, Eron davlati Kichik Osiyoda o‘z hokimiyatini tiklaydi, eronliklar flotiga Egey dengiziga chiqishga ruxsat beriladi, yunon polislari ustidan nazorat Sparta ga topshiriladi.

Mil. avv. 378-yilda Sparta ga qarshi kurash uchun ikkinchi Afina dengiz ittifoqi tuziladi. Biroq, Afinaning bu ittifoqda o‘z gegemonligini o‘rnatishga intilishi “Ittifoqchilar urushi” (mil. avv. 357–355-yy.)ga olib keladi va keyinchalik (rasman mil. avv. 338-yilda Korinf kongressida Filipp II ning tashabbusi bilan)⁵³ ittifoq tarqalib ketadi.

Mil. avv. IV asr o‘rtalaridan boshlab, shimoliy Yunonistonda Makedoniyaning mavqei kuchaya boshlaydi. Tarqoqlikdan foydalangan Makedoniya Yunonistonda ta’sirini mustahkamlab, shaharlarni asta-sekin bo‘ysundira boshlaydi. Filipp II davrida (mil. avv. 359-336-yy.) Makedoniya Egey dengizi havzasidagi eng kuchli yunon davlatlaridan biriga aylanadi. Makedoniya yunon polislarni birin-ketin bo‘ysundiradi.

⁵² Крушкoль Ю.С. Кадимги дунё тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1974. – Б. 109-117.

⁵³ https://ru.wikipedia.org/wiki/Второй_Афинский_морской_союз

Yunonistonda Makedoniya gegemonligining oʻrnatilishi diplomatik va harbiy yoʻl bilan amalga oshirildi. Filipp qoʻshni davlatlarni boʻysundirishning har qanday vositalaridan foydalangan. Masalan, sotib olish, diplomatik elchilik (“Filipp maktubi”), “Makedoniya doʻstlari”ga moddiy va maʼnaviy yordam, qoʻshni varvar qabilalari hukmdorlari bilan ittifoq tuzish, fors podshosi bilan doʻstlik munosabatlarini oʻrnatish, dushman mamlakatlarda isyonlar uyushtirish va hokozolar. Bu usullarning ichida Filipp sotib olish siyosatiga katta ahamiyat bergan⁵⁴. Uning “oltin ortilgan eshak bilan xohlagan qalʼani olish mumkin” degan soʻzlari juda mashhur boʻlgan.

Filippning markazlashtirish siyosatiga qarshi Afinada antimakedon guruhi tuziladi. Bu guruhga mashhur notiq Demosfen boshchilik qilgan edi. Filipp II butun kuchi bilan antimakedon ittifoqi tuzilishiga qarshilik qilgan. U maqsadini amalga oshirishda Xalkidika yarim orolidagi dengizboʻyi va Frakiyadagi shahar-davlatlarni bir-biriga dushmanlik kayfiyatini kuchaytira boshlagan. Keyinchalik navbati bilan Pidna, Olinf, Amfiopol kabi polislarni boʻysundirgan. Delfa ibodatxonasining manfaatini himoya qilish va fivaliklar Fokidaga qarshi hujum qildi, degan bahona bilan Fessaliyani boʻysundirgan. Faqatgina afinaliklar aralashuvi bilan Oʻrta Yunoniston Filipp tomonidan boʻysundira olinmagan.

Filipp II Afina bilan muzokaralar boshlagan. Muzokaraning asosiy masalasi oʻsha davrgacha bosib olingan hududlarni Makedoniyaning qonuniy yerlari deb tan olinishi kerakligi edi. Afinaliklar dastlab bunga qisman rozi boʻladilar va Pellaga Makedoniya tarafdori boʻlgan Esxin va Filokrat boshchiligida elchilik missiyalarini yuboradilar. Ammo, afinalik elchilar hayʼati Pellada ekanligida Filipp II Frakiyaga qoʻshin joʻnatib, Xersonesni egallaydi. Filipp II bu hududlarni ham tan olinishini talab qiladi. Filokrat va uning sheriklari bu talabga ham rozi boʻladilar.

Mil. avv. 346-yilda Makedoniya bilan Afina va ittifoqchilari oʻrtasida sulh (Filokrat sulhi)⁵⁵ tuziladi. Sulhga koʻra, Makedoniyaning oʻsha vaqtgacha bosib olingan barcha polislari uning qonuniy hududi sifatida tan olinadi.

Afina Xalq majlisida Makedoniya gegemonligi tarafdorlari va raqiblari oʻrtasida kurash kuchayib ketadi. Munozaralarning markazida Filokrat sulhi turar edi. Demosfen va boshqa demokratiya

⁵⁴ https://studwood.ru/1056892/politologiya/grecheskaya_diplomatiya_

⁵⁵ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэкиз, 1940. – С. 51.

* **Ekleksiya** – Afinada davlat oliy organi; ichki va tashqi siyosatning muhim masalalarini hal qiluvchi xalq majlisi.

yo'lboshchilari bu sulhni Afina uchun qaqshatqich zarba deb hisoblaganlar.

Filipp II ning tashqi masalalar bo'yicha juda mohir kotiblari bo'lgan. Lekin, uning o'zi ham yunoncha og'zaki va yozmada juda mohir bo'lgan. Bu masalada Filippning Afina aholisiga qilgan bir qancha murojaatlari saqlanib qolgan. Shunday murojaatlardan biri Egey dengizidagi Galonnes oroli aholisiga yozilgan xatdir. Mil. avv. 342-yilda bu orol qaroqchilar tarafidan bosib olinadi. Filipp qaroqchilarni quvib yuborib, u yerda o'z hukmronligini o'rnatadi. Afinaliklarning orolni qaytarib berish haqidagi talabini rad qiladi: orolning o'ziga tegishli ekanligini, ular xohlashsa sovg'a qilishi mumkinligini, ammo xususiy mulki sifatida qaytarib bermasligini aytadi. Demokratiya yo'lboshchilari ekklesiyada* Filippga qarshi kampaniyani boshlab yuboradilar. Ular Filippni yakka hukmronlikka intilishda va Filokrat sulhini buzganlikda ayblaydilar.

Mil. avv. 346-yildayoq Filipp Delfa–Fermopol amfiktioniyasining xalqaro masalalar bo'yicha hakam (arbitr)i etib saylangan edi. Uning bunday vazifaga tayinlanishi dushmanlariga qarshi “muqaddas urush” e'lon qilish imkoniyatini bera olar edi. Mil. avv. 338-yilda Xeroneya yonidagi Beotiya shahrida Demosfen tomonidan tuzilgan ittifoqchilar va Filipp qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang bo'ladi. Bu jangda ittifoqchilarning qo'shinlari butunlay yengiladi.

Xeroneyadan keyin Filipp II janubiy Yunonistonga yurish boshlaydi. Spartadan tashqari, Peloponnes ittifoqi shaharlari Filipp hukmronligini tan oladilar. Har bir shahar Filipp bilan alohida-alohida mudofaa va hujum xarakteridagi shartnomalar tuzadi.

Mil. avv. 338/337-yilda Korinfda barcha polislar vakillari qatnashgan va butun Yunonistonga tegishli bo'lgan masalalar yuzasidan kongress chaqiriladi. Ushbu kongressda Spartadan tashqari, butun yunon polislari qatnashadi. Ushbu voqealar bilan Yunoniston tarixining uchinchi bosqichi boshlanadi.

Filipp boshchiligida chaqirilgan bu kongressda Yunonistondagi polislar o'rtasidagi o'zaro urushlar to'xtatilib, tinchlik o'rnatiladi. Shundan so'ng, Eronga qarshi urushga tayyorgarlik masalasi muhokama qilinadi. Parchalangan Yunoniston o'rniga Makedoniya hukmdori boshchiligida birlashgan Yunoniston federatsiyasi tuziladi.

Korinf kongressi shartlariga ko'ra, yunon shaharlari o'rtasidagi nizoli masalalar amfiktion sudida ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Ushbu amfiktion raisi esa Filipp edi. Birorta shaharga nisbatan jinoiy qaror

qabul qilinadigan bo'lsa, u shahar konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritiladigan, mulklari musodara qilinadigan, qullarini unga qarshi qo'zg'olonga da'vat etiladigan bo'ldi. Kongress yakunida Fors podsholigiga qarshi urush e'lon qilish haqida qaror qabul qilindi. Yunonlarning forslarga qarshi to'plangan ko'ngilli qo'shiniga boshliq etib Filipp tayinlandi. Korinf kongressi qarorlarida "podsho" iborasi uchramaydi. Yunonlar bilan munosabatda Filipp hech qachon o'zini podsho (basilevs) deb atamagan. Erkin yunonlar uchun u podsho emas, balki gegemon edi.

Mil. avv. 336-yilda Filipp II o'ldiriladi va uning ishini o'g'li Buyuk Aleksandr davom ettiradi.

Mil. avv. 334-yilda Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon-makedon qo'shini Eronga yurish boshlaydi. Uch jangda:

- Mil. avv. 334-yil – Granik daryosi yonidagi jang;
- Mil. avv. 333-yil – Iss yonidagi jang;
- Mil. avv. 331-yil – Gavgamela yonidagi jangda erishilgan g'alabalar natijasida Eronning katta qismi egallandi⁵⁶.

10 yildan ortiqroq vaqt mobaynida Aleksandr Egey dengizi qirg'oqlaridan Hindistongacha bo'lgan hududlarni, ya'ni Osiyoning katta qismini bo'ysundirgan. Aleksandr ham otasiga o'xshab, o'z siyosatini yuritishda nafaqat harbiy vositalar, balki diplomatik usullardan ham foydalangan. U diplomatik yo'l bilan Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini, Misr kohinlarini o'z tomoniga og'dirgan va hind rojalari bilan dushmanlariga qarshi birgalikda kurashgan.

Aleksandrning qattiqqo'l va vahshiyliги o'ldirilgan Eron hukmdori Doro III ga nisbatan munosabatida ko'rinsa, diplomatik munosabatlarda ustaligi hind podshosi Por bilan mil. avv. 326-yilda tuzilgan shartnomasida ko'rinadi. Unga ko'ra, nafaqat bosib olingan Hindiston yerlari unga qaytarib beriladi, shu bilan birgalikda bo'ysundirilgan hind yerlaridagi uni o'zining hokimi deb e'lon qilib, hatto bo'ysunadigan chegara hududlarini kengaytiradi ham.

Ellin davrida xalqaro munosabatlar va diplomatik aloqalar

Ellin davlatlari tarixi mil. avv. III-II asrlarni o'z ichiga oladi. Mil. avv. II asr oxiri va I asr boshiga kelganda ellin davlatlari yangi davlatlar Parfiya va Rim Imperiyasi tarafidan bosib olinadi.

⁵⁶Крушкoль Ю.С. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1974. – Б. 155-161; https://ru.wikipedia.org/wiki/Битва_при_Гавгамелах#Итоги_битвы

Aleksandr vafotidan soʻng yunon tarixida yangi davr – ellin davri boshlanadi. Aleksandr oʻzi bosib olgan hududlarda juda katta meros qoldiradi. Uning voyaga yetgan vorislari boʻlmagan. Taxtga valiahdlari, asosan, uning qoʻmondonlari boʻlgan. Uzoq muzokaralardan soʻng, Aleksandrning yoshi katta qoʻmondoni Perdikka hukmdorning voyaga yetmagan oʻgʻliga regentlikka tayinlanadi. Bu narsa qoʻmondonlar oʻrtasida norozilikka va vorislar oʻrtasida ayovsiz kurashga sabab boʻladi. Ushbu kurash mil. avv. 301-yilda Iss (hozirgi Turkiya hududi)dagi jangga qadar davom etadi, jangda vorislar Salavka va Lizmaxlar Antigon ustidan gʻalaba qozonadilar.

Issdagi jangdan soʻng, Aleksandr imperiyasi bir necha boʻlakka boʻlinib ketadi (aslida diadoxlar (qoʻmondonlar) oʻrtasidagi taxt uchun kurash mil. avv. 321-yildan to mil. avv. 281-yilga qadar choʻzilgan). Ular “ellin davlatlari” degan nom oladi. Oʻz xarakteriga koʻra, bu davlatlarning baʼzilari ellin demokratiyasi asosida, baʼzilari esa despotik davlatlar edi. Bu davrda ellin madaniyati Oʻrta Yer dengizi havzasidan qadimgi Sharq hududlarigacha tarqaladi.

Ellin davlatlari ichida Ptolomeylar bilan Salavkiylar davlatlari Oʻrta Yer dengizining sharqiy qismida hukmdorlik oʻrnatish uchun doimo raqobatda boʻlganlar. Bu raqobat natijasida ikki davlat oʻrtasida uzoq vaqt davom etgan Suriya urushlari kelib chiqdi:

- Birinchi Suriya urushi – mil. avv. 274–271-yillari;
- Ikkinchi Suriya urushi – mil. avv. 260–253-yillari;
- Uchinchi Suriya urushi – mil. avv. 246–241-yillar;
- Toʻrtinchi Suriya urushi – mil. avv. 219–217-yillar;
- Beshinchi Suriya urushi – mil. avv. 202–195-yillar;
- Oltinchi Suriya urushi – mil. avv. 169–168-yillar⁵⁷.

Suriya urushlari salavkiylarning toʻla magʻlubiyati bilan tugadi. Lekin, Makedoniya bilan tuzilgan ittifoqqa tayanib, salavkiylar hukmdori Atiox III Oʻrta Yer dengizining sharqiy qirgʻoqlaridagi Misrga qarashli bir qancha shaharlarni bosib olishga erishdi va Oʻrta Yer dengizi mintaqasida Rimning raqobatchisiga aylandi. Mil. avv. 192–188-yillarda Rim va Salavkiylar oʻrtasida boʻlib oʻtgan urushda Salavkiylar magʻlubiyatga uchradi. Mil. avv. 188-yilda tuzilgan Aramey shartnomasiga asosan Salavkiylarning Egey dengizi havzasidagi taʼsiri toʻla yoʻq qilindi. Mil. avv. 64-yilda esa Salavkiylarning oxirgi qismi (Suriya) Rim provinsiyasiga aylandi⁵⁸. Ichki ziddiyatlar va sulolaviy

⁵⁷ https://ru.wikipedia.org/wiki/Сирийские_войны

⁵⁸ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Селевкиды>

kurashlar natijasida Ptolomeylar ham mil. avv. 30-yilda Rim tomonidan zabt etildi.

Rim imperiyasining tashkil topishi (mil. avv. 27-yil) bilan Yunoniston ham rimliklarning viloyatiga aylantirildi. Milodiy IV asrdan boshlab Yunoniston Sharqiy Rim imperiyasi – Vizantiyaning o‘zagini tashkil etdi.

Ellinizm davrida doimiy davom etgan diplomatik, madaniy va iqtisodiy aloqalar asosida o‘ziga xos davlatchilik tizimi tashkil topadi. Bu tizimga Misr va Kirenadagi Ptolemeylar, janubiy-sharqiy Osiyodagi Salavkiylar, Makedoniyadagi Antigonlar, Kichik Osiyodagi Pergam, Vifiniya va Pont podsholiklari, Rodos orolidagi o‘ziga xos davlat (bu davlat hukmdorlari faol diplomatik aloqalar olib borishlari bilan mashhur edilar), yunon sohilbo‘yi davlatlari, Axey va Etoliya ittifoqlari, Sitsiliya, Karfagen va keyinchalik Rim imperiyasi ham kirgan.

Diplomatiya tarixida ellinizm davriga oid xalqaro munosabatlarni aks ettiradigan hujjatlar turiga shartnomalar matni, hukmdorlar maktublari, davlat arboblarning faoliyatlari, qadimgi tarixchilarning asarlari kiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan davlatlarda qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni olib boruvchi maxsus shaxslar shakllana boshladi. Tashqi siyosat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar dastlab Salavkiylar va Ptolemeylar davlatida paydo bo‘lgan. Ularning nazorati ostida maxsus devon ish olib borgan. Bu devon kotiblari elchilarga ko‘rsatmalar, hukmdorlarga qo‘shni davlatlarga jo‘natish uchun javob maktublari tayyorlar, hukmdor qabuliga kirishdan oldin elchilar bilan suhbatlar o‘tkazar edilar.

Davlatlar o‘rtasida elchilik almashish juda ko‘plab amalga oshirilgan. Elchilar qo‘shni davlatlarga urush e‘lon qilish va tinchlik sulhi tuzishdan tashqari, qo‘shni davlatlar hududida bir necha oy yashab turli ishlar va davlatning siyosiy hayotini kuzatar edilar. Elchilar hukmdorning maqsadlarini, mamlakatning harbiy va iqtisodiy hayotiga oid ma‘lumotlarni to‘plash, bundan tashqari, qo‘shni mamlakatga kelgan uchinchi davlat elchilarining maqsadlarini o‘rganishga harakat qilar edilar. Qo‘shni davlatlarga ketayotgan elchilarga aniq ko‘rsatmalar berilar, ularning javoblariga qarab qo‘shimcha ko‘rsatmalar jo‘natilar edi. Ba‘zan elchilar qo‘shni mamlakatlarga yashirin tartibda sayyoh va savdogarlar sifatida jo‘natilar edi.

Yozilmagan qoidalarga ko‘ra, elchilar o‘z hissiyotlari – quvonchi, nafrati, istehzosini ochiq bayon qilmasliklari kerak edi. Bir-biriga

dushman bo'lgan hukmdorlar bilan o'zaro munosabatda sokin va kulib suhbatlashishlari kerak edi. Makedoniya hukmdori Filipp V (mil. avv. 238–179-yy.) Etoliya ittifoqi elchilari bilan suhbatlashganida, hukmdor ularning makridan qo'rqan bo'lsa, elchilar esa hukmdorning qo'polligi va betakallufigidan xafa bo'lganligi haqida Polibiy xabar bergan. Elchi muzokara olib borayotgan hukmdorning nutqini bo'lmasligi kerak edi. Polibiy xabar berishicha, Makedoniya hukmdori Filipp V huzuriga kelgan rimlik elchi uning nutqini bo'lganida, elchini uch sabab bilan kechirgan: birinchisi, elchining yoshligi, ikkinchisi, yoqimtoyli, uchinchisi esa rimlik ekanligida, deb tushuntirgan.

Ellinizm davrida ayrim xalqaro huquq va me'yorlar vujudga keldi. Bunday qoidalar quyidagilar edi: urushda zaharlangan qurollardan foydalanmaslik, asirlarni agar unga to'lov to'lanadigan bo'lsa qaytarish, qo'shni davlatlarga rasmiy ravishda urush e'lon qilmasdan hujum qilmaslik va boshqalar. O'zaro munosabatlar va diplomatik muzokaralardan natija chiqmagan taqdirda, urush eng oxirgi vosita hisoblangan. Shuning uchun, tomonlar diplomatik munosabatlar davomida o'zlarining "tarixiy haqlari"ni asoslashga harakat qilar edilar. Ko'pincha qo'shni davlatlar o'rtasidagi munozarali masalalarda uchinchi davlatdagi hakamlik (betaraf) sudiga murojaat qilar edilar. Urushni tugatish va tichlik muzokaralarini boshlash maqsadida ko'pincha vositachi sifatida uchinchi betaraf davlatdagi hakamlik sudiga tinchlik sulhini tuzish uchun murojaat qilar edilar.

Ellin davlatlari ichida ko'pincha bunday vositachi davlat sifatida Rodos oroli hukmdorlari tanlanar va ular undan foyda olishni ko'zlar edilar. Davlatlar o'rtasidagi yashirin diplomatik yozishmalar mutlaqo oshkor qilinmas edi. Rim Imperiyasi bilan urush paytida Makedoniya hukmdori Filipp V Rodos oroli hukmdori bilan yashirin diplomatik yozishmalar olib borgan. U rimliklar tarafidan mag'lubiyatga uchratilgach, butun diplomatik yozishmalarni yo'q qilishni buyurgan.

O'sha davrda aloqalari do'stona bo'lmagan qo'shni davlatlar hukmdorlari muhim g'alaba erishganlarida, albatta, tabriknomalar jo'natilishi shart bo'lgan xalqaro etiket urf bo'lgan. Masalan, rimliklar Antiox III qo'shinlarini yengganlarida Rimga o'zlarini mag'lub, deb hisoblagan davlatlar hukmdorlari qimmatbaho sovg'alar va tabriknomalar yuborganlar. Ellin davlatlari elchilarining muzokaralari haqidagi hisobotlarida o'zlari borgan mamlakatlar haqidagi ma'lumotlar saqlangan.

Mil. avv. III asr oxiri – II asr boshlarida, ya'ni mil. avv. 197-yilda Makedoniya ustidan, mil. avv. 190-yilda Salavkiylar davlati ustidan qozonilgan g'alabalardan so'ng, xalqaro aloqalarga Rim imperiyasi aralasha boshlagan.

Bu davrda Rim O'rta Yer dengizi havzasida joylashgan quldorlik davlatlari o'rtasidagi xalqaro munosabatlarda gegemonligini o'rnatib, qo'shni davlatlarga o'z hukmini o'tkaza boshlagan.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Yunonistonda "prokseniya" atamasi nimani anglatgan?
2. Qadimgi yunon diplomatiyasi shakllaridan biri – amfiktioniyani tushuntirib bering
3. Qadimgi yunon xalqaro munosabatlarida "simmaxiya" qanday aloqalarni anglatgann
4. Kalliy sulhi qachon va nima munosabati bilan tuzilgan?
5. Antalkid sulhi qachon va nima munosabati bilan tuzilgan?
6. "Ittifoqchilar urushi" qachon va kimlar o'rtasida bo'lgan?
7. Korinf kogressida qanday masalalar ko'rilgan?

4-mavzu: Qadimgi Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Reja

1. Rim diplomatiyasining asosiy xarakterli xususiyatlari
2. Respublika davrida Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya
3. Imperiya davrida Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Tayanch iboralar: *audiensiya, fetsiallar kollegiyasi, “muqaddas ota” (pater patrus), rekuperatorlar, “fuqarolar huquqi” (jus civile), “xalqlar huquqi” (jus gentium), senat qarori (senatus consultum), legatlar va oratorlar, kvestor, kuriya, kvinkverema.*

Rim diplomatiyasining asosiy xarakterli xususiyatlari

Qadimdan Rimda ham yunon prokseniyasini eslatadigan mehmondoʻstlik huquqi (*jus hospitii*) mavjud boʻlgan. Fetsiallardan tashkil topgan kohinlar jamoasi qabila va qabilalar ittifoqlari oʻrtasidagi nizoli masalalar va kelishmovchiliklarni nazorat qilar edi. Tashqi siyosatga oid har qanday masalalar fetsiallarning ijozatisiz amalga oshirilmas edi. Ularning vakolatlariga xalqaro kelishuvlarni himoya qilish, harbiy harakatlarni rasmiy ravishda eʼlon qilish va tinchlik sulhlarini tuzish kabi masalalar kirardi⁵⁹.

Fetsiallar kengashi (kollegiyasi) 20 kishidan iborat boʻlib, bir umrga saylanar edi. Fetsiallarning faoliyati qatʼiy ravishda yashirin olib borilar edi. Ularning faoliyatiga oid turli qoidalar mavjud boʻlib, faqatgina ruhoniylar tushunadigan sehrli soʻzlari boʻlgan. Fetsiallardan tashkil topgan kohinlar jamoasi qabila va qabilalar ittifoqlari oʻrtasidagi nizoli masalalar hamda kelishmovchiliklarni nazorat qilar edi. Tashqi siyosatga oid har qanday masalalar fetsiallarning ijozatisiz amalga oshirilmas edi. Ularning vakolatlariga xalqaro kelishuvlarni himoya qilish, harbiy harakatlarni rasmiy ravishda eʼlon qilish va tinchlik sulhlarini tuzish kabi masalalar kirardi⁶⁰.

Qadimgi Rimda urush eʼlon qilish tartibi ham murakkab boʻlgan. Fetsiallar xalqaro kelishuvlarni buzgan raqib shaharga bir necha marotaba masalani tinch yoʻl bilan hal etishni taklif qilganlar. Bunda har

⁵⁹ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1940. – С. 58-62; Дипломатия Древнего Рима основные черты римской дипломатии. <https://studfile.net/preview/1791773/>

⁶⁰ Там же.

safar qarshi tomon chegarasiga kelib, xalqaro kelishuvlarni buzgan tomonga qarab sehrli soʻzlar va laʼnatlarni baland ovozda baqirar edilar. Shundan keyin fetsiallar Rimga qaytib kelib, 33 kun davomida javob kutganlar. Belgilangan muddatda javob kelmagach, Senat va xalqqa bajarilgan ishlar hamda urush eʼlon qilish mumkinligi haqida bayonot berganlar. Shundan keyin “muqaddas ota” soʻnggi bor dushman shahar chegarasiga uchi yongan va qonga belangan nayzani tashlab kelar edi.

Urush eʼlon qilish tartiblari Tit Liviy “Shaharning barpo etilish tarixlari” asarida batafsil yoritilgan. Tinchlik sulhini tuzish tartiblari ham oʻziga xos anʼanalar va qiyin ish hisoblangan. Tinchlik sulhi tuzilayotganida “muqaddas ota” shartnoma matnini oʻqir va ashaddiy fetsiallar tinchlikni buzgan tarafga ogʻir shartlarni qoʻyar edilar.

Fetsiallar kengashi haqida soʻnggi respublika va Imperiya davridagi manbalarda ham eslatilgan.

Rim jamoasida boshqa qabilalar bilan aloqalarni olib boruvchi shaxslar maxsus tayinlangan boʻlib, ular rekuperatorlar (recuperatores) deb atalgan. Odatda bunday vazifalarga tayinlangan kishilar soni 3 kishidan 5 kishigacha boʻlib, Rim va qoʻshni qabila hamda shaharlar oʻrtasidagi munozarali masalalarni hal qilish edilar. Mil. avv. II–I asrlarda Rim provinsiyalari aholisining noiblar ustidan qilgan arzlari va shikoyatlari ham rekuperatorlar sudi tomonidan koʻrib chiqilgan.

Xalqaro aloqalar rivojlanishi munosabati bilan Rimda xalqaro huquq kurtaklari paydo boʻla boshlagan. U fetsiallar huquqi (jus fetsiale) tarkibida paydo boʻlgan. Iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti va qabilalar oʻrtasida oʻzaro aloqalarning rivojlanishi natijasida rimlik fuqarolar uchun “fuqarolar huquqi” (jus civile) paydo boʻlgan, qabilalar oʻrtasidagi doimiy aloqalarning rivojlanishi natijasida rimlik va boshqa qabilalar oʻrtasidagi munosabatni yoʻlga qoʻyish uchun “xalqlar huquqi” (jus gentium) paydo boʻlgan. Bu huquqlar oldingi huquqlardan unchalik farq qilmasa-da, qabilalar oʻrtasida savdo aloqalari va munosabatlarni oʻrnatishda yordam bergan. Shunday qilib, “xalqlar huquqi” oʻzining mohiyatiga koʻra, xalqaro aloqalarga oid dastlabki huquq meʼyorlari edi.

Qadimgi Rimda urush eʼlon qilish va tinchlik sulhlarini tuzish masalalari xalq yigʻinida hal qilinar, tashqi siyosat esa Senat vakolatida edi.

Podsholik davrida (mil. avv. 753–509-yy.) elchilar yuborish huquqi podshoga tegishli boʻlib, elchilar esa fetsiallardan iborat edi. Respublika davrida ushbu huquq Senat vakolatiga oʻtdi. Elchilikka oid barcha masalalar Senatda muhokama qilingan va buning uchun maxsus

senat qarori (senatus consultum) qabul qilingan. Elchilik Rimda legatsiya (legationes), elchilar – legatlar (legati), oratorlar (oratores) va aso tutganlar (caduceatores) deb atalgan. Elchi shaxsi odat va qonun bilan himoya qilingan. Elchilar odatda senatorlar tabaqasidan saylangan. Barcha elchilik missiyalarning rahbarlari (princeps legations)⁶¹ bo‘lgan.

Tashqi ko‘rinishi jihatidan elchi oddiy fuqarolardan ajralib turgan. Unga berilgan oltin uzuk bepul yo‘lkira va yo‘lda kerak bo‘ladigan barcha ashyolarni bepul olish huquqini bergan. Elchilik mavqeini oshirish uchun ba‘zan hay‘atni harbiy kemalar (kvinkveremalar) kuzatib borgan⁶².

Elchilik maqsadi turlicha: urush e‘lon qilish, sulh tuzish, shartnomalar imzolash, bo‘ysundirilgan o‘lkalarda boshqaruv tartibini o‘rnatish, xalqaro muammolar va diniy masalalarni hal qilish kabilar bo‘lishi mumkin edi.

Elchilar o‘z missiyasini tugatganlaridan so‘ng, faoliyati haqida Senatga hisobot topshirishi kerak edi, bu “elchilik haqida doklad qilish” (legationem referro yoki renuntiare) deb atalgan.

Senat vakolatiga elchilikni jo‘natishdan tashqari, ularni kutib olish ham kirgan. Rimga kelgan xorij elchilar missiyasi ikkita toifaga bo‘linar edilar:

- Dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan mamlakatlar elchilari;
- Do‘stona kayfiyatda bo‘lgan mamlakatlar elchilari.

Rimga dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan davlatlarning elchilari shaharga qo‘yilmagan. Ular shahardan tashqaridagi Mars maydonida jamoat uchun ajratilgan maxsus joylardan biriga joylashtirilgan. Ular bu yerda Senatning qabul qilishini kutib turganlar. Audiensiya (rasmiy qabul) Bellona (ayol qiyofasidagi urush xudosi) ibodatxonasida amalga oshirilgan. Ba‘zan dushmanlik kayfiyatidagi davlatlar elchilarini qabul qilishdan bosh tortilar, bu paytda esa elchilar belgilangan muddatda mamlakat hududini tark etishlari va rasmiy ruxsatnoma bo‘lmagunga qadar Rimga kelmasliklari kerak edi.

Do‘stona kayfiyatdagi davlatlarning elchilari esa tenglik bo‘lmasda, kvestor (davlat xazinaboni) tomonidan hurmat bilan qarshi olingan. Ular kuriya (Senat majlisi bo‘ladigan joy) yaqinidagi maxsus binoga joylashtirilganlar.

Rimda elchilarga sovg‘a berish odati bo‘lgan. Hatto Kapitoliy tepaligi yaqinida ba‘zi hurmatli elchilarning haykallari qo‘yilgan. O‘z

⁶¹Там же.

⁶²Там же.

navbatida, Rimga kelgan elchilar kumush va oltindan iborat boʻlgan qimmatbaho sovgʻalar bilan kelar edilar. Masalan, Karfagen elchisi 25 funtlik oltin gulchambar sovgʻasini olib kelgan. Suriya hukmdori Antiox elchisi esa sovgʻa sifatida 500 funtlik oltin vaza keltirgan edi⁶³.

Shartnoma matnlari Rim tarixchilari va huquqshunoslarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Rasmiy xarakterga ega boʻlgan va tasdiqlangan hujjatlar Rimda kam saqlanib qolgan. Buning sababi quyidagichadir: elchilik shartlari yoziladigan vosita sifatida rimliklar mato, yogʻoch, mis va bronza lavhalardan foydalanganlar. Mato va yogʻoch vositalar tezda oʻz holatini yoʻqotishi mumkin. Lekin mis va bronzadan qilingan lavhalarning koʻpi esa “varvarlar” tomonidan Rimning bosib olinishi jarayonida talon-taroj qilingan va eritilib, qurol yasalgan. Yunonistonda esa shartnomalar marmar taxtachalarga oʻyib yozilgan boʻlib, u uzoq vaqtgacha oʻz ahamiyatini saqlab qolgan.

Respublika davri (mil. avv. 509–27-yy.)da Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Rimning respublika davridagi diplomatik munosabatlari:

- Rimning Yunoniston ustidan diplomatik gʻalabasi. Mil. avv. 211-yilda rimliklar va Etoliya ittifoqi oʻrtasida doʻstlik sharnomasini tuzigan. Mil. avv. 205-yilda Fenike shahrida Rim va Makedoniya oʻrtasida tinchlik shartnomasi tuzilgan;
- Afrikadagi Rim diplomatiyasi. Puni urushlari (mil. avv. 264–146-yy.);
- Rimliklarning Makedoniya podshosi Persey bilan kurashdagi diplomatiyasi (mil. avv. II asr);
- Rimliklarning Misr va Axeya ittifoqi ustidan diplomatik gʻalabasi (mil. avv. II asr);
- Yuliy Sezarning Galliyadagi diplomatiyasi (mil. avv. 58–51-yy.)⁶⁴.

Rim diplomatiyasi tarixi Rim davlatining dastlabki yuz yilliklaridayoq boshlangan. Bu haqida Rim–Italiya federatsiyasiga kiruvchi shaharlar va Karfagen bilan tuzilgan shartnomalar maʼlumot beradi.

Rim va Karfagen oʻrtasida 100 yildan ortiq davom etgan Puni urushlari (mil. avv. 264–146-yy.) natijasida ikki davlat oʻrtasidagi diplomatik aloqalar toʻxtatilgan:

⁶³Там же.

⁶⁴Там же.

- Birinchi Puni urushlari (mil. avv. 264–241-yy.)da Rim Sitsiliyani qo‘lga kiritdi va o‘zining provinsiyasiga aylantirdi, bundan tashqari karfagenliklar 10 yil davomida 3200 talant kontributsiya to‘ladilar⁶⁵;
- Ikkinchi Puni urushlari (mil. avv. 218–201-yy.)da Rim Ispaniyani qo‘lga kiritdi va O‘rta Yer dengizida o‘z hukmronligini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi;
- Uchinchi Puni urushlari (mil. avv. 149–146-yy.)da Rim to‘liq g‘alaba qozondi va Karfagen butunlay vayron qilindi.

Puni urushlaridan avvalroq Rim katta xalqaro maydonga chiqqan, ellin davlatlari bilan munosabatlarini yaxshilagan edi. Mil. avv. 272-yilda rimliklar Misrdagi Ptolomeylar va Sitsiliya orolidagi Sirakuza tiranlari bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatgan edilar.

Rimliklarning Adriatika dengiz sharqiy qirg‘oqlarida paydo bo‘lishi Illiriya urushlari (mil. avv. 229–219-yy.) deb ataldi hamda rimliklarning Bolqondagi ishlariga aralashib kelayotgan Makedoniya bilan munosabatlarining yomonlashishiga olib keladi.

Ikkinchi Puni urushi nafaqat qonli janglari bilan, balki, diplomatik kurashlarning boshlanishi bilan ham xarakterlanadi. Karfagen va Rim o‘rtasidagi urush O‘rta Yer dengizidagi turli davlatlar manfaatlarining to‘qnashuviga aylanadi.

Rimga qarshi Karfagen qo‘shini qo‘mondoni Gannibal shimoliy Italiyadagi Rimga bo‘ysunishni xohlamagan gallar huzurida nutq so‘zlaganda, ular tomonidan qizg‘in qarshi olindi. Gannibal Alp tog‘larini oshib o‘tganda, uning qo‘shini gallar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Urush harakatlari paytida Gannibal butun vositalarni ishga solgan holda Italiya ittifoqi shaharlarini o‘z tomoniga og‘dirishga harakat qildi. Mil. avv. 216-yilda Kann yonida rimliklar mag‘lubiyatidan keyin Gannibal dushmanga sulh tuzishni taklif qiladi. Senat tomonidan esa sulh to‘g‘risidagi butun takliflar rad etiladi.

Gannibal o‘zining kuchli qo‘shini vositasida Rimga qarshi koalitsiya tuzishga harakat qildi. Lekin, Gannibalga numidiyalik, ispaniyalik va gall qabilalarining bergan yordamlari rimliklarni yengishga yetmadi. Bunday sharoitda Gannibal vaziyatdan chiqish uchun Sharqdan, yunon-ellin dunyosidan yordam olishga harakat qiladi.

Ellin dunyosida bevosita Italiyaga eng yaqin mamlakat Makedoniya edi. Gannibal Makedoniya podshosiga diplomatik

⁶⁵ https://ru.wikipedia.org/wiki/Гай_Луцилий_Катул

missiyasini joʻnatadi. Bu davrda Makedoniyada Filipp V hukmronlik qilardi.

Mil. avv. 215-yilda Filipp V va Gannibal oʻrtasida doʻstlik shartnomasi tuziladi. Shartnomaning kirish qismida har ikki tomon abadiy doʻstlik, qardoshlik, bir-biriga yordam va ishonch haqida qasamyod qiladilar. Shartnoma davomida Makedoniya–Karfagen ittifoqi tinchlik va xalqaro munosabatlarning mustahkam garovi ekanligi taʼkidlanadi.

Gannibal va Filipp V oʻrtasida tuzilgan shartnoma Rimda qattiq xavotir uygʻotadi. Makedoniya–Karfagen ittifoqiga norozilik sifatida rimliklar Filipp va oʻgʻli Perseyga qarshi urush eʼlon qiladilar:

- Birinchi Makedoniya urushi (mil. avv. 215-205/4-yy.) Bolqon yarim orolidagi ziddiyatlarni keskinlashtirdi va Rimning Sharqqa ekspansiya davrini boshlab berdi;
- Ikkinchi Makedoniya urushi (mil. avv. 200–197-yy.) Filipp V ning magʻlubiyati, Makedoniyaning Yunoniston va Kichik Osiyoda taʼsirini yoʻqotishi bilan yakunlandi;
- Uchinchi Makedoniya urushi (mil. avv. 171–168-yy.) natijasida Makedoniya va butun Bolqon yarim oroli Rimga boʻysundirildi.
- Toʻrtinchi Makedoniya urushi (mil. avv. 150–148-yy.) natijasida Rimga qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻolon bostiriladi. Qoʻzlonchilar yoʻlboshchisi Andriks Rimga olib borilib qatl etiladi⁶⁶.

Rimliklar Makedoniyaga qarshi kurashda yunonlar bilan ittifoq tuzishga harakat qilganlar. Bu ittifoqqa harbiy va siyosiy jihatdan ancha kuchli boʻlgan Etoliya hamda Axeya ittifoqi davlatlari kirgan. Mil. avv. 212-yilda rimliklar va etoliyaliklar oʻrtasida bir qancha yunon davlatlari hamda shimoliy qabilalar kirgan doʻstlik haqidagi shartnoma tuziladi. Bunday sharoitda Makedoniya gʻarbiy va sharqiy tomondan dengizdan uzilib qoladi.

Filipp Etoliyaga qarshi kurash jarayonida vaqtdan yutqazadi, bu vaqtda esa Italiyada ahvol oʻzgaradi. Rim qoʻshini Gannibal qoʻshini ustidan bir nechta gʻalabalarga erishib, janubdagi muhim hududlarni karfagenliklardan ozod qiladi. Shunda Filipp V karfagenliklar bilan tuzilgan doʻstlik haqidagi shartnomani buzib, mil. avv. 205-yilda rimliklar bilan Fenike (Turkiya hududidagi shahar) shahrida tinchlik sulhi tuzadi. Rimliklar bir qancha hududlarni boy berishga majbur boʻladi, ammo endi Filipp V Gannibalga yordam bera olmas edi.

⁶⁶ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Македонские_войны#](https://ru.wikipedia.org/wiki/Македонские_войны#)

Mil. avv. III asr oxiri – II asr boshlarida Salavkiylar ellin dunyosining eng qudratli davlati bo‘lgan. U Sharqiy O‘rta Yer dengizida o‘z gegemonligini o‘rnatishga da‘vogarlik qilar edi. Natijada Rim va Salavkiylar o‘rtasida harbiy harakatlar (Suriya urushlari – mil. avv. 192–188-yy.) boshlandi. Kichik Osiyoda Magneziya yonidagi hal qiluvchi jang (mil. avv. 190-y.) ushbu mintaqada Rim ta‘sirining o‘rnatilishiga asos bo‘ldi. Rim Makedoniya va Salavkiylarga qarshi kurashda Rodos hamda Pergam podsholigi (mil. avv. 283 – 133-yy.) bilan bo‘lgan ittifoqdan foydalandi. Bu ittifoq chorak asrdan ko‘proq davr mobaynida mavjud bo‘ldi. Axeya ittifoqi ham Rimning ittifoqchisi edi⁶⁷.

Makedoniya davlatining yo‘q qilinishi hamda Salavkiylar davlatining zaiflashishi natijasida Sharqiy O‘rta Yer dengizida yangi xalqaro vaziyat yuzaga keldi va Rimning Sharqdagi tashqi siyosati o‘zgardi.

Rodos–Pergam ittifoqining saqlanib qolishi va kuchayishi endilikda Rim manfaatlariga to‘g‘ri kelmasdi. Aksincha, Rim ularning zaiflashishidan manfaatdor edi. Rim, o‘z paytida Pergam protektorati ostiga berib yuborilgan, Galatiyaning mustaqilligini e‘lon qildi, Paflogoniyani ozod deb tan oldi, Pergamning doimiy dushmani Vifiniya va savdo raqibi sanalmish Pontdagi Gerakleya bilan ittifoq tuzdi. Keyinchalik Pergam Rimga qaram bo‘lgan ittifoqchi, so‘ng esa provinsiyaga aylandi (mil. avv. 133-y.).

Rimning Rodosga nibatan siyosati yanada keskinroq edi. Undan Kichik Osiyodagi yerlar tortib olindi. Rodosga odatda Rim to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaramligini niqoblash uchun xizmat qilgan “Rim xalqining do‘stlari va ittifoqchilari” deb nomlangan unvon in‘om qilindi. Delos oroli “erkin port” maqomini oldi. Savdo endi ushbu port orqali olib borildi. Bu Rodos iqtisodiyotiga yomon ta‘sir qildi.

Shunday qilib, ushbu mintaqada Rimga qarshi chiqishga qodir kuchlar qolmagandi. Biroq, Rimning o‘zi ham Salavkiylar davlati va Ptolomeylar podsholigi (mil. avv. 332–30-yy. Misr)ni zabt eta olmadi. Rim ularga nisbatan ichki ziddiyatlarni kuchaytirish, sulolaviy kurashga aralashish, davlatlarni bir-biriga qarshi qo‘yish siyosatini olib bordi. Masalan, Salavkiylar davlatidagi qo‘zg‘olonlarni (Yaxudiyadagi qo‘zg‘olonni) qo‘llab-quvvatladi, mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga qo‘pol ravishda aralashdi.

⁶⁷ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэжиз, 1940. – С. 66-71.

Mil. avv. 168-yilda Suriya – Misr urushi natijasida misrliklar Rimga yordam so‘rab murojaat qildilar⁶⁸. Suriya podshosi Antiox IV huzuriga kelgan Rim elchisi unga ma’lum muddat ichida Misrdan chiqib ketishni talab qiladi va ushbu talab bajariladi.

Rim Yunonistonga nisbatan siyosatini ham o‘zgartirdi. Yunoniston rasman erkin bo‘lib qolaverdiyu, lekin amalda Rim ta’siriga tushib qoldi. Makedoniya tarafdorlarining bir qismi noiblar tomonidan jazolandi, yana bir qismi esa Rimga garov sifatida jo‘natildi. Rimliklar nuqtai nazaridan shubhali hisoblangan shaxslar garovga olinar va Italiyaga jo‘natib yuborilar edi.

Salavkiylar va Makedoniyaga qarshi kurashlarda Rimning sodiq ittifoqchisi bo‘lgan Misrga nisbatan siyosati o‘zgacha edi. Ammo, Misrning ham kuchayib ketishi Rim manfaatlariga to‘g‘ri kelmasdi. Sulolaviy kurashga aralashib kelgan Rim elchilari birorta da’vogarning kuchayishiga yo‘l qo‘ymasdi. Mil. avv. II asrning o‘rtalaridan Misr Rimning tazyiqini ko‘proq seza boshladi va asta-sekin qaram davlatga aylana bordi.

Bolqonga nisbatan Rim tajovuzining yangi bosqichi mil. avv. 149–146-yillarga to‘g‘ri keladi. Persey (Makedoniya podshosi, Filippning o‘g‘li)ning Makedoniyadagi qo‘zg‘oloni bostirilgandan keyin, ushbu mamlakat mil. avv. 148-yilda viloyatga aylantirildi. Endi rimliklar qaram davlatlar tizimidan voz kechib, hududlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosib olishga o‘tdilar. Rim Axeya ittifoqi va Sparta o‘rtasidagi nizolarga aralashib, mil. avv. 146-yilda barcha yunon ittifoqlarini tarqatib yubordi. Korinf shahri, Senatning buyrug‘i bilan, butunlay vayron qilindi va la’natlandi.

Shunday qilib, mil. avv. II asrning o‘rtasida mustaqilligini saqlab qolgan davlatlar – Misr, Suriya, Numidiya (Shim. Afr. hozirgi Tunis va Jazoirning bir qismi) keyingi siyosiy maydonda sezilarli rol o‘ynamadilar. Mil. avv. 111–105-yillarda Numidiya podsholigi ham yo‘q qilindi.

Mil. avv. II asrda ellin dunyosida Parfiya (tax. mil. avv. 250 – mil. 220-yy.), Armaniston, Pont podsholigi (mil. avv. 302 – mil. 62-yy.) kuchaya boshladi. Mil. avv. II asrning oxiriga kelib Qora dengizining butun janubi-sharqiy sohilini egallagan Pont podsholigi, ayniqsa, rivoj topdi.

Sarkarda Mitridat VI Yevpator mil. avv. 120-yilda (mil. avv. 63-yilgacha) Pont podshosi bo‘ldi. U Kichik Armaniston, Kolxida,

⁶⁸ https://ru.wikipedia.org/wiki/Сирийские_войны

Xersones va boshqa bir qancha yerlarni bosib olib, Sharqiy Oʻrta Yer dengizi mintaqasida eng yirik davlatlardan biriga aylandi. Mitridat, xatto, Rimga ham tahdid qila boshladi. U Vifiniya podshosi va rimliklar qoʻshinini magʻlub etib, “Osiyo” deb nomlangan Rim provinsiyasiga bostirib kirdi.

Mil. avv. II asrning oxirida Makedoniya va Yunoniston Rimdan ajralib chiqdi.

Bu voqealar Rim va Pont podshosi oʻrtasidagi birinchi urush (mil. avv. 88–85-yy.)ga olib keldi. Rimliklar ushbu urushda gʻalaba qozondi. Mil. avv. 85-yilda Dardan shahrida sulh tuzildi. Unga koʻra, Mitridat VI Gaylitsa daryosidan gʻarbda ishgʻol etgan yerlaridan voz kechishga, 3000 talant miqdorda harbiy kontributsiya toʻlashga va flotining bir qismini rimliklarga topshirishga majbur boʻldi.

Mil. avv. 70-yillarda Rimning ichki qiyinchiliklaridan foydalanib, Mitridat Rimga qarshi Misr va Oʻrta Yer dengizi qaroqchilari hamda Armaniston bilan ittifoq tuzdi (ikkinchi urush, asosan diplomatik yoʻl bilan).

Armaniston–Pont ittifoqi Rim uchun xavfli raqib boʻldi. Deyarli butun Suriya, sharqiy Kilikiya, Finikiya va Yahudiyaning katta qismi Buyuk Tixron II (mil. avv. 95–55-yy.)ning hokimiyati ostiga oʻtdi, Salavkiylar poytaxti Antioxiya arman podsholigining qarorgohi boʻlib qoldi. Shunday qilib, mil. avv. I asr 70-yillari oʻrtalarida Old Osiyo hududlarining katta qismi Pont va Armaniston oʻrtasida boʻlib olindi.

Pont podshosi Rimga qarashli Vifiniyani bosib oldi. Bu Mitridatning Rimga qarshi uchinchi urushini boshlab berdi (mil. avv. 74–64-yy.)⁶⁹. “Osiyo” viloyatidagi yunon shaharlari Rimdan ajralib chiqqa boshladi. Natijada Rim Armanistonga qarshi urush boshladi va dastlab muvaffaqiyat qozondi.

Lekin, keyinchalik vaziyat Mitridat va Tixron II foydasiga oʻzgardi. Rim qoʻshinlariga Pompey (mil. avv. 70, 55, 52-yy.da Rim konsuli, sarkarda) qoʻmondonlik qila boshlangandan keyin harbiy omad Rim tomonga oʻtdi. Rim Parfiya bilan shartnoma tuzib, Armanistonning harakatlarini zaiflashtirdi. Mitridat oʻz magʻlubiyatini tan oldi va Rimga qaram boʻlib qoldi.

Pompey bosib olgan hududlarda “Vifiniya va Pont” provinsiyasi tashkil etildi. Suriya va Yahudiya podsholigi ham Pompey tomonidan zabt etildi va Rim provinsiyasiga aylantirildi. Natijada, Rim deyarli

⁶⁹ Холлиев А. Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (маърузалар тўплами). – Тошкент. 2014. – Б. 32; <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/091/455.htm>

butun Kichik Osiyoni o'ziga bo'ysundirdi. Armaniston va Parfiya Rimning sharqdagi qo'shnilari bo'lib qoldi. Shunday qilib, Rim Sharqiy O'rta Yer dengizida ham gegemonligini o'rnatdi.

Mil. avv. I asrda Rim Parfiya bilan urushlar olib bordi. Mil. avv. 92-yilda tuzilgan shartnomaga ko'ra, Rim va Parfiya o'rtasidagi chegara sifatida Frot daryosi tan olingan edi. Mil. avv. 53-yilda Mark Litsiniy qo'mondonligidagi Rim qo'shinlari Parfiya tarkibidagi Mesopotamiyaga bostirib kirdilar, lekin Karra shahri yonidagi jangda mag'lubiyatga uchradilar. Mil. avv. 40-yilga kelib parfiyaliklar deyarli butun Kichik Osiyo, Suriya va Falastinni bosib oldi. Lekin, mil. avv. 37-yilda rimliklar ushbu provinsiyalar ustidan yana o'z nazoratini o'rnatdilar. Rimliklarning Frot daryosi ortiga harakatlari Antoniyning mil. avv. 36-yildagi mag'lubiyatidan so'ng to'xtatildi.

Mil. avv. 58–51-yillarda Yuliy Sezar (mil. avv. 100–44-yy. yashagan) yurishlari natijasida Galliya zabt etildi. Bunda Yuliy Sezarning diplomatik mahorati qo'l keldi.

Mil. avv. I asrning o'rtalarida Galliyada ibtidoiy jamoa tuzumidan davlatga o'tish jarayoni yuz berayotgan edi. Natijada qabilalar o'rtasida ustunlik uchun o'zaro qarama-qarshilik kuchayib ketdi. Bu qarama-qarshiliklardan Sezar Rim davlati manfaatlari yo'lida unumli foydalandi. U barcha urushayotgan qabilalarni "Rimning do'stlari" sifatida umumgall konferensiyasini chaqirishga muvaffaq bo'ldi. Bu barcha gall qabilalari vakillarining o'ziga xos diplomatik kongressi edi. Sezar kongressda o'zini umumgall qabilalarining yo'l boshchisi va manfaatlarini himoya qiluvchisi, deb e'lon qilinishiga erishdi. Natijada unga hakamlilik sudi va gallarning mafaatlarini himoyachisi sifatida gall sardorlari o'zlarining zarurlari, bir-birlarining ustidan arz va chaquvlari bilan murojaat qila boshladilar. Bu esa, Sezarga Galliya ichki ishlaridan to'liq xabardor bo'lishiga va o'zining diplomatik hamda harbiy muassasalarini to'g'ri yo'naltirishga imkon berdi. Natijada 52-yilda o'sha paytda G'arbiy Yevropaning eng boy o'lkasi bo'lgan va hozirgi Fransiya, Belgiya hamda Germaniyaning bir qismini egallagan Galliyani Rim Imperiyasiga qo'shib olinishiga olib keldi.

Yuliy Sezarning bu diplomatik siyosatini uning asrandi o'g'li va Rimning birinchi imperatori Oktavian Avgust Galliya, Germaniya, Britaniya hamda Sharqda davom ettirdi⁷⁰.

⁷⁰ <https://studfile.net/preview/1791773/page:2/>

Imperiya davrida Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya (mil. avv. 27– mil. 476-yy.)

Imperiya davrida barcha tashqi siyosat masalalari – urush eʼlon qilish, tinchlik oʻrnatish, elchilarni qabul qilish va kuzatish imperatorning vakolatida boʻldi. Diplomatiya idoraviy funksiyaga aylandi va respublika davridagi demokratik xususiyatini yoʻqotdi. Elchilar imperator tomonidan tayinlanadigan boʻldi va elchining vazifasi ham oʻzgardi. U oʻz faoliyati toʻgʻrisida faqat imperatorga hisobot berar edi. Respublika davrida amal qilingan elchilik hisobotlarining oshkora va ochiqligi tamoyillari tugatildi. Imperator Klavdiy (41–54-yy.) davridan boshlab elchilik ishlarini imperator shaxsiy devonxonasi boshqargan. Shu bilan birga, devonxona butun imperiyaning Oliy boshqaruv organi boʻlgan⁷¹.

Mil. I asrda Rim imperiyasi Kappadokiyan (17-y.), Mavritaniyani (40–46-yy.), Britaniyani (43-y.), Frakiyani (46-y.) bosib oldi⁷².

II asrda Dakiya (mil. avv. 82 – mil. 106-yy.da podsholik) va Arabiston (106-y.), Armaniston (114-y.), Mesopotamiya va Ossuriya (115-y.) zabt etildi. Oxirgi uch viloyatdan rimliklar tez orada chiqib ketishdi. Shunday qilib, II asrda imperiya harbiy harakatlari natijasida hududiy jihatdan eng katta kengayishga erishdi. Rim Imperiyasi oʻz qudratining yuqori choʻqqisiga chiqqanda uning provinsiyalari soni 54 taga yetdi.

Ilk imperiya davrida Rimning tashqi siyosati Parfiya podsholigi hamda shimoliy va shimoliy-sharqiy chegaralar (Reyn va Dunay daryolari) boʻylab joylashgan qabilalar bilan boʻlgan munosabatlarda yaqqol namoyon boʻladi. Parfiyaga qarshi 54–66, 114–117, 163–165-yillardagi urushlarda goh rimliklarning, goh parfiyaliklarning qoʻli baland kelardi.

Qabilaviy ittifoqlarning asta-sekin kuchayishi sababli imperator Adrian davri (117–138-yy.)da rimliklar tajovuzdan mudofaaga, yaʼni siyosiy-strategik mudofaaga oʻtishga majbur boʻldi.

Oʻsha davrlarda Rim Mesopotamiyadan ham voz kechishga majbur boʻldi va Parfiya bilan chegara sifatida yana Frot daryosi belgilandi. Reyn va Dunay daryolari boʻylab chegaralar mustahkamlandi. Britaniyada dengizdan dengizgacha choʻzilgan va shimoliy qabilalardan himoyalaniş uchun moʻljallangan Adrian qoʻrgʻoni barpo etildi.

⁷¹ Дипломатия Древнего Рима основные черты римской дипломатии. <https://studfile.net/preview/1791773/>

⁷² Холлиев А. Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (маърузалар тўплами). Тошкент. 2014. Б. 32.

Mark Avreliy (161–180-yy.) davridan boshlab Rim to‘liq mudofaalanuvchi davlatga aylandi.

Markoman urushlari (166–180-yy.)⁷³ varvar (german va sarmat qabilalari)lar bosqinining boshlanishi edi. Varvarlarning bir qismi surib chiqarildi, ikkinchi qismini esa Rim hukumati Dunay daryosi bo‘yidagi yerlarda ittifoqchi federatlar sifatida joylashtirishga majbur bo‘ldi.

III asrning o‘rtalarida Rim imperiyasi og‘ir ahvolga tushib qoldi. Gotlar Dunay daryosidan o‘tib, Meziya va Frakiyaga bostirib kirdi. Ular bilan kurashda imperator Detsey (249–251-yy.) halok bo‘ldi.

Imperatorlar Valerian (253–260-yy.) va Galen (253–268-yy.) davrida gotlar va ularning ittifoqchilari bo‘lgan varvar qabilalari Rimning Dunay oldi viloyatlariga bosqinchilik yurishlarini davom ettirdilar. Franklar va alemanlar qabilaviy ittifoqlari Reyndan Galliyaga o‘z bosqinlarini amalga oshirib, Pireneyagacha yetib borishdi. Sharqda Sosoniylar davlati hujumga o‘tdi, shoh Shopur I (240/243 – 272/273-yy.) 260-yilda Mesopotamiyaga bostirib kirdi. Shimoliy Mesopotamiyadagi Edessa shahri yaqinidagi jangda rimliklar mag‘lubiyatga uchradi. Imperator Valerian asirga tushdi. Mesopotamiyani egallash uchun Rim va Eron o‘rtasidagi kurash keyinchalik ham davom etdi.

III asr o‘rtalarida, ya’ni Galen hukmronligi davrida Galliya va Ispaniya (259-y.) Rimdan ajralib chiqdi va Galliya imperiyasini tashkil etishdi (259–273-yy.) 262-yilda esa Palmira ham ajralib chiqdi. Ushbu hududlar faqatgina 272–273-yillarda Rimga qayta bo‘ysundirildi.

Rim Imperiyasining tiklanishi imperatorlar Diokletian va Konstantin davrida ro‘y berdi. Lekin, shunga qaramasdan, Imperiya zaiflasha bordi. imperator Feodosiyning o‘g‘illari – Flaviy Arkadiy (395–408-yy.da Sharqiy Rim imperiyasi imperatori) va Flaviy Gonoriy Avgust (395–423-yy.da G‘arbiy Rim imperiyasi imperatori)lar davrida imperiya uzil-kesil ikki qismga bo‘linib ketdi (395-y.).

G‘arbiy Rim imperiyasi tarixi quldorlik munosabatlarining inqirozi va varvar qabilalarining bosqini sababli parchalana boshladi. Britaniya, Ispaniya, Afrika birin-ketin Galliyaning tarkibiy qismiga, ya’ni varvarlar qo‘l ostiga o‘tdi va 476-yilda batamom quladi.

Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya) esa yana 1000 yil atrofida umr ko‘rdi (1453-yilda Usmoniylar tomonidan tugatilgan).

⁷³ https://ru.wikipedia.org/wiki/Маркоманская_война

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Rimda tashqi siyosat masalalari kimlar tomonidan amalga oshirilgan?
2. Qadimgi Rimda rekuperatorlar qanday masalalar bilan shug'ullanganlar?
3. Rimga kelgan xorij elchilari qanday toifalarga bo'linar edi?
4. "Audiensiya" so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntirib bering.
5. Puni urushlari nechanchi yillarda va necha bosqichda bo'lib o'tgan?
6. Nechanchi yilda va qaysi shahar yonidagi jangdan keyin Gannibal rimliklarga sulh taklif etgan?
7. Makedoniya urushlari nechanchi yillarda va necha bosqichda bo'lib o'tgan?
8. Dardan sulhi qachon va nima sababdan tuzilgan?
9. Yuliy Sezar qaysi hududlarni bosib olishda jangdan ko'ra diplomatik usullardan unumli foydalangan?
10. Qaysi imperator davrida Rim imperiyasi xalqaro munosabatlarda tajovuzkor tashqi siyosatdan siyosiy-strategik mudofaaga o'tishga majbur bo'lgan?

5-mavzu: Oʻrta asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Reja

1. Ilk oʻrta asrlar diplomatiyasining oʻziga xos xususiyatlari
2. Vizantiya, varvarlar, Rim papasi, Franklar, Qadimgi Rusda diplomatik munosabatlar

Tayanch iboralar: *apokrisiariy, arrianlik, “Strasburg qasami”, Verden shartnomasi, vergeld, gerold, glossator, “Gratsian dekreti”, interdikt, konglomerat, konkista, legistr, Levant, mayordom, magistr officiorum, “logofet drama”, nunsitura, papa kuriyasi, “Pomestye haqida kapitulyariy”, postglossator, ratifikatsiya, senyor, snemax, syuzeren, federat, eskort, Sargrad*

Ilk oʻrta asrlar diplomatiyasining oʻziga xos xususiyatlari

Oʻrta asrlarning davrlashtirilishi:

- Ilk oʻrta asrlar (V asr oxiri – XI asr oʻrtalari);
- Yuqori yoki Klassik oʻrta asrlar (XI asr oʻrtalari – XIV oxiri);
- Soʻngi oʻrta asrlar yoki Ilk yangi davr (XIV – XVI asrlar)⁷⁴.

Koʻpincha oʻrta asrlar umumiy holatda 500–1500-yillar, deb davrlashtiriladi.

Yevropada oʻrta asrlar diplomatiyasining boshlanishi Gʻarbiy Rim imperiyasi va qulchilikning qulashi bilan bogʻliq. Rim imperiyasining qulashi natijasida Yevropada bir qancha varvar davlatlari tashkil topdi.

IV asrning oxiriga kelib Gʻarbiy Rim imperiyasi hududlarini german qabilalari birin-ketin bosib ola boshladilar. Imperiya bu davrda ichki inqiroz va yemirilish holatida edi. Sharqiy Rim imperiyasi esa varvarlarni katta harbiy kuch hisobiga zoʻrgʻa toʻxtatib turardi. V asrning boshida vestgotlar Sharqiy Rim imperiyasining Bolqon viloyatlarini talon-taroj qildilar va Italiyani vayronaga aylantirib, Ispaniya hamda janubi-gʻarbiy Galliyada oʻz qirolligiga asos soldilar. Vandallar, svevlar, burgundlar, franklar imperiya viloyatlarini birin-ketin bosib oldilar. Xitoyning shimoliy chegaralaridan koʻchib kelgan xunlar IV – V asrlarda Volgadan Reyngacha boʻlgan hududlarda oʻzlarining qudratli davlatini barpo etdilar.

Varvar davlatlari diplomatiyasining asosiy vazifasi harbiy-feodal aslzodalarning qoʻshimcha hududlarni bosib olishiga qaratilgan edi.

⁷⁴ https://ru.wikipedia.org/wiki/Средние_века

Chunki, feodallarning asosiy boyligi yer va yerga ishlov berishda qaram dehqonlarga egalik qilishdan iborat edi. Ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, qo'shni hududlarni bosib olish, talonchilik boyish usullari hisoblangan.

Rim imperiyasining bosib olinishi, Yevropaga ko'chmanchi xalqlarning kirib kelishi ham xalqaro munosabatlarni murakkablashtirib yuborgan. Bunday murakkab vaziyatda muammoni har doim ham kuch bilan yechish imkoniyati bo'lmay, bu borada diplomatik usul, ya'ni muzokara va sulh yo'li ham qo'llanilgan.

Varvar davlatlari diplomatiyasi shakllanishiga Rim imperiyasi davridagi diplomatik an'analarni saqlab qolgan Vizantiya katta ta'sir ko'rsatgan. Sharqiy Rim imperiyasida yuksak darajada rivojlangan diplomatiya o'zida ayyorlik, raqiblar kuchini bo'lib yuborish, o'z maqsadi yo'lida muzokara yurita olish, diplomatik kombinatsiyalarning barcha usullarini bilishlari, madaniy va diniy an'analarning kuchliligi, bularning barchasi o'rta asrlar diplomatiyasi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. O'rta asrlar Yevropa diplomatiyasining rivojlanishida Rim papalarining ham ta'siri katta bo'lgan.

Ilk o'rta asrlar sharoitida aniq bir diplomatik munosabatlarni o'rnatish imkoniyati yo'q edi. Chunki, urushlar natijasida doimo chegaralar o'zgarib turar, davlatlar qanchalik tez tashkil topgan bo'lsa, shunchalik tez qular edi. Buyuk Karl yoki Sharqiy slavyanlar tuzgan Kiyev Rusi kabi davlatlar ham kuchli iqtisodiy bazaga va mustahkam harbiy-ma'muriy boshqaruvga ega emas edi.

O'rta asrlar diplomatiyasi feodal tarqoqlikka mos ravishda va murakkab sharoitda rivojlanib borgan. Senyorlar o'zlarini qirollarga tenglashtirar edilar. Yirik yer egasi o'z mulkida hukmdor hisoblangan. Davlatlar va yirik yer egalari o'rtasidagi munosabatlar xususiy shaxslar hamda xalqaro munosabatlarda ham aks etgan.

Feodal tabaqalanish, o'ziga xos bo'ysunish tartibi, vassalning senyor oldidagi majburiyatlari, syuzeren va vassal o'rtasidagi munosabatlar qat'iy ravishda o'rnatib qo'yilgan bo'lsa-da, har bir yirik feodal deyarli mustaqil tashqi siyosat olib borgan, mustaqil ravishda urush e'lon qilish huquqiga ham ega bo'lgan.

Bu davrdagi diplomatiyaning asosiy vazifasi hukmdor va unga bo'ysungan yer egasi o'rtasidagi kelishmovchilik hamda to'qnashuvlarni hal qilish bo'lgan. Chunki, yirik feodallar, hatto, hukmdor yerlariga ham hujum qilar va ularni talar edilar. Bunday vaziyatda diplomatiya orqali G'arbiy Yevropaga xavf solayotgan arablar, Kiyev Rusiga janubdan

xavf solayotgan qipchoq va tatarlarga qarshi kurash masalasi ham hal qilinishi kerak edi.

Tarqoqlikni bartaraf etish uchun dastlabki harakat boshlangan paytda Rim papalari ham davlatlar va hududlar ustidan hukmronligini oʻrnatish maqsadida kurash boshlaganlar. Natijada hokimiyat uchun kurash papalar va imperatorlar oʻrtasidagi kurash shakliga aylangan hamda koʻplab Yevropa davlatlarini qamrab olgan.

Oʻrta asrlarda Papa hokimiyati nafaqat diniy, balki dunyoviy hokimiyatga aylana boshladi. Papalik oʻzining katta imkoniyatiga tayanib, Yevropadagi butun siyosiy kurashlarga aralashdi. Qitʼadagi mavqeini mustahkamlash maqsadida papalik hokimiyati davlatlar oʻrtasidagi raqobatni kuchaytirishga katta ahamiyat bergan. Papalar oʻz mavqelarini mustahkamlashda interdikt, sotib olish, josuslik, maxfiy qotillik kabi usullardan ham foydalanganlar. Shu bilan birgalikda, papa hokimiyati xalqaro shartnomalar, salib yurishlariga ham faol aralasha boshlagan⁷⁵.

Fransiya, Angliya, Ispaniya, Moskva Rusi kabi yirik davlatlar tashqi siyosatining asosiy maqsadi – yangi hududlar bosib olish, oʻz hududlari daxlsizligini taʼminlash, bu borada ittifoqchilar izlash, savdo yoʻllarini qoʻlga kiritish kabi masalalar edi⁷⁶.

Yevropada diplomatiyaning shakllanishida Italyan shaharlari muhim rol oʻynagan. Italiyada boshqa Yevropa davlatlariga nisbatan kapitalistik munosabatlar erta boshlangan. Bu yerdagi mustaqil shahar-davlatlar tashqi savdo masalasida doimo bir-biri bilan raqobat olib borar edi. Ularning birortasi ham boshqa Italiya hududlarini toʻliq boʻysundirish imkoniyatiga ega emas edi. Italiyaning birlashtirilishiga Papa hokimiyati ham toʻsqinlik qilardi. Italyan shaharlari tashqi savdoni rivojlantirish maqsadida diplomatiyaning butun kuchini ishga solar edilar. Italyan shaharlari diplomatiyasi rivojlanishiga oldingi davrlarda monarxiyaga asoslangan davlatlarda toʻplangan tajribalar ham taʼsir koʻrsatgan.

Vizantiya, varvarlar, Rim papasi, Franklar, Qadimgi Rusda diplomatik munosabatlar

Qadimgi Rim anʼanalarini oʻzida mujassam etgan vizantiyaliklar diplomatik munosabatlarda barcha vositalardan unumli foydalana

⁷⁵ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1940. – С. 90.

⁷⁶<https://studizba.com/lectures/85-politologiya/1205-diplomatiya/22479-9-osobennosti-evropeyskoy-diplomatii-v-srednie-veka.html>

olganlar. Vizantiya an'anasi dastlab Venetsiyaga, u orqali butun Italiya qirolliklariga, keyinchalik esa G'arbiy Yevropaga tarqaldi.

Rim va varvarlar dunyosining to'qnashuvi o'ziga xos xalqaro aloqalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Bu borada juda ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ulardan biri xunlar hukmdori Attila (434–453-yy.) bilan Sharqiy Rim imperiyasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlaridir.

- 441–442-yillar – xunlarning Vizantiyaga Atilla va Bleda boshchiligidagi birinchi yurishi. Vizantiya diplomati – tarixchi panionlik Priskning ma'lumotiga ko'ra, hozirgi Serbiyaning katta qismi bosib olindi;
- 447-yil – ikkinchi yurishi. Xunn bo'linma (otryad)lari Marmar dengiziga chiqadi va Yunonistonga yaqinlashdi. Frakiyada vizantiyaliklar va xunlar o'rtasida jang bo'ladi. Natijada Vizantiya uchun juda og'ir shartlar asosida sulh tuziladi;
- 448–450-yillar – Vizantiya va xunlar o'rtasida tinchlik shartnomasi tuziladi⁷⁷.

Bu shartnoma Vizantiya uchun juda og'ir shartlar asosida tuziladi: qochoq

harbiy xunlarni qaytarish, o'tgan davr uchun 6000 libr* (2 tonna atrofida) oltin hisobida o'lpon to'lash; har yili 2100 libr oltin hisobida o'lpon to'lash; har bir rim harbiy asiri va xunlardan to'lovsiz qochgan rim asiri uchun 12 oltin tanga to'lash, agar qochoq rim asiriga to'lov to'lanmasa, uni xunlarga topshirish; rimliklar tomonga qochib o'tgan varvarlarni qabul qilmaslik va hokazolar⁷⁹.

Diplomat Prisk 433/435-yilda Vizantiya imperatori Feodosiy II ning elchisi sifatida Attila huzuriga boradi. Imperatorning elchilari va xunlar o'rtasidagi uchrashuv chegara yaqini (Dunay daryosining o'ng sohilidagi Marguss – hozirgi Pojarevats shahri)da ro'y beradi. Xunlar muzokaralarni otda turgan holda olib borishni talab qiladilar. Muzokaralar xunlar talab qilganday holda o'tkazilgan. Shartnoma Vizantiya imperiyasi uchun haqoratli bo'lib, imperiyaga qochib o'tgan barcha qochoqlar xunlarga qaytarib berilishi va yiliga 700 funt oltin to'lanishi kerak edi. Muzokaradan so'ng har ikki tomon o'z odaticha qasam ichadilar⁸⁰.

⁷⁷ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Аттила>

* **Libra** – Qadimgi Rim o'lchov birligi. Bir libra 327,45 gramm yoki 12 unsiyaga teng bo'lgan, kop'roq qimmatbaho metallar, xususan, oltinning og'irligini o'lchashda qo'llangan.

⁷⁹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Аттила>

⁸⁰ https://ru.wikipedia.org/wiki/Приск_Панийский

Imperiyada elchilarga sovg'a berish odati bo'lgan. Attilaning elchilari qochoqlarni qaytarish uchun kelganlarida ularga sovg'a berilib, imperiya hududida qochoqlar yo'qligi haqidagi xabarni yetkazish uchun javob elchiligi jo'natiladi. Shundan so'ng, Attila ikkinchi elchilik missiyasini jo'natadi. Konstantinopolda ular ham yaxshi kutib olinib, sovg'a bilan ortga qaytarib yuboriladi. Keyinchalik, ayni shu talab bilan uchinchi va to'rtinchi elchilik ham jo'natiladi. Attila rimliklarning bu boradagi saxiyligini bilgan, shuning uchun ham ketma-ket elchilik missiyalarini jo'natgan bo'lishi mumkin. Bu elchiliklar natijasida Attila huzuriga ham javob elchiligi jo'natilgan.

Prisk 448-yil Attila tarafidan Feodosiy II (408–450-yy.) saroyiga jo'natilgan elchilik missiyasi haqida ham ma'lumot qoldirgan. Xunlar elchisi Edikon imperatorga Attilaning yorlig'ini topshiradi. Attila bu elchilik missiyasi orqali qochoqlarni qaytarib berish kerakligini eslatgan va shu bilan birgalikda chegara hududlarda savdo uchun yangi nuqtalar ochishni so'ragan edi. Imperator lotin tilida yozilgan yorliq bilan tanishib chiqadi. Shundan so'ng, elchi og'zaki tarzda o'z talablarini bayon qiladi. Xunn tilini bilgan saroy amaldori Vigila esa uni imperatorga tarjima qiladi⁸¹.

Saroy a'yonlari imperatorga Edikonni sotib olib, Attilaga suiqasd uyushtirishni va buning evaziga katta boylik berishni va'da qilish orqali xunnlardan qutulishni malahat beradilar. Edikon shartga ko'nadi va mamlakatiga qaytadi. Uning bilan birga elchi sifatida Vigila ham jo'naydi. Maslahatga ko'ra, suiqasdni aynan shu Vigila amalga oshirishi kerak edi. Lekin, Edikon fitna haqida Attilaga xabar beradi. Attila Vigilani katta to'lov evaziga o'ldirmaydi⁸². Bu xunnlarda ham elchi daxlsizligiga amal qila boshlaganligini ko'rsatadi.

Attila Vizantiyaga navbatdagi elchilik missiyasini jo'natib, imperatorдан uning huzuriga elchi sifatida oddiy odamlar emas, balki aslzodalar jo'natilishini talab qilgan edi. 449-yilda Attila huzuriga patrisiy Anatoliy va Nomlar elchi sifatida jo'natiladi. Attila elchilikka hurmat yuzasidan ularni chegarada shaxsan kutib oladi. U dastlab elchilar bilan qo'pol muomalada bo'ladi, lekin keyinchalik vaziyat yumshab, Konstantinopol uchun foydali bo'lgan shartnoma tuziladi. Xayrlashuv marosimida elchilarga qimmatbaho sovg'alar: ot va movut sovg'a qiladi. Shunday qilib, varvar davlatlari, jumladan xunnlarda ham

⁸¹ [https://dlib.rsl.ru/viewer/01003560520#?page=1/Римское посольстве к Атилле \(отрывок из сочинении Приска\)](https://dlib.rsl.ru/viewer/01003560520#?page=1/Римское_посольстве_к_Атилле_(отрывок_из_сочинении_Приска))

⁸² <https://ru.wikipedia.org/wiki/Атилла>

elchilik munosabatlarida asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, Rim diplomatiyasi an'analari shakllana boshlagan.

Atillaning keyingi talonchilik yurishlari G'arbiy Rim imperiyasi hududlariga qaratiladi (Galliyaga 451, 453-yillarda; Italiyaga 452-yilda)⁸³. 453-yilda Atillaning to'satdan vafot etishi xunnlarning G'arbiy Rim imperiyasidagi talonchilik yurishlarini to'xtatdi.

Tarixdan ma'lum bo'lishicha, Atilla Yevropa monarxlari ta'riflagandek, qo'pol va johil bo'lmagan. O'zaro muzokaralarda u o'zini ulkan imperiya imperatori sifatida tutgan. Fransuz tarixchisi Buvye-Ajanning ta'kidlashicha, Atilla har joyda va har qachon, ya'ni xulq-atvorda, tashqi ko'rinishning ahamiyatini anglashda, elchilar tanlashda, tantanali yoki aysh-ishratli qabullarda, tuzilayotgan shartnomalarning qattiq bosim ostida yoki nozik jihatlarida diplomat bo'lish kerakligini yaxshi tushungan. Bu jihatlar keyinchalik unga "odamlarni o'ziga bo'ysundira oladigan tug'ma talant sohibi, siyosiy o'yinlarning iste'dodli aktyori" bo'lishiga olib keldi⁸⁴.

476-yilda vestgotlar yo'l boshchisi Odoakr (476–493-yy. Italiya qiroli) tomonidan G'arbiy Rim imperiyasining so'nggi imperatori Romul Avgust (475–476-yy.) taxtdan ag'dariladi. Odoakrning Rimni bosib olgandan keyingi dastlabki diplomatik munosabatlari Sharqiy Rim imperiyasiga qaratilgan edi. U Konstantinopolga imperatorlik belgisi bo'lgan diadema va to'q qizil kiyimni jo'natadi. Bu G'arbiy Rim imperiyasi bundan buyon mavjud emas, degan ma'noni bildirar edi. Odoakr Senatdan o'ziga patrisiy unvoni va butun Italiyani boshqarish huquqini oladi. Sharqiy Rim imperatori Flaviy Zenon (474–491-yy.) tomonidan unga mavhum javob qaytariladi.

V asrning 80-yillari oxirida imperator Zenon Konstantinopolga tahdid solgan ostgotlar qiroli Teodorix (451–526-yy. yashagan)ni varvarlar tomonga yo'naltirishga muvaffaq bo'ladi. Bu bilan u poytaxtini saqlab qolishga va varvarlarni bir-biriga qarshi qo'yishga erishadi. Teodorix boshqa varvar yo'l boshchilari singari, Konstantinopol saroyida diplomatiyaning nozik jihatlarini o'rgangan edi. Bir qancha harbiy muvaffaqiyatlardan keyin, Teodorix Odoakr bilan Italiya hokimiyatini bo'lib olish masalasida muzokaralar olib boradi. Tantanali ziyofat paytida u Odoakrni o'ldiradi. Italiya esa 493-yilda ostgotlar hukmronligi ostiga o'tadi.

⁸³ Там же.

⁸⁴ <https://history.wikireading.ru/154716>. Маргусский договор, или Дипломат с мечом в руке.

Ostgotlarning xalqaro ahvoli nihoyatda murakkab bo‘lgan. Rimlik aristokratlar yerlarining bir qismi ostgotlar tarafidan olib qo‘yilgan bo‘lib, ostgot qirollari Vizantiya imperatori tomonidan o‘zlariga qarshi intervensiya uyushtirilishidan xavfsiz edilar. Vizantiya ham o‘z yangi qo‘shnisini xavotirlik bilan kuzatib borardi.

Ostgotlar G‘arbda boshqa varvar davlatlari bilan ham qiyin diplomatik munosabatlar o‘rnatishlariga to‘g‘ri keladi. Bu yerda xavfli qo‘shnilar bilan yaxshi munosabat qurishning bir yo‘li nikoh vositasidagi diplomatiyani o‘rnatish edi. Teodorix qizlaridan birini burgundlar qiroliga, yana birini vestgotlar qiroliga, singlisini vandallar qiroliga turmushga bergan, o‘zi esa franklar qiroliga singlisiga uylangan edi. Teodorix siyosatini yo‘naltiruvchi shaxs rimlik senator Flaviy Krassiodor edi. Krassiodor Teodorix tashqi munosabatlarda tinchlik siyosatini olib borishi tarafdori bo‘lgan. Krassiodor diplomatiyaga katta ahamiyat bergan. U “Diplomatlik – buyuk san’at”, – deb yozgan edi.

Ostgotlar vositasida Rim elchiligi san’ati butun varvarlar orasida tarqalgan. Franklar va vestgotlar saroylarida konstantinopolcha odo-axloq qoida (etiket)lari o‘rnatilgan. Varvarlar orasida ham elchining daxsizligi haqidagi qarashlar tez shakllana boshladi. “Sali haqiqati”ga ko‘ra, elchini o‘ldirganlik uchun katta to‘lov, ya’ni 1800 solid (oddiy frankni o‘ldirganlik uchun jarima 200 solid, qirol drujinachisini o‘ldirganlik uchun esa 600 solid edi) vergeld (o‘lgan inson uchun xun – R.M.) to‘lanadi, deb belgilab qo‘yilgan edi. Varvar hukmdorlari o‘z davlatlarida chet el elchilari uchun arzon turar-joylar va oziq-ovqatlar tashkillaganlar, kimki bunga qarshi bo‘lsa, ular jarimaga tortilgan⁸⁵.

Vizantiyaliklar varvarlar haqidagi barcha ma’lumotlarni diqqat bilan o‘rganganlar. Ular bu xalqlarning xulq-atvorlari, qo‘shini, savdo va boshqa davlatlar bilan o‘zaro aloqalari, ta’sir kuchiga ega bo‘lgan shaxslari hamda ularni sotib olish yo‘llari haqidagi aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishni istar edilar. Olingan ma’lumotlar asosida elchilik missiyasi tayyorlanar yoki “varvarlar haqidagi bilimlar” to‘planar edi.

Vizantiyaning varvarlarga nisbatan diplomatiyasi bosh maqsadi ularni Imperiya uchun xizmat qildirishga qaratilgan edi. Imperiyaga xizmat qildirishning eng oddiy yo‘li ulardan yollanma qo‘shin sifatida foydalanish bo‘lgan. Varvar qabilalari yo‘lboshchilari va hukmdorlari Vizantiya manfaati yo‘lida urush olib borish uchun sotib olinardi. Vizantiya chegaradagi qabilalarga chegaralarni qo‘riqlashlari uchun katta pul to‘lagan. Bundan tashqari, ularning yo‘lboshchilariga turli

⁸⁵ [https://ru.wikipedia.org/wiki/Салическая правда](https://ru.wikipedia.org/wiki/Салическая_правда)

unvonlar berilar, oltin va kumush diademalar, qimmatbaho yopinchiqlar, asolar tarqatilar edi. Varvarlarga joylashgan yerlarida vassal ittifoqchi (federat) sifatida hududlar ajratib berilar edi. Langobardlar Norik va Panoniyada, gerullar Dakiyada, xunlar Frakiyada, avarlar Savada shunday hududlarga ega bo'lganlar. Shunday qilib, bir varvar ikkinchi varvarga qarshi Vizantiya manfaatini qo'riqlar edi⁸⁶.

Vizantiyaliklar varvar yo'l boshchilarini Konstantinopol saroyiga ko'proq bog'lashni xohlaganlar. Shuning uchun ularga aslzodalar qizlari turmushga berilgan. Ularning farzandlarini esa Konstantinopol saroyida Vizantiya manfaatlariga sodiq holda tarbiyalaganlar, ikkinchidan esa, ular otalarining isyoniga qarshi garov sifatida ushlab turilar edilar. Bu davrda Vizantiya imperatorlari varvarlar o'rtasidagi janjalli vaziyatlarni diqqat bilan kuzatib borardilar. Ular quvg'in qilingan taxtga da'vogarlar yoki knyazlarga kerak paytida qo'llash uchun mulk berar edilar.

Lekin, yuqoridagi vositalar u qadar ishonchli emas edi. Varvarlar Vizantiyadan yanada ko'proq pul berishlarini talab qilar, aks holda dushman lagerlariga o'tish bilan tahdid qilar edilar. Buning eng ishonchli yo'li ularning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik, bir-biriga dushmanlik kayfiyatini kuchaytirish, ularni o'zaro kurashlari orqali kuchsizlantirish edi. Qadimgi Rim usuli – “bo'lib tashla, hukmronlik qil” siyosati Vizantiya diplomatiyasida ham keng qo'llanilgan.

Vizantiya diplomatiyasining asosiy xususiyatlari imperator Flaviy* Yustinian I (527–565-yy.) timsolida yaqqol namoyon bo'ladi. U o'z dushmanlarini kuchsizlantirishda ayyorlik bilan harakat qilgan va bunda turli diplomatik vositalardan foydalangan.

Sharqiy Rim Imperiyasi diplomatiyasi aynan Yustinian davrida o'zning yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Uning diplomatik aloqalari chegaralari Xitoy va Hindistondan Atlantika okeanigacha, ichki Afrikadan Qora dengiz sohillarigacha cho'zilgan edi. Yustinian diplomatik vositalardan mohirlik bilan foydalangan holda, o'z hududlari chegaralarini g'arbgacha yanada kengaytirishga muvaffaq bo'ladi.

Vizantiya saroyida Yevropa, Osiyo va Afrikadan kelgan ko'plab elchilar guruhini ko'rish mumkin edi. Vizantiyadagi elchilik idorasi bosh vazir nazorati ostidagi saroyda joylashgan edi. Tashqi ishlar (magistr officiorum⁸⁷, keyinchalik logofet droma⁸⁸) idorasida ko'plab

⁸⁶ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1940. – С. 98.

* **Flaviy** (lot. *flavus* – zarrin, oltinli, malla) – “malla”, “malla soch” ma'nolarini anglatuvchi qadimgi rimliklar ismi. Flaviylar sulolasi.

⁸⁷ https://ru.wikipedia.org/wiki/Магистр_оффиций

⁸⁸ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Дромологофет>

ma'muriyat vakillari xizmat qilib, ular barcha tillarda tarjimonlar, elchilikka oid vazifalarni bajaruvchi xizmatchilardan iborat edi. Shu tariqa elchilarni qabul qilish marosimining murakkab tartibi ishlab chiqilgan⁸⁹. Shu bilan birga, elchilarga imperiyaning zaif tomonlarini ko'rishlariga umuman imkon berilmas edi.

Yustinian diplomatiyasi qo'shnilar bilan aloqalarda shaxmat donalariga munosabatdagidek bo'lgan va o'zining butun dushmanlarini bir-biriga qarshi qo'ygan. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga harbiy yo'l bilan aralashish Yustinian diplomatiyasining yana bir vositasi edi. Bu uning vandal va ostgotlarga qarshi kurashida yaqqol namoyon bo'lgan. Afrika va Italiyada u tabaqalar o'rtasidagi kurashni, ya'ni yerlari tortib olingan rimlik aslzodalar hamda norozi ruhoniy toifalarni qo'llagan. Rimlik aslzodalar va ruhoniylar tabaqasi Yustinian tarafdori bo'lganlar. Papa Virgiliy undan Italiyaga muvaffaqiyatsiz tugagan dastlabki yurishini davom ettirishni yolvorib so'ragan. 555-yilda Yustinian qiyinchilik bilan bo'lsa-da, ostgotlar ustidan g'alaba qozonadi va Rimda quldorlik munosabatlari qaytadan tiklanadi. Yustinian aslzodalar va cherkovga yerlarini qaytarib beradi, qullar hamda kolonlarga gotlar hukmdori tomonidan berilgan yengilliklar bekor qilinadi.

Agar Yustinian dushmanni sotib olish va qurol kuchi bilan yengish imkoniyatiga ega bo'lmasa, siyosiy hamda iqtisodiy usullarni qo'llagan. Bu davrda Vizantiyaning eng asosiy dushmani Sosoniylar, ayniqsa, Xusrav I Anushervon (531–579-yy.) edi. Eronga qarshi harbiy yurish muvaffaqiyatsiz tugaganda, Yustinian Sosoniylarga qarshi xunnlarni, janubdan Suriya ko'chmanchilari bo'lgan badaviylarni, Efiopiyadagi Aksumni yo'naltirishga harakat qilgan. Hindistonni Eron orqali o'tadigan savdo yo'lini Qizil dengizga burishga da'vat qilgan.

Diplomatiya savdoning rivojlanishiga ham xizmat qilgan, ayni paytda esa savdo diplomatiya quroli sifatida foydalanilgan. Vizantiya atrofidagi savdo shaharlari Imperiya siyosatining ta'sisчилari sifatida chegaradagi nuqta (punkt) vazifasini bajarganlar. Boshqa davlatlar bilan aloqa qiladigan Vizantiya savdogarlari ular haqidagi ma'lumotlarni olib kelar edilar. Xristianlikni tarqatish ham bir necha yuz yil davomida Vizantiya diplomatiyasining kuchli vositalaridan biri bo'lgan. Vizantiya xristian missionerlari Kavkaz tog'lariga, Qora dengiz bo'yi sohillariga, Efiopiya va boshqa hududlarga kirib borganlar. Keyinchalik xristianlik slavyan qabilalari orasida ham tez tarqala boshlaydi. Ruslarda

⁸⁹ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэжгиз, 1940. – С. 100.

xristianlikning tarqalishi Vizantiya diplomatiyasining eng katta yutuqlaridan biri edi. Konstantinopol, ya'ni Sargrad (Shohshahar) yangi cho'qintirilgan xristianlarning muqaddas shahriga aylangan. Missionerlar, ayni paytda, yangi bo'ysundirilgan hududlardagi diplomatlar ham edilar. Ular yangi hududlarda knyazlar, aslzodalar, ayniqsa, jamiyatga ta'siri katta bo'lgan ayollarning nazariga tushishga harakat qilarganlar. Ko'p hollarda varvar yo'l boshchilarining xotinlari xristian ayollari bo'lib, ular ayollarining ta'siri ostida ixtiyorsiz ravishda Vizantiya manfaatlariga xizmat qilardilar. Rim papalaridan farqli ravishda Vizantiya xristianligi missionerlar faoliyatini yengillashtirish maqsadida mahalliy tillarda faoliyat yuritishga ruxsat bergan. Muqaddas kitoblar mahalliy tillarga tarjima qilingan. Shu maqsadda Injil got, xunn, abissin, bolgar va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bu siyosat tez orada o'z natijasini berib, Vizantiya varvar davlatlari orasida yagona yetakchi kuch sifatida ko'riila boshlangan.

Vizantiyada elchilik missiyalari chegarada kutib olingan. "Faxriy qo'riqchi" sifatida ularga ayg'oqchilar birlashtirilgan. Elchilar o'zlari bilan ko'p harbiy maslahatchi va qurol olmasliklari lozim edi. Ba'zan elchilarni poytaxtga uzoq va mashaqqatli yo'llardan olib kelinar edi. Bundan maqsad varvarlarni poytaxtga olib boruvchi yagona yo'l shu ekanligiga ishonitirish va oson yo'llarni bilib olmasliklari uchun edi. Yo'lda elchi maxsus xizmatchilar tomonidan yegulik va boshqa vositalar bilan ta'minlangan, aholi yashash joylaridan imkoni boricha uzoqda yurishga harakat qilingan. Turli yo'llar orqali elchilarni mahalliy aholi bilan muloqotga kirishishga yo'l qo'yilmas edi. Yo'llarda elchilar uchun maxsus turar-joylar tashkil etilgan bo'lib, poytaxtga kelishi bilan qamoqxona vazifasini ham bajargan saroyga joylashtirilgan. Elchining o'z xonasidan ruxsatsiz va nazoratchisiz tashqariga chiqishi taqiqlangan. Imperator qabuli elchini hayratda qoldirishi kerak edi⁹⁰.

X asrda Italiya qiroli Berengar II Iverskiy (950–964-yy.) elchisi tarixchi kremonalik Liutprand (922–972-yy.) imperator qabul marosimini juda noodatiy ekanligi haqida yozib qoldirgan. Qabulxonaning yon tarafida oltindan qilingan va dumlarini likillatib turgan sher haykallari borligi hamda hukmdorning ustidagi qimmatbaho matolarga e'tibor qaratgan. Liutprandni qabuldan keyingi ziyofat paytida hukmdor va a'yonlarining miyig'ida kulishlari ajablantirgan edi.

Liutprand imperator Otton I (936–961-yy.– Germaniya qiroli, 962–973-yy. – Muqaddas Rim Imperiyasi imperatori)ning elchisi sifatida

⁹⁰ Там же. – С. 101.

968-yilda ikkinchi marta Konstantinopolda bo‘ladi. Bu elchilikning maqsadi ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash bo‘lib, nemis imperatori o‘g‘liga Vizantiya imperatori Nikifor II (963–969-yy.)ning qizining qo‘lini so‘rattirgan edi. Elchi imperatorga yoqmaydigan taklif bilan kelganligi uchun uni alohida, qamoqxonani eslatadigan saroyga joylashtiradilar. Hatto, ko‘p vaqt suvsiz qoldiriladi, otda yurishga ruxsat berilmaydi, faqat piyoda sayohat qilishi mumkin edi. Chunki, Vizantiyaliklar Otton I ni imperator (vasilevs) emas, balki qirol (reks) deb hisoblaganlar⁹¹.

Liutprandning ma‘lumotiga ko‘ra, vizantiyaliklar elchi ma‘qul taklif bilan kelgan bo‘lsa, uni ko‘klarga ko‘taradilar, agar yoqmaydigan taklif bilan kelgan bo‘lsa, uni haqoratlaydilar, hatto o‘ldirishlari ham mumkin edi.

Vizantiyada elchilarni hayratda qoldirish maqsadida ularni hashamatli cherkov va saroylar, jamoat inshootlariga, bayramlarga olib borilar, yoki ularning sharafiga maxsus bayramlar tashkil qilinar edi. Elchilarga Konstantinopolning harbiy qudratini, shaharning qalin mudofaa devorini namoyish qilishar, ularning buzilmasligi haqida maqtanishar edi. Askarlarning ko‘pligini ko‘rsatish maqsadida, ularni paraddan bir necha marotaba qaytadan kiyintirib o‘tkazilardi. Hayratda qoldirilgan elchilar poytaxtdan ketar ekan, ularni hayqirib kuzatib qolishar edi. Ba‘zan kichik mulklardan kelgan elchilar ham, ularning mulkini Vizantiyaga qaram qilish maqsadida, shunday qabul marosimi bilan kutib olinar edi.

Konstantinopol saroyida Vizantiya bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatgan barcha davlatlar uchun elchilikka oid qonun-qoidalar ishlab chiqilgan edi. Elchi mamlakat tashqarisida imperatorning vakili bo‘lib, faqatgina unga berilgan vakolatlar bo‘yicha ish olib borishi lozim edi. Qo‘shimcha holatlar paydo bo‘lgan taqdirda, elchi hukmdoridan yangi ko‘rsatma olishi kerak bo‘lgan. Vakolatidan ortiqcha harakat qilish qattiq jazolanardi. Istisno holatlardagina imperator elchilariga o‘zlarining xohishlari bilan harakat qilishga ruxsat berilgan edi, xolos. Bunday favqulodda vakolatlar Vizantiyaning g‘olib sarkardasi Flaviy Velisariy (505–565-yy.)ga, keyinchalik Narses (478–573-yy.)gagina berilgan edi.

Elchi, albatta, ishonch yorlig‘iga ega bo‘lishi kerak edi. Ishonch yorlig‘i hashamatli so‘zlar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, elchilik maqsadi esa qisqagina so‘zlar bilan ifodalangan, xolos. Ishonch yorlig‘i

⁹¹ Там же. – С. 101-102; http://www.vostlit.info/Texts/rus/Liut_Kr/rametext3.htm

hukmdorning birinchi qabulida topshirilar, asosiy masalalar maxsus audiensiyalardagina muhokama qilinar edi. Muzokaralar olib borish uchun elchiga yozma, baʼzan esa ogʻzaki koʻrsatmalar berilar edi. Odatda oddiy masalalar yozma, maxfiy topshiriqlar esa ogʻzaki tarzda berilardi. Shunday qilib, elchilik asosan ikki maqsadda, yaʼni siyosiy va harbiy josuslik maqsadida amalga oshirilgan.

Baʼzan Vizantiya saroyida masala uzoq vaqt muhokama qilinganida, elchilar uzoqroq vaqt ushlab qolinib, ularga soʻnggi audiensiya tayinlanmas edi. Bu esa, elchilar uchun haqiqiy qamoq jazosi kabi edi. Odatda, elchilar Konstantinopolga kelgach, poytaxtda koʻp vaqt ushlab qolinardi. Buyuk Karlning Konstantinopolga joʻnatgan ishonchnomalaridan birida oʻz elchilarini koʻp vaqt ushlamaslik va ularni ortga tezroq qaytarib yuborish soʻralgan edi⁹².

Papalik va Franklar davlati

Papalik diplomatiyasi oʻrta asrlar Yevropa siyosiy taraqqiyotiga katta taʼsir koʻrsatgan. Mazkur diplomatiyada ekspulatsiya, aldov, sotqinlik, soxtakorlik, laganbordorlik va qattiqoʻllik kabi usullar qoʻllanilardi. Bu munosabatlar orqali papalik hokimiyati koʻplab Yevropa davlatlariga namuna boʻlar edi.

Papa Lev I (“Buyuk” 440–461-yy.) Yevropada mohirona diplomatiya vositasida oʻziga xos mavqeini mustahkamlagan. Uning 452-yilda xunlar Rimga bostirib kirganda, Atilla bilan olib borgan muzokaralari mashhur boʻlgan. Atillani faqatgina tovon olish bilan cheklanishga koʻndira oladi. Bu voqelik papaning obroʻsini oshirib yuboradi⁹³.

Rim imperiyasining agʻdarilishi va Italiyada varvarlar hukmronligi oʻrnatilishi natijasida papalik mavqei ancha zaiflashdi, katolik cherkovining yagonalik tizimi buzildi. Papalikning yetakchiligi tan olinsa-da, joylardagi cherkovlar deyarli mustaqil edilar. V asr oʻrtalaridan Rimda imperator hokimiyatining agʻdarilishi bilan Rim cherkovi Konstantinopolga qattiq bogʻlanib qolgan edi. Ular Konstantinopol saroyida apokrisiariy⁹⁴ deb atalgan doimiy rezidentlarini saqlar edilar. Apokrisiariylarga Vizantiya saroyidagi siyosiy kayfiyatni oʻrganish topshirilgan. Apokrisiariylar imperator saroyidagi maxsus turar joyda yashab, hukmdor bilan shaxsan muzokaralar olib borish

⁹² Там же. – С. 102-103.

⁹³ Там же. – С. 104-105.

⁹⁴ **Qarang:** [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Апокрисиарий](https://ru.wikipedia.org/wiki/Апокрисиарий)

huquqi berilgan edi. Apokrisiariylarga papa tarafidan diniy ishlar bilan birga siyosiy ishlar masalasida muzokara olib borishga ruxsat berilgan.

Italiya Yustinian tarafidan bosib olinib, langobardlardan ozod qilingach, Rim papalari Vizantiyaga rasmangina bo'ysunib, davlat darajasiga ko'tarilgan va amalda mustaqil harakat qila boshlaganlar. Ular langobardlar va Vizantiya o'rtasidagi siyosiy munosabatlarga tortilgan. Bu davrda esa G'arbda Franklar davlati muhim rol o'ynay boshladi. Rim papalari Franklar davlati timsolida langobardlar va Vizantiyaga qarshi kurashidagi hamkorni ko'rayotgan edilar.

Rim papalari sobiq Imperiya poytaxtidagi mavqelaridan foydalanib, turli davlatlarda o'z bazalarini mustahkamlay boshladilar. Ular bunga turli davlatlarda iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va xristian olamidagi yetakchilik mavqeini da'vo qilish orqali erishmoqchi bo'lganlar. Papa diplomatiyasining eng muhim vazifalaridan biri varvarlarni xristianlikka bo'ysundirish bo'lgan. Bunda ular qirollar bilan muzokaralar orqali u yerlarda o'z mavqealarini mustahkamlamoqchi bo'lganlar. Ayniqsa, papa Grigoriy I (590–604-yy.) xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynagan. U o'z faoliyatini Konstantinopolda apokrisiariylikdan boshlab, u yerda diplomatiyaning nozik jihatlarini yaxshi o'rgangan va kelajakda kerak bo'ladigan munosabatlarni o'rnata olgan. U vestgot va langobardlarni katolik arianlikka qo'shib olishda shaxsan ishtirok etgan. Grigoriy o'z missionerlariga varvar yetakchilari bilan ehtiyotkor munosabatda bo'lish kerakligini ko'p marotaba ta'kidlaganki, bu usul keyinchalik missionerlar faoliyatiga katta muvaffaqiyat keltirgan. U o'z missionerlariga eski aqidalarni birdaniga rad etmaslikni, eski ibodatxonlarni maqtashni, ularga qo'shimcha xristianlikni ham asta-sekin tadbiq qilishni buyurgan. Ular faoliyatida eski e'tiqodlarga daxl qilmaslikni, jonivorlarni qurbonlik keltirish ishlariga aralashmaslikni, qurbonlikni iblisga emas, balki haqiqiy xudoga keltirishlari kerakligini o'rgatishni ta'kidlagan. Vizantiya diplomatiyasining shogirdi sifatida Grigoriy ayol-katoliklar orqali yeretiklarga qarshi kurashda unumli foydalangan. Qirolicha Teodilinda langobard qirol-arianida, qirolicha Berta Janubiy Angliyadagi Etselbet saroyida, qirolicha Brungilda vositasida Ispaniyada o'z raqiblariga ta'sir ko'rsata olgan. Vizantiya imperatorlari oldida xushomad qilishdan chekinmagan papa, sharqiy patriarxlar bilan munosabatda masalalarni aylanib o'tish orqali Rimning yo'l boshchiligini saqlashga harakat qilgan. Papaning manzilgohlari Italiya, Sitsiyaliya, Galliya, Dalmatsiya, Afrika va Kichik Osiyo kabi hududlarda ham tashkil etilgan edi. Ushbu

hududlardagi vakillar papaning o'sha hududlardagi siyosiy ishlardagi vakillari ham hisoblangan. Grigoriy papa hokimiyatining mavqeini nihoyatda yuqori darajaga ko'targan. U o'zini "servus servorum dei" ("xudo qulining quli") deb atagan. Papaning bunday unvon (titul) bilan atalishi hujjatlarda hozirgi davrgacha yetib kelgan⁹⁵.

Grigoriy I ning vorislari doimiy ravishda Vizantiya imperatorlaridan mustaqil bo'lish uchun kurash olib borganlar. VII asrda arablar istilosi natijasida zaiflashgan Vizantiya ushbu harakatga qarshilik qila olmagan. VIII asrdan boshlab papalar Vizantiya bilan munosabatlarni uzil-kesil uzish uchun kurash boshlaganlar. Papa imperator-ikonobor Lev III ni la'natlagan. Ammo, Italiyada papalar uchun dushman, Rimga doimo xavf solayotgan langobardlar xavfi kuchayotgan edi. Langobardlardan himoyalaniş uchun papa boshqa varvar davlati – franklarga murojaat qiladi.

Franklarning siyosiy mavqei kuchayayotganligini e'tiborga olgan papalar Merovinglar bilan munosabatni kuchaytirishni qo'llab-quvvatlaganlar. Merovinglar mashhur Arnulfinglar urug'idan bo'lib, hokimiyatga kelmasdan oldin mayordom (saroy ishlarini boshlig'i) mansabida butun davlat ishlarini boshqarganlar. 739-yilda papa Grigoriy III (731–741-yy.) mayordom Karl Martellga "rimliklarni langobard bosqinidan qutqarishni" so'rab elchi yuboradi. Papa elchi bilan birga avliyo Pyotr soborining kalitini ham jo'natadi. Papa Karl Martellga do'stlik belgisi sifatida eng sara aslzodalarni jo'natgan. Karl Martell elchilarni tantana bilan kutib olib, ularga qimmatbaho sovg'alar beradi, lekin Italiyaning ichki ishlariga aralashmaslikka qaror qiladi.

Agar papalar mayordomlarga muhtoj bo'lsalar, mayordomlar ham papalarga muhtoj edi. Karl Martellning o'g'li Pipin pakana o'ziga qirol unvonini olishni xohlaydi va bu masalada papa hokimiyatiga suyanish kerak, deb hisoblagan. 751-yilda Pipin pakana Rimga elchilik missiyasini jo'natadi. Papa Zaxariy elchilarga "Eng yaxshisi kimki hokimiyatga ega bo'lgan bo'lsa, uni qirol deb atayversin" deb javob bergan. Bu bilan papa Pipin pakanani hukmdor deb e'lon qilinishi uchun sharoit yaratib beradi. Buning sababi papa hokimiyati uchun franklarning yordami kerak edi.

Langobardlar Rimga hujum qilganlarida yangi papa Stefan II (752–757-yy.) frank qirolidan yordam so'rash uchun shaxsan o'zi elchi sifatida jo'naydi. Uning sharafiga noodatiy qabul marosimi uyushtiriladi. Pipin bo'lajak qirol va o'g'li Karlni 100 mil masofaga

⁹⁵ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Григорий_I_\(папа_римский\)#Папа,_лангобарды_и_Византия](https://ru.wikipedia.org/wiki/Григорий_I_(папа_римский)#Папа,_лангобарды_и_Византия)

papani kutib olish uchun jo'natadi. Qirolning o'zi esa oilasi bilan chiqib papani kutib oladi. Papa saroyda qirol oldida tiz cho'kib, Rim va Pyotr soborini himoya qilishni so'raydi. Qirol unga butun kuchi bilan yordam berishni va'da qiladi. Buning evaziga papa qirol va uning o'g'illarini Rim patrisiylari safiga qabul qiladi. Papa kuchli eskort hamrohligida Rimga kuzatib qo'yiladi. Tez orada qirol Italiyaga bostirib kiradi va langobardlarni mag'lubiyatga uchratadi. 754-yilda tuzilgan shartnomaga ko'ra, langobardlar qirol Rimni o'z holiga qo'yishi va Italiyada oldin Vizantiyaga tegishli bo'lgan butun Ravenna, Rim, Urbino va boshqa mulklarni Papaga berishga qaror qilinadi. Shunday qilib, papaning dunyoviy hokimiyati – Papa viloyati tashkil etiladi. Vizantiya imperatori O'rta Italiyada papa hokimiyatini qonuniy ekanligi bilan kelishishga majbur bo'ladi.

Shunday qilib, papalar hokimiyati franklar qiroliga unga bergan mulklarda deyarli mustaqil bo'lib olgan edilar.

3. Buyuk Karl diplomatiyasi

Karl Karolinglar sulolasining yetuk vakili bo'lgan. Uning ismidan bu sulolaning nomi kelib chiqqan. Uning hukmronligi davri 46 yil davom etgan.

VIII asrning 70-yillarida Karl langobardlarga qarshi urush olib borib, langobardlar poytaxti Paviyani bosib olgan va qirol Dezideriy (756–774-yy.)ni tahqirlagan. Langobardlar qirolligi Franklar Imperiyasiga qo'shib olingan va o'sha davrdan franklar grafligiga aylangan hamda Buyuk Karlning o'g'li Langobardiyaning vitse-qiroliga bo'lgan.

Karl arablarga qarshi urush olib borib, Pireney yarim orolidagi vestgotlar qirolligini bosib olgan. 778-yilda Karl qo'shini Pireney yarim oroliga o'tib, arablarning muhim punkti bo'lgan Saragosa shahrini bosib olishga harakat qilgan. Ammo, bu yurish muvaffaqiyatsiz tugagan. Ortga qaytishda basklar hujum qiladilar. Franklar jangda mag'lubiyatga uchradilar. Bu haqida XI asrda yaratilgan mashhur franklar dostoni "Roland haqidagi qo'shiq"da ma'lumot berilgan.

VIII asr oxiri – IX asr boshlarida franklar arablar konkistasini to'xtatish maqsadida Pireney yarim oroliga bir necha marotaba yurish qilganlar. Buyuk Karl hozirgi Ispaniyadagi Pireney va Ebro daryolari oralig'idagi hududlarni bosib olishga muvaffaq bo'ladi. Bu hududlarda Buyuk Karl ispan markasini tuzadi. Bu marka Karolinglar Imperiyasiga arablarning kirib kelishiga qarshi chegara hisoblangan. Keyinchalik

ushbu marka o'rnida Barselona grafligi tashkil topgan. Karl I ning o'g'illaridan biri Akvitaniya qiroli bo'lgan.

Buyuk Karl bosqinchilik yurishlarining asosiy qismi sharqqa, ya'ni Markaziy Yevropaga nisbatan bo'lgan. U ko'plab yurishlarini sakslarga qarshi (772–804-yy.) amalga oshirgan. Saksoniyaning bosib olinishi Karl uchun katta ahamiyat kasb etib, yangi yerlarni bosib olish, krepostnoylarga ega bo'lish, Boltiq dengizidagi savdo imkoniyatini berar edi. Buyuk Karl sakslarni birinchi bor VIII asrning 70-yillarida bo'ysundirgan edi. Padeborn (777-yil)dagi syezdda sakslar franklar qiroliga sadoqat bilan xizmat qilishga qasamyod qiladilar. Ushbu syezdda Karl sakson yo'l boshchilari va qabilalariga o'z tillaridan voz kechish va xristian dinini qabul qilish shartini qo'ygan edi. Saksoniyaga xristian ruhoniylari jo'natiladi. Saksoniya hududida cherkovlar qurilib, monastirlar tashkil etila boshlanadi. Shu davrdan boshlab sakslar yangi soliq turi – ushrga tortiladi. Erkin saks jamoalari taqiqlanadi.

VIII asr 70-yillari oxiridan boshlab Saksoniyada franklarga qarshi qo'zg'olonlar boshlangan. Buyuk Karl sakslar qo'zg'olonlarini shafqatsizlik bilan bostirgan. Minglab saksoniyaliklar qatl qilingan, shunga qaramasdan sakslar o'zlarining mustaqilliklari uchun kurashni davom ettirganlar. Shunda Karl I sakslarni bo'ysundirishning boshqa yo'lini tanlagan, ya'ni saks zodagonlarini katta boyliklar bilan sotib olish yo'liga o'tgan. 785-yilda saks yo'l boshchilaridan biri Vidukind qo'zg'olonchilarga xiyonat qiladi va Karl tarafiga o'tadi. Sakslarning oxirgi qo'zg'olonlari IX asr boshlarida yuz bergan. Qo'zg'olonchilarning asosiy kuchi oddiy saks dehqonlari bo'lgan. Qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirilgan.

Bu davrda Karl polab slavyanlarini (Laba daryosi bo'yida yashovchi slavyanlar, hozirgi Polsha hududi) bo'ysundirish uchun urushlar olib borgan. Natijada bir qancha slavyan qabilalari (lyutich, lujichan) Karl I ga soliq to'lashga majbur bo'lganlar.

Karl I Dunayning o'rta oqimida franklardan mustaqil Avar davlatini tashkil etishga harakat qilgan.

Karl davrida yuqori Dunay oqimida joylashgan va oldin franklarga doimiy soliq to'lab turgan Bavariya qirolligi to'liq bosib olingan. Shu bilan birga, Buyuk Karl Karintiya va Bolqon yarim orolining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan xorvatlar hududlarini imperiya tarkibiga qo'shib oladi.

Bosqinchlik yurishlari natijasida Buyuk Karl imperiyasi chegaralari g'arbda Pireney yarim oroli va Atlantika okeanidan

boshlanib, sharqda Dunay va Adriatika dengizigacha cho‘zilgan edi. Imperiyaning shimoliy hududlari esa Nemis qirg‘oqlari, Shimoliy va Boltiq dengizidan boshlanib, janubda Janubiy Italiyagacha cho‘zilgan edi.

Rim papaligi Buyuk Karl davrida uning vassaliga aylangan. Imperiya hududining kengayishi va ahamiyatining oshishi bilan qirol unvoni imperator unvoni bilan almashtiriladi.

800-yili 25-dekabrda Rimdagi Pyotr soborida Rojdestvo bayramida papa Lev III tarafidan Karlga imperator unvoni berilib, toj kiydiriladi. Marosimdan keyin Karl “rimliklar imperatori” deb atala boshlangan.

G‘arbiy Yevropada buyuk davlatga asos solgan Karl Sharqdagi ta’sirini diplomatik yo‘llar bilan kengaytirgan. U nafaqat Vizantiyani, Xorun ar-Rashid boshchiligidagi musulmon dunyosini ham o‘zini imperator sifatida tan olishlariga majbur qilgan. Bu ikki buyuk davlatlar o‘rtasida o‘zaro elchiliklar almashgan diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan.

Karl I dan kapitulyariy deb atalgan ko‘plab buyruq va farmonlar qolgan. Bugungi kungacha Buyuk Karlga oid bo‘lgan 250 ta kapitulyariy saqlanib kelmoqda.

Karl Imperiyasi Yevropada shunday mavqega ega bo‘ldiki, u bilan faqatgina Vizantiya imperatorlari tenglasha olar edilar. Vizantiya bilan munosabatlar Karl diplomatiyasida alohida o‘rin tutar edi. Dastlab Karl G‘arb va Sharqni birlashtirish uchun malika Irina (Vizantiya imperatrisasi)ga uylanish orqali buni amalga oshirish rejasini tuzgan. Ammo, Irining taxtdan tushirilishi bu rejani amalga oshirishga xalaqit bergan. Yangi imperator Nikifor Karlning imperator unvonini tan olmagan. Natijada franklar va Vizantiya o‘rtasida bir necha yil davomida diplomatik munosabatlar uzilib qolgan. Bu davrda Vizantiya arablar, bolgar va avarlar hujumi natijasida ancha kuchsizlanib qolgan, franklar davlati esa kuchayib borayotgan edi. Karl esa Falastindagi muqaddas joylardan bir necha marotaba chorlovlarni qabul qilgan edi. Bu muqaddas joylar oldin Vizantiya imperatoriga tegishli bo‘lib, endilikda Karl nazorati ostiga o‘tgan edi. Imperator unvonini olishi bilan Karlga Quddus patriarxi maxsus elchilik bilan imperatorga “Isoning qabri” kaliti va Quddusning belgisini jo‘natadi.

Axendagi Karl saroyiga doimiy ravishda Daniya, Angliya va boshqa davlatlardan elchilar kelib turgan. Karlga faxriy Asturiya qirolu Alfonso II va Shotlandiya qirolidan ham elchilar kelgan. Ularning

barchasi G'arb hukmdori bilan do'stlik aloqalarini o'rnatishga harakat qilganlar.

Frank tarixchilari xalifa Xorun ar-Rashid va Karl o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganligi haqidagi xabarlarini berganlar. Elchilar bilan birga Xorun ar-Rashid tomonidan franklar qiroliga jo'natilgan fil ularda alohida taassurot qoldiradi. O'sha davrda G'arb va Sharq o'rtasidagi diplomatik munosabatlar yahudiy savdogarlari orqali amalga oshirilgan.

Qadimgi Rus diplomatiyasi

IX asrda Dnepr bo'yi va unga tutash hududlarda "Rus"⁹⁶ deb atalgan davlat tashkil topadi. Kiyev Rusi hukmdorlari boshqa davlatlar kabi o'z hududlarini har tomonlama kengaytirishga harakat qilganlar. Uzoq o'lkalar Volgabo'yi, Kaspiy va Qora dengizbo'yi, Vizantiya chegaralarigacha bo'lgan hududlarga asir va o'ljalar uchun yurishlar amalga oshirilgan. IX asr oxiriga kelib, Rus davlati shunday mavqega erishdiki, qo'shni xalqlar u bilan hisoblashadigan bo'ldilar.

Qadimgi Rus davlati xalqaro munosabatlarga juda erta tortilgan. Uning joylashgan geografik o'rni shuni taqazo etar edi. Qadimgi Rus davlati Qora dengizni Volga daryosi orqali Boltiq dengizi bilan, Dnepr daryosi orqali Qora dengiz bilan, Volga daryosi orqali Kaspiy dengizi bilan, janubdan Bolgar davlati va Vizantiya Imperiyasi bilan, sharqda Xazar xoqonligi va Volga Bulg'oriyasi bilan, shimoldan Skandinaviya bilan chegaradosh edi. Skandinaviya xalqlari bilan esa qadimgi Rus davlati bilan sulolaviy qarindoshlik aloqalari bo'lgan. Varyaglar rus knyazlariga yollanma qo'shin sifatida xizmat qilganlar. Xazar orqali ruslar Markaziy Osiyoga mo'yna va asirlarni jo'natar edilar. Ayni paytda Xazar xoqonlari Rus hukmdorlari bilan Dnepr bo'yi xalqlaridan soliq yig'ish borasida kurash olib borar edilar.

Sharqiy slavyan xalqlari tarixida esa Vizantiya bilan qo'shnilik muhim rol o'ynagan. Qadimgi Rus davlati Vizantiya uchun bozor vazifasini o'tagan. Rus knyazlari u yerga mo'yna, qul va boshqa narsalar olib borganlar, u yerdan qimmatbaho matolar hamda turli bezak buyumlari keltirilgan. Shohshahar (Konstantinopol)da ruslar Sharqiy Rim Imperiyasi madaniyati bilan tanishganlar. Shohshaharning boyligi va bezaklari rus knyazlarni doimo o'ziga rom etgan. Ruslarning Vizantiyaga qaram bo'lgan Qora dengiz bo'yi va Konstantinopolga qilgan yurishlari IX asrdan – XI asr o'rtalarigacha davom etgan.

⁹⁶https://ru.wikipedia.org/wiki/История_Древней_Руси#До_призвания_варягов

Vizantiya rus yerlarini o‘z siyosiy tizimiga qo‘shib olishga harakat qilardi. Sababi:

- ular tomonidan Imperiyaga bo‘ladigan xavfni kuchsizlantirish;
- ruslarni o‘z manfaatlari yo‘lida bo‘ysundirishni maqsad qilgan edilar.

944-yildagi Igor (912–945-yy.)ning Vizantiya bilan tuzgan shartnomasiga ko‘ra, ruslar Vizantiya nazorati ostidagi Qrimga bolgarlarni o‘tkazmaslik majburiyatini olgan edilar. Igorning o‘g‘li Svyatoslav davrida esa Vizantiya diplomatlari Dunayda o‘zlari uchun xavfli bo‘lgan Bolgar davlatiga qarshi kurashda ruslardan foydalanishga harakat qilganlar. Svyatoslav Bolgariyada mustaqil siyosat yuritishni boshlaganida Vizantiyaliklar ruslarga qarshi qipchoqlarni yurishga undaganlar. Svyatoslav Vizantiyaga qarshi ikkinchi yurishida qipchoqlar tomonidan o‘ldirilgan.

Kichik Osiyoda Vizantiyaga qarshi Varda Foki boshchiligida qo‘zg‘olon boshlanganida, imperator Svyatoslavning o‘g‘li Vladimirdan yordam so‘rashga majbur bo‘lgan. Vladimir shartnomani mustahkamlash maqsadida Vizantiya malikasining qo‘lini so‘ragan. Vladimir esa o‘z xalqi bilan xristian diniga o‘tishi kerak edi. Cho‘qintirish vizantiyaliklar tarafidan ruslarni o‘zlariga vassallikka bog‘lash deb tushunilgan⁹⁷.

Xristianlik qabul qilingandan keyin ruslarning xalqaro munosabatlardagi faoliyati kengaydi va mustahkamlandi. Qadimgi Rus davlati nafaqat Vizantiya bilan, balki katolik dinidagi boshqa Yevropa davlatlari bilan ham o‘zaro teng huquqli aloqalar olib boradilar. Yilnomalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Vladimir Svyatoslavich davrida atrofdagi davlatlar – Polsha hukmdori Boleslav, vengr qiroli Stefan, chex qiroli Andrix (Udalrix), Skandinaviya xalqlari bilan tinch munosabatlar o‘rnatilgan. Ular bilan munosabatlar XI asrgacha davom etgan.

Siyosiy munosabatlar nikoh vositasida mutahkamlangan. Polsha qiroli Boleslav Jasur Vladimir Svyatoslavichning qiziga uylangan, uning vorisi Kazimir Vladimirdan boshqa qizi Mariya Dobrognevaga uylangan. Yaroslavning kichik qizi Anastasiya vengr qiroli Andreyga, katta qizi Elizaveta norveg qiroli Garold Gardradga turmushga chiqqan. Yaroslavning o‘zi esa shved qiroli qizi Olafa Ingigerdga uylangan edi⁹⁸.

⁹⁷ История дипломатии. Том 1. Москва: Политиздат, 1959. – С.120.

⁹⁸ Там же. – С. 122.

Rus davlatining qo‘shni xalqlar bilan munosabatlari doimiy ravishda rivojlanib borgan. Yaroslav umumiy dushman Polshaga qarshi kurashda German qirolini o‘z tomoniga tortishga harakat qilgan. Bu maqsadda 1043-yilda poytaxt Goslarga elchilik missiyasini jo‘natadi. Elchilik bilan birga Yaroslav rus knyaginasini qirolga uylanish uchun taklif qiladi. Lekin elchilik o‘z maqsadiga erisha olmagan. Tez orada Yaroslav qizini fransuz qirol Genrix I ga turmushga beradi.

Rus davlatining xalqaro munosabatlari xarakteri Kiyev knyazlarining qo‘shni davlatlar bilan tuzilgan shartnomalarda namoyon bo‘ladi. Yunonlar bilan tuzilgan uch shartnoma saqlanib qolgan. Bular, Oleg (879–912-yy.)ning 911-yilda, Igor (914–945-yy.)ning 944-yilda, Svyatoslav (945–972-yy.)ning 971-yilda yunonlar bilan tuzgan shartnomalar edi. Manbalarda yana Vizantiya va Volga Bulg‘oriyasi bilan tuzilgan shartnomalar haqida ham ma‘lumotlar beriladi⁹⁹.

Yunonlar bilan tuzilgan shartnomalardan qadimgi rus davlati knyazliklari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari mustahkam emasligi ko‘zga tashlanadi. Shartnomalarda yagona rus knyazligi haqida gapirilmay, shaharlarda vassal sifatida hukmronlik qilayotgan knyazlar nomidan umumiy tarzda so‘z yuritilgan. 944-yilda knyaz Igor va yunonlar bilan bo‘lgan muzokaralarda uning xotini Olga, o‘g‘li Svyatoslav, ikkita jiyani bilan birga knyazlar nomidan 20 ta vakil qatnashganligi ta‘kidlanadi¹⁰⁰.

Shartnoma o‘zaro munosabatlarni yaxshilash, bir-biriga yoqmaydigan harakatlardan tiyilish, ikki davlat o‘rtasida ittifoqni mustahkamlash maqsadida tuzilgan. 911-yildagi shartnomaga ko‘ra, rus drujinachilariga Vizantiya uchun yollanma qo‘shin sifatida xizmat qilish huquqi beriladi. Yunonlarga dengizdan hujum qilinganida ruslar qayiqlari bilan yordam berishlari kerak edi. 944-yildagi shartnomaga muvofiq esa harbiy majburiyatlar yanada kengaytiriladi.

944-yildagi shartnoma Qrim yarim oroliga ruslarning kirib kelishiga qarshi tuzilgan edi. O‘zaro urushlarni to‘xtatish maqsadida shartnomaga harbiy asirlar haqidagi modda ham kiritilgan. Unda asirlarni ozod qilish uchun beriladigan tovon pullari ko‘rsatilgan. Bu 911 va 944-yillardagi tuzilgan shartnomalarning muhim bandlari edi.

Shartnomalar o‘zga davlat fuqarolarining davlat hududida qanday faoliyat olib borishlarini ham belgilab berar edi. Qo‘shni davlatga kelgan mehmon va savdogarlar o‘zlarining rasmiy hujjatlariga ega bo‘lishlari kerak edi. Bunday hujjat elchilar uchun oltin muhrli, savdogarlar uchun

⁹⁹ Там же. – С.121.

¹⁰⁰ https://ru.wikipedia.org/wiki/Игорь_Рюрикович#Походы_на_Царьград_941—944_годов

esa kumush muhrli yorliq edi. Mana shunday holatdagina Vizantiya hukumati mehmonlarni qo‘riqlashni o‘z zimmasiga olar edi. Bunday holatga qaramasdan, Konstantinopolda kelgan mehmonlarga nisbatan, asosan, dushman ko‘zi bilan qarar edilar. 944-yildagi shartnomaga ko‘ra, Rus yerlaridan Konstantinopolga jo‘natilgan elchilar, albatta, yorliq bilan ta‘minlanishi kerak edi. Yorliqda qancha odam va kema ketayotganligi, ularning elchiligi qanday maqsadda ekanligi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak edi. Rusdan yorliqsiz kelgan kishilar Vizantiyada ushlab turilib, Buyuk knyazga bu haqida xabar berilishi kerak edi. Agar mana shunday holatda ushlangan tomon qarshilik ko‘rsatsa, ularning o‘limidagi vaziyat uchun javob berilmas edi. Elchi va mehmonlarga Konstantinopolga safarlari chog‘ida jamoat tartibini buzish qat‘iyan taqiqlangan. Poytaxtga kelishlari bilan ular ro‘yxatdan o‘tishlari va o‘zlari uchun ajratilgan joyda yashashlari kerak edi. Mehmonlar uchun joy Konstantinopol atrofidagi avliyo Mamont monastiri yaqinida joylashgan edi. Rus davlatidan kelgan elchilar va mehmonlar ma‘lum bir darvoza orqali harbiylar kuzatuvda, 50 kishidan iborat guruh ko‘rinishida shaharga qo‘yilar edi. Ular quolsiz va davlat amaldorlari nazorati ostida bo‘lishlari kerak edi. Bu davlat amaldori aftidan Vizantiya va Rus davlati o‘rtasidagi vakil bo‘lib, savdo ishlarini ham nazorat qilganlar.

O‘zga yurtdan kelgan mehmonlarning savdosi ham nazorat qilingan. Ularga 50 solid oltin tangadan ortiq qimmatbaho matolarni sotib olishga ruxsat berilmas edi, shu bilan birga ruslarga Konstantinopolda qishlab qolishga ruxsat berilmagan.

Poytaxtga kelgan ruslar uchun bu yerda ularga da‘vo qilish va tekshirish tartiblari o‘rnatilgan. 911 va 944-yildagi shartnomalarning katta qismi ana shu masalaga bag‘ishlangan. Ruslar Konstantinopolda mahalliy qonunlar bilan emas, balki rus qonunlari bo‘yicha sud qilinishi kerak edi.

Xalqaro munosabatlarda tomonlar bir-birlariga ishonmaganliklari uchun rus elchilari va ularga tenglashtirilgan mehmonlarning (savdogarlar) aniq bir huquqiy holati (statusi) belgilab qo‘yilgan. Mehmonlar Konstantinopolda bo‘lgan vaqtlarida (ularga 6 oydan ortiq qolishga ruxsat berilmagan) ularning xarajatlari davlat tomonidan ta‘minlangan. Elchilar “sleb” huquqi (kundalik oziq-ovqat va maishiy vositalarning bepulligi)dan foydalanganlar, boshqa mehmonlar esa “oylik” (non, vino, baliq, go‘sht, mevalar) olganlar. Yana hammomdan bepul foydalanish haqida ham ko‘rsatma bo‘lgan. Elchilar vatanlariga

qaytayotganlarida Vizantiya hukumatidan kerakli anjomlar – yakor, elkan, parus va boshqa narsalarni talab qilishlari mumkin edi. Vizantiyaga elchilar nafaqat Buyuk knyazlikdan, balki boshqa kichik knyazliklardan ham tashrif buyurar edilar. Ular ma'lum bir ierarxiya qabul qilingan. Jumladan, birinchi navbatda Kiyev knyazligi, undan keyin Chernigov, keyin esa Pereyaslav knyazligi turar edi.

971-yilda Svyatoslav bilan Vizantiya o'rtasida tuzilgan shartnoma Vizantiya, Bolgariya, Xersones yerlari bilan urush olib bormaslik va Vizantiya dushmanlariga hech qanday yordam bermaslik to'g'risida Rus knyazining roziligini olish haqida edi.

Shartnomalar qasam va turli sehrli duolar bilan mustahkamlangan. Rus davlatidagi Vizantiya siyosatining davomchilari Kiyevdagi yunonlardan tayinlanadigan patriarxlar edilar.

988-yilda Rusda Vladimir Svyatoslavich (978–1015-yy.) tomonidan xristianlikning qabul qilinishi Vizantiya bilan diplomatik aloqalarning yuqori cho'qqisi bo'ldi. Chunki, Rus cherkovi uchun patriaxlar Vizantiya tomonidan yunonlardan tayinlanar edi. Bu holat cherkov tomonidan Rusning Vizantiyaga bog'liq ekanligini bildirardi.

XI asr ikkinchi yarmidan boshlab Rus yeri udellarga bo'linib ketgan. Najada knyazliklar o'rtasida to'xtovsiz kurashlar avj olgan. XII asrda Yaroslavning o'limi bilan boshlanib ketgan o'zaro bo'linish Vizantiya va G'arbiy Yevropa davlatlarining aralashuvi bilan ham to'xtata olinmagan.

1043-yilda rus elchilarining Konstantinopolda xafa qilinganligi uchun Yaroslav dengiz tarafdin Konstantinopolga yurish uyushtiradi. 1051-yilda esa Konstantinopol cherkovi bilan vaqtinchalik aloqalar uziladi. O'sha yili ruslarda yangi yepiskop tayinlanadi. Shu vaqtgacha yepiskop yunonlardan tayinlangan bo'lsa, endi ilk marta ruslardan Illarion mitropolit etib tayinlanadi¹⁰¹.

Vizantiya va Rus davlati o'rtasidagi umumiy dushman qipchoqlar (rus manbalarida poloveslar deb atalgan) bo'lib, ikki tomonga ham xavf solib turar edi. X asrda Vizantiya qipchoqlarni ruslarga qarshi gij-gijlagan bo'lsa, endi qipchoqlar Vizantiyaga ham xavf sola boshladi. Natijada ikki davlat o'rtasida qipchoqlarga qarshi ittifoq tuziladi. 1073–1074-yillarda imperator Mixail VII Duki iltimosi bilan Xersonesdagi qo'zg'olonni bostirishda ittifoq tuzish uchun Vladimir Monomax boshchiligida rus delegatsiyasi Konstantinopolga boradi. 1160-yilda imperator Manuil Komnin Kiyev knyazi Rostislav Mstislavich bilan

¹⁰¹ Там же. – С. 122.

vengrlarga qarshi ittifoq tuzishni iltimos qiladi. Manuil Komnin bilan Galitsiya knyazi Vladimir Volodarevich va o'g'li Yaroslav Osmomisl ham ittifoq tuzadilar.

Vizantiya va Rus davlati o'rasidagi mustahkam aloqalar nikoh vositasida ham mustahkamlangan. Vladimir Monomax ona tomonidan imperator Konstantin IX ning nevarasi va Monomaxning qizi esa imperator Diogenning o'g'li Leonga turmushga chiqqan edi. Vladimir Monomax esa angl-saks qiroli Garoldning qiziga uylangan.

1043-yildan XIII asr oxirigacha ruslar va polyaklar o'rtasida tuzilgan ittifoqlarni mustahkamlash maqsadida 15 ta nikoh tuzilgan. Rus knyazlarining vengr qirollari va chex knyazlari xonadonlari bilan ham nikoh munosabatlari davom etgan.

Rus knyazlariga bevosita qo'shni bo'lgan Polsha va Vengriya bilan aloqalari ham jonlana boshlagan. Umumiy snemax (syezd)da vengr qiroli va polyak knyazlari orasida xalqaro masalalar muhokama qilingan. 1254-yilda Galitsiya knyazi Daniil Romanovich polyak Boleslav bilan vengrlarga yordam berish masalasini muhokama qilganlar. 1260-yilda ruslar va polyaklar o'rtasidagi bahsli hududlar haqida kelishuvga erishadilar. Snemaxlarning birida Daniil Romanovich polyaklar bilan o'zaro ixtilofga bormaslik haqida kelishuvga erishgan. Snemaxlardan keyin, albatta, tantanali ziyofatlar va turnirlar uyushtirilar edi. Masalan, 1150-yilda vengr qiroli Kiyev knyazi Izyaslav Mstislavich huzuriga yordam so'rab kelganida ot bilan bog'liq musobaqalar tashkil etilgan.

Yevropaning yirik davlatlari bilan birgalikda, Rim papalari ham Rus davlati ichki ishlariga aralashganlar. 1073-yilda Yaroslav Mudriyning o'g'li Iyazyaslav akalari bilan kurash davomida german imperatorlaridan yordam olishga harakat qilgan.

Nazorat savollari:

1. Ilk o'rta asrlar diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering.
2. Ilk o'rta asrlar diplomatiyasining asosiy subyektlarini sanab bering.
3. Vizantiya diplomati Prisk qaysi davlatga bir necha bor elchilik missiyasi boshlig'i sifatida tashrif buyurgan?
4. Vizantiya diplomatiyasining o'ziga xos jihatlari haqida qaysi diplomat ma'lumot beradi?
5. Rim papalik diplomatiyasi xalqaro munosabatlarda qanday usullardan foydalangan?

6. Buyuk Karl bosqinchilik diplomatiyasining asosiy obykti qaysi qirollik edi?
7. Qadimgi Rus diplomatiyasining asosiy yo‘nalishi qaysi hudud edi?
8. Qaysi omil Rus–Vizantiya munosabatlarining yanada kuchayishiga turtki berdi?

6-mavzu: Oʻrta asrlarda Sharq mamlakatlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Reja

- 1. Oʻrta asrlarda Xitoy, Yaponiya va Hindiston diplomatiyasi**
- 2. Oʻrta asrlarda Arab xalifaligi va Yaqin Sharq mamlakatlari diplomatiyasi**
- 3. Oʻrta asrlarda Markaziy Osiyo diplomatiyasi**

Tayanch iboralar: *akritlar, van, lyan, regent, syogun, busi, kamikadze, iezuitlar, farmon huquqi, rajput, jogir, delegatsiya, “devon ar-rasolat”, kapitulyatsiya, hashshoshiylar,*

Oʻrta asrlarda Xitoy, Yaponiya va Hindiston diplomatiyasi **Oʻrta asrlarda Xitoy diplomatiyasi**

Oʻrta asrlarda Xitoy oʻzining koʻp sonli aholisi va dehqonchilik, hunarmandchilik hamda yuksak darajada rivojlangan fan va texnikasi bilan mashhur edi. Yuz yillar davomida savdo va tashqi aloqalari ham rivojlanib borgan. Xitoy diplomatiyasi maxsus qabul tartiblari, usul va marosim (ritual)lari bilan ajralib turargan.

IV – VI asrlarda Xitoyda budda yer egaligi rivojlandi. Buddizm Xitoyga mil. I asrda Hindistondan Gʻarbiy va Sharqiy Turkiston orqali kirib kelgan. 420–581-yillarda Janubiy va Shimoliy sulolalar (Nanbey chao) hukmronlik qilgan. Bu davrda mamlakatning janubida Sun (420–479-yy.), Chi (479–502-yy.), Lyang (502–557-yy.), Chen (557–589-yy.), shimolida Shimoliy Vey (386–534-yy.), Sharqiy Vey (534–550-yy.), Shimoliy Chi (550–577-yy.), Gʻarbiy Vey (535–557-yy.), Shimoliy Chjou (550–581-yy.) kabi davlatlar paydo boʻldi. Janubdagi davlatlar xitoylar tomonidan, shimoldagi davlatlar esa xitoy boʻlmagan xalqlar tomonidan tashkil etildi.

Oʻrta asrlarda Xitoydagi mayda davlatlarni birlashtirish asosida Suy (581–618-yy.), Tan (618–907-yy.), Sun (960–1279-yy.), Min (1368–1644-yy.) sulolalari vakillari hokimiyatni boshqarganlar¹⁰².

Shimoliy Chjou davlati oʻrnida Yan Szyan (imperator Ven-di) boshchiligida 581-yilda Suy saltanati tashkil topadi. Bu sulolani Yan Szyan (581–605-yy.), uning oʻgʻli Yan Guan (Yan-di nomi bilan 605–617-yy.), Yan yu (Gun-di nomi bilan 617–618-yy.)lar boshqargan.

¹⁰² Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 9-жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 427–438.

Suy Imperiyasining tashqi siyosati Xitoy hukmdorlarining Koreya yarim orolidagi davlatlarga va shimoliy qabilalarga ko‘plab urushlari, jumladan Turk xoqonligi (552–603-yy.) o‘rtasidagi doimiy qarama-qarshilik bilan xarakterlanadi.

612-yilda Suy Imperiyasi Silla davlati bilan ittifoq tuzib, Pekche va Koguryo koreys davlatlariga qarshi urush qildi. Lekin, 2 yilga cho‘zilgan urush hech qanday natijasiz tugadi¹⁰³.

Ilk o‘rta asrlarda Xitoy diplomatiyasining asosiy vazifalaridan biri Turk xoqonligi bilan yirik urushlarga kirmasdan, uni zaiflashtirish va ko‘chmanchilarning Xitoy ichki ishlariga aralashuvini kamaytirishdan iborat bo‘lgan.

Xitoy diplomatlari alohida xoqonlar va ta’sirli turk urug‘larini imperator xonadoniga bog‘lashga harakat qilar edilar. O‘sha davr Xitoy diplomatiyasi ko‘proq nikoh munosabatlariga asosiy e’tiborni qaratgan. Xitoy malikalari va saroy amaldorlari qizlarini turk yo‘lboshchilariga turmushga berilganlik haqidagi shartnomalar saqlanib qolgan. Diplomatiyaning yana bir turi – qardoshlik tutinish edi. Shunday hollar ham bo‘lar ediki, imperatorning o‘zi yoki ta’sirli feodallar qardoshlik an’anasiga ko‘ra turk yo‘lboshchilarining vaqaysissali, ba’zan ukasi tutinar edilar. Xitoy saroyi ko‘chmanchilarga sovg‘a va yorliqlar bilan katta yoki kichik elchilik missiyalarini jo‘natar, qiyin vaziyatlarda esa odatda tovon to‘lar edi. Xitoy elchilari odatda ipak (100 yoki 200 ming to‘p) va boshqa qimmatbaho matolar, oziq-ovqatlar, vino, g‘ildiraklar, musiqa asboblari va hokazolarni olib borar edilar. Turk yo‘lboshchilari esa xitoyliklarga minglab bosh ot, qo‘y va tuyalar jo‘natar edilar.

Imperiya qiyin ahvolga tushgan paytda hukmdorlar turk askarlaridan foydalanar edilar. Suy Imperiyasining asoschisi Yan Szyan (581–605-yy.) qo‘shinida kuchli turk otliq askarlari mavjud edi. Uning o‘g‘li Yan Guanning (Yan-di 605–616-yy.) Koreyaga yurishi paytida turk vassal hukmdori qatnashgan. O‘z oralarida kelishmovchilik bo‘lsa, yoki taxt uchun kurash paytida turk xoqonlari Suy xonadoniga murojaat qilar edilar. Turk xoqonlari xitoyliklarga yaqinliklarini quyidagicha ifodalalar edilar: “Imperator mening xotinimning otasi, jumladan mening ham otamdir... butun qo‘ylar va otlar imperatorniki, ipak matolar esa meniki”. Agar turk xoqonlari imperator talabini bajarishni istamasalar elchilarni qabul qilmas yoki elchi yorliqlarini o‘tirgan ko‘yi tinglar edi. Bunday qabul marosimi Xitoy imperatorlari uchun haqorat hisoblangan.

¹⁰³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Cyñ>

Xitoy diplomatiyasi uchun eng qiyin holat ko'chmanchilarning har qanday shartnomani osonlik bilan buzishlari edi. 615-yilda turklar Xitoyga hujum qiladilar va hatto Yan Guanni qo'shini bilan birgalikda qamal qiladilar. Bo'lajak Tan sulolasi (618–907-yy.)¹⁰⁴ asoschisi Shansi feodali Li Yuan (Gao-szu nomi bilan, 618–616-yy.) o'zini turk xoqoni vassali, deb e'lon qiladi va turklardan yordam oladi. Lekin, bu yordam natija bermaydi va isyonchilar poytaxt Chan'anga qaytishga majbur bo'ladilar.

Tan sulolasi

Li Yuanning o'g'li Li Shimin (Tay-szun nomi bilan, 627–649-yy.) turklar bilan shartnomani yangilaydi. Yangi shartnomaga ko'ra, qardoshlik yana mustahkamlanadi va buning uchun qasam ichiladi hamda oq otlar qurbon qilinadi.

628-yilda Xitoydagi o'zaro urushlar tugatilib, kuchli davlat tashkil topadi. Li Shimin bosqinchilik yurishlari natijasida qo'shni davlatlarni "tinchlik" sulhi tuzishga majbur qiladi. Imperatorga yo'llangan ko'plab hisobotlarda turk xoqonlari shartnoma shartlarini buzishda, qaroqchilik harakatlarini amalga oshirishda ayblanganlar. Xitoy imperatori ko'p hollarda yon berish diplomatiyasi orqali harakat qilar, bunday diplomatiya yordam bermagan taqdirda urush yo'lini tanlar edi. Li Shimin olib borgan urushlar turk xoqonligining qulashiga va juda katta hududning Xitoyga qo'shib olinishiga sabab bo'ladi. VII asrga kelganda Xitoyga bo'ysungan muzofot Koreya yarim oroli va Shimoliy Mo'g'ulistondan Tyanshan, Tibet va Hindixitoy yarim oroligacha cho'zilgan edi. Xitoy diplomatiyasi qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini yaxshilashga yordam bergan.

Xitoy Yaponiya bilan ham diplomatik aloqalar o'rnatgan. Jumladan, yaponlar xitoy yozuvini, qishloq xo'jaligi tajribasini, buddizmni xitoyliklardan o'zlashtirganlar. Lekin diplomatik aloqalar doimiy bo'lmay, Chan'an hukumatini yaponlarning diniy qoidalarini bajarmaganligi tashvishlantirar edi.

VII asrning 30–40-yillarida Xitoyga Xo'tan va Qoshg'ardan, qirg'izlardan, Samarqand va Farg'onadan elchilik missiyalari kelgan. 643-yilda esa Vizantiyadan elchilar kelgan. 651-yilda taxtdan ag'darilib, Erondan qochgan sasoniy shohanshoi Yazdigard III (632-651-yy.) Chan'andan yordam so'raydi. 713-yilda Xitoyga birinchi marta arab xalifaligidan elchilik missiyasi keladi. Hindiston va Xitoy o'rasidagi

¹⁰⁴ https://ru.wikipedia.org/wiki/Империя_Тан#Военная_и_внешняя_политика

diplomatik aloqalar oʻrnatilishida muqaddas joylarni ziyorat qilishga borgan budda monaxlarning roli katta boʻlgan. Monax Syuan Chjun (Szyan)ning Hindistonga borishi bilan podsho Xarshi 641-yilda Xitoyga oʻz elchisini joʻnatadi. Li Shimin ham elchilikka javoban doʻstlik karvonini joʻnatgan. Aslida gvardiyachi harbiy boshliq boʻlgan Van Syuan-se (budda monaxi sifatida) turli topshiriqlar bilan Shimoliy Hindistonga 4 marotaba boradi.

Diplomatik aloqalarga shaxsan imperatorning oʻzi boshchilik qilar edi. Byurokratik apparatning rivojlanishi bilan elchilik aloqalarini boshqaruvchi idora ham oʻz ahamiyatini yoʻqotib, shaxsan imperator devonxonasiga boʻysunuvchi idora qoʻliga oʻtadi. Bu boshqarma boshqa davlatlar elchilarini, ularning sovgʻa va bojlarini qabul qilish bilan shugʻullanar edi. Yirik davlat amaldorlari imperatorga xalqaro siyosat va diplomatik tadbirlar haqidagi takliflarini tayyorlab berardilar. Oʻrta asrlar Xitoy tarixida diplomatik aloqalar haqida koʻplab maʼlumotlar mavjud. Bular, saroy amaldorlari maʼlumotlari, ularga imperatorning munosabati, farmonlar, imperator majlislarining yozuvlari va diplomatik faoliyatga oid qarorlardan iborat.

Yurishlarga tayyorgarlik jarayonida imperatorlar harbiy harakatlar uchun asosli sabab topishga harakat qilar edilar. Li Shimin Koreyaga yurishi sababi sifatida Pxenyanni bosib olgan isyonchilarni jazolash, deb koʻrsatgan. Aslida bu Koguryo va Pekchega qarshi olib borilgan koʻp yillik urushlarning asl sababi emasdi.

VIII–IX asrlarda Xitoy imperatorlariga qarshi feodallar qoʻzgʻolonlari paytlarida oʻziga xos elchilar qabul marosimlari uyushtiriladigan boʻldi. Jumladan, imperatorlar koʻchmanchilar va qoʻshni davlatlardan yordam olishga, maqsad amalga oshirilgandan soʻng esa, ularga boʻysunishdan qochishga harakat qilganlar.

Sun imperiyasi diplomatiyasi

Xitoyda bir necha oʻn yillik oʻzaro urushlardan soʻng, X asrning ikkinchi yarmida yagona davlat – Sun (960–1279-yy.) Imperiyasi tashkil topadi. Bu davrda mamlakatning shimoliy qismida kidanlarning Buyuk Lyao davlati mavjud boʻlgan. Shimoliy-gʻarbda tangutlarning Gʻarbiy Sya davlati, janubiy-gʻarbda esa Nanchjao davlati tashkil topgan edi. Ammo, Sun Imperiyasi mamlakatni birlashtirishda urush vositasidan voz kechadi va harbiy raqiblari bilan muzokaralar olib borib, ularga katta tovon toʻlash evaziga tinchlik oʻrnatadilar. Oʻsha davr diplomatiyasi

nafaqat hokimiyat va boylikni, balki har qanday yo‘llar bilan bo‘lsa-da, hukmron sinfning tinchligini saqlashga harakat qilgan edi.

Buyuk Lyao davlati shimolda Xitoy uchun katta xavf edi. Sun imperatorlari kidanlarga ko‘plab yon berishlar bilan bo‘lsa-da, tinchlikni saqlashga harakat qilganlar. Xitoy diplomatlari Lyao davlatining e‘tiborli shaxslari va davlat vakillari bilan til topishishga harakat qilganlar. Lekin, kidanlar tinchlik o‘rnatilishini xohlamaganlar va doimiy ravishda o‘zlarining talablarini oshirib borganlar. 1004-yildagi kelishuvga ko‘ra, Sun Imperiyasi mamlakat shimolidan voz kechib, katta o‘lpon to‘lashga rozi bo‘ladi. 1042-yildagi shartnomaga ko‘ra, xitoyliklarning yillik to‘lovi oshirilib, 300 ming to‘p ipak mato va 200 ming lyan kumush to‘lashga rozi bo‘ladilar. Tangutlarning bosqinini to‘xtatishga harakat qilgan Sun Imperiyasi 1043-yilda G‘arbiy Sya davlati bilan shartnoma tuzadi. Shartnomaga ko‘ra, yillik o‘lpon, ipak va choy to‘lovi belgilanadi. Bu to‘lovlar mamlakat oddiy aholisi yelkasiga og‘ir yuk bo‘lib tushadi.

Xitoy diplomatiyasi Lyao davlatini zaiflashtirish uchun kidanlarga bo‘ysunuvchi xalqlar orasida norozilikni uyg‘otish va kuchaytirishga harakat qilganlar. XII asrda xitoyliklar Lyao davlatini kuchsizlantirish maqsadida mamlakat shimolida yashagan Dunbeydagi (Manchjuriya) chjurchjenlarning Szin podsholigi bilan shartnoma tuzadi va 1125-yilda itifoqchilar zarbasi natijasida Lyao davlati qulaydi, lekin chjurchjenlar Xitoyga o‘rnashib qoladilar. Sun imperatori har qanday yon berishlarni amalga oshirib, kelishuvga erishishga harakat qiladi. 1127-yil chjurchjenlar otliq qo‘shining navbatdagi hujumlari paytida Sun saroyi janubga qochishga majbur bo‘ladi. Chjurchjenlar yurishlarini davom ettirib, Yanszi daryosini kechib o‘tadilar. Xitoy dehqonlari, shaharliklar va qo‘shinning bir qismi dushmanga qarshilik ko‘rsatadi. Ko‘ngillilarga qo‘mondon Yue Feya boshchilik qiladi va dushmanni chekinishga majbur qilib, shimolga yurishni davom ettiradi. Ammo, hukmron tabaqalar Yue feyaning obro‘si oshishidan qo‘rqib, uni qatl etadilar va 1142-yilda Szin davlati bilan tinchlik shartnomasini tuzadilar. Shartnomaga ko‘ra, Xitoy imperatori Szin davlati foydasiga Shimoliy Xitoydan Xuay daryosi va Dasanguangacha hamda Shensi viloyatini berishga, yiliga 250 ming lyan kumush va 250 ming to‘p ipak to‘lashga rozi bo‘ladi. Sun imperiyasi hokimiyati ostida faqatgina janubiy Xitoygina qoladi.

1211-yilda, ya‘ni Chingizxon Xitoyga yurish boshlaganida, Sun imperatori undan dushmaniga qarshi kurashda foydalanishga harakat

qiladi. Xanchjouda joylashgan Sun xonadoni Chingizxon bilan chjurchjenlarga qarshi ittifoq tuzadi va unga harbiy yordam beradi. Keyinchalik mo'g'ullarning bosqinchilik maqsadlarini anglagach, ular bilan ittifoq buziladi va sobiq ittifoqchilarining talablarini rad etadilar. Mo'g'ullar 1235-yilda G'arbiy Sya xonadonini va Szin davlatini tugatib, Janubiy Xitoy davlatiga qarshi yurish boshlaydi. Uzoq yillik qarshilik ko'rsatishlariga qaramay, 1279-yilda butun Xitoy mo'g'ullar davlati tarkibiga kiritiladi. Xitoyni bosib olgan mo'g'ullar tez orada xitoylashadi va mamlakat poytaxti Pekinga ko'chiriladi. Munke (1251–1259-yy.)ning o'rniga taxtga chiqqan ukasi Xubilay (1260–1294-yy.) davrida mo'g'ullar Xitoyning butun hududini bosib olgan. Xubilay va uning vorislari saltanati Yuan deb atalgan. 1368-yilda Xitoydagi xalq qo'zg'oloni natijasida mo'g'ullar u yerdan quvilgan va Chju Yuan Chjan Min sulolasiga asos solgan¹⁰⁵.

Min imperiyasining diplomatik aloqalari

Min sulolasi (1368–1644-yy.)ga oddiy dehqonning o'g'li va mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olonchilar boshlig'i Chju Yuan Chjan (1368–1398-yy.) asos solgan. Uning diplomatik sohadagi jiddiy vazifasi mo'g'ullarga qarshi kurash va Xitoyning mustaqil davlat sifatidagi mavqeini tiklashdan iborat edi. Min sulolasi diplomatlari Mo'g'uliston bilan Xitoy uchun noqulay bo'lgan savdo shartnomasini tuzishga majbur bo'ladilar. Shu bilan birgalikda, XIV asrda Koreya sohillaridan, ya'ni janubiy-sharq tomondan yaponlarning kirib kelishiga to'sqinlik qila olmadilar.

G'arbiy Xitoy (Sinszyan)da yashovchi qabila va xalqlar bilan esa Xitoy o'zi uchun qulay bo'lgan savdo aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'ladi.

XIV asrda xalq qo'zg'oloni natijasida berilgan yengilliklar xalq xo'jaligining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shaharlarning rivojlanishi, hunarmandchilik va savdo taraqqiyoti, murakkab sug'orish tizimlarining barpo etilishi paxtachilikning rivojlanishiga olib keladi. Bularning barchasi Min sulolasining faol tashqi siyosat olib borishiga sabab bo'ladi.

Lekin, Mo'g'uliston orqali o'tadigan Buyuk Ipak yo'lida savdo qilish ko'chmanchilarning qarshiligi tufayli qiyin kechadi. Shuning uchun, xitoy diplomatiyasi janubga ko'proq e'tibor qaratadi. Min saroyi

¹⁰⁵ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б. 217-221.

dengiz yo‘li orqali janubga bir necha marotaba elchilik missiyalarini jo‘natgan. Bu elchiliklar joylarda xitoy koloniyalariga asos solishga harakat qilganlar. Min sulolasi davrida janub tomonga eng ko‘p elchilik missiyalari Hindixitoy yarim oroliga jo‘natilgan edi. Elchilar o‘zlari bilan yorliqlar va qimmatbaho sovg‘alar olib borib, yerli hukmdorlarning “osmon o‘g‘li”ga itoat etishga da’vat qilganlar. Ular bo‘ysunish alomati sifatida imperator saroyiga sovg‘a va o‘lponlar jo‘natishni talab qilganlar. Agar kimki Xitoy bilan vassallik aloqalarini o‘rnatsa, elchilar, savdogarlar, ko‘chib boruvchilar va dengizchilarga Xitoy bilan savdo qilishda kafolat hamda imtiyoz berilishini va‘da qilganlar.

Xitoyda diplomatik xizmatlar vaziyatga qarab turlicha ishlab chiqilgan va qat’iy nazorat qilingan.

Xitoy tashqi siyosatining yirik namoyondasi Chjan Xe bo‘lib, u 1405–1433-yillarda Hindixitoy yarim oroli, Malakka, Malaya orollari, Seylon, Hindiston qirg‘oqlari, Arabiston yarim oroli, Afrikaga bir necha marta sayohat qilgan. Chjan Xe davlatlar hukmdorlariga o‘z yorliqlarini topshirgan va hukmdorlar bilan kelishuvlarni amalga oshirgan. Agar mahalliy aholi tinchlik bilan bo‘ysunmasa, u harbiy vositani ishga solgan. Masalan, Palembanga (Sumatra), Seylon orollari hukmdori va yaqinlarini asir qilib, Xitoyga keltirgan¹⁰⁶.

Xitoylik diplomatlar o‘z maqsadlariga o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan yetishga harakat qilganlar, ko‘p hollarda esa qimmatbaho sovg‘alar berish, imtiyozli savdo qilish va boshqa va‘dalar bilan maqsadlariga erishganlar. Xitoyda xususiy savdogarlarning o‘ziga xos elchilik qabul marosimlari o‘rnatilgan. Norasmiy savdo elchiliklari ham xitoylik elchilik marosimlariga rioya qilganlar. Odatda Xitoyga qimmatbaho ma‘danlar, xom ashyolar, qimmatbaho ziravorlar keltirilgan bo‘lsa, Xitoydan tayyor mahsulotlar, zeb-ziynat buyumlari olib ketilgan. Bu davrdagi Xitoy diplomatiyasining asosiy vazifasi Janubiy-Sharqiy Osiyoda tashkil topgan xitoy koloniyalarini himoya qilish bo‘lgan. Rossiya va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar XVI–XVII asrlarda boshlangan.

Xitoyning boshqa davlatlar bilan o‘zaro diplomatik va savdo aloqalari yevropaliklarning bu yerlarga kirib kelishi bilan buzilgan. Hind va Tinch okeanida hukmronlikni o‘rnata boshlagan yevropaliklar XVI asr boshlarida Xitoyga ham kirib kelishga harakat qilganlar. Xitoy hukumati va diplomatiyasi yevropaliklar bilan o‘zaro munosabatlar

¹⁰⁶ История дипломатии. Том 1. Москва: Политиздат, 1959. – С. 224.

oʻrnatishga shoshilmaganlar. Imperatorlar Gʻarbdan odamlarning kirib kelishlarini taqiqlash siyosatini yuritganlar. Mustamlakachilikka qarshi bunday kurash Xitoyni tashqi dunyodan butunlay uzilib qolishiga va qoloqlik davlatga aylanishiga olib kelgan.

Oʻrta asrlarda Yaponiya diplomatiyasi

III asr oxiri – IV asrning oʻrtalarida Yamato qabilasi boshchiligida qabilaviy ittifoq – Yamato davlati vujudga keldi. IV–VI asrlarda Yaponiyada ishlab chiqaruvchi kuchlarning sezilarli darajada taraqqiyoti koʻzga tashlanadi. Jumladan kemasozlik rivojlandi, savdo-sotiq jonlandi. Tashqi savdo aloqalari Xitoy va Koreya bilan amalga oshirildi. Yamato davlati Pekche davlati tomonida turib, Koreya yarimoroli ishlariga aralashib kelardi. IV asrda Yamato Pekche davlatining Koguryoni siquvga olishiga yordamlashdi va yarim orolning janubiy qismidagi Mimana yerini oladi.

V asrda Yamato yoʻlboshchilari Koreya yarim orolida harbiy muvaffaqiyatlarini diplomatik yoʻl bilan mustahkamlash maqsadida Xitoyga bir necha marotaba elchilik missiyasini joʻnatdilar. Jumladan, 413–478-yillar davomida yarim oroldagi hukumatlarini tan olishini soʻrab 10 marta elchilik missiyasi joʻnatiladi. Bu haqda janubiy Xitoydagi birinchi Sun (420–479-yy.) sulolasi hujjatlarida qayd etilgan¹⁰⁷.

425-yilda yapon imperatori Szan (Imperator Nintoku) Sharqiy Szin imperatori Lyu Sun (Ven-di)ga sovgʻa-salomlar bilan xabar yuboradi. Uning ukasi va vorisi Chjen (imperator Xandzey) elchilar orqali Yaponiya, Pekche, Silla, Kay, Chinxan, Maxan podsholiklarining harbiy boshligʻi, sharqning osoyishtaligini saqlovchi bosh qoʻmondoni ekanligini xabar qiladi va bu unvonni tan olishlarini soʻraydi. Xitoyliklar uni Yaponiya podshosi va sharqni tinchlantiruvchi bosh qoʻmondon unvonini tan oldilar. Lekin, Koreya podsholiklari Yaponiyaning qoʻl ostidaligini tan olmaydi.

VI asrda Yamato davlati Pekche bilan birgalikda Sillaga yurish qiladi. Lekin, urush Yamato uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi va 562-yilda Mimana sillalilar tomonidan egallanadi¹⁰⁸.

VI asrda Pekche vani (hukmdori) tomonidan Yamatoga budda haykal (sutra)lari yuboriladi. Shu tariqa Yaponiyaga budda kirib keldi. Yangi din haqida koinlar tortishib qoladilar, bu diniy urushlarni keltirib

¹⁰⁷ https://ru.wikipedia.org/wiki/История_Японии

¹⁰⁸ https://ru.wikipedia.org/wiki/История_Японии

chiqaradi. Qudratli Soga urug‘i vakillari buddaviylikni davlat dini sifatida qabul qilishni talab etdilar. Lekin, qadimiy urug‘lardan bo‘lgan Mononobe an’anaviy mahalliy e’tiqodni himoya qiladi. 587-yilda Soga urug‘i Mononobe urug‘ini yengib, mamlakatda o‘z diktaturasini o‘rnatadi.

VI asrning oxirlaridan yapon hukumatini Yaponiya imperatorlar oilasi vakili Syotoku (asl ismi – Umayado, vafotidan so‘ng Taysi nomi berilgan, hukmronligi – 593–622-yy.) boshqardi. U 593-yilda Yaponiyaning birinchi ayol imperatori Suykoga regent etib tayinlanadi.

Syotoku davlat tuzilishida tajriba orttirish uchun 600-yilda Xitoyning Suy sulolasiga elchilik missiyasini yubordi. U Xitoy tipidagi amaldorlar tarkibini yaratish maqsadida 12 daraja (martaba) tizimini ta’ sis etdi. 604-yilda Syotoku tomonidan yaponlarning birinchi huquqiy hujjati – “17 moddadan iborat qonunlar to‘plami” ishlab chiqildi.

Syotoku Xitoy bilan teng huquqli munosabatlar olib borishga intilgan. U 607-yilda Suy xonadoniga Ono-no Imoko boshchiligida ikkinchi elchilik guruhini yuboradi. Imperator Yan Guanga yuborilgan noma “Kun chiqar mamlakatning Samo o‘g‘idan kun botar mamlakatning Samo o‘g‘liga salom” deb boshlangan edi. Bu qudratli Xitoy imperatoriga nisbatan Yaponiya hukmdori o‘zini teng unvon bilan nomlagani Yan Guanni g‘azablantiradi. Lekin shunga qaramay, Xitoy imperatori javob elchiligini yuboradi. Syotoku 608-yilda Xitoy elchiligini izzat bilan qabul qiladi. Keyingi munosabatlarda Syotoku Xitoy imperatoriga “Samoviy hukmdor” deb murojaat qiladi. Xitoyliklar buni yaponlar o‘z ayblariga iqrorlik belgisi sifatida xursandchilik bilan qabul qiladilar. Yaponlar esa buni xitoyliklar tomonidan teng huquqlilik tan olinganligining belgisi, deb biladilar¹⁰⁹.

1192-yilda shimoliy-sharqliklar o‘z sardorlari Yoritomo Minamotoni syogun (sarkarda) unvoni bilan davlatning hukmdori, deb e’lon qildilar. Imperator sulolasi syogunlar hukmronligini xalq oldida qonuniy bo‘lishini kafolatlab turish uchun nomigagina saqlab qolindi. Qarorgohi Kamakura shahrida joylashgan syogunlarga harbiylar tabaqasi (busi) va shaxsiy vassallar (ular ma’muriy mansablarni egalladilar) asosiy Tayanch bo‘ldi.

Rivojlangan o‘rta asrlarda Yaponiya dastlab mo‘g‘ullarning, keyinchalik esa yevropaliklarning bosqinchilik obyektiga aylandi.

Mo‘g‘ullar 1274 va 1281-yillarda Yaponiyaga qarshi harbiy ekspeditsiyalar uyushtiradilar, lekin bu yurishlar muvaffaqiyatiz tugaydi.

¹⁰⁹ Ўша жойда.

Dengizda paydo boʻlgan kuchli tayfun moʻgʻul qoʻshinlarini halok qiladi. Yaponiya tarixida bu tayfun “kamikadze” (“ilohiy shamol”) nomini oladi¹¹⁰.

XVI asrning oʻrtalaridan Yaponiyaga yevropaliklar kirib kela boshladilar. 1542-yilda portugallar, 1580-yilda ispanlar kirib keladi. Yevropalik missionerlar xristianlikni tarqata boshladilar. 1587-yilda missionerlik targʻiboti birinchi bor taqiqlangandan soʻng ham yevropaliklar bilan munosabatlar toʻxtatilmadi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Yaponiya avval Oda Nabunaga, keyin esa Toyotomi Xidoyosi hokimiyati ostida birlashtirildi. Xidoyosi tajovuzkor tashqi siyosat olib boradi. 1592 va 1597-yillarda Xidoyosi ikki yirik bosqinchilik yurishini amalga oshirdi. Uning istilochilik rejasiga nafaqat Koreya, balki Xitoy, Tayvan va Filippin ham kiritilgan edi.

XVI asrda yaponlar Koreya, Xitoy, Siam, Filippin bilan aloqalarga ega edi. Bundan tashqari, Yevropaga ham elchilik guruhini yuborganlar. Jumladan, 1582–1590-yillarda Kyusyu oroli knyazlari tomonidan Rimga elchilar yuborilgan¹¹¹.

1603-yil Ieyasu Tokugava (1542–1616-yy.) syogun deb eʻlon qilindi va uning qarorgohi Edo (hoz. Tokio)ga koʻchirildi. Tokugava syogunlari sulosasi mamlakatni 1867-yilgacha boshqarganlar. Tokugava hukumati yevropaliklar ekspansiyasi va xristianlikning tarqalishiga qarshi qator tadbirlar amalga oshirdi. Natijada Yaponiya qariyb 2,5 asr mobaynida “yopiq” davlatga aylandi. Shu yoʻl bilan mamlakat mustamlaka boʻlishdan saqlanib qoldi.

Oʻrta asrlarda Hindiston diplomatiyasi

IV–VI asrlarda Hindistonda mavjud boʻlgan Guptalar Imperiyasi inqirozga uchragandan soʻng, VII–XII asrlarda feodal tarqoqlik hukm surdi. Bu vaziyat mamlakat shimolidagi musulmon davlatlarining Hindistonga talonchilik yurishlari uchun qulaylik tugʻdirdi. Jumladan, Mahmud Gʻaznaviyning Hindistonga 17 marta talonchilik yurishlari natijasida Panjob va Sind hududlari gʻaznaviy davlati tarkibiga qoʻshib olindi. Keyinchalik bu hududlar tojiklar sulolasidan boʻlgan Gʻuriylar davlati (1148–1206-yy.) tarkibiga qoʻshib olindi. Muhammad

¹¹⁰ <https://enc.for.uz/w/index.php?title=Yaponiya&variant=uz-cyrl>

¹¹¹ Холлиев А. Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (маърузалар тўплами). Тошкент. 2014. – Б. 48.

G'uriy o'z davlat chegarasini Bengaliya hududlarigacha kengaytirdi va poytaxtini Dehliga ko'chirdi¹¹².

XII asr oxiri – XIII asr boshlarida shimoliy Hindiston hududlari musulmon mamluklaridan bo'lgan Qutbiddin Oyboq tomonidan bosib olinib, Dehli sultonligi (1206–1526-yy.) tuzildi.

Dehli sultonligi va Boburiylar davlati (1526–1858-yy.)ning tashkil topishi davrida ham mayda knyazliklar mavjud edi. Bu knyazliklar aholisining etnik tarkibi, tili va madaniyati turlicha bo'lgan. Xalqlarning bu o'ziga xosligi o'rta asrlar hind diplomatiyasida aks etgan.

Hindistonda ham Yevropadagidek o'rta asrlar diplomatiyasi asosini sulolalar o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro vassallik munosabatlar, feodallar majburiyatlari shakllari tashkil etgan. Shu bilan birgalikda, Hindiston diplomatiyasida ikki tizim ko'zga tashlanadi:

- shariat qoidalari bilan mahkam bog'langan musulmon hukmdorlari diplomatiyasi;
- hinduizmni o'zida aks ettirgan hind rojalari diplomatiyasi.

Dehli sultonlari hindlarga qarshi “g'azot” shiori ostida o'z hukmronligini butun Hindistonga yoyishga harakat qilganlar. Ular o'zlarining hokimiyatini Bag'dod tomonidan tan olinishi uchun bir necha marta xalifalik markaziga qimmatbaho sovg'alar bilan elchilar jo'natganlar. 1229-yilda Abbosiylarning so'nggi hukmdori xalifa al-Mustasim (1213–1258-yy.) tarafidan Dehli sultonligi tan olinadi. Buning sharafiga uning nomi xutbaga qo'shib o'qiladi. Xalifalikning oxirgi elchisi 1343-yilda Misrdan Dehliga Muhammad Tug'luq (1325–1351-yy.) saroyiga keladi va tantana bilan kutib olinadi¹¹³.

Dehli sultonligi janubiy Hindistonga bostirib kirgan mo'g'ullarga qarshi kurashishi ham kerak edi. Bu vazifa diplomatik yo'l bilan emas, balki harbiy yo'l bilan hal etilgan. Hindistondagi diplomatik munosabatlar faqatgina dushman mag'lub etilib, to'lov miqdori aniqlanayotgan paytdagina ro'y berar edi. Mag'lub davlat g'olib davlatga qimmatbaho sovg'alar va, albatta, fil jo'natar edi. Fil eng hashamatli sovg'a hisoblanar edi¹¹⁴.

XIV asr o'rtalariga kelib Janubiy Hindistonda ikki davlat tashkil topadi:

- Dehli sultonligidan musulmon sulolasi boshchiligidagi Baxmani davlati;

¹¹² https://studref.com/421832/istoriya/indiya_viiixvii_feodalnoy_razdroblennosti_mogolskoy_imperii#261

¹¹³ История дипломатии. Том 1. Москва: Политиздат, 1959. – С.225.

¹¹⁴ Там же. – С. 226.

- hindlarning Vijayanagar davlati.

Ikki davlat o'rtasida olmos konlariga boy bo'lgan Raychur vodiysi va butun janubiy Hindistonga egalik qilish uchun doimiy kurash borgan. XVI asr boshlariga kelib Baxmani davlati mustaqil beshta knyazlikka bo'linib ketadi. Bu besh davlat Vijayanagar davlati bilan va o'zaro doimiy kurash olib borganlar. Yarim asr davomida Vijayanagar davlati besh knyazliklarning bir-birlariga qarshi qo'yishga muvaffaq bo'lgan. 1565-yilga kelib ahvol o'zgaradi. Musulmon sultonlari birlashadilar va ularning qo'shinlari Vijayanagar davlatini butunlay mag'lubiyatga uchratadi.

Shimoliy Hindistonda Boburiylar davlatining asoschisi Zahiridin Muhammad Bobur vafotidan keyin, uning vorislari o'rtasidagi kurash natijasida kuchsizlangan Boburiylarni Shershoh boshchiligida afg'onlar 1540-yilda mamlakatdan haydab chiqaradilar. Boburning to'ng'ich o'g'li Humoyun (1530–1540, 1555–1556-yy.) Eron hukmdori Tahmasp qo'shini yordamida Hindistondagi hokimiyatini 1555-yilda qayta tiklashga muvaffaq bo'ladi. Yordam evaziga Qandahorni berishga va shialikni hukmron din deb tan olishga rozi bo'lgan. Lekin, Humoyun taxtni qaytarib olgach, Qandahorni qaytarib olishga harakat qilgan va sunniylik asosiy din bo'lib qolavergan¹¹⁵.

Humoyunning vorisi Akbarshoh (1556–1605-yy.) butun Hindistonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladi. U nafaqat hind knyazlariga, balki mustaqil bo'lishga intilgan musulmon feodallariga ham qarshi kurashadi.

Hindistonni butunlay bo'ysundirishda Akbarshoh harbiy kuch bilan birgalikda diplomatik vositalarni ham qo'llagan. Akbarshoh hind rojalariga vassalik shartlari asosida bo'ysunishni taklif etgan. Bir necha rajputlar qizlariga uylangan Akbarshoh ular bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatish orqali butun Hindistonni bo'ysundirishga intilgan. Oldingi hukmdorlardan farqli ravishda soliq borasida u hind rojalariga musulmonlar bilan bir xil imtiyozlarni o'rnatgan. Hind rojalarini harbiy sohaga xizmatga qabul qilib, ularga ham jogirlar tarqatgan. Maxsus shartnoma orqali nafaqat hind harbiylari, balki hind knyazlari ham xizmatga olingan. Bundan tashqari, rajput knyazlari o'z qarindosh qizlarini Dehli saroyiga yangi yil sharafi bilan o'tkaziladigan qizlar bozoriga jo'natishdan ozod qilinadi¹¹⁶.

¹¹⁵ Там же. – С. 227.

¹¹⁶ Там же. – С. 227.

Rajput knyazlarining harbiy sohaga olinishi natijasida butun Hindiston va Dekan viloyatining bir qismi bosib olindi hamda Akbarshohning diniy siyosati butun mamlakatda diniy bag'rikenglikni ta'minlanishiga sabab bo'ldi.

Akbarshoh davrida Eron, Usmoniylar Turkiyasi, Buxoro kabi davlatlar bilan diplomatik aloqalar jonlangan. Ushbu davlatlar bilan yozishmalar Akbarshohning buyuk vaziri Abul Fazl orqali olib borilgan. Abul Fazl tomonidan yozilgan maktublar bir qator mamlakatlar: Hindiston, Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Turkiya, Eron va boshqa mamlakatlarda saqlanib qolgan¹¹⁷.

Boburiylar Hindistondan portugallarni (portugallar u yerda uchta portga ega edilar) quvib chiqara olmaydilar. Chunki, boburiylarning dengiz floti bo'lmagan. Portugallar esa dengizda hukmron bo'lganlar. Hatto musulmonlar Makka va Madinaga haj safariga dengiz yo'li orqali borishlari uchun portugallardan ruxsat olishga majbur edilar. Akbarshoh portugallarning markazi bo'lgan Goaga elchilik missiyasini jo'natib, o'zlari uchun xristian missionerlarini (xristianlikni o'rganish maqsadida) yuborishni so'raydi. Bir qancha iezuitlar Akbarshoh va uning vorislari saroyiga elchi sifatida keladilar. Elchilikdan asosiy maqsad dinni o'rganish emas, balki raqiblar bir-birlarining kuchlarini o'rganish edi. Lekin, ikkala tomon ham ko'zlagan maqsadlariga yeta olmaganlar.

Akbarshohning vorislari Jahongir (1605–1627-yy.) va Shohjahon (1627–1657-yy.)lar portugallarga qarshi ingliz va gollandlardan foydalanishga harakat qilganlar. Shuning uchun, 1601-yilda Dehlida kapitan Xoukins qabul qilinadi. U Angliya qiroli Yakov I ning maktubini olib kelgan edi. U portugallarning turli fitnalariga qaramasdan 1611-yilgacha saroyda yashaydi. Inglizlarning Gujaratda savdo ishlarini yaxshilash maqsadida Yakov I ning rasmiy elchisi Tomas Rou Hindistonga keladi va 1615–1618-yillar davomida Dehlida yashaydi. Inglizlarning bu yerda olib borgan faoliyatining eng muhim natijasi 1717-yilda boburiylardan bojsiz savdo qilish huquqini qo'lga kiritishlari bo'ldi¹¹⁸.

Akbarshohning vorislari Dekan viloyatida o'z hukmronliklarini kengaytirishga harakat qilganlar. Ular bu yerni bo'ysundirishda harbiy vositadan tashqari, diplomatik vositalarni ham ishga solganlar. Ular janubiy Hindiston hukmdorlarining qizlariga uylanish orqali maqsadlarini amalga oshirishga harakat qilganlar. Ayni paytda

¹¹⁷ Там же. – С. 228.

¹¹⁸ Там же. – С. 228.

boburiylar musulmon davlatlari – Badaxshon, Eron, Balx va Buxoro bilan ham diplomatik aloqalarni uzmagalar.

XVII asrning ikkinchi yarmidan Boburiylar davlati inqirozi boshlanadi. 1657-yilda taxtni Avrangzeb (1657–1707-yy.) egallaydi. U ajdodlari kabi janubiy Hindiston va shimoliy hududlar Qandahor, Balx, Badaxshondagi musulmonlarga qarshi harbiy siyosatini davom ettiradi. Avrangzeb janubiy hind hukmdorlari bilan munosabatda ayyor diplomatik yo‘l tutgan. Masalan, maratxlar hukmdori Shivajini poytaxtga muzokaralar uchun tantanali qabul marosimiga taklif etib, o‘ldirishga harakat qiladi. Shivaji qochishga muvaffaq bo‘ladi. Qal’alar qamali paytida Avrangzeb sotib olish siyosatini ko‘p qo‘llar edi. U Golkondni vazirni sotib olish orqali bosib olgan.

XVII asrgacha Hindistonning Rossiya bilan aloqalari qisman va tasodifan savdogarlar orqali amalga oshirilgan. Afanasiy Nikitinning 1466–1472-yillarda dengiz osha sayohatlari haqidagi ma’lumotlar saqlanib qolgan. Yilnomalarda 1532-yilda Moskvaga kelgan Boburning elchisi haqidagi ma’lumotlar ham saqlanib qolgan. Ammo, Bobur tomonidan elchiga berilgan yorliq saqlanmagan.

XVII asrning ikkinchi yarmidan rus hukumati Hindiston bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishga harakat qila boshladi. 1676-yilda M.Yu.Qosimov boshchiligidagi missiya Hindistonning chegarasi hisoblangan Qobulga yetib bora oladi. Avrangzeb Qosimovni chegaradan o‘tkazmaslik haqida buyruq beradi. Aftidan bu rad qilinishning sababi, podsho Aleksey Mixaylovichning har yili mo‘ynaga 200–300 pud kumush almashtirish haqidagi iltimosi bo‘lishi mumkin. Chunki, bu paytda boburiylarning xazinasini tinimsiz urushlar natijasida bo‘shab qolgan edi. 1696-yildagina savdogar Semyon Kichkina Dehligacha yetib borishga muvaffaq bo‘ladi va bu yerda ikki yil davomida yashaydi. U Avrangzebga hukmdorlar Ivan va Pyotrning yorliqlarini topshiradi hamda bu yerda farmon huquqi (bojsiz savdo qilish)ga ega bo‘ladi. Ammo, ortga qaytayotgan Semyon Kichkina Eronda vafot etadi. Do‘stlari uning farmon huquqi haqidagi yorlig‘ini olib keladilar va bu yorliq Moskvadagi arxivda saqlanadi¹¹⁹.

XVIII asrda boburiylar Imperiyasi inqirozga uchradi. XVIII asr o‘rtalaridan boshlab inglizlar Hindistonni mustamlakaga aylantira boshladilar. Yangi istilochilar – inglizlarning kelishi bilan hind diplomatiyasi yangi bosqichga ko‘tariladi.

¹¹⁹ Там же. – С. 230.

* **Delegatsiya** (лат. Delegatio) – tayinlash, yuborish.

Oʻrta asrlarda Arab xalifaligi va Yaqin Sharq mamlakatlari diplomatiyasi

Arab xalifaligi

Islom yoki Arab xalifaligi diplomatiyasi paygʻambarimiz janob Muhammad alayhissalomning hijrat qilishlaridan oldin Anabada (Makka yonida) Yasrib qabilalari bilan kelishuvidan boshlandi.

Hijriy 6/7 (628/629-yy.) yilning oxirida Muhammad alayhissalom islom dinini qabul qilishga daʼvat etib, Vizantiya imperatori Irakliyga, Sosoniylar hukmdori Xusrav II (591–628-yy.)ga, Habashiston negusiga, Misr noibi al-Mukaukisga, Ummon shohiga, Bahrayn va Yaman hukmdorlariga maktublar yuborganlar.

630-yilda Makka musulmonlar tomonidan boʻysundirildi va shahar aholisi islom dinini qabul qildi.

631-yilda islom dini deyarli butun Arabiston hududlariga yoyildi. Ushbu yil musulmon tarixiga “delegatsiyalar”^{*} yili sifatida kirdi. Paygʻambarimiz vorislari Abu Bakr (632–634-yy.), Umar (634–644-yy.), Usmon (644–656-yy.) va Ali (656–661-yy.)lar hukmronligi davrida keng koʻlamli istilolar amalga oshirildi. Sosoniylar Eroni, Vizantiyaning Osiyo va Shimoliy Afrikadagi yerlari arablar tomonidan istilo qilindi. 661-yilda hokimiyat tepasiga kelgan Ummaviylar (661–750-yy.) sulolasi ham istilochilik yurishlarini davom ettirdilar.

750-yilda hokimiyat tepasiga kelgan Abbosiylar (750–1258-yy.) sulolasi murakkab boshqaruv tizimini joriy qildilar. Boshqaruvning yetti tarmogʻi yoki devonlari orasida “devon ar-rasolat” – tashqi ishlar vazirligi alohida mavqega ega edi¹²⁰.

Xalifalik elchiligi haqida Abul-Fazl Bayhaqiy asarlarida qiziqarli maʼlumotlar keltirilgan. Elchilar sifatida ikki kishi yuborilgan: biri saroy aʼyonlariga tegishli boʻlsa, ikkinchisi ulamolardan boʻlgan. Ularga toʻrtta maktub berilgan. Birinchi maktub elchilik borayotgan hukmdor nomiga yozilgan salomnoma xati boʻlgan. Unda Qurʼon oyatlaridan keltirilib, har ikkala hukmdorlarning barcha unvonlari sanab oʻtilgan, elchilikni kutib olayotgan hukmdorga yaxshi tilaklar, sogʻlik-salomatliklar tilangan, yuborilayotgan elchilar tanishtirilgan, elchilarning vakolat doirasi hamda hukmdorga taqdim etilishi kerak boʻlgan hujjatlar roʻyxati koʻrsatilgan va, albatta, elchilarni koʻp ushlab qolmaslik haqida iltimos qilingan. Ikkinchisi elchiga yoʻriqnomalar edi. Uchinchi maktub ham elchilikning maqsad haqida yozilgan boʻlib, xat

¹²⁰ История дипломатии. Том 1. Москва; Политиздат, 1959. – С. 117.

faqat rasmiy muzokara (audiyensiya)lar paytida topshirilgan. To‘rtinchi maktub esa sovg‘a-salomlar ro‘yxatidan iborat bo‘lgan.

Elchi, shartnoma tuzilgan taqdirda, uning qasamyod qilish orqali tasdiqlanishini ajnabiy hukmdordan, uning farzandlaridan va a‘yonlaridan talab qilar edi. Elchi qo‘shni davlatlarga, albatta, sovg‘a-salomlar bilan borgan. Sovg‘aning bir qismi dastlabki uchrashuvda topshirilib, qolgan qismi esa faqat elchilik muvaffaqiyatli tugagandagina berilgan. Sovg‘alarni manziliga yetkazib berish va ulashish bilan maxsus xizmatchilar shug‘ullanganlar¹²¹.

Xalifalik Sharq va G‘arbning barcha mamlakatlari bilan savdo aloqalariga ega bo‘lgan. Arab savdogarlari Hindiston, Indoneziya, Xitoyga dengiz orqali safarlar uyushtirganlar va bu yerlarda musulmon savdogarlarining yirik faktoriyalari paydo bo‘lgan. Arab savdogarlari o‘z mollarini Volga daryosi va Boltiq dengizi sohillarigacha yetkazib berganlar.

Arab tarixchisi Ahmad ibn Fadlan 921-yilda bulg‘orlar* podsholigiga yuborilgan elchilik haqida qiziqarli ma‘lumotlar yozib qoldirgan. Keyinchalik bulg‘orlar islomni qabul qilgan, bu arab diplomatiyasining yutuqlaridan biri edi.

Nizomulmulk* tomonidan 1091-yilda yozilgan “Siyosatnoma” (“Siyar ul-muluk”) asarida ham elchilik xizmatiga bag‘ishlangan alohida boblar mavjud. Ushbu risoladagi ma‘lumotga ko‘ra, elchilik o‘zga mamlakat chegarasiga kelgach, maxsus xabarchi orqali hay‘at necha kishidan iborat ekanligi haqida xabar berilishi kerak. Elchilar maxsus kuzatuvda olib borilib, ular yo‘lda turar-joy va oziq-ovqat bilan ta‘minlanishi lozim. Elchilar garchi dushman davlatdan kelayotgan bo‘lsalar ham ularni haqoratlash yoki tahqirlash mumkin emas edi. Qur‘onda bu haqida bunday oyatlar mavjud: “Elchida faqat bir mas‘uliyat mavjud – to‘g‘ri xabar berish”. Nizomulmulkning ma‘lumotlari Vizantiya va Sosoniylar Eroni diplomatiyasi an‘analari Sharqda gullab-yashnaganligidan dalolat beradi¹²².

¹²¹ Там же. С.117-118.

* **Bulg‘orlar** – VII asrdan boshlab O‘rta Volga bo‘ylarida yashagan turkiy qabilalar. X–XIV asrlarda Bulg‘oriyaning aholisi. Ularning avlodlari – chuvashlar, Qozon tatarlari va b. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2-жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 248; 492.

* **Nizomulmulk** (1017, Tus – 1092, Nahovand) – Saljuqiylar davlati arbobi. Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishaq at-Tusiyning “Nizomul-mulk”, ya‘ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozongan. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б. 348–349.

¹²² История дипломатии. Том 1. Москва: Политиздат, 1959. – С.119.

Misr diplomatiyasi

X–XII asrlarda Shimoliy Afrikada hukmronlik qilgan fotimiylar sulolasi (909/969–1171-yy.) Vizantiya bilan faol diplomatik munosabatlarga kirishgan. X asr oxirida fotimiylar davlati hududiga Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Suriya (Falastin b-n), Gʻarbiy Arabiston (Hijoz, Yaman) kirgan¹²³. 1037-yilda Vizantiya imperatori bilan yarash ahdnomasi tuziladi. Fotimiylar bu ahdnomadan foydalanib, Aleppo (Xalab)ni bosib oladi va Suriyani oʻziga boʻysundiradi. 1099-yilda salibchilar tomonidan Quddus egallanib, fotimiylar chekinishga majbur boʻladilar.

1171-yilda Misrda fotimiylar oʻrniga mamluklar sardori Salohiddin Ayyubiy keladi. Ayyubiylar (1171–1250-yy.) salibchilarga qarshi muvaffaqiyatli yurish qilib, ularni Quddusdan haydab chiqaradilar.

Ayyubiylar oʻrniga kelgan mamluklar sardori Kutuz 1260-yil 3-sentyabrda Falastindagi Ayn-Dalut degan joyda moʻgʻullarni toʻla magʻlubiyatga uchratadi. Kutuzdan soʻng hokimiyat tepasiga kelgan sulton Beybars (1260–1277-yy.) salibchilarning asosiy shaharlarini tortib oladi. Salibchilar qoʻlida faqat Tripoli va Akka shaharlari qoladi. Beybars 1273-yilda ismoiliylar – hashshoshiylarni magʻlub etadi, 1277-yilda Tavr (Turkiyadagi togʻ)da moʻgʻullarga qaqshatqich zarba beradi.

Beybarsdan keyingi mamluk sultoni Kalaun (1279–1290-yy.) Genuya, Sitsiliya, Kastiliya bilan savdo shartnomalari tuzadi. Misr davlatining taʼsiri Nubiya va Yamanga yoyiladi, Makka shahri ham Kalaunga itoat etadi. Natijada Hindistonga boruvchi dengiz savdo yoʻli xavfsizligi taʼminlanadi. 1303-yilda Damashq yonida mamluklar moʻgʻullarni uzul-kesil tor-mor qiladilar va bu hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻladi¹²⁴.

Eron safaviylar davlati diplomatiyasi

XV asrning ikkinchi yarmida Ardabil shahri va Janubiy Ozarbayjonda “Safovviya” nomli shia mazhabiga mansub shayxlarning taʼsiri kuchaydi. 1502-yilda shayx Ismoil Safaviy (1502–1524-yy.) Janubiy Ozarbayjon va Tabriz shahrini ishgʻol qilib, oʻzini Eron shohi deb eʼlon qildi. Tabriz safaviylar Eronining poytaxti boʻldi.

Ismoil Safaviy Armaniston, Kurdiston, keyinchalik Bagʻdod va Mesopotamiyani egallaydi. Ismoil davrida yuz yildan koʻproq davom

¹²³ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 9-жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 299.

¹²⁴ https://ru.wikipedia.org/wiki/Мамлюкский_султанат#Войны_с_монголами_и_крестоносцами

etgan Eron–Turkiya urushlari boshlanib ketadi. Bu urushlar XVII asrning 30-yillari oxirigacha davom etadi.

1590-yilda shoh Abbos I Turklar bilan Stambul tinchlik shartnomasini tuzdi va unga binoan Usmoniylar Imperiyasi Sharqiy Gruziya, Sharqiy Armaniston, Kurdiston, butun Ozarbayjonni (Ardabil va Tabrizdan tashqari) va qisman Luristonni qoʻlga kiritdi. Undan soʻng Abbos I sharqqa yurib, Shayboniylarni magʻlubiyatga uchratdi va Nishopur, Mashhad, Hirot, Marvni (1597-yilda) ishgʻol etdi.

1602-yilda Abbos I (1588–1629-yy.) Turkiyaga yana urush qildi. Oʻn yil davomida u Ozarbayjon, Luriston, Kurdistonning bir qismini, Sharqiy Armaniston va Sharqiy Gruziyani qaytarib olishga muvaffaq boʻldi.

Safaviylar Moskva Rusi bilan muntazam aloqalar oʻrnatganlar. 1588–1676-yillarda Eronga 20 marotaba rus elchilik missiyasi, Erondan Rossiyaga esa 15 ta elchilik missiyalari yuborilgan.

XVI asrda Fors koʻrfaziga birinchi mustamlakachilar, yaʼni portugallar kirib keldi. Ular Ormuz orolida joylashgan yirik savdo portini ishgʻol qildilar.

Inglizlarning Moskva kompaniyasi Volga-Kaspiy yoʻnalishidan foydalanib, shimol orqali Eron va Hindiston bilan savdo-sotiqni rivojlantirishga muntazam harakat qilgan.

XVII asrning boshida Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi oʻz vakillarini Eronga yuboradi. XVII asrning oʻrtalarida Gollandiyaning Ost-Indiya kompaniyasi bu hududlarda savdo boʻyicha inglizlardan oʻzib ketadi.

Usmonli turklar diplomatiyasi

Salib yurishlari davrida Kichik Osiyoda Rum sultonligi nomi ostida saljuqiylar davlati XIII asr boshlarida 10 ta amirlikka boʻlinib ketgan edi. XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida yangi davlat tashkil topdi. Unda koʻchmanchi oʻgʻuzlar yetakchi rol oʻynadilar. Oʻgʻuz qabilalarining rahbari Ertugʻrul Vizantiya bilan chegaradosh Sakaryo boʻyida kichik bir feodal mulkka (beylikka) egalik qilardi. Ertugʻrulning oʻgʻli va taxt vorisi – Usmon* (1282–1326-yy.) Vizantiyaga qarshi urush boshlaydi hamda uning Kichik Osiyodagi mulklarini, jumladan Brusu (Bursa) shahrini bosib olib, oʻz davlatining poytaxtiga aylantiradi.

* **Usmonli turk imperiyasi** – Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimda usmonlilar sulolasi boshqargan davlat (1299–1922). Usmon I asos solgan. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 9-жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б – Б.136-138.

Usmon turklari XIV asrda dastlab Kichik Osiyoda, keyinchalik Bolqon yarimorolida keng istilochilik harakatlarini olib bordilar. Usmonning vorisi O'rxon (1326–1359-yy) 1331-yilda Nikeya shahrini, keyin esa Vizantiyaning Kichik Osiyodagi boshqa barcha yerlarini bosib oladi va Yevropaga yurish boshlaydi. 1354-yilda u Dardanel bo'g'ozining Yevropa qismidagi Gallipol shahrini bosib oladi.

Murod I (1359–1389-yy.) 1361-yilda Frakiyaning bosh shahri – Adrianopolni, 1371-yilda serb, bolgar, valaxlardan iborat koalitsion qo'shinni Maritsa daryosi bo'yida mag'lubiyatga uchratib, Janubiy Serbiyani bosib oladi.

1389-yil 15-iyunda Kosovo maydonidagi jangda Murod I ning o'ldirilishiga qaramay, turklar g'alabaga erishadilar va Serbiyaning katta qismi Turkiyaga qo'shib olinadi. Turkiya davlatining kengayishi Amir Temur tomonidan vaqtinchalik to'xtatiladi.

XV asrning 20-yillarida turklar yana mavqeini mustahkamlab oladilar. Sulton Murod II (1421–1451-yy.) 1422-yilda Konstantinopolni uch marta qamal qiladi, lekin uni ololmaydi.

1444-yilda turklarga qarshi yangi salib yurishi uyushtiriladi. Unda chexlar, polyaklar, vengerlar, nemislar, qisman fransuzlar va boshqa G'arbiy yevropalik ritsarlar qatnashadi. Varna yonidagi jangda (1444-yil 10-noyabr) salibchilar tor-mor etiladi. 1453-yil 29-mayda Sulton Mehmed II (1451–1481-yy.) Vizantiyaning so'nggi imperatori Konstantin XI ni yengib Konstantinopolni zabt etadi.

Mehmed II XV asrning 50–60-yillarida Serbiya, Bosniya, Gertsogovina va Albaniyani zabt etdi. Valaxiya vassal sifatida qaram bo'lib qoldi. 70-yillarning o'rtalarida turklar Qrim va Tanu (Azov) shahrini bosib oldilar. Lekin, 1456-yildagi Belgradga, 1480-yildagi Rodos oroliga yurishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Mehmed II ning nabirasi Salim I (1512–1520-yy.) Eronga muvaffaqiyatli yurishlar qilib, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziyaning bir qismini, Dog'iston va Kurdistonni ishg'ol qildi. 1517-yilda Suriya va Misrni egalladi va o'ziga xalifa unvonini oldi. Krit, Kipr va O'rta Yer dengizidagi yerlarni o'z qo'lida saqlab turish uchun Venetsiya Turkiya sultoniga har yili katta xiroj to'lab turishga majbur edi.

Sulton Sulaymon I (1520–1566-yy.) davrida Usmoniylar Imperiyasi qudrati eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Sulaymon hukmronligining boshlaridayoq Belgrad va Rodosni egalladi. 1526-yilda Moxach yonida chex va venger qo'shinining birlashgan kuchlarini

engib, Vengriyaning kattagina qismini Turkiyaning viloyatiga aylantirdi. 1529-yilda Sulaymon Venani qamal qildi, lekin ishg'ol eta olmadi.

Sulaymon Eronga qarshi yana urushib, Bag'dod va Mesopotamiyani istilo qildi, Shimoliy Afrikada Tripoli va Jazoirni egalladi. Sulaymon davrida Arabiston ham turklar tomonidan bosib olindi.

Avstriya va Ispaniyada hukmronlik qilgan Gabsburglarga qarshi uzoq muddatli kurash Fransiyani Turkiya bilan yaqinlashtirdi. Fransiya qiroli Fransisk I Valua (1515–1547-yy.) Sulaymon bilan Gabsburglarga qarshi ittifoq tuzdi. 1535-yilda Fransiya–Turkiya o'rtasida tuzilgan “Tinchlik, do'stlik va savdo to'g'risida shartnoma” dastlabki “kapitulyatsiya” (lot. “kapitul” – modda, band, paragraf) nomi bilan keng miqyosda ma'lum bo'ldi¹²⁶.

Shartnomaga ko'ra, Turkiyada fransuz savdosi uchun alohida imtiyozli tartib yaratildi, ya'ni fransuz savdogarlariga turk suvlarida bemalol qatnash, Turkiyaning barcha portlaridan 5 foiz boj to'lash sharti bilan erkin savdo qilish huquqi berildi. 1580-yilda Angliya ham Turkiyada shunday huquqqa ega bo'ldi.

Mehmed II davrda Qrim xoni vositachiligida Moskva bilan aloqalarni o'rnatishga dastlabki urinishlar bo'lgan. 1493-yilda Rossiyaga yuborilgan birinchi turk elchiligi Polsha–Litva ma'murlari tomonidan ushlab qolingan va Moskvaga yetib bora olmagan. 1497-yilda Turkiyaga Mixail Pleshev boshchiligida elchilik missiyasi yuborildi. Bu elchilik Azov va Kafa orqali Qora dengiz havzasida amalga oshiradigan rus savdosini tartibga solish masalasida kelgan edi. Chunki, mahalliy turk ma'murlari ushbu shaharlarda rus savdogarlariga to'sqinlik qilardilar. Ikki yildan so'ng yana bir elchilik rus savdogarlari uchun oddiy sharoit yaratishga sultonning roziligini olishga erishdi. Bunda hech qanday siyosiy yoki huquqiy masalalar na Rossiya, na Turkiya tomonidan ko'tarilib chiqilmadi.

Astraxan va Qozon xonliklarining Rossiya tarkibiga kiritilishidan so'ng, Turkiya–Rossiya munosabatlari murakkablashdi.

1569-yilda turklar Astraxanni kuch bilan bosib olmoqchi bo'ldilar, lekin bu muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. Livoniya urushi bilan band bo'lgan Rossiya turklar bilan nizoni chuqurlashtirmoqchi emasdi va shuning uchun Ivan IV Grozniy (1547–1584-yy.) tinchlik muzokaralarini olib borish maqsadida o'z vakillarini sulton huzuriga

¹²⁶ История дипломатии. Том 1. Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1940. – С. 193-194.

yubordi. Shundan soʻng, deyarli 70 yil davomida Turkiya va Rossiya oʻrtasida yirik harbiy toʻqnashuvlar boʻlmadi.

Turklar bilan ruslar oʻrtasidagi ikkinchi jiddiy toʻqnashuv XVII asrning 30–40-yillarida boʻldi. Bu vaqtda Zaparojye kazaklari 1637-yilda Azovni ishgʻol qilib, bir necha yillar davomida oʻz qoʻllarida tutib turadilar (“Azovda oʻtirish”). Kazaklar yordam soʻrab Moskvaga murojaat qildilar. Biroq, Moskva moliyaviy inqirozni boshdan kechirayotganligi, Polsha qiroli bilan kurash tugamaganligi tufayli, Turkiyaga qarshi katta urush olib borishdan voz kechishga majbur boʻldi. Podsho Mixail Fyodorovich kazaklarga Azovni boʻshatishni buyurdi (1643-yilda). Lekin shunga qaramay, kazaklarning Qrim va Turkiyaga qarshi kurashi XVII asr oxirigacha davom etdi¹²⁷.

1571-yilda Lepanto yonida Turkiya yevropaliklardan birinchi marta magʻlubiyatga uchradi. Bu yerda turklarning ulkan floti Ispaniya, Venetsiya va Rim papasining birlashgan floti tomonidan tor-mor qilindi. 1606-yilda Sitvatorokda Avstriya–Turkiya urushi tugaganligi toʻgʻrisida tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga binoan Avstriya usmoniylarga 1547-yildan beri toʻlab kelayotgan oʻttiz ming dukat miqdoridagi yillik xirojdan ozod qilindi. Bundan tashqari, Turkiya birinchi marta tinchlik shartnomasida nasroniy davlatini oʻziga teng tomon, deb eʼtirof etishi lozim edi.

XVII asrning boshlarida Eron shohi Abbos I Kavkazortining katta qismini, Bagʻdod bilan birga butun Iroqni turklardan tortib oldi. Ammo, tez orada sulton Murod IV harbiy harakatlarni boshladi. Toʻrt yillik urushdan soʻng, 1639-yilda Qasri-Shirinda tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga koʻra, Iroq (Bagʻdod bilan birga) Turkiyaga qaytarildi, gʻarbiy Gruziya, gʻarbiy Armaniston va Kurdistonning bir qismi turklar qoʻlida qoldi. Eron bilan Turkiya oʻrtasidagi ushbu chegara keyinchalik deyarli oʻzgarmadi.

Turkiya Eronga qarshi urush bilan birga Polshaga qarshi harbiy harakatlar olib bordi. 1620-yilda turklar polyaklar qoʻshinini tor-mor etib, Ukrainaga bostirib kirdilar. Zaparojye kazaklarining mardligi tufayli 1621-yil Xotin yonidagi jangda turklar magʻlub boʻldi. Biroq, turklarning Polshaga bosimi pasaymadi va ular Ukrainaga hujumni kengaytirib bordilar.

XVII asrning birinchi yarmida rus hukumati umumiy raqib – Polshaga qarshi ittifoq tuzish imkonini hisobga olib, Turkiya bilan tinchlik munosabatlarini tutib turishga intildi.

¹²⁷ Холлиев А. Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (маърузалар тўплами). Тошкент. 2014. – Б. 57.

XVII asrning 50-yillaridan Rossiya-Turkiya munosabatlari Bogdan Xmelnitskiyning harakatlari bilan bog'liq bo'lgan yangi bosqichga o'tdi. Turkiyaning ushbu nizoga aralashuvi Rossiya bilan urushga olib keldi. Harbiy qudratning pasayishi, shubhasiz Usmoniylar Imperiyasining tashqi siyosiy zaiflashuvi bilan birgalikda bo'lib o'tdi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo diplomatiyasi **Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo diplomatiyasi**

Turkiy qavmlarning Ashina urug'idan bo'lgan Bumin 552-yilda xoqon deb e'lon qilinadi va u yangi davlat – Turk xoqonligiga asos soladi. Uning poytaxti Oltoydagi O'tukan shahri edi. Xoqonlik tez orada kuchayib, bosqinchilik yurishlarini amalga oshiradi. Jumladan, Xitoyga bir necha bor yurish qilib, uning bir qancha hududlarini bosib olgan. Xitoy podsholigi Turk xoqonligiga har yili o'lpon tariqasida ipak mato berib turishga majbur bo'lgan¹²⁸.

Istami (unga “yabg'u” – bahodir unvoni ham berilgan) davrda xoqonlik hududi g'arbga tomon kengayib, Yettisuv, Qashqar va boshqa hududlar egallandi. 563–567-yillar davomida Istami qo'shinlari eftaliylar davlatiga ketma-ket zarbalar berib, Markaziy Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. Buning oqibatida eftaliylar davlati qulaydi. Turk xoqonligi Markaziy Osiyo yerlarini ishg'ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi. Xoqonlik Eron bilan yaxshi qo'shnichilik, savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intiladi. Shu maqsadda Eron shohi Xusrav I (531–579-yy.) Anushirvonga turk malikasi uzatiladi, Eronga elchilar yuboriladi. Biroq, Turk xoqonining Eronga ikki bor yuborgan elchilari faoliyati muvaffiyatsiz tugagach, Eronning xoqonlik bilan murosaga bormasligi, uning qat'iy dushmanligi ma'lum bo'ladi. Buning boisi Eron shohining Markaziy Osiyo hududlariga da'vogarligida edi. Bu esa, shubhasiz, bir necha bor xoqonlikning Eron bilan urushlar olib borishiga sabab bo'ladi. Istami qo'shinlari Xisrav I ni yengadi. Eron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillosi hajmida tovon to'lashga majbur bo'ladi. VI asrning ikkinchi yarmi – VII boshlarida turkiy qavmlar g'arbda Qora dengizga qadar hududlarni zabt etib o'zlariga bo'ysundirganlar¹²⁹.

Turk xoqonligi 568–569-yillarda Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intilib, sug'd savdogari Maniakh

¹²⁸ <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/122-turk-haqonligi.html>

¹²⁹ O'sha joyda.

boshchiligidagi elchilarni yuboradi. Elchilar imperator Yustinian II (685–695-yy.) qabulida bo‘ladi. Shundan so‘ng, Vizantiyannig Zemarx boshliq elchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu esa davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va savdo-tijorat munosabatlarini o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan¹³⁰.

Bo‘ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqarish tartibi xoqonlikni zaiflashtira bordi. Natijada VI asrning 80-yillari oxirlarida Turk xoqonligi ikki qismga bo‘linib ketadi. G‘arbiy turk xoqonligi (uning tarkibiga Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung‘ariya (Xitoyning shimoliy g‘arbi) hududlari kirgan). Sharqiy turk xoqonlik (uning tarkibiga Mo‘g‘uliston hududlari kirgan). VII asrda g‘arbiy xoqonlikda shaharlar rivojlanishi, Eron va Xitoy bilan qizg‘in savdo-sotiq hamda diplomatik aloqalar kuzatilgan.

Xitoyda Tan sulolasi (618–907-yy.) hukmronligi davrida G‘arbiy Turk xoqonligi bilan Xitoy o‘rtasida foydali aloqalar keng yo‘lga qo‘yiladi. Masalan, 627–644-yillarda Markaziy Osiyodan Xitoyga 9 marta savdo karvonlari yuborilgan¹³¹. VII asrning 30-yillarida xoqonlik hududlarini kezgan xitoylik sayyoh Syuan Szin Issiqqo‘l, Chu vodiysi, Choch, Samarqand, Buxoro kabi joylarning ancha gavjum va obod bo‘lganligini qayd etadi. Tan sulolasi 659-yilda Sharqiy Turk xoqonligini o‘ziga bo‘ysundiradi. VII asr ikkinchi yarmida ancha kuchaygan Xitoy Markaziy Osiyo hududlarini ham o‘z qo‘l ostiga kiritish payiga tushadi. Biroq 670-yilda tibetliklar bosh ko‘targanligi sababli, Xitoy Markaziy Osiyoga bo‘lgan o‘z da’vosidan vaqtincha voz kechadi¹³².

Sug‘diylar Markaziy Osiyo aholisining tujjor, mohir diplomat, harbiy sarkarda hamda diniy bag‘rikeng (tolerant) vakillari ham edi. Ular mintaqaga o‘zlarining azaliy dinlari zardushtiylikdan tashqari, buddaviylik, xristianlik va moniylik kabi dunyo dinlarini olib kirdilar¹³³. Bu holat xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Shunday qilib, Turk xoqonligi o‘z davrida keng hududlarga yoyilgan yirik davlat bo‘lgan. Uning hukmdorlari Xitoy, Eron va Vizantiya bilan bo‘lgan munosabatlarda uzoq yillar o‘z ta’sirini o‘tkazganlar.

¹³⁰ O‘sha joyda.

¹³¹ O‘sha joyda.

¹³² O‘sha joyda.

¹³³ Отаҳўжаев А. Турк-суғд муносабатлари тарих ва унинг ўрганилиш ҳолати // <http://www.e-tarix.uz>.

Arab xalifaligi davrida Markaziy Osiyo diplomatiyasi

Markaziy Osiyoning arablar istilosi davrida diplomatik munosabatlar o'ziga xos jihatlarga ega bo'ldi. Bu haqda ma'lumotlar, garchand to'la bo'lmasa-da, o'sha davrda yozilgan ko'plab arab manbalarida, sug'diy hujjatlarda o'z aksini topgan. "Kitob futuh al-buldon" (al-Balazuriy), "Kitob al-buldon" (al-Ya'qubiy), "Tarix ar-rusul val-muluk" (at-Tabariy), "Kitob al-masolik val-mamolik" (Ibn Xurdodbek), Ibn Fadlan taassurotlari kabi o'nlab asarlar shular jumlasidandir.

O'sha davr manbalari ma'lumotlariga tayangan holda, Markaziy Osiyoda o'zaro olib borilgan diplomatik aloqalarni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

- Arab lashkarboshilari bilan mahalliy hukmdorlar o'rtasida olib borilgan aloqalar. Bu tarzdagi munosabatlar, asosan, tomonlarning o'zaro kurash jarayonidagi yoki urush arafasidagi holatlarni o'zida aks ettirgan bo'lib, ular ko'proq arablarning ultimatum tarzidagi talablari hamda mahalliy hukmdorlarning ularga yuborgan ijobiy yoki salbiy javoblaridan iboratdir. Voqealarning keyingi rivoji ana shu yozishmalar natijasiga qarab belgilangan. Shu bilan bir qatorda, ayrim paytlarda arab istilochilari ahvoli tang bo'lganda ma'lum yon berish evaziga u yoki bu mintaqada o'z mavqelarini saqlab qolish uchun mahalliy hukmdorlar bilan muzokaralar olib borganliklari haqida ham ma'lumotlar uchraydi;
- Mintaqadagi turkiy xalqlar o'rtasida islomni tinch yo'l bilan joriy etish uchun arablar tomonidan tashviqot guruhleri – elchilik missiyalari faoliyati haqidagi ma'lumotlar. Bunday elchilik missiyalari, hatto, Volga bo'ylaridagi turkiy xalqlar yerlariga ham yuborilgan. Ular ayrim hollarda muvaffaqiyat qozonganlar, ba'zan mag'lubiyatga uchraganlar;
- Markaziy Osiyodagi mahalliy hukmdorlarning arab istilochilari xavfi arafasida va istilo jarayonida o'zaro birlashishga, bir-birlariga madad berishga qaratilgan yozishmalari va elchilik faoliyatlari¹³⁴.

O'rta asrlar arab va fors manbalarida Markaziy Osiyodagi xalqlar bilan arab istilochilari o'rtasidagi munosabatlar turkiy qavmlar bilan olib borilganligi, shaharlar va istehkomlar turkiylar tomonidan mudofaa qilinganligi alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, mahalliy aholiga

¹³⁴ Ўзбек дипломатияси тарихидан (тарихий очерклар ва лавҳалар). Тошкент. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети. 2003. – Б. 38-39.

nisbatan mensimaslik qabilida yozilgan ko‘plab ma’lumotlar ham mavjud. Masalan, at-Tabariyning yozishicha, arablar Buxoro yaqinidagi Ashras degan istehkomni egallaganlarida, turkiylarning Farg‘ona, Tarband, Afshona, Nasaf hamda Buxorodan kelgan birlashgan qo‘shinlari ularni qurshab oladi. Ikki orada muzokaralar boshlanadi. Arablarga, agar taslim bo‘lishsa, avf e’lon qilinishi aytiladi. Shunda muzokaraga kelgan arablarning vakili Yazid bin Said al-Bahili shunday deydi: “Bu narsa pishmaydigan savdo. Arablar bo‘ri bo‘lsayu, qanday qilib qo‘y bo‘lgan turkiylarga bo‘ysunishi mumkin. Oramizda yarash bo‘lishi haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas”. Bu joydagi jangda, – deb ta’kidlaydi at-Tabariy, ko‘p arablar shahid bo‘ldilar¹³⁵.

Ibn Fadlan o‘z xotiralarida Buxoroda Somoniylar tobeligidagi bir guruh arablar elchi sifatida Amudaryodan kemaga tushib, Xorazmga borganliklarini yozadi. Elchilarga g‘ayridinlar o‘rtasida islomni targ‘ib etish, ularni musulmonlikni qabul qilishiga ko‘ndirish vazifasi yuklatilgandi. Ular janubiy Xorazm poytaxti Kat shahriga keladilar. Elchilar bu yerda Janubiy Xorazm shohi Muhammad ibn Iroq huzurida bo‘ladilar. U Somoniylar amirlarini tan olgan mahalliy hukmdor edi. Shoh elchilarni hurmat bilan qabul qiladi. Elchilik tarkibi Susamir-Rassiy, Takin at-Turkiy, Basra as-Saklabiy va Ibn Fadlanlardan iborat edi¹³⁶.

Arab istilochilariga qarshi kurashda o‘zaro ittifoq tuzish uchun bo‘lgan urinishlar sug‘diycha hujjatlarda o‘z aksini topgan. Masalan, Mug‘ tog‘idan topilgan diplomatik yozishmalar namunasi sifatida elchi Fatufarning hukmdor Divashtichga yuborgan maktubi hamda arab amirlaridan biri Abdurahmon ibn Subhning Divashtichga yuborgan xatini ko‘rsatish mumkin¹³⁷.

Vizantiya imperatori bilan arab xalifasi o‘rtasida janjalli yozishmalar bo‘ladi. Bunda Vizantiya imperatori arab xalifaligiga do‘q-po‘pisa qilib, bir vaqtlar uning yerlari bo‘lgan, hozir esa Bag‘dod xalifasi egallab turgan o‘lkalarni tinchlik bilan ularga qaytarib berishni talab qiladi. Imperator maktubning balandparvoz chiqishi uchun lashkarboshisi Tag‘fur (arab manbalarida – Takfur) orqali arab tilida she’riy maktub tarzida yozdiradi. Maktubda quyidagicha satrlar bor edi: “...Damashq o‘lkasi ota-bobolarimiz maskani edi, biz bu diyor mol-mulkiga ega bo‘lamiz. Misrni ham qilichimiz tig‘i bilan egallaymiz.

¹³⁵ Ўша жойда. – Б. 40.

¹³⁶ Ўша жойда. – Б. 40.

¹³⁷ Arslъnъzъda R. Manbashunъslik (darslik). Farg‘ona: “Classik” nashriyoti, 2022. – B. 95.

Hijoz, Bag‘dod, Sheroz, Ray, Xuroson, Quddus, Sharqu-G‘arb hammasini egallaymiz”, deb xalifa va uning sarkardalariga dag‘dag‘a qiladi. Xuddi mana shu voqealar bo‘lgan paytda Qaffol ash-Shoshiy Bag‘dod shahrida bo‘ladi. U xalifalikda iqtidorli olim, saroy a‘yonlari ichida yaxshigina qonunshunos va shoir sifatida tanilgan edi. Shu sababli Vizantiya imperatori xatiga javob yozishni Qaffol ash-Shoshiyga (903/904 – 976-yy.) topshiriladi¹³⁸.

Xalifa Qaffol ash-Shoshiyni izzat-ikrom bilan qabul qilib, vaziyatni va maqsadni tushuntiradi. Tezda mana shu maktubni tarjima qilib bersa, istagan talabini so‘zsiz bajo qilinishini ham va‘da qiladi.

Qaffol ash-Shoshiy maktubni o‘qib ko‘rib, o‘sha maktub yozilgan she‘r vaznida va qofiyasida imperator nomiga javob she‘ri (xati) yozadi. Vizantiya lashkarboshisi Tag‘fur bu javob she‘rini o‘qib, dahshatga tushadi. Xullas, Vizantiya lashkarboshilarini Qaffol ash-Shoshiyning diplomatik tarzda yozilgan javob maktubi esankiratib qo‘yadi. Voqeaning nima bilan tugashining bugungi kunda ahamiyati yo‘q, lekin bu birgina misol orqali Qaffol ash-Shoshiyning zabradast davlat arbobi, hozirjavob shoir ekanligi ma‘lum bo‘ladi¹³⁹.

Nazorat savollari:

1. Ilk o‘rta asrlarda Xitoy diplomatiyasining asosiy obyektini qaysi davlat bo‘lgan?
2. Qaysi sulola davrida Xitoyga Vizantiyadan elchilar tashrif buyurgan?
3. Xitoy tashqi aloqalarida Chjan Xe faoliyati haqida qanday qanday ma‘lumotlar mavjud?
4. Yamato (Yaponiya) davlatining tajovuzkor diplomatiyasi obyektini qaysi hududlar edi?
5. Qaysi syogun Yaponiyani “yopiq davlat”ga aylantirdi?
6. Boburiy Akbarshoh Hindistonni bo‘ysundirishda qanday diplomatic vositalardan foydalangan?
7. Qaysi Boburiy hukmdorlar Hindistonga kirib kelgan portugal mustamlakachilariga qarshi ingliz va gollandlardan foydalanganlar?
8. Boburiylar Hindistonida “farmon huquqi” qanday hujjat?
9. Arab xalifaligi diplomatiyasining o‘ziga xos jihatlari sanab bering.
10. Misrda fotimiylar va mamluklar diplomatiyasi haqida qanday ma‘lumotlarni keltirish mumkin?

¹³⁸ <http://e-tarix.uz/shaxslar/124-qaffol-shoshiy.html>

¹³⁹ <https://arboblar.uz/uz/people/kaffal-shashi>

11. Eron–turk diplomatiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering
12. XVI–XVII asrlarda Eronda qaysi Yevropa davlatlarining manfaatlari to‘qnashdi?
13. Usmonli turklar Yevropadagi tajovuzkor diplomatiyasining obyektlarini sanab bering.
14. Turkiya–Rossiya munosabatlarida manfaatlat to‘qnashgan hududlarni sanab bering.
15. Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo diplomatiyasining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib bering.
16. Arablar Markaziy Osiyoda qanday diplomatik usul va vositalardan foydalanganlar?

7-mavzu: XVI-XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Reja

1. XVI-XVIII asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar va diplomatiya xarakterli xususiyatlari
2. XVII–XVIII asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Tayanch iboralar: *birinchi Axen sulhi, Vestfaliya tinchlik sulhi, devolyutsiya urushi, diplomatik depesha, diplomatik inqilob, Yevangeliya uniyasi, kontrreformatsiya, konsistoriya, konfessiya, kurfyurist^{*}, merkantilizm, Nimvegen sulhi, pensionariy, pragmatik sanksiya, Katolik ligasi, stautxauder, Utrext sulhi*

XVI-XVIII asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar va diplomatiya xarakterli xususiyatlari

XVI asrda Niderlandiya va XVII asrda Angliyada burjua inqiloblari bo‘lib o‘tdi. Bu Yevropada kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi va yangi davrning boshlanishi edi. Lekin, Yevropaning katta qismida mutloq monarxiya va yer egaligiga asoslangan jamiyat hukmron bo‘lgan edi. Shuning uchun, diplomatiya mutloq monarxiya va uning byurokratik apparati ta‘sirida rivojlandi.

Bu davr xalqaro munosabatlar tarixini quyidagicha xarakterlash mumkin:

- Yevropada Ispaniya ustunligi davrida XVI asr davomida shiddatli diniy urushlar, ispan monarxlarining feodal-katolik tartibi (rejimi)ni qo‘llab-quvvatlashi, ispan-fransuz, ispan-ingliz raqobati bilan xarakterlanadi;
- Yevropada Fransiya ustunligi davrining kulminatsion nuqtasi – Vestfaliya tinchlik sulhi (1648-y.) bo‘ldi. Fransiya–Gollandiya raqobati, yosh Gollandiya Respublikasining muvaffaqiyatli faoliyati, Angliya ta‘sirining sezilarli darajada kuchayishi bilan xarakterlanadi;
- XVIII asr davomida Angliya va Fransiya o‘rtasida mustamlakalar va dunyo siyosiy maydonida birinchilik uchun kurashi, yosh Rossiya Imperiyasining Boltiq va Qora dengizlariga chiqish uchun kurashlari bilan xarakterlanadi.

* **Kurfyurist** (*nem.* saylovchi-knyaz) – Muqaddas Rim imperiyasida – imperiya knyazi, XIII asrdan imperatorni saylash huquqini olgan knyaz.

Oʻrta asrlarning soʻngi pallasi va yangi davrning boshlanishida, yaʼni Buyuk geografik kashfiyotlar hamda XV–XVI asrlardagi dastlabki mustamlakalarning paydo boʻlishi, xalqaro savdoning rivojlanishi, xalqaro aloqalarning kengayishi va markazlashgan davlatlarning tuzilishi natijasida diplomatiyada yangi shakl va vositalarning vujudga kelishiga olib keldi. Jumladan, davlatlarning hukumat tomonidan diplomatik muassasalar orqali boshqariladigan chet ellardagi doimiy vakilligi, elchixonalar va elchiliklari vujudga keldi. XVI–XVIII asrlarda diplomatiya alohida ijtimoiy institut sifatida rivojlandi. Fransuz tili diplomatik aloqalarning rasmiy tiliga aylandi. XVII asrda paydo boʻlgan dastlabki gazeta va jurnallardan siyosiy, diniy kurashlarda hamda xalqaro munosabatlarda keng foydalanildi. Bundan tashqari, diniy omilning xalqaro munosabatlarga taʼsiri davom etdi. XVII asrning oʻrtalarida davlatlararo ittifoqlarning shakllanishi va harbiy toʻqnashuvlarning yuzaga kelishi, asosan, diniy tamoyillar negizida roʻy berdi. Koʻp hollarda xristian dinidagi turli konfessiyalarning vakillari oʻzaro raqiblar sifatida namoyon boʻldi. Bu esa, Yevropa mamlakatlarining oʻzaro qarama-qarshiligiga olib keldi.

Bu davrda xalqaro savdo aloqalar kengaydi va tovar-pul munosabatlari mustahkamlandi, savdo yoʻllari va markazlari Oʻrta Yer va Boltiq dengizidan Atlantika okeani havzalariga koʻchdi. Natijada mana shu savdo yoʻllari va markazlarida yoki unga yaqin joylashgan Yevropa davlatlari xalqaro munosabatlarda asosiy rol oʻynay boshladi. Bular Portugaliya, Ispaniya, Niderlandiya, Fransiya va Angliya kabi davlatlar edi. Mazkur davlatlar oʻrtasidagi raqobat va gegemonlikka intilish XVI–XVIII asrlarda Yevropada bir necha yirik urushlarni keltirib chiqardi. Mana shunday holatlar oʻsha davrda Yevropa diplomatiyasining xarakterli xususiyatlarini ochib beradi.

Angliyada burjua inqilobining gʻalabasi natijasida, uning tashqi siyosati borgan sari bosqinchilik xarakter kasb eta boshladi. Ingliz parlamentining dengiz qonunchiligi ochiqdan-ochiq kuchli savdo raqobatchilari boʻlgan Ispaniya va Gollandiyaga qarshi yoʻnaltirilgan edi. Bu davlatlarning magʻlubiyati natijasida Angliya dengizda gegemon davlatga aylandi. Quruqlikda inglizlarning asosiy raqobatchisi Fransiya edi.

XVII asrda Fransiya qoʻshnilari Ispaniya va Muqaddas Rim Imperiyasining zaiflashganligi evaziga Gʻarbiy Yevropa xalqaro munosabatlarda mustahkam mavqega ega boʻldi. Bu davrda Muqaddas Rim Imperiyasidan ajralib chiqqan Avstriya va Prussiya ham Yevropa

xalqaro munosabatlariga tortila boshlandi. Sharqda esa Rus davlati Boltiq dengizi va Yaqin Sharqdagi xalqaro muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynay boshladi. Bu holat, ayniqsa, Pyotr I (1682–1725-yy.) davrida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bu davrda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi natijasida “davlat manfaatlari” va “umum manfaatlari” xalqaro siyosatda muhim o‘rin tuta boshladi. Xalqaro munosabatlar, umuman siyosat alohida soha sifatida tadqiq etila boshlandi. XVI asr taniqli mutafakkiri N.Makiavelli (1469–1527-yy.) o‘zining “Hukmdor” risolasida hukmdor uchun davlatni boshqarish tamoyillarini qayd etib o‘tgan. Uning nazariyasiga ko‘ra, hukmdorning “davlat manfaatlari” yo‘lida, axloq qoidalariga amal qilmasdan, har qanday “mumkin bo‘lgan” va “bo‘lmagan” ishlarni qilishi tabiiy hol sifatida talqin etiladi¹⁴¹.

Makiavellining ta’kidlashicha, hukmdor – hayvonlardan sher va tulkiga o‘xshashi kerak. Sher qopqondan, tulki esa bo‘ridan qo‘rqadi. Hukmdor qopqonlarga chap bermog‘i uchun tulki, bo‘rilarni qo‘rqitish uchun sher bo‘lishi kerak. Hamisha sher bo‘lgan – qopqonlarni ko‘rmay qoladi. Takbir shuki, dono hukmdor agar bir vaqtlar bergan so‘zi hozirda o‘ziga zarar bo‘lsa, yoki o‘sha bergan so‘zini berishga majbur qilgan sabablar yechilgan bo‘lsa – so‘ziga sodiqlik qilishi shart emas¹⁴². Mana shu nazariyalar diplomatik san’atning ham asosiy tamoyillaridan biriga aylanadi.

XVI asr ingliz diplomati ser Genri Uotton elchining vazifasi borasida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Elchi – bu begona yurtlarga yuborilgan va u yerda o‘z davlati foydasiga yolg‘on gapiruvchi yaxshi kishi”¹⁴³.

XVII asrning yirik fransuz diplomati va siyosatchisi kardinal Rishelye (1624–1642-yy. Fransiyaning boshqargan.) o‘zining mashhur “Siyosiy vasiyatnoma”sida Makiavelli nazariyasini rivojlantirgan va o‘z faoliyatida ulardan foydalanib, ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishgan. Agar, “umum manfaatlari” va “davlat manfaatlari” davlatning ichki siyosatida shunchalik muhim rol o‘ynar ekan, ular tashqi siyosat uchun yanada ahamiyatlidir. Buni Rishelye har qadamida isbotlagan. O‘zi katolik va Rim cherkovi kardinali bo‘lishiga qaramay, katolik Ispaniya va Avstriyaga qarshi german protestantlari bilan harakat qilgan, absolyutizmning ishonchli tarafdori va himoyachisi bo‘la turib, Fransiya

¹⁴¹ История дипломатии. Том I. – Москва: Политиздат, 1959. – С. 237.

¹⁴² <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/>

¹⁴³ История дипломатии. Том I. – Москва: Политиздат, 1959. – С. 237.

manfaatlari yoʻlida imperatorga qarshi qoʻzgʻolonchi nemis knyazlarini qoʻllab-quvvatlagan.

XVI–XVII asrlar diplomatik xizmatlarni rasmiylashtirish davri boʻldi. XVII asrda, hatto, kattaroq Germaniya knyazliklari ham xorijga oʻz doimiy vakillarini joʻnata boshladi. Diplomatik faoliyatning rivojlanishida papa Lev X (1513–1521-yy.) saʼy-harakatlari muhim rol oʻynaydi. U 1513-yil avgustdagi kardinallar yigʻilishida Germaniya, Fransiya va Angliyada doimiy papalik vakillari (nunsiylar)ni tayinladi. Shunday qilib doimiy papalik nunsiaturasi Vatikan diplomatik tizimining qoidasiga aylandi.

Papalikda elchilarni qabul qilishning oʻziga xos tartib-qoida (ritual)lari ishlab chiqilgan. Masalan, imperatorlar, qudratli davlatlar va Venetsiya Respublikasi elchilari Qirollik zali deb nomlangan hashamatli zalda, boshqa davlatlarning elchilari esa Gertsoglar zalida qabul qilinardi. Elchi papani tik turgan va boshini egmagan holda eshitishi shart edi. 1672-yil 13-sentyabrda papa Moskva podshosi delegatsiyasini qabul qilganda yuqoridagi kabi tartiblarga amal qilingan¹⁴⁴.

Fransiyada ham shunga oʻxshash tartiblar joriy etilgan. Alohida hurmatga ega boʻlgan xorijlik shaxslar va papa nunsiyalarini rasmiy qabul zaliga shahzodalar kuzatib borishi kerak edi. Masalan, 1635-yilda Parijga kelgan ingliz elchisi shahzoda rasmiy uchrashuvga kuzatib qoʻymaguncha bir qadam ham qimirlamasligini aytib, oʻjarlik bilan turib olgan¹⁴⁵.

Bu davrda qirollar hokimiyati dvoryanlar bilan burjuaziya oʻrtasida ustamonlik bilan harakat qilib oʻz mavqeini mustahkalab oldilar. Qirol saroyi siyosat markaziga aylandi. Mutloq monarxiya sharoitida nafaqat sulola vakillari, balki qirolning yoqimtoylari, maʼshuqalari va ayyor gʻalamislar qirolga taʼsir oʻtkaza olganlar. Diplomatiyada vazirlarni, elchilarni sotib olish, poraxoʻrlik kabi illatlar ham shakllana boshlagan. Styuartlar (1603–1649, 1660–1694, 1702–1707, 1707–1714-yy.) davrida bu holat Angliyada avjga chiqqan. Masalan, Karl II Styuart (1660–1685-yy.) Dyunkerki (1662-y.) Fransiyaga rasman 5 mln livrga sotib, 8 mln livrga yashirincha tilxat bergan va 3 mln ni choʻntagiga urgan¹⁴⁶. Bunday holat xalqaro munosabatlar va diplomatiyaga katta taʼsir koʻrsatgan.

¹⁴⁴ Там же. – С. 241.

¹⁴⁵ Там же. – С. 242.

¹⁴⁶ Там же. – С. 245.

XVI asr oxirlari – XVII asrda doimiy diplomatik vakillik instituti mustahkamlanib bordi va aniq diplomatik ierarxiya o‘rnatildi. Diplomatiya ierarxiyaga vakil jo‘natgan davlatning xalqaro maydonda tutgan mavqei asos bo‘ldi. Aynan shu davrdan diplomatik etiket, tartib-qoidalar ishlab chiqila boshlandi. Masalan, Fransiya, Ispaniya va Angliya qirollari qaysidir gertsog yoki knyazga nisbatan, o‘z elchilariga ko‘proq hurmat talab qila boshladilar.

Bu davrda xalqaro va diplomatik huquq borasida tadqiqotlar olib borila boshlandi hamda maxsus asarlar yaratildi:

- 1582-yilda niderlandiyalik Baltazar Ayala “Urush va harbiy muassasalar huquqi” risolasini yozdi.
- 1585-yilda italiyalik Alberiko Jentli “Elchiliklar haqida” risolasini yozdi.
- 1625-yilda gollandiyalik Gugo Goratsiy “Urush va tinchlik huquqi haqida” risolasini yozdi.
- 1676-yilda Avraam Vikfor “Elchi va uning vazifalari” kitobini yozdi.

XVII–XVIII asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar va diplomatiya

XVII–XVIII asrlarda Yevropa xalqaro munosabatlaridagi qarama-qarshiliklar quyidagi yirik umumyevropa ziddiyatlarini keltirib chiqardi:

- O‘ttiz yillik urush (1618–1648-yy.);
- Gollandiya urushi (1672–1678-yy.);
- Ispan taxti uchun kurash (1701–1714-yy.);
- Shimoliy urush (1700–1721-yy.);
- Polsha taxti uchun kurash (1733–1738-yy.);
- Avstriya taxti uchun kurash (1740–1748-yy.);
- Yetti yillik urush (1756–1763-yy.);
- Rus–turk urushlari (1710–1713, 1735–1739, 1768–1774, 1787–1791-yy.)¹⁴⁷.

O‘ttiz yillik urush (1618–1648-yy.)

Urush XVII asrdagi xalqaro munosabatlarning eng yirik voqeasi bo‘ldi. Bu urush umumyevropa miqyosidagi birinchi urush edi va uning girdobiga bir qancha davlatlar tortildi.

O‘ttiz yillik urush boshlanishidan oldin Germaniyada ichki kurash avj oldi. XVII asr boshida kontrreformatsiyaning hujumi kuchayib bordi.

¹⁴⁷ Там же. – С. 250.

Protestantlar erishgan mavqelarini birin-ketin yo‘qotib borishi nafaqat umumgerman, balki xalqaro ta’sirga ega edi. Germaniyada diniy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvida Yevropa davlatlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqliklar va ziddiyatlar katta rol o‘ynadi.

1608–1609-yillarda nemis knyazlarining diniy (konfessial) negizdagi ikki harbiy-siyosiy ittifoqi yuzaga keldi – Yevangeliya uniyasi (Injilchilar ittifoqi) va Katolik ligasi. Ikkala ittifoq ham xorijiy davlatlarning ko‘magini oldi. Natijada Germaniyadagi har qanday harbiy to‘qnashuv davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashishiga olib keldi va bu xalqaro nizoga aylanib ketdi. Aynan shunday holat O‘ttiz yillik urushning boshlanishiga sabab bo‘ldi, Germaniya harbiy harakatlar maydoniga aylandi¹⁴⁸.

Chexiyadagi mahalliy nizodan boshlangan urush Shimoliy Germaniyaga yoyildi, keyinchalik esa Markaziy Yevropaning deyarli barcha hududlarini qamrab oldi. O‘ttiz yillik urush to‘rtta davrdan iborat bo‘ldi:

- Chexiya davri – 1618 – 1623-yillar;
- Daniya davri – 1625 – 1629-yillar;
- Shvedlar davri – 1630 – 1635-yillar;
- Fransuz-shvedlar davri – 1635 – 1648-yillar¹⁴⁹.

Oxirida esa Imperiya va uning ittifoqchilari mag‘lub etildi.

1638-yildayoq Rim papasi va Daniya qiroli tomonidan urushni to‘xtatishga da’vat etildi. Ikki yildan so‘ng, Regensburgda German reyxstagi tinchlik muzokaralarini boshlash g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi. Biroq, sulhni diplomatik tarzda tayyorlashga kechroq kirishildi. Faqatgina 1644-yilda Myunsterda tinchlik kongressi ochildi. Bu yerda imperator va Fransiya o‘rtasida muzokaralar olib borildi. 1645-yilda Vestfaliyaning Osnabryuk shahrida esa shved-german muzokaralari boshlandi.

1648-yil 24-oktyabrda Germaniya, Shvetsiya, Fransiya bilan Muqaddas Rim Imperiyasi o‘rtasida Myunster va Osnabryukda imzolangan tinchlik shartnoma (Vestfaliya sulhi)lari O‘ttiz yillik urush va diniy-siyosiy kurashlarga yakun yasadi. Vestfaliya sulhi natijasida Shvetsiya va Fransiya Muqaddas Rim Imperiyasiga qarashli ayrim yerlarni o‘z tasarrufiga oldi, Shveytsariya

¹⁴⁸ История международных отношений. Учебное пособие. Том I. – Москва. 2002. – С. 67–82.

¹⁴⁹ Там же. – С. 69; <https://obrazovaka.ru/istoriya/tridcatiletnyaya-voyna-kratko.html>.

va Gollandiya Imperiya tarkibidan chiqib, mustaqillikka erishdi. Oqibatda Germaniya kuchsizlanib, parchalana boshladi¹⁵⁰.

O'ttiz yillik urush tugagandan keyingi xalqaro munosabatlarda, avvalo, uchta eng muhim voqea ro'y berdi:

Birinchidan, Angliyada burjua inqilobi g'alaba qilgandan so'ng xalqaro ijtimoiy-siyosiy tizimlari turlicha bo'lgan ikki xil guruh, ya'ni burjua davlatlari (Angliya va Gollandiya) hamda feodal (dvoryan) davlatlari bir-biriga ta'sir ko'rsatmoqda edi. Bu ziddiyat Yevropadagi xalqaro ahvolni murakkablashtirib yubordi. Angliya o'zining birinchi urushini dvoryan monarxlariga emas, balki boshqa bir burjua respublikasi Gollandiyaga qarshi qaratdi. Buning boisi shu ediki, ikkala yosh burjua davlati ham dengizlarda hukmronlik qilishga intilardi, ular birinchi galda Yevropa qit'asida gegemonlik qilishga emas, balki jahon savdo yo'llarida, dunyo okean kengliklarida, uzoq joylardagi xalqlar va mamlakatlarning bozorlarida gegemonlik qilishga qiziqardilar. Lekin, bu ikki burjua davlati o'rtasidagi raqobat sal vaqt o'tmay yo'qoldi, chunki Gollandiya kuchsizlik qildi va xalqaro siyosatda Angliyaning ikkinchi darajali sherigi bo'lib qatnashishga majbur bo'ldi. 1688-yildan boshlab Angliya bilan Gollandiya o'rtasida ittifoq vujudga keldi, chunki Gollandiya qiroli Vilgelm III Angliya hukmdori bo'lib qolgan edi. Aksincha, burjua Angliya–Gollandiya davlatlari bilan qit'adagi feodal monarxiyaning markazi bo'lgan Fransiya o'rtasidagi ziddiyat to'xtovsiz kuchayib bordi. Bu esa xalqaro munosabatlar sohasida ikki ijtimoiy-iqtisodiy tizim raqobatini keltirib chiqardi.

Ikkinchidan, XVII asrda Sharqiy Yevropada qudratli davlat – feodal Rossiya monarxiyasi Yevropa davlatlari tizimiga xavfli kuch sifatida qo'shildi. XVII asr 30-yillari o'rtalaridan boshlab rus hukumatining asosiy diqqat-e'tibori janubda Qrim tatarlariga qarshi kuchli mudofaa chizig'ini vujudga keltirishga qaratilgan edi. Lekin, XVII asr 40-yillarning oxirlariga kelib Rossiya yana Yevropadagi xalqaro munosabatlarning qudratli omili sifatida maydonga chiqdi. Mustahkamlanib borayotgan rus davlatining tashqi siyosiy faoliyati, asosan uchta davlatga, ya'ni Shvetsiya, Polsha, Turkiyaga qarshi kurash olib borishdan iborat edi. Bu kurash Rossiyaning Boltiq va Qora dengizga chiqishi uchun, dengiz orqali bo'ladigan jahon savdosida hamda Umumyevropa siyosiy hayotida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lish uchun zarur edi. 1667-yildagi Andrusovoda tuzilgan yarash ahdiga binoan so'l qirg'oq Ukraina rasman Rossiyaga qo'shib olindi.

¹⁵⁰ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-v/vestfaliya-sulhi-uz/>

Lekin, o'sha vaqtda Turkiya janubdan o'ng qirg'oq Ukrainaga bostirib kirishga shoshilmoqda edi. Moskva tashqi siyosatiga endi Turkiya xavfini harbiy vositalar bilan ham, diplomatik vositalar bilan ham daf etishga to'g'ri keldi. Shunday qilib, Sharqiy Yevropadagi xalqaro ziddiyatlar butun Yevropa xalqaro munosabatlar tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, O'ttiz yillik urushdan so'ng, G'arbiy feodal monarxlar orasida kuchlarning joylashuvi keskin o'zgardi. XVII asrning birinchi yarmida Avstriya va Ispaniya Gabsburglari G'arbiy Yevropaning xalqaro hayotida gegemonlik qilgan bo'lsa, XVII asrning ikkinchi yarmida bu gegemonlik, shubhasiz Lyudovik XIV Burbon (1643–1715-yy. Fransiya qiroli) saroyiga o'tdi. O'ttiz yillik urushda Gabsburglar batamom tor-mor etilgani yo'q edi va xalqaro kuch bo'lib qolaverdi. XVI asr o'rtalarigacha Gabsburglar bilan olib borilgan urush, asosan, milliy mudofaa xarakteridagi urush edi. Lyudovik XIV olib borgan urush esa bosqinchilik urushiga aylanib bordi. Fransuz-ispans urushi (1635–1659-yy.) Pireneya sulhi (1659-yil 7-noyabr) natijasida yakunlandi va Ispaniya qirolining qizi hamda vorisi Mariya Tereza Lyudovik XIVga turmushga chiqdi. Mariya Tereza ispan taxtiga da'vosidan voz kechish evaziga 500 ming ekyu oltin pul talab qildi. Belgilangan pul to'lanmadi. Fransiya o'z merosini janubiy Niderlandiyadan berilishini talab qildi. Ispaniya uni rad etdi. Natijada 1667-yilda Fransiya–Ispaniya urushi boshlandi. Bu urush “devolyutsiya urushi” yoki “vorislik urushi” nomi bilan tarixga kirdi.

Gollandiya urushi (1672–1678-yy.)

Bu urush bir tomonda – Fransiya, Angliya, Shvetsiya, Kyoln va Myunster, ikkinchi tomonda – Gollandiya, Ispaniya, Gabsburglar monarxiyasi va Branderburg markgrafligi o'rtasidagi urush edi.

Urushning dastlabki ikki yili Niderlandiya hududlarida olib borildi. Gollandiya provinsiyasining buyuk pensionariysi Yan de Vitt o'ldirilgandan keyin, Vilgelm III Oranskiy Gollandiyaning umrbodlik hukmdori deb e'lon qilindi. U mamlakat mudofaasini tashkil qildi va fransuzlarning harbiy harakatlarini to'xtatdi. Shundan keyin urush deyarli butun Yevropa hududlariga tarqaldi.

Urush yakunida Niderlandiyaning Nimvegen shahrida 1678–1679-yillarda bir necha shartnomalar imzolandi:

- 1678-yil 11-avgustda Fransiya va Qo'shma provinsiyalar respublikasi bilan;
- 1678-yil 17-sentyabrda Fransiya va Ispaniya bilan;

- 1679-yil 5-fevralda Fransiya va Muqaddas Rim Imperiyasi bilan;
- 1679-yil 5-fevralda Shvetsiya va Muqaddas Rim Imperiyasi bilan;
- 1679-yil 19-martda Shvetsiya va Myunster bilan;
- 1679-yil 2-oktyabrda Shvetsiya va Qo‘shma provinsiyalar respublikasi bilan.

Shartnomalarda quyidagi masalalar hal etildi:

- bosib olingan Qo‘shma provinsiyalar respublikasi hududlari Fransiya va Shvetsiya munosabatlarida betaraflik bilan qaytarildi;
- Flandriya bilan chegaralar to‘g‘rilandi;
- Elzas, Lotaringiya, Bul‘on va Frayburg gertsogliklari hamda Reynning har ikki tomonidan nemislarga tegishli bo‘lgan ayrim hududlar; Ispaniyaning Fransiya chegaradosh yerlari va Fransh-Konte grafligi Fransiya berildi;
- Daniya–Shved urushida Myunster qo‘shinlarining Daniya tomonidan turib qatnashishiga chek qo‘yildi¹⁵¹.

Fransiya urushdan g‘olib bo‘lib chiqdi va bosib olgan hududlarini o‘z qo‘l ostida saqlab qoldi. Lekin, katta hududlar evaziga shimoldagi Ispaniya Niderlandiyasini qaytardi. Bu Lyudovik XIV diplomatiyasining yorqin muvaffaqiyatlaridan biri bo‘ldi.

Ispan merosi (taxti) uchun urush (1701–1714-yy.)

1700-yilda Lyudovik XIV ning nabirasi Filipp Anjuyskiy Filipp V (1700–1724-yy.) nomi bilan ispan taxtiga o‘tirdi. Shunday qilib Ispaniyada Gabsburglar o‘rniga Burbonlar sulolasi taxtga keldi¹⁵².

1701-yil 7-sentyabrda Gaaga (Gollandiya)da Angliya, Muqaddas Rim Imperiyasi va Gollandiya o‘rtasida Fransiya qarshi ittifoq tuzildi va bu Ispan taxti uchun kurashga aylandi. 1702-yil 15-mayda Angliya va Gollandiyadan so‘ng, Muqaddas Rim Imperiyasi imperatori Leopold I (1640–1705-yy.) ham Fransiya urush e‘lon qildi.

Ispaniya merosi uchun olib borilgan urush ayni bir vaqtda to‘rtta jang maydonida: Italiya, Ispaniya, g‘arbiy Germaniya va Niderlandiyada olib borildi. Urushda Fransiya mag‘lubiyatga uchradi va 1713-yilda imzolangan Utrext sulhi bilan yakunlandi.

Angliya bilan Fransiya o‘rtasida dastlabki sulh shartlari 1712-yil oktyabrda imzolandi. 1713-yilda Utrextidagi sulh kongressi, Fransiya va Ispaniya o‘rtasida, ikkinchidan Fransiya, Angliya, Gollandiya, Brandenburg, Savoyya va Portugaliya o‘rtasida Utrext shartnomasining tuzilishiga olib keldi. Filipp V ning Ispaniyaga va okean ortidagi

¹⁵¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Нимвегенские_мирные_договоры

¹⁵² Эргашев Ш. Жахон тарихи (янги давр XVI–XVIII асрлар). – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2016. – Б. 275.

mustamlakalariga hukmronlik qilish huquqi tan olindi, imperator Karl VI (1711–1740-yy. Muqaddas Rim Imperiyasi imperatori) esa buning evaziga ilgari Ispaniya Niderlandiyasini va Ispaniyaning Italiyadagi sobiq oʻlkalarini olishi kerak edi. Shunday qilib Avstriya Gabsburglari Yevropadagi oʻz kuchlarini ancha koʻpaytirdilar. Utrext sulhi Angliyaning mustamlakachi Imperiya sifatida rivojlanishiga olib keldi. U Gibraltarni va Oʻrta Yer dengizidagi Meorka orolini, Shimoliy Amerikada muhim ahamiyatli hududlarni – Nyufaundlendni, Muqaddas Lavrentiya daryosi quyilish joyi (Kanada)ni, Akadiya (Shim. Amerika)ni, Fransiya Kanadasini qoʻlga kiritdi, Ispaniya va uning Amerikadagi mustamlakalari bilan savdo-sotiqda alohida huquqlarga ega boʻldi. Gollandiya amalda hech narsa olmadi va shartnomadan soʻng uchinchi darajali davlat holatiga tushib qoldi.

Shimoliy urush (1700–1721-yy.)

Liflyandiya, Finlyandiya, Estlandiya va sobiq rus yerlari – Ijorsk va Kareliya Shvetsiya qoʻl ostida edi. Rus davlati Pyotr I davrida Boltiq dengiziga chiqish uchun Shvetsiyaga qarshi urush boshladi. Daniya, Saksoniya, Polsha davlatlari ham Shvetsiyaga qarshi urushga qoʻshildilar.

Shved qiroli Karl XII Daniyani urushdan chiqarib, 1707-yilgacha dushmanlariga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib bordi. 1707-yil oxirida Polshani magʻlubiyatga uchratib, Rossiyaga hujum boshladi. 1709-yil 27-iyunda Poltava jangida ruslar shvedlar ustidan katta gʻalabaga erishdilar va shundan keyin Rossiyaning shvedlarga qarshi muvaffaqiyatli yurishlari boshlandi. 1714-yilda deyarli butun Finlyandiya egallandi, Gangut burni yonidagi dengiz jangida rus floti gʻalaba qozonib, Aland orollarini egalladi.

1718–1719-yillarda rus-shved tinchlik muzokaralari boshlandi, lekin kelishuvga erishilmadi.

1720-yilda Shvetsiya Angliya bilan ittifoq, Prussiya va Daniya bilan tinchlik sulhi tuzdi. Shu yilda rus floti Gremam oroli oldida shvedlarni magʻlubiyatga uchratdi.

1721-yil 10-sentyabrda Nishtadt shahrida Rossiya–Shvetsiya tinchlik shartnomasi tuzildi. Unga koʻra, Rossiya Boltiq dengizining sharqiy qirgʻoqlari – Liflyandiya, Estlandiya, Ingriya, Kareliyaning bir qismini, Ezel va Dago orollarini qoʻlga kiritdi.

Polsha taxti uchun kurash (1733–1738-yy.)

Urushda Rossiya, Avstriya va Saksoniya koalitsiyasi Fransiya, Ispaniya va Sardiniya qirolligi koalitsiyasiga qarshi kurashdilar.

Urushning sababi 1733-yilda vafot etgan Polsha qiroli Avgust II o'rniga qiroq tayinlash edi. Urush harakatlari Polsha, Reyn viloyati va Italiya hududlarida bo'lib o'tdi. Fransiya Stanislav Leshinskiy nomzodini qo'llab-quvvatladi. Rossiya va Avstriya sakson kurfyuristi Fridrix Avgust II (vafot etgan qiroqning o'g'li)ni qo'llab-quvvatladilar va uni taxtga o'tqazishga muvaffaq bo'ldilar.

1738-yil 18-noyabrdagi Vena tinchlik shartnomasiga asosan, Fridrix Avgust III nomi bilan Polsha qiroli deb tan olindi, S.Leshinskiy Lotaringiya gertsogligini oldi. Fransiya Muqaddas Rim Imperiyasi imperatori Karl VI (1711–1740-yy.)ning merosxo'ri sifatida Mariya Terezani tan oldi. Pragmatik sanksiyaga ko'ra, Mariyaning turmush o'rtog'i Frans I Stefan Lotaringiyadan S.Leshinskiy foydasiga voz kechishi hamda imperator bo'lishi kerak edi.

Avstriya merosi uchun kurash (1740–1748-yy.)

1740-yil 20-oktyabrda imperator Karl VI vafotidan so'ng, Pragmatik sanksiya qaroriga asosan imperatorning katta qizi Mariya Tereza (1745–1765-yy.) Muqaddas Rim Imperiyasi imperatori) taxtga o'tirishi kerak edi. Avstriya yerlariga ispan qiroli Filipp V, Bavariya kurfyuristi Karl-Albrext, Saksoniya kurfyuristi va Polsha qiroli Avgust III, Sardiniya qiroli Karl Emmanuil III lar da'vo qila boshladilar. Natijada ikkita bir-biriga qarshi koalitsiya o'rtasida urush boshlandi:

- Birinchi koalitsiya – Fransiya, Prussiya, Bavariya, Ispaniya.
- Ikkinchi koalitsiya – Avstriya, Angliya, Gollandiya, 1746-yildan Rossiya.

Urush harakatlari Yevropa, Shimoliy Amerika va Hindiston hududlarida olib borildi.

1745-yil 25-dekabrda Drezden shahrida Prussiya, Avstriya va Saksoniya o'rtasida separat sulh tuzildi. Unga ko'ra, Avstriya merosi uchun urushning bir qismi bo'lgan Ikkinchi Sileziya urushi (1744–1745-yy.) tugadi. Prussiya Sileziyaning katta qismini olishi evaziga urushdan chiqdi va qiroq Fridrix II Frans Stefan (Mariya Terezaning turmush o'rtog'i)ni Muqaddas Rim Imperiyasi imperatori deb e'lon qildi.

1748-yil 30-aprel va 18-oktyabrda Aaxen shahri (Germaniya)da Fransiya, Angliya va Gollandiya o'rtasida Avstriya merosi uchun urush tugaganligi to'g'risida tinchlik shartnomasi tuziladi. Shartnomaga 20-oktyabrda Avstriya qo'shiladi.

Shartnomaga ko‘ra, Angliya, Fransiya va Ispaniya urushdan avvalgi mustamlakalarini saqlab qoldi, Niderlandiya esa avvalgi mavqeini yo‘qotdi va kuchsiz davlatga aylanib qoldi.

Gabsburglar o‘z hududlarining Sileziya va Italiya yerlarining ma‘lum bir qismidan tashqarisini saqlab qoldi. Prussiya Sileziyani qo‘lga kiritdi. Ispaniya va Sardiniya Italiya yerlarining bir qismini egalladi.

Yetti yillik urush (1756–1763-yy.)

Urush XVIII asrning eng katta harbiy ziddiyatlaridan biri sifatida tarixda qolgan. Urush harakatlari Yevropa, Shimoliy Amerika, Karib havzasi, Hindiston va Filippin orollarida olib borildi. U. Cherchil bu urushni, hatto, “birinchi jahon urushi” deb atagan. Angliya, Fransiya, Portugaliya va Ispaniya manfaatlari mustamlakalar uchun kurashda to‘qnashganligi sababli, mustamlakalar uchun urush ham deb ataladi.

Urush yakunlari bo‘yicha to‘rtta shartnomalar imzolandi:

- Peterburg tinchlik sulhi – Rossiya va Prussiya o‘rtasida, 1762-yil 5-may;
- Gamburg tinchlik sulhi – Shvetsiya va Prussiya o‘rtasida, 1762-yil 22-may;
- Parij tinchlik shartnomasi – Angliya, Portugaliya, Fransiya va Ispaniya o‘rtasida, 1763-yil 10-fevral;
- Gubertusburg tinchlik shartnomasi – Prussiya, Avstriya va Saksoniya o‘rtasida, 1763-yil 15-fevral¹⁵³.

Urush natijasida Fransiya Shimoliy Amerikadagi deyarli barcha mustamlakalaridan ayrildi, Angliya esa qudratli mustamlakachi davlatga aylandi. Lekin, Angliyaning davlat qarzi 74 mln dan 133 mln gachani tashkil etdi¹⁵⁴, bu inglizlarni Amerikadagi mustamlakalarida ekspluatatsiyani kuchaytirishiga sabab bo‘ldi. Ekspluatatsiyaning kuchaytirilishi Amerikada mustaqillik uchun kurashlar boshlanib ketishiga olib keldi.

Rus–turk urushilari

(1710–1713, 1735–1739, 1768–1774, 1787–1791-yy.)

Sabab:

- Rossiyaning Bolqon va Polshada kuchayishidan Avstriya, Fransiya noroziligi natijasida bu davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchilik;
- Usmoniy turklar Rossiya ustidan g‘alaba qozonish evaziga avvalgi qudratini tiklash.

¹⁵³ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Семилетняя_война#Потери_воюющих_держав](https://ru.wikipedia.org/wiki/Семилетняя_война#Потери_воюющих_держав)

¹⁵⁴ Там же.

Urush harakatlari Dunay knyazligi, Bolgariya, Zaporozhye, Qrim, Egey, O'rta Yer va Qora dengizlarida, Shimoliy Kavkaz, Kavkaz orti hududlarida olib borildi. Urush Rossiyaning g'alabasi bilan tugadi. 1774-yil 24-iyulda Kuchuk-Qaynarji (hoz. Bolgariyada) tinchlik shartnomasini tuzish bilan yakunlandi. Unga ko'ra, Rossiya Bug va Dnepr o'rtalaridagi yerlarni dengiz sohillari bilan, Qrim qal'asini qo'lga kiritdi va bo'g'ozlardan erkin suzib o'tish hamda Qora dengizda flot saqlash huquqiga ega bo'ldi. Qrim xonligi mustaqilligi e'lon qilindi. Turkiya Rossiyaga 7,5 mln piast (4,5 mln rubl) miqdorida kontributsiya to'lash majburiyatini oldi¹⁵⁵.

1787–1791-yy.

Sabab:

- Turkiya Rossiyaning Qora dengiz, Qrim va Kavkazorti hududlarida kuchayishidan noroziligi;
- 1780-yildan Rossiya Turkiya va Polshaga nisbatan qarashlari bir bo'lgan Avstriya bilan yaqinlashishi;
- 1780-yilda Angliya, Prussiya va Gollandiya birgalikdagi Rossiyaning Boltiq dengizidagi mavqeini pasaytirishga urinishlari;
- 1788–1790-yillardagi Rus-shved urushi.

1790-yil 14-avgustda Verel (Finlyandiya) shahrida Rossiya va Shvetsiya o'rtasida rus-shved urushi tugaganligi to'g'risida tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, urushdan avvalgi chegaralar saqlab qolingani edi.

1791-yil 29-dekabr (1792-yil 9-yanvar)da Yass shahri (Moldova)da Rossiya va Usmoniy turklar o'rtasida urush tugaganligi to'g'risida tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Kuchuk Qaynarji sulhi shartlari tasdiqlandi. Qrim, Janubiy Bug va Dnepr o'rtasidagi yerlar Rossiya tarkibiga qo'shib olindi hamda Gruziya ustidan Rossiya protektorati o'rnatildi¹⁵⁶.

Yevropadagi bu urushlar davlatlarning kuch nisbatida katta o'zgarishlarga olib keldi. Fransiya Sharqiy Yevropada gemonlik qilish huquqidan mahrum bo'ldi. Shvetsiya ikkinchi darajali davlatga aylandi. O'ttiz yillik urushda o'z maqsadlariga erisha olmagan Avstriya Gabsburglari yana kuchaydi va o'zlarining Yevropadagi yerlarini kengaytirdi. Germaniyada kuchli Prussiya qirolligi vujudga keldi. Gollandiya, Polsha va Turkiya Yevropadagi xalqaro hayotda faol rol

¹⁵⁵ https://ru.wikipedia.org/wiki/Кючук-Кайнарджийский_мир

¹⁵⁶ https://ru.wikipedia.org/wiki/Ясский_мирный_договор

o‘ynamaydigan bo‘lib qoldi. XVIII asrda Rossiya qudratining oshishi Yevropadagi butun xalqaro vaziyatning o‘zgarishiga olib keldi. Rossiya Boltiq dengizi bilan Tinch okeani o‘rtasidagi hududlarni o‘z ichiga olgan katta imperiyaga aylandi. Yevropa tarixida bunday Imperiya hali tuzilmagan edi.

Nazorat savollari:

1. XIX asrda Yevropaning ijtimoiy-siyosiy holati qanday edi?
2. XIX oxiri – XIX asr boshlarida Yevropa davlatlari o‘rtasidagi qanday harbiy to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi?
3. Yevropaning Fransiyaga qarshi birlashishiga nima sabab bo‘ldi?
4. Fransiyaga qarshi birinchi koalitsiya qachon va qaysi davlatlar o‘rtasida tuzilgan?
5. Yakobinchilar diplomatiyasining asosiy vazifasi nimadan iborat edi?
6. Fransiyaga qarshi ikkinchi koalitsiya qaysi davlatlar o‘rtasida tuzildi?
7. XIX asr boshida xalqaro munosabatlarning markazida qaysi davlatlar o‘rtasidagi raqobat turar edi?
8. Fransiyaga qarshi shakllangan uchinchi koalitsiyaga qaysi davlatlar kirdi?
9. Fransiyaga qarshi to‘rtinchi koalitsiyaga qaysi davlatlar kirdi?
10. Qaysi shartnomaga asosan Rossiya kontinental (qit‘aviy) qamalga qo‘shilgan?
11. Napoleon armiyasi Rossiyaga qachon urush boshladi?
12. Fransiyaga qarshi oltinchi koalitsiya tarkibiga qaysi davlatlar kirgan?
13. Tarixga “xalqlar jangi” nomi bilan kirgan harbiy amaliyot qayerda va qachon sodir bo‘ldi?
14. Qachon va qaysi jangda Napoleon armiyasi batamom tor-mor etildi?
15. Vena (Belgiya) kongressi qachon bo‘lib o‘tdi?
16. “Muqaddas ittifoq” kimning tashabbusi bilan va nima maqsadda tuzildi?
17. “Vena tizimi” qachon va nima sababdan inqirozga uchradi?

8-mavzu: XIX–XX asr boshlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Reja

- 1. XIX–XX asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar va diplomatiya xarakterli xususiyatlari**
- 2. XIX asrning birinchi yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya**
- 3. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya**

Tayanch iboralar: *avantyura, “ajoyib yakkalanish” siyosati, Antanta, koalitsiya, drednoutlar, Monro doktrinasi, pentarxiya, preventiv, Uchlar ittifoqi, fritrederlik,*

XIX–XX asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar va diplomatiya xarakterli xususiyatlari

XIX asrda Yevropaning ijtimoiy-siyosiy holati:

- Burjua inqiloblari asri: 1830, 1848–1849-yillar inqiloblari (“xalqlar bahori”);
- Millatchilik asri: millatchilik siyosiy g‘oyalarining taqalishi, milliy davlatlar tuzish uchun harakatlar (Italiya, Germaniya, Irlandiya);
- Industrializatsiya (sanoatlashtirish) va yangi ijtimoiy-siyosiy kuchlarning paydo bo‘lishi: ishchilar harakati, leyboristlar, sotsialistlar, kommunistlar;
- Mustamlakachilik tizimi qulashining boshlanishi.

XIX oxiri – XX asr boshlarida Yevropa davlatlari o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar:

- Napoleonning bosqinchilik yurishlari;
- Yevropa davlatlarining mustamlakalar uchun urushlari;
- Rossiya – Turkiya urush (1828–1829; 1853–1856; 1877–1878-yy.)lari;
- Fransiya – Prussiya urushi (1870–1871-yy.);
- Ispan – AQSh urushi (1898-yil 23-aprel – 12 avgust);
- Ingliz – bur urush (1880–1881; 1899–1902-yy.)lari;
- Rus – yapon urushi (1904–1905-yy.);
- Bolqon urushlari (1912–1913-yy.).

XIX asrning birinchi yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Buyuk fransuz inqilobi Yevropada xalqaro munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatdi.

1789-yilda Fransiyada burjua inqilobi natijasida Lyudovik XVI (1774–1791-yy.) absolyut monarxiyasi quladi. Bu voqea butun Yevropani Fransiyaga qarshi birlashishiga olib keldi. 1789–1794-yillarda xalqaro siyosat markazida Angliya boshchiligidagi aksilinqilobiy koalitsiyaning fransuz inqilobiga qarshi kurashi bo'ldi. Keyinchalik, to 1815-yilgacha xalqaro munosabatlarning asosiy voqeasi Angliya va Fransiyaning Yevropada, dengiz va mustamlakalarda kurashi, Rossiyaning Napoleon bosqiniga qarshi harbiy harakatlari bo'ldi. Bu davrda Rossiya Fransiyaning asosiy va eng qudratli raqibiga hamda XIX asrning birinchi yarmida Yevropa xalqaro munosabatlarida yetakchi davlatga aylandi.

XIX asrda Angliya o'z diplomatiyasida qit'ada katta subsidiyalar evaziga ittifoqchilar orttirish, davlatlarning o'zaro qarama-qarshiligidan foydalanib, boshqalarning qo'li bilan urush olib borish siyosatini qo'lladi va bu harakatlar o'zini oqladi.

Napoleon mag'lubiyatining yakuni bo'lgan Vena kongressi g'olib davlatlarning Yevropani qayta taqsimlashi uchun huquqiy asos bo'ldi. Kongress qudratli davlatlar – Angliya, Rossiya, Avstriya, Prussiya va Fransiya (keyinroq qo'shilgan)ning xalqaro munosabatlarda gegemonligini o'rnatdi hamda mustamlakachilik siyosatiga, dunyodagi boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashishiga sharoit yaratdi. Ayniqsa, “Muqaddas ittifoq” faoliyati bunga yaqqol misol bo'ladi.

1799-yil 9–10-noyabrda Napoleon Bonapart (1804–1814, 1815-yillarda Fransiya imperatori) tomonidan davlat to'ntarishi o'tkazilib, konsullik boshqaruvi joriy etildi, 1804-yildan esa o'zini imperator deb e'lon qildi.

Fransiyaga qarshi Angliya, Rossiya, Avstriya va Prussiya koalitsiyasi tuzildi. 1800-yilda ichki ziddiyatlar tufayli Fransiya qarshi ikkinchi koalitsiya tarqab ketdi. Lekin, XIX asr boshida xalqaro munosabatlarning markazida Angliya va Fransiya o'rtasidagi raqobat turar edi. Napoleonning bosqinchilik yurishlari natijasida Yevropada ko'plab davlatlarni birlashtirgan antinapoleon koalitsiyasi vujudga keldi:

1. 1792–1797-yy. Davlatlar: B.Britaniya, Prussiya, Neapol, Toskana, Avstriya, Ispaniya, Niderlandiya, Rossiya.

2. 1798–1802-yy. Davlatlar: Rossiya, B.Britaniya, Usmoniylar Imperiyasi, Muqaddas Rim Imperiyasi, Neapolitan qirolligi, Avstriya, Portugaliya.
3. 1804–1805-yy. Davlatlar: Rossiya, B.Britaniya, Avstriya, Shvetsiya, Sitsiliya.
4. 1806–1807-yy. Davlatlar: B.Britaniya, Rossiya, Prussiya, Saksoniya, Shvetsiya.
5. 1809-y. Davlatlar: Avstriya, B.Britaniya, Ispaniya.
6. 1812–1814-yy. Davlatlar: Rossiya, Shvetsiya, B.Britaniya, Avstriya, Prussiya.
7. 1815-y. Davlatlar: Rossiya, Shvetsiya, B.Britaniya, Avstriya, Prussiya, Ispaniya, Portugaliya¹⁵⁷.

Napoleon 1806-yil 21-noyabrda qit'aviy (kontinental) qamal to'g'risida dekret imzoladi. Dekretga ko'ra, butun Fransiyada va unga qaram bo'lgan mamlakatlarda Buyuk Britaniya bilan savdo qilish man etildi.

1807-yil 7-iyulda tuzilgan Tilzit shartnomasiga binoan Rossiya Yevropada Napoleon tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlarni tan oldi va kontinental qamalga qo'shildi. Fransiya–Prussiya tinchlik shartnomasiga ko'ra, Prussiya qisqartirilgan ko'rinishda saqlab qolindi va bu davlat ham kontinental qamalga qo'shildi.

1812-yil 24-iyunda Napoleon qo'shini Rossiyaga urush boshladi. 26-avgustda bo'lib o'tgan Borodino jangida fransuzlar 60 ming askaridan ayrildilar. 1812-yil 14-sentyabrda Napoleon qo'shini Moskvaga kirib keldi, lekin 12-oktyabrda Moskvani tark etishga majbur bo'ldi.

1813-yilning bahorida Fransiya qarshi oltinchi koalitsiya tashkil etildi. Uning tarkibiga Rossiya, Angliya, Shvetsiya, Prussiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya kirdi. Hal qiluvchi jang 1813-yil 16 – 19-oktyabrda Leypsig shahri yonida bo'ldi va bu tarixga “xalqlar jangi” nomi bilan kirdi. Bu jangda Napoleon qo'shini mag'lubiyatga uchradi va Reyn daryosi ortiga chekindi.

1814-yil mart oyining boshida ittifoqchilar Napoleonnini to'la tor-mor qilish uchun Shomon (Fransiyadagi shahar) shartnomasini imzoladilar. 31-martda ittifoqchilar Parijga kirib keldilar. Napoleon Elba oroliga surgun qilindi. 1814-yil 30-mayda Parijda tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Fransiya 1792-yil chegaralariga qaytarildi.

¹⁵⁷ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Антифранцузские_коалиции#III_антифранцузская_коалиция_\(1805\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Антифранцузские_коалиции#III_антифранцузская_коалиция_(1805)).

1815-yil 1-martda Napoleon Fransiyaning janubiga tushdi va 20-martda Parijga kirib keldi hamda Imperiyani tikladi.

Napoleonga qarshi oxirgi yettinchi koalitsiya tuzildi. 1815-yil 18-iyunda Vaterloo yonidagi jangda Napoleon qo‘shini batamom tor-mor qilindi. Napoleon Muqaddas Elena oroliga surgun qilindi va u yerda 1821-yilda vafot etdi.

Vena (Belgiya) kongressi (1814-yil 18-sentyabr – 1815-yil 9-iyun)ga binoan:

- Rossiya Polshaning bir qismi – Varshava gertsogligini oldi;
- Prussiya Reyn viloyati va Vestfaliyani hamda polyaklarning g‘arbiy yerlarini egalladi;
- Italiyaning ikki viloyati – Lombardiya va Venetsiya Avstriyaga o‘tdi;
- 200 mayda knyazliklar o‘rniga 38 davlatdan iborat German ittifoqi barpo etildi;
- Angliya O‘rta Yer dengizida muhim tayanch nuqtasi Mal‘ta orolini va sobiq mustamlakalari – Seylon orolini va Afrika janubidagi Kapa yerini o‘zida saqlab qoldi;
- Papaning Rim viloyati ustidan dunyoviy hokimiyati tiklandi;
- Neapolitan qirolligida avvalgi burbonlar sulolasi taxtga chiqarildi, Burbonlar hokimiyati Ispaniyada ham tiklandi;
- Fransiyaga katta kontributsiya to‘lash majburiyati yuklandi;
- Kongressda rus podshosi Aleksandr I tashabbusi bilan Rossiya, Avstriya va Prussiya o‘rtasida “din yo‘lida” inqilobiy harakatlarga qarshi kurashish uchun “Muqaddas ittifoq” tuzildi.

Muqaddas ittifoqning kongresslari:

- Axen kongressi 1818-yil;
- Troppau (Opava) kongressi 1820-yil;
- Verona kongressi 1822-yil.

20–30 va 40-yillarda ro‘y bergan inqiloblar XIX asrning o‘rtalariga kelib “Vena tizimi”ni inqirozga uchratdi.

1828-yilda Rossiya Turkiyaga urush e‘lon qildi va g‘alabaga erishdi. 1829-yil 14-sentyabrda Adrianopol shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra, Serbiya, Valaxiya Moldovaning muxtoriyatga ega bo‘lish huquqlari tasdiqlandi. Rossiya Qora dengizda, Kavkaz va Kavkazortida mustahkam o‘rnashib oldi.

1832-yilda Misr podshosi Usmoniylarga qarshi urush boshlab, Suriyani egallab oldi. 1833-yilda misrliklar Ko‘niya yonida Mahmud II

(1808–1839-yy.) qo‘shinini mag‘lub etdi. Sulton yordam so‘rab Angliya, Fransiya va Rossiyaga murojaat qildi. ko‘mak faqat Rossiyadan keldi. 1833-yil 8-iyulda Unkyar-Iskelesida rus-turk shartnomasi imzolandi. Unda misrliklarning yangi bosqini ro‘y bergan taqdirda Rossiya Turkiyaga harbiy yordam berishi kafolatlandi. Buning evaziga turk sultoni rus savdo va harbiy kemalarini bo‘g‘ozlardan o‘tkazish majburiyatini oldi¹⁵⁸.

Angliya va Fransiya ushbu shartnomadan norozi edi. Shuning uchun Angliya Turkiya va Misr o‘rtasida 1839-yilda yangi urushning boshlanishiga erishdi. Bu urushda turklar to‘la mag‘lub bo‘ldilar. Natijada Usmoniylar Imperiyasining yaxlitligi va Qora dengiz bo‘g‘ozlarining xalqaro huquqiy tartibiga oid buyuk davlatlarning birgalikdagi kafolatlari to‘g‘risidagi London konvensiyalari (1840–41-yy.) paydo bo‘ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

1853 – 1856-yillarda rus-turk urushi bo‘lib o‘tdi. Urushga bahona Rossiyaning Turkiyadagi pravoslav xristianlariga va “Muqaddas joylarga” (Iso payg‘ambarning qabri) homiyligi edi. 1853-yil yanvar oyida Rossiya Turkiyaga ultimatum talabini qo‘ydi, Turkiya uni rad etdi. 1853-yil oktyabrda Turkiya Rossiyaga urush e‘lon qildi. 1853-yil 30-noyabrda turklar floti admiral Naximov tomonidan cho‘ktirildi. Rossiyaning bu g‘alabasidan so‘ng, 1854-yilning boshida Angliya va Fransiya floti Qora dengizga kiritildi. Fransuz-ingliz-turk qo‘shinlarining hujumi natijasida Rossiya mag‘lubiyatga uchradi.

1856-yil 30-martda Parijda imzolangan tinchlik shartnomasiga ko‘ra, Rossiya Qora dengizda harbiy flotga ega bo‘lish huquqidan mahrum bo‘ldi. Aslida, ushbu shartnoma “Vena tizimi”ning barbod bo‘lishi va Rossiyaning Yevropa mamlakatlariga nisbatan avvalgi ta‘sirini yo‘qotganligini anglatardi.

1866-yilda Prussiya Avstriyaga qarshi urush olib bordi. Avstriya va Prussiya o‘rtasida imzolangan Praga sulhi (1866-yil 24-avgust)ga binoan Avstriya boshchiligidagi German ittifoqi yo‘q qilindi. Uning o‘rniga Prussiya boshchiligidagi Shimoliy Germaniya ittifoqi vujudga keldi.

Yevropa davlatlarining Amerka masalalariga faol aralashuvi Meksikaga nisbatan harbiy intervensiyani amalga oshirish bilan

¹⁵⁸ История дипломатии. Том 1. – Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1940. – С. 417.

boshlandi. Meksikada 1854–1860-yillarda inqilob ro‘y berdi. 1861-yilda Angliya, Fransiya va Ispaniya birgalikda Meksikaning Atlantika sohillarini preventiv tarzda harbiy okkupatsiya qilish to‘g‘risida konvensiya tuzdilar. 1861-yil dekabr oyida Meksika qirg‘oqlariga koalitsion kuchlar qo‘shinlari tushirildi. 1862-yilda ingliz va ispanlar Meksikadan o‘z qo‘shinlarini olib chiqib ketdilar va Xuares bilan qarzlarni to‘lashni kechiktirish to‘g‘risida bitim imzolashdi. Ammo Fransiya uzoq cho‘zilgan Meksika urushida 1867-yilda mag‘lubiyatga uchradi.

1868-yilda Ispaniyada inqilob boshlandi. Qirolicha Izabella II Fransiya qochdi. Fransiya imperatorining xotini ispaniyalik bo‘lganligi sababli Izabellaga taxtni olishda yordam bermoqchi bo‘ldi. Natijada Yevropada ispan taxti uchun kurash boshlandi.

1870-yil 19-iyulda Fransiya Prussiyaga urush e‘lon qildi. Biroq dastlabki harbiy harakatlardan o‘q fransuzlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1-sentyabrda Sedan yonidagi jangda fransuzlar tor-mor etildi. Ikkinchi Imperiya quladi, Fransiya inqilob boshlandi.

1870-yil 27-oktyabrda marshal Bazan qo‘mondonligidagi fransuzlar qo‘shini ham taslim bo‘ldi. Nemis qo‘shinlari 1871-yilning yanvarida Parijni qurshab oldilar. Fransiya muvaqqat hukumati kamsitilgan shartlar asosida Prussiya bilan yarash ahdini tuzdilar. 26-fevraldagi tinchlik bitimiga asosan Elzas va Lotaringiya Germaniyaga berildi, hamda 5 mlrd. frank miqdorda kontributsiya to‘lash majburiyati yuklandi. Versal saroyida Germaniya imperatori Vilgelm I Germaniya Imperiyasi barpo etilganligini e‘lon qilindi.

1877–1878-yillarda Rossiya–Turkiya urushi natijasida Rossiya g‘alaba qozondi va San-Stefano sulhi (1878-yil 3-mart) tuzildi. Unga ko‘ra, Ruminiya, Serbiya va Chernogoriya mustaqillikka erishdi. Bolgariya turk mustamlakasidan ozod bo‘ldi. Janubiy Ukraina, Bessarabiya, Qrim, Shimoli-G‘arbiy Kavkaz, Kavkazning Qora dengiz bo‘ylari, Janubi-G‘arbiy Gruzsiya va Turkiya Armanistonning shimoliy qismi Rossiyaga qo‘shib olindi. Turkiya 1,410 mlrd rubl kontributsiya to‘lash majburiyatini oldi. Lekin, 1,1 mlrd rubli Osiyodagi Ardagan, Kars, Batumi, Boyazit hududlari; Yevropadagi Dobruja, Dunay deltasidagi Ilon orolidan Rossiya foydasiga voz kechilishi natijasida bekor qilindi¹⁵⁹.

1882-yilda Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya o‘rtasida harbiy-siyosiy koalitsiya – Uchlar ittifoqi tuzildi. Bu koalitsiya bir

¹⁵⁹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Сан-Стефанский_мир](https://ru.wikipedia.org/wiki/Сан-Стефанский_мир)

tomondan Rossiyaga, ikkinchi tomondan Fransiyaga qaratilgan edi. Bu ittifoqqa qarshi 1893-yilda Rossiya–Fransiya ittifoqi shakllandi.

Uchlar va Rossiya–Fransiya ittifoqlarining tashkil topishi bilan Yevropada buyuk davlatlarning kuch jihatdan deyarli teng boʻlgan ikki guruhi yuzaga keldi.

Ammo Angliya biron-bir harbiy ittifoqqa yoki guruhga qoʻshilmadi. Ingliz hukumati anʼanaviy “ajoyib yakkalanish” siyosatiga amal qilib, hech qanday majburiyatlar bilan oʻzini bogʻlamaslikni afzal koʻrdi.

XIX asrda eng kuchli qarama-qarshilik Fransiya va Angliya oʻrtasida yuz berdi. Bu qarama-qarshilik, asosan, mustamlakalar uchun kurashda namoyon boʻldi. Nil daryosining quyilish joyi uchun olib borilgan uzoq muddatli kurash 1882-yilda Misrni Angliya tomonidan bosib olinishi bilan tugadi. Suvaysh, Malta va Kipr bilan birgalikda Angliyaning Sharqiy Oʻrta Yer dengizi mintaqasida strategik ustunligini mustahkamladi. 1881-yilda Fransiya Tunisni oʻz mustamlakasi deb eʼlon qildi.

1896–1897-yillarda inglizlar tomonidan Sudan bosib olindi. 1899-yilda tuzilgan bitimga koʻra, Fransiya Fashoda va Nil daryosining butun vodiysidan voz kechdi. Ammo Sudanning gʻarbiy viloyatlariga nisbatan “haq-huquq”ga ega boʻldi.

1895–1896-yillardagi Italiya – Efiopiya urushi italiyaliklarning magʻlubiyati bilan tugadi, Efiopiya oʻz mustaqilligini saqlab qoldi.

Xalqaro toʻqnashuvning yana bir mintaqasi janubiy-sharqiy Osiyo edi. Fransiya Xitoyga qarshi urush olib borib, Annam va Tonkinni oʻz mustamlakasiga aylantirdi. 1887-yilda bu hududlar Nambo, Kambodja hamda Laos (1898-y.) Fransiya tomonidan barpo etilgan Hindixitoy ittifoqiga kiritildi.

1896-yilda imzolangan bitimga koʻra, Siam mustaqil deb tan olindi va fransuz–inglizlar yerlari oʻrtasidagi qalqonga aylandi.

Ingliz –rus manfaatlari Markaziy Osiyoda toʻqnashdi. 1880-yilda Afgʻoniston ustidan ingliz protektorati oʻrnatildi. Rossiya esa shu yillarda Turkmaniston va Marvni qoʻshib oldi. 1885-yilda Londonda Angliya va Rossiya oʻrtasida Afgʻonistonning shimoliy-gʻarbiy chegarasini belgilash toʻgʻrisida kelishib olindi va 1887-yilda rus–afgʻon chegaralarini belgilash toʻgʻrisida yakuniy bayonnoma imzolandi.

Xalqaro maydonda roʻy bergan voqealar Angliyaning “ajoyib yakkalanish” siyosatini oʻzgartirishga majbur qildi. Eski raqiblari –

Fransiya va Rossiya qatoriga yangi va yanada xavfli dushman – Germaniya qo‘shildi.

1898-yilda Germaniya kayzeri (kansleri) Turkiyaga tashrifi natijasiga Bag‘dod temir yo‘lini qurishga buyurtma oldi. Angliya hukmron doiralari Germaniyaning Turkiyaga kirib kelishi o‘zlarining Hindiston va Misrdagi mavqelariga nisbatan tahdid deb hisobladilar. Germaniya va Angliya o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Natijada Angliya o‘ziga ittifoqchi qidira boshladi.

1904-yil aprelda Angliya va Fransiya o‘rtasida asosiy mustamlakachilik masalalari bo‘yicha bitim tuzildi. Angliyaning Misrda, Fransiyaning esa – Marokashda hukmronlik qilish huquqi tasdiqlandi. Angliya va Fransiya o‘rtasida harbiy-siyosiy ittifoq – Antanta shakllandi. 1907-yilda Rossiya va Angliya o‘rtasida tuzilgan bitimga muvofiq Eron ta’sir doiralari bo‘lib olindi: mamlakatning shimoliy qismi Rossiyaga, janubiy qismi Angliyaga tegdi, markaziy qismi xolis zona sifatida e’tirof etildi. Afg‘oniston Angliyaning ta’sir doirasiga kiritildi. 1907-yil bitim Antanta (“uch davlat inoqligi”)ning shakllanishini nihoyasiga yetkazdi.

Yangi davr XIX–XX asrlar chegarasida taqsimlanib bo‘lgan dunyoni qayta bo‘lib olishgacha qaratilgan urushlarga olib keldi. Bular qatoriga Ispaniya – AQSh urushi (1898-y.), ingliz–bur urushlari (1899–1902-yy.), rus–yapon urushlari (1904–1905-yy.)ni kiritish mumkin.

1895-yilda Kubada, 1896-yilda Filippinda ispan hukmronligiga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarildi.

1898-yil 25-aprelda AQSh Ispaniyaga qarshi urush e‘lon qildi. Amerikaliklar floti ispan flotini mag‘lubiyatga uchratdi. 1898-yilda ispanlar sulh tuzishga majbur bo‘ldilar. Unga binoan, AQSh Guam va Puerto-Riko orollarini qo‘lga kiritdi. Rasman respublika deb e‘lon qilingan Kuba AQShning protektoratiga aylandi. Keyin esa, AQSh Ispaniyaga 20 mln dollar to‘lab Filippin orolini qo‘lga kiritdi.

Dunyo XX asrni ingliz–burlar urushi (1899–1902-yy.) bilan kutib oldi. Bu urushni ko‘pchilik “Birinchi jahon urushining shafqatsiz repetitsiyasi” deb ataydi. 1902-yilda inglizlar burlar respublikasini bosib oldi. 1910-yilda ularning hududida Britaniya dominioni – Janubiy Afrika ittifoqi tuzildi va uning tarkibiga Kapa va Natal kiritildi.

1908-yilda xalqaro munosabatlarda yana inqirozli holat yuzaga keldi. Avstro-Vengriya Turkiyaga tegishli bo‘lgan Bosniya va Gertsogovinani bosib oldi. Bu esa, Turkiya va Serbiyaning noroziligini keltirib chiqardi.

1912-yilda Antantaning ko‘magida Bolgariya, Serbiya, Yunoniston, Chernogoriya ittifoqi vujudga keldi. Maqsad Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurash olib borish edi. 1912-yilning oktyabrida Bolqon ittifoqi davlatlari Turkiyaga qarshi urush boshladilar. Turkiya sulh tuzishga majbur bo‘ldi. Tinchlik muzokaralari 1912-yilning dekabr oyida Londonda boshlandi va 1913-yilning may oyida shartnoma imzolandi.

Turkiya Bolqon ittifoqiga Bolqon yarim orolidagi Enos–Midiya chizig‘i bo‘ylab joylashgan yerlarni topshirdi. Xaritada yangi davlat – Albaniya paydo bo‘ldi. Ushbu davlat amalda Avstro–Vengriya va Italiyaga qaram bo‘lib qoldi.

1913-yilda Bolgariya Serbiyaga qarshi urush boshladi. Ikkinchi Bolqon urushi Bolqon ittifoqining ichki ziddiyatlari va unga qarshi amalga oshirilgan qo‘poruvchilik ishi oqibatida boshlandi. Bolgariyadan Janubiy Dobrujani tortib olishni niyat qilgan Ruminiya Serbiya va Yunonistonga qo‘shildi. Turkiya ham Adrianopolni qaytarib olishga umid qilib, Bolgariyaga qarshi urush boshladi. 1913-yilda Buxarestda Bolgariya uchun sharmandali shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra, Makedoniya va Frakiyaning bir qismi Serbiya va Turkiyaga o‘tdi. Ruminiya janubiy Dobrujani qo‘lga kiritdi, Turkiyaga esa Adrianopol qaytarildi, Bolqon ittifoqi tarqab ketdi.

1914-yil 28-iyunda Saraevoda Avstro–Vengriya taxt vorisi Frans Ferdinandning “Mlada Bosna” deb nomlangan serb millatchi tashkiloti a‘zosi Gavrilo Prinsip tomonidan o‘ldirilishi Birinchi jahon urushining boshlanib ketishiga bahona bo‘ldi. 28-iyulda Avstro–Vengriya Serbiyaga urush e‘lon qildi. Rossiya slavyan xalqlarini yordamsiz qoldira olmasdi va 31-iyulda mamlakatda umumiy harbiy safarbarlik e‘lon qildi. Germaniya ultimativ tarzda uni to‘xtatishni talab qildi. Javob olmagach, 1914-yilning 1-avgustida Rossiyaga qarshi urush e‘lon qildi. 3-avgustda Fransiya, 4-avgustda esa Angliya Germaniyaga qarshi urush e‘lon qildi. Avgustda Yaponiya ham Germaniyaga qarshi urush e‘lon qildi.

1914–1915-yillarda Germaniya, Avstro-Vengriya blokiga Turkiya va Bolgariya qo‘shildi. Shu tariqa to‘rtlar ittifoqi yuzaga keldi. Antanta tomonida turib Italiya, Portugaliya, Ruminiya, AQSh, Yunoniston urush olib bordi.

Nazorat savollari:

1. Birinchi jahon urushini keltirib chiqargan rasmiy sabab (aslida bahona) ...
2. “To‘rtlar ittifoqi”ga qaysi davlatlar kirgan?
3. “Antanta”ga qaysi davlatlar kirgan?
4. Birinchi jahon urushi tufayli xalqaro maydonda qanday siyosiy jarayonlar, tarkibiy o‘zgarishlar yuz berdi?
5. Brest (Brest-Litovsk) sulhi qachon va qaysi davlatlar o‘rtasida tuzilgan?
6. Versal tinchlik konferensiyasi qachon va qayerda bo‘lib o‘tgan?
7. Versal shartnomasida asosiy rol o‘ynagan “katta uchlik” qaysi davlat rahbarlari edi?
8. Versal tinchlik shartnomasi qachon imzolangan?
9. Millatlar ligasi qayerda va kimning tashabbusi bilan tuzilgan?
10. Qaysi davlatlar Millatlar ligasi Kengashining doimiy a‘zolari bo‘lishi ko‘zda tutilgan?

9-mavzu: Eng yangi davrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Reja:

- 1. 1918–1945-yillarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya**
- 2. “Sovuq urush” yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya**
- 3. XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya**
- 4. Mustaqil O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishtiroki**

Tayanch iboralar: *To‘rtlar ittifoqi, anshlyus, reparaatsiya, fashizm, bolshevizm, neoliberalizm, neokonservatizm, industrial va postindustrial sivilizatsiya, irredentizm, kollaboratsionizm, Yevropa Ittifoqi, infratuzilma, kommyunike, konsepsiya, akkreditatsiya, denonsatsiya, doktrina, strategiya, NATO, Varshava shartnomasi, O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi, SEATO, SENTO, ANZYUS, Xartiya, Sammit, Qo‘shilmaslik harakati, transformatsiya.*

1918–1945-yillarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Birinchi jahon urushi (1914-yil 28-iyul – 1918-yil 11-noyabr) odamzod tarixidagi eng yirik va dahshatli urushlardan biri bo‘ldi.

1913-yil 10-avgustdagi Buxarest tinchlik sulhi Bolqon ziddiyatlarini yanada kuchaytirib yubordi. Bolgariya bosib olgan hududlaridan tashqari, avvaldan o‘z qo‘l ostida bo‘lgan yerlarning katta qismidan ham ayrildi.

Ikkinchi Bolqon urushi kuchlar joylashuvi o‘zgartirdi. Rossiya rahbarligi ostidagi yagona Bolqon bloki ikki qarama-qarshi guruhlariga bo‘linib ketdi:

- Serbiya, Yunoniston va Ruminiya;
- Bolgariya va Turkiya.

Bu vaziyat Bolqonda Antanta va Avstro-German ittifoqi o‘rtasidagi raqobatni keltirib chiqardi. Har ikkala guruh bu hududni o‘z ta’sir doirasiga olishga harakat qilardi.

Urushning boshlanishiga bahona Sarayevo voqealari bo‘lgan, bu yerda 1914-yil 28-iyun kuni suiqasd natijasida Avstriya-Vengriya imperiyasi taxti vorisi Frans Ferdinand va uning rafiqasi Sofiya Xotek o‘ldirilgan.

Birinchi jahon urushida qatnashgan mamlakatlar ikkita harbiy-siyosiy blokka bo‘lingan:

- **To'rtlar ittifoqi:** Germaniya imperiyasi, Usmoniylar imperiyasi, Avstriya-Vengriya imperiyasi va Bolgariya Qirolligi.
- **Antanta:** Rossiya Imperiyasi, Fransiya, Buyuk Britaniya, Serbiya, keyinchalik Yaponiya, Italiya, Ruminiya, AQSh va boshqalar.

Birinchi jahon urushida dunyoning 38 (ayrim manbalarda 34 ta) davlati ishtirok etdi. Ularda 1,5 mlrd dan ortiq aholi yashar edi. Urushga 74 mln.ga yaqin kishi safarbar etildi. Jami 10 mln (13,6 mln¹⁶⁰ yoki 17 mln¹⁶¹) kishi halok bo'ldi, 20 mln kishi esa yarador, mayib-majruh bo'ldi. Bundan tashqari, juda ko'p kishilar kasallik va ochlikdan o'lib ketdi. Birinchi jahon urushida uning asosiy ishtirokchilari bo'lgan davlatlar o'z milliy boyliklarining uchdan bir qismini yo'qotdilar¹⁶².

Birinchi jahon urushi tufayli Rossiya imperiyasida Fevral inqilobi va Oktyabr to'ntarishi, Germaniya imperiyasida Noyabr inqilobi bo'lib o'tdi. Rossiya, Avstriya-Vengriya, Usmoniylar va Germaniya imperiyalari urush tufayli tugatildi.

Fransiyaning Kompen o'rmonida (marshall Foshning shtab poyezdi turgan Retond stansiyasida) 1918-yil 11-noyabr kuni Germaniya Antanta bilan yarash sulhini imzoladi. Birinchi jahon urushi yakunlandi. Sulh shartlariga ko'ra, Germaniya asli unga tegishli bo'lmagan barcha hududlardan va Reyn daryosining chap qirg'og'idagi yerlardan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketish majburiyatini oldi. O'ng qirg'og'ida esa betaraf hudud tashkil qilindi. Bundan tashqari, Germaniya g'olib davlatlarga o'z harbiy aslahalarining katta qismini topshirish va harbiy asirlarni qaytarish majburiyatini oldi. Shu bilan birga, Sovet Rossiyasiga qarshi turish uchun Boltiqbo'yi va Ukrainada nemis qo'shinlari qoldirildi. Kompen sulhi Rossiya bilan Germaniya o'rtasida 1918-yil 3-mart kuni tuzilgan Brest (shahar oldin Brest-Litovsk deb atalgan) sulhini bekor qildi. Kompen sulhidan keyin tinchlik konferensiyasiga tayyorgarlik boshlandi va u g'oliblar o'rtasida keskin tortishuvlar ostida o'tdi. Yevropada o'z gegemonligini o'rnatmoqchi bo'lgan Fransiya Germaniyaga nisbatan eng keskin pozitsiyani egalladi. U faqat Elzas va Lotaringiyani qaytarishni emas, Saar ko'mir havzasini ham qo'shib olishni va Germaniya bilan chegarani Reyn daryosi bo'ylab o'tkazishni talab qildi. Fransiya Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalaridan bir qismiga, Turkiyaning Yaqin Sharqdagi mustamlakalariga ham da'vo qilayotgan edi. Angliya esa o'zining

¹⁶⁰ Эргашев Ш. Жахон тарихи (энг янги давр 1918-1945 йиллар). III қисм. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б.15.

¹⁶¹ https://www.bbc.com/russian/uk/2014/01/140120_big_myths_world_war_one

¹⁶² http://www.gpedia.com/uz/m/w/index.php?title=Birinchi_jahon_urushi&variant=uz-cyrl

“dengizlar hukmdori” mavqeini saqlab qolish uchun Fransiya va AQSh flotining kuchayishini istamasdi. U Germaniyaning bo‘lib tashlanishidan ham manfaatdor emasdi. Ilgari ko‘pchilik davlatlarga qarz bergan Angliya urush tufayli AQShdan qarz bo‘lib qoldi, umuman Angliyaning jahonda tutgan o‘rni pasaydi. Angliya nemis mustamlakalarining bir qismiga egalik qilishga, Yaqin va Uzoq Sharqda o‘z mavqeini mustahkamlashga umid qilardi. Urush natijasida AQSh iqtisod va moliya sohasida dunyoning yetakchi davlatiga aylandi. U Yevropa davlatlariga 10 mlrd dollar miqdorida qarz berdi va 6,5 mlrd dollar investitsiya kiritdi. AQSh Germaniyadan olinadigan reparatsiyadan manfaatdor bo‘lib, bu pullarni Yevropa davlatlari o‘z qarzlari uchun AQShga to‘lar edi. Shu sababli AQSh Germaniyaning haddan ziyod kuchsizlantirilishiga qarshi chiqdi. U Uzoq Sharqda va Tinch okeani hududida o‘z mavqeini mustahkamlashga intildi. O‘zining iqtisodiy ustunligi va harbiy-dengiz flotining qudratiga tayangan AQSh “dengizlarda erkin suzish” va “erkin savdo” tamoyillarini ilgari surdi.

1919-yil 18-yanvardan (1871-yil 18-yanvarda Versal qasrida Germaniya Imperiyasi e‘lon qilingan edi) 1920-yil 21-yanvargacha Parij yaqinidagi Versal qasrida 27 davlat vakillari ishtirokida Parij tinchlik konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada hal qiluvchi rolni “katta uchlik” – Angliya va Fransiya Bosh vazirlari Devid Lloyd Jorj, Jorj Klemanso va AQSh prezidenti Vudro Vilson o‘ynadilar. Konferensiya jarayonida uzoq tortishuvlardan keyin Germaniya bilan sulh shartlari kelishildi. 1919-yil 28-iyunda Germaniya bilan Versal tinchlik sharnomasi imzolandi. Sharnomaga ko‘ra, Germaniya o‘z hududining 1/8 qismidan ayriraldi. Elzas va Lotaringiya Fransiyaga qaytarildi, Eypen okrugi, Malmedi va Morene Belgiyaga, Shimoliy Shlezvig Daniyaga o‘tkazildi. Germaniyaning Reyn daryosi chap qirg‘og‘idagi yerlar va o‘ng qirg‘oqda 50 km kenglikdagi hududi “demilitarizatsiyalashgan hudud” deb e‘lon qilindi. Bu yerda nemis qo‘shinlarini joylashtirish, harbiy mashqlar o‘tkazish va mustahkam qal’alar qurish taqiqlandi. Reyn daryosidan g‘arb tomondagi Germaniya yerlari 5 yildan 15 yilgacha ittifoqchilar armiyalari tomonidan okkupatsiya qilindi. Saar ko‘mir havzasi Fransiyaga berildi, Saar viloyati esa 15 yilga Millatlar Ligasi boshqaruviga o‘tdi. Polsha, Chexoslovakiya va Lyuksemburgning mustaqilligi tan olindi. Pomeraniyaning, Poznanning, G‘arbiy va Sharqiy Prussiyaning, Yuqori Sileziyaning katta qismi Polshaga o‘tdi. Polsha Boltiq dengiziga chiqdi. Gdansk Millatlar Ligasi boshqaruvi ostidagi “erkin shahar”ga

aylantirildi. Shu tariqa Sharqiy Prussiya Germaniyadan ajratib qo'yildi. Memel (Klaypeda) Millatlar Ligasi nazoratiga o'tdi va 1923-yilda Litva tarkibiga qo'shildi. Sileziyaning bir qismi Chexoslavakiyaga qo'shib berildi. Elba, Oder, Neman, Dunay daryolari va Kil kanali chet davlatlar kemalari uchun ochiq deb e'lon qilindi. Versal sulhi Germaniyani barcha mustamlakalaridan mahrum qildi. Ular mandat (boshqaruv huquqi) ko'rinishida Fransiya, Angliya, Belgiya, Portugaliya va Yaponiya tomonidan bo'lib olindi. Shartnoma nemis qo'shini sonini 100 ming kishidan oshmasligini belgilab qo'ydi. Germaniyaga og'ir qurollar ishlab chiqarish va harbiy kemalar qurish ham taqiqlandi. Shartnomaga ko'ra, Germaniya Birinchi jahon urushining boshlanishi uchun yagona javobgar deb e'lon qilindi. Shunga ko'ra, u g'olib davlatlar foydasiga 132 mlrd marka reparatsiya (tovon) to'lashi lozim edi¹⁶³. Reparatsiyaning 50 foizi Fransiya, 30 foizi Buyuk Britaniyaga, 20 foizi qolgan g'olib davlatlarga to'lanishi kerak edi¹⁶⁴. Versal tinchlik shartnomasining matni, keyingi barcha shartnomalar singari Millatlar Ligasi – tinchlikni saqlash bo'yicha xalqaro tashkilot Nizomidan boshlandi.

AQSh prezidenti V.Vilson tashabbusi bilan Parij tinchlik konferensiyasida xalqaro tashkilot – Millatlar Ligasi¹⁶⁵ tashkil qilindi. Jahonda tinchlik uchun kurash, xalqlar o'rtasida hamkorlik va xavfsizlik masalalari Millatlar Ligasining asosiy vazifalari qilib belgilandi. Dastlab mag'lub davlatlari va Sovet Rossiyasi unga qabul qilinmadi (1934-yil 15-sentyabrda qabul qilingan, 1939-yil 14-dekabrda chiqarilgan). Liga a'zosi bo'lgan davlatlar xalqaro bahsli masalalarni hal qilishning oliy hakami deb e'lon qilingan Assambleyaga har yili o'z vakillarini yuborardilar. Assambleya bilan birga deyarli shunday vakolatlar ega bo'lgan Kengash ham tuzildi. Beshta asosiy g'olib davlatlar – AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya Kengashning doimiy a'zolari bo'lishi ko'zda tutildi. Millatlar Ligasining Nizomi tajovuzkor davlatlarga qarshi jamoaviy sanksiyalar (harbiy yoki iqtisodiy) qo'llanilishini belgilab qo'ydi.

V.Vilsonning talabi bilan Millatlar Ligasi Ustaviga mandat, ya'ni ma'lum bir hududni boshqarish uchun vakolat tushunchasi kiritildi. Xalqaro huquqqa yangi kategoriyani kiritish zarurati Germaniya

¹⁶³ Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (энг янги давр 1918-1945 йиллар). III қисм. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б.17.

¹⁶⁴ История дипломатии. Том III. – Москва–Ленинград: Огиз-Госполитиздат, 1945. – С. 38.

¹⁶⁵ Millatlar Ligasi rasman 1920-yil 10-yavarda tashkil topgan va 1946-yil 18-aprelda BMT tashkil topishi bilan o'z faoliyatini yakunlagan.

mustamlakalarini va Turkiyaning Yaqin Sharqdagi yerlarini g'olib davlatlar tomonidan bo'lib olish, ayni paytda, jamoatchilik, ayniqsa, Osiyo va Afrika xalqlari ko'z o'ngida ochiqchasiga mustamlakachi va bosqinchi bo'lib ko'rinmaslik istagi tufayli paydo bo'ldi.

1919-yil mayda Buyuk Britaniya Millatlar Ligasi nomidan Falastinni, Transiordaniya, Iroq va Tanganikani, Fransiya – Suriya va Livanni boshqarishga mandat oldi. Buyuk Britaniya va Fransiya Togo bilan Kamerun hududlarini o'zaro bo'lib olishdi. Belgiya Ruanda va Burundini, janubiy Afrika Ittifoqi Namibiyani, Yaponiya esa Marian, Karolin va Marshall orollari va Xitoyning Syaochjou viloyati, Shandun yarimorolini boshqarishga mandat oldi¹⁶⁶. Angliya bosh vaziri Lloyd Jorj tan olib: “Mandat bosqinchilik uchun oddiy niqob”, – degan edi¹⁶⁷.

Shu tariqa “abadiy tinchlik” vositasi deb e'lon qilingan Millatlar Ligasi g'olib davlatlarning dunyoni o'zaro bo'lib olishiga qonuniy tus berdi, ittifoqchilarning urushdagi g'alabasini mustahkamladi.

1919-yil 10-sentyabrda Parij yaqinidagi Sen-Jermen qasrida Avstriya bilan shartnoma imzolani, Avstriya-Vengriya imperiyasining tugatilganligi e'lon qilindi. Avstriya Polsha, Chexoslovakiya va Serb-xorvat-sloven qirolligining (keyinchalik bu davlat Serbiya qirolligi bilan birlashib, Yugoslaviya nomini oldi) mustaqilligini tan oldi. Ushbu davlatlar, shuningdek, Ruminiya tarkibiga kirgan barcha hududlardan voz kechdilar. Janubiy Tirol va janubiy slavyan yerlari Italiyaga berildi. Avstriyadan harbiy va savdo floti tortib olindi, qo'shinining soni 30 ming kishidan oshmasligi belgilab qo'yildi, reparaatsiya shartlari aniqlandi.

1919-yil 27-noyabrda Parij yaqinidagi Nyoyi saroyida Bolgariya bilan ham shartnoma imzolandi. Unga ko'ra Bolgariya hududining bir qismi Ruminiyaga, Serb-xorvat-sloven qirolligiga va Gretsiyaga o'tkazildi. Bundan tashqari, Bolgariyaga 2,5 mlrd frank kontributsiya to'lash majburiyati yuklandi, qo'shinining soni 20 ming kishidan oshmasligi belgilab qo'yildi.

1920-yil 4-iyunda Versal saroyining Trianon zalida Vengriya bilan tichlik shartnomasi imzolandi. Vengriyaning hududi 1/3 qismga qisqardi. Xorvatiya, Bachka va Banatning g'arbiy qismi Yugoslaviyaga, Transilvaniya va Banatning sharqiy qismi Ruminiyaga, Slovakiya va

¹⁶⁶ История дипломатии. Том III. – Москва–Ленинград: Огиз-Госполитиздат, 1945. – С. 44-45.

¹⁶⁷ Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (энг янги давр 1918-1945 йиллар). III қисм. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б.18.

Karpatorti Ukrainasi Chexoslovakiyaga o‘tdi, qo‘shinining soni 30 ming kishidan oshmasligi belgilab qo‘yildi.

1920-yilning 10-avgustida Fransiyaning Sevr shaharchasida Turkiya bilan shartnoma imzolandi. Bu shartnoma Turkiyaning asosiy hududlarini bo‘lib olish va Qora dengiz bo‘g‘ozlari ustidan ittifoqchilar nazoratini o‘rnatish ko‘zda tutildi. Ammo Turkiyada milliy inqilob g‘alaba qozonganligi sababli Sevr shartnomasi bajarilmadi. Natijada 1923-yili Lozanna tinchlik shartnomasi imzolanib, Turkiyaning urushdan keyingi chegaralari belgilab berildi va uning mustaqilligi tan olindi.

Yuqoridagi shartnomalar birgalikda Versal tinchlik shartnomasi nomini oldi.

Uzoq Sharq va Tinch okeanidagi bahsli muammolarni hal qilish va dengizdagi qurollarni cheklash maqsadida 1921-yil 12-noyabrdan 1922-yil 6-fevralgacha to‘qqiz davlat (AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya va Xitoy) vakillari ishtirokida Vashington konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada asosiy rolni AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya o‘ynadi va uchta muhim shartnoma imzolandi.

1921-yil 13-dekabrda “To‘rtlar shartnomasi” (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya) imzolandi. Bu shartnoma Tinch okeanidagi qaram orollar va mulklar xavfsizligining kafolati hamda bu joylarda manfaatlarni birgalikda himoya qilish masalasiga oid edi.

1922-yil 6-fevralda “Beshlar shartnomasi” (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya) imzolandi. Bu xalqaro munosabatlar tarixida qurollanishni cheklovchi birinchi shartnoma edi.

Shartnoma bo‘yicha AQSh va Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotining umumiy suv sig‘imi 525 ming, Yaponiya flotiniki 315 ming, Fransiya va Italiya flotlariniki (har biriniki) 175 ming tonnadan oshmasligi kerak edi. Bundan tashqari, tomonlar suv sig‘imi 35000 tonnadan ortiq bo‘lgan kemalarni qurmaslik yoki sotib olmaslik majburiyatini oldilar. Bu shartnomada Yaponiya AQSh va Buyuk Britaniyaning Yaponiya sohillariga 5 ming km dan yaqin masofada harbiy-dengiz qarorgohini qurmaslik majburiyatini qayd eta oldi.

1922-yil 6-fevral kuni uchinchi shartnoma – “To‘qqizlar shartnomasi” (AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya va Xitoy) imzolandi. Bu shartnoma Xitoyga oid edi. Shartnomaga ko‘ra, Xitoyning suvereniteti va hududiy yaxlitligi kafolatlandi, Yaponiya Shandun yarimorolini Xitoyga

qaytardi, G'arb davlatlari hamda Yaponiyaning Xitoyga nisbatan "ochiq eshiklar" va "teng imkoniyatlar" tamoyili o'rnatildi.

1919–1923-yillarda imzolangan shartnomalar va jahondagi kuchlarning yangi nisbati xalqaro munosabatlarning Versal–Vashington tizimi nomini oldi. Versal–Vashington tizimi bir guruh davlatlarning dunyoga hukmronligini o'rnatdi, dunyo siyosatida AQSh ta'sirining sezilarli kuchayganligini aks ettirdi. Shu tariqa g'oliblar va mag'lublar o'rtasidagi ziddiyatlar tizimi shakllanib, bu mag'lublarning o'ch olish, adolatli tartib o'rnatish uchun intilishiga, yangi urushga olib keldi.

Ikkinchi jahon urushi Germaniya, Italiya va Yaponiyaning aybi bilan boshlangan jahon tarixidagi eng yirik urush, XX asr fojeasi sifatida insoniyat tarixiga kirdi. Bu urushning kelib chiqishida asosiy rolni fashistlar Germaniyasi o'ynadi.

1932-yil 2-fevralda quolsizlanish masalalari bo'yicha Jenevada ochilgan xalqaro konferensiyada Germaniya barcha mamlakatlar uchun bir xil bo'lgan "xavfsizlik tizimi doirasidagi teng huquqlik"ga erishdi. Bu Germaniya harbiy salohiyatining tiklanishini xalqaro miqyosda tan olinganligini anlatar edi¹⁶⁸.

1933-yilning oktyabrida Germaniya Millatlar Ligasi tarkibidan chiqdi (1926-yilda kirgan edi.). 1935-yilning mart oyida mamlakatda umumiy harbiy majburiyat joriy qilindi. 1935-yilning iyunida imzolangan ingliz–german bitimi Germaniyaning dengizdagi qurollanishini qonunlashtirdi. Germaniyaning Versal tizimi shartlariga zid xatti-harakati yetakchi davlatlarning chinakam qarshiligiga uchramadi. Aksincha, AQSh va Angliya yirik monopoliyalari Germaniya harbiy-iqtisodiy salohiyatining tiklanishiga yordam berdi¹⁶⁹.

1936-yilning yozida iqtisodiyotni harbiy yo'nalishga o'tkazishning 4 yillik rejasi tasdiqlandi. Shu yillar davomida harbiy xarajatlar 10 baravar oshdi. 1936-yilda germaniya qurolli kuchlarida 1500 ta tank (bu davrda nemis sanoati oyiga 100 ta tank ishlab chiqarayotgan edi), 4500 ta harbiy samolyot mavjud va harbiy aerodromlar soni 400 dan ortiq edi¹⁷⁰.

Ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya qurolli kuchlari tarkibi 2 mln. 760 ming zobit va askarlardan iborat bo'lib, armiya 3695 ta

¹⁶⁸ История дипломатии. Том III. – Москва–Ленинград: Огиз-Госполитиздат, 1945. – С. 449.

¹⁶⁹ Там же. – С. 457.

¹⁷⁰ Там же. – С. 564.

samolyot, 3200 ta tank, harbiy dengiz floti – 2 ta linkor, 5 ta kreyser, 57 ta suv osti kemasiga ega edi¹⁷¹.

1938-yil 12-martda german qo‘shinlari Avstriyaga bostirib kirdi va mamlakatni egalladi (anshlyus*). 1938-yil aprel boshida Angliya, Fransiya va AQSh o‘zlarining Venadagi diplomatik missiyalarini tugatishdi va shu tariqa anshlyusni tan olishdi.

Urushni keltirib chiqargan shartnomalar:

- 1936-yil 25-noyabrda Berlinda Germaniya va Yaponiya o‘rtasida “Antikomintern pakti” imzolandi;
- 1937-yilning noyabrida Italiyaning “Antikomintern pakti”ga qo‘shilishi natijasida “Berlin–Rim–Tokio uchburchagi” vujudga keldi;
- 1938-yil 30-sentyabrdagi Chexoslovakiyaning Sudet viloyatini Germaniyaga berish to‘g‘risidagi (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya o‘rtasida imzolangan) Myunxen kelishuvi;
- 1939-yil 23-avgustda SSSR bilan Germaniya o‘rtasida 10 yil muddatga hujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma (Molotov–Ribbentrop pakti) imzolandi. Bu shartnomaning maxfiy qo‘shimcha ahdomasiga muvofiq, Germaniya va SSSR Sharqiy Yevropada o‘zlarining ta’sir doiralarini bo‘lib oldilar. Har ikki mamlakat manfaatlari, avvalo, Polsha davlati bilan bog‘liq edi. Sovet tomoni G‘arbiy Ukraina, G‘arbiy Belorussiya va Bessarabiya (1921-yilda boy berilgan, 1921-yil 18-martdagi Riga tinchlik shartnomasiga asosan, “Kerzon* chizig‘i”) hududlarini qaytarib olmoqchi edi. Shuningdek, Germaniya Boltiqbo‘yi mamlakatlariga da’vo qilishdan ham voz kechdi¹⁷⁴.

G‘arb mamlakatlari (Angliya, Fransiya, AQSh) hukmron doiralari “kelishtirish” siyosati Avstriya (1939-yil mart) va Chexoslovakiya (1939-yil mart)ning Germaniyaga qo‘shib olinishiga yo‘l ochib berdi. Ikkinchi jahon urushining boshlanishida sobiq SSSRning ham aybi bor.

1939-yil 1-sentyabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi, natijada 3 sentyabrda Britaniya Germaniyaga urush e’lon qildi. Ammo Buyuk Britaniyada ham Fransiyadagi kabi qanday qilib bo‘lsa-da, mamlakatni

¹⁷¹ Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (энг янги давр 1918-1945 йиллар). III қисм. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 212.

* **Anshlyuz** – “qo‘shib olish”, “ittifoq”.

* **Jorj Nataniel Kerzon** – 1919–1924-yillarda B.Britaniya Tashqi ishlar vaziri.

¹⁷⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 4. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 109.

keng urush harakatlariga jalb qilmaslik tarafdori bo'lgan kuchlar hokimiyatda edi. Bu siyosat "g'alati urush" nomini oldi.

Ikkinchi jahon urushining birinchi bosqichi (1939-yil 1-sentyabrdan 1941-yil 21-iyungacha)da nemis bosiqinchilari Belgiya, Gollandiya, Polsha, Norvegiya, Daniya, Fransiya bosib olishga muvaffaq bo'ldi. Italiya fashistlari Albaniya, Gretsiya va Efiopiyani bosib oldi.

Sovet qo'shini 1939-yil 17-sentyabrda Polshaning bir qismini bosib oldi va 1920-yilgi Sovet-Polsha urushidagi mag'lubiyat tufayli boy berilgan G'arbiy Ukraina bilan G'arbiy Belorussiya SSSR tarkibiga qaytarib olindi.

1939-yil 28-sentyabrda SSSR va Germaniya o'rtasida "Do'stlik va chegara to'g'risi"dagi shartnoma imzolandi.

1939-yil 30-noyabrdan 1940-yil 12-martgacha sovet-fin urushi bo'lib o'tdi. Katta yo'qotishlar evaziga Kareliya Viborg shahri bilan birga SSSR tarkibiga qaytarib olindi. Natijada SSSR tajovuzkor davlat sifatida Millatlar Ligasidan chiqarildi. 1940-yil martda SSSR Finlyandiya bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi.

1938-yil Eduard Daladye (Fransiya Bosh vaziri) hukumati Myunxen kelishuvini ma'qullagan bo'lsa-da, Fransiya urushning dastlabki qurbonlaridan biri bo'ldi. Fashistlar qo'shini 1940-yil 10-mayda Shimoliy Fransiya bostirib kirdi. 1940-yil 14-iyun kuni nemis qo'shinlari Parijni egalladi.

1940-yil 22-iyun kuni Kompen o'rmonidagi Retond bekatida, 1918-yil marshal Fosh Germaniyaning taslim bo'lganligi haqidagi sulhni imzolagan vagonda, Gitlarning shaxsan o'zi ishtirokida sulh imzolandi. Sulhga ko'ra, Germaniya Fransiyaning 2/3 qismini, jumladan, Parijni okkupatsiya qildi. Janubiy Fransiya rasman mustaqil bo'lib qoldi va Petening kollaboratsion* hukumati boshqaruvi ostida qoldi. Fransiya qo'shini 100 ming kishigacha qisqartirildi, og'ir qurollar va flotning asosiy qismidan ayrildi. Saqlanib qolgan qurollar nemislar nazorati ostida harbiy omborlarga joylashtirildi. Germaniya qo'shini fransuzlarning 3000 samolyoti va 4930 ta tankiga ega bo'ldi. Sulh shartlariga ko'ra barcha nemis harbiy asirlari Germaniyaga qaytarildi, ammo 1,5 mln fransuz asirlari "tinchlik shartnomasi tuzilguncha"

* **Kollaboratsionizm** (*fran.* collaboration - hamkorlik) - urush davrida o'z davlatiga qarshi dushman bilan hamkorlik qilish, bosib olingan davlat fuqarolarining urush yoki qurolli to'qnashuv paytida o'z davlatiga zarar yetkazishga qaratilgan dushman bilan ixtiyoriy hamkorlik.

Germaniyada qoldi¹⁷⁶.

1940-yil 25-iyunda Fransiya bilan Italiya o'rtasida ham sulh imzolandi. Unga ko'ra, Italiya Fransiya janubidagi Menton shahrini okkupatsiya qildi, janubiy frontda jang qilayotgan fransuz qo'shinlari qurollarini egallab oldi. Shu kelishuvga asosan, Fransiya Afrikadagi o'z mustamlakalari ustidan nazoratni saqlab qoldi.

Nemislarning B.Britaniyaga nisbatan asosiy hujumlari havoda yuz berdi. 1940-yil avgust–sentyabr oylarida nemis harbiy-havo kuchlari – lyuftvaffening B.Britaniyaga qarshi havo hujumida 3000 dan ziyod samolyotlari qatnashdi. Lekin, nemis harbiy-havo kuchlari muvaffaqiyat qozona olmadi¹⁷⁷.

1940-yil 14-iyunda SSSR Boltiqbo'yi davlatlarini o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani buzganlikda aybladi va ular hududida o'z qo'shinlarini joylashtirish uchun rozilik oldi. Bir oydan kamroq vaqt o'tib bu hududlar SSSR tarkibiga qo'shib olindi. Shu paytda sovet hukumati qo'shinlarini Ruminiya chegarasida jamladi va Bessarabiyaning SSSRga berilishiga erishdi.

1940-yil 27-sentyabrda Germaniya, Yaponiya va Italiya o'rtasida harbiy hamkorlik to'g'risida kelishuv – Uchlar pakti (Berlin pakti)* imzolandi. Tez orada bu paktga Vengriya, Ruminiya, Slovakiya va Bolgariya ham qo'shildi. Germaniyaning yagona jang qilayotgan raqibi bo'lib Buyuk Britaniya qoldi.

1940-yil noyabrda sovet tashqi ishlar vaziri V.M.Molotovning Berlinga safari chog'ida SSSRga Uchlar ittifoqi tarkibiga qo'shilish taklif qilindi. Bu SSSRning Buyuk Britaniyaga qarshi urushga qo'shilishini va buning evaziga Eron va Hindiston tomonda hududlarni bosib olib, janubda okeanga chiqishini taqozo qilardi. Sovet hukumati ittifoqqa qo'shilmadi.

Germaniya 1939-yildagi shartnomaga xilof ravishda 1941-yil 22-iyunda SSSRga hujum qildi. Bu urushning ikkinchi bosqichi edi.

AQSh 1941-yil martda lend-liz to'g'risida qonun qabul qildi.

1941-yil 14-avgustda AQSh va B.Britaniya urush paytida va undan keyingi hamkorlik tamoyillari to'g'risida deklaratsiyani – Atlantik

¹⁷⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 4. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 106.

¹⁷⁷ Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (энг янги давр 1918-1945 йиллар). III қисм. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. – Б. 88.

* **Berlin pakti** (Uch davlat pakti yoki uch tomonlama pakt) –1940-yil 27-sentyabrda Antikomintern paktining asosiy ishtirokchilari: Germaniya (Yoaxim fon Ribbentrop), Italiya (Galeazzo Ciano) va Yaponiya (Saburo Kurusu) o'rtasida 10 yilga tuzilgan.

xartiyani imzoladi. Shu yil sentyabrda SSSR Atlantik xartiyaning asosiy tamoyillarini qabul qildi va unga nisbatan lend-liz tadbiriq etildi.

1941-yil 7-dekabr kuni ertalab Yaponiyaning 441 ta samolyoti AQShning Pyorl-Xarboardagi harbiy bazasiga hujum uyushtirdi. 4 ta linkor, 2 ta kreyser va bitta mina qo'yuvchi harbiy kema cho'ktirib yuborildi. Amerikaliklar 2403 nafar askaridan ayrildi. Shundan keyin AQSh hukumati 11-dekabrda Germaniya va Italiyaga, 13 dekabrda Ruminiya, Vengriya va Bolgariyaga urush e'lon qildi.

1942-yil 1-yanvarda ittifoqchi davlatlar va Uchlar ittifoqi bilan urushayotgan davlatlar hukumatlari 26 davlat Deklaratsiyasini imzoladilar. Unda dushman ustidan g'alabaga erishish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilish, separat sulh tuzmaslik majburiyatlari yuklandi, urushdan keyin dunyo tartibi Atlantik xartiya tamoyillari asosida o'rnatilishi belgilab qo'yildi. Deklaratsiya hozircha urushmayotgan davlatlar qo'shilishi uchun ochiq bo'lib, bu davlatlardan faqat Uchlar ittifoqi davlatlariga qarshi urush e'lon qilishi talab qilinardi.

1943-yilning 28-noyabr – 1-dekabridagi Tehron konferensiyasida ikkinchi frontni ochish ("Overlord" harbiy operatsiyasi) ko'zda tutilgan edi.

1945-yil 4 – 11-fevral kunlari Qrim (Yaltaga) SSSR (Iosif Stalin), AQSh (Franklin Ruzvelt) va Buyuk Britaniya (Uinston Cherchill) davlat rahbarlarining konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada ittifoqchilarning kelgusi harbiy harakatlari muvofiqlashtirildi, Germaniya taslim bo'lgandan so'ng uni nazorat qilishning shakl va usullari belgilab olindi.

1945-yil 25-aprel – 26-iyun kunlari AQShning San-Fransisko shahrida AQSh, SSSR, B.Britaniya va Xitoy davlatlari nomidan konferensiya chaqirildi va unda 50 mamlakat vakillari ishtirok etdi. Konferensiyada BMTning Xalqaro sudi ta'sis etildi. 26-iyunda BMT ustavi qabul qilindi va bu 1945-yil 24-oktyabrdan kuchga kirdi.

1945-yil 26-iyun – 8-avgust kunlari Londonda g'olib davlatlar konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda Harbiy tribunal va Nyurnberg sud jarayoni tarkibi muhokama qilindi.

1945-yil 17-iyulda Germaniyaning Potsdam shahrida uch buyuk davlatlar rahbarlari (I.Stalin, U.Churchill, G.Trumen) konferensiyasi ochildi. Germaniyani qurolsizlantirish, natsistlar partiyasini yo'q qilish, Germaniyani reparatsiya to'lashga majbur qilish va asosiy

jinoyatchilarni harbiy tribunalga berish to'g'risida kelishib oldilar. Konferensiya chegara masalasini ham hal qildi¹⁷⁹.

“Sovuq urush” yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

Ikkinchi jahon urushi dunyodagi vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi. AQSh va SSSR boshchiligidagi ikkita harbiy-siyosiy bloklar – NATO va Varshava Shartnomasining bir-biriga qarama-qarshiligi xalqaro munosabatlarning ikki qutblilik tizimini vujudga keltirdi. Ikki blok o'rtasidagi nizolar bir-biriga qarshi bo'lgan ijtimoiy modellarning g'oyaviy, siyosiy va harbiy jihatdan tortishuvidan iborat edi. Ikki yirik Imperiya – SSSR va AQSh o'rtasidagi g'oyaviy kurash va geosiyosiy ziddiyatlar “sovuq urush”ning amaliy ko'rinishi edi. Antig'itlerchilar koalitsiyasiga a'zo bo'lgan ittifoqchi davlatlar – AQSh va Buyuk Britaniya, ikkinchi tomondan esa SSSR o'rtasidagi kelishmovchiliklar Ikkinchi jahon urushining oxirlaridan, ya'ni xalqaro munosabatlarni tinch yo'l bilan hal etish masalasi kun tartibiga qo'yilgan vaqtdanoq yuzaga kela boshlagan edi. Buyuk Britaniyaning Bosh vaziri U.Churchill 1946-yil 5-mart kuni Fulton (AQSh)da so'zlagan nutqida SSSRga va uning kommunizmni kapitalistik mamlakatlarga eksport qilish rejalariga qarshi kurashish uchun Anglo-Amerika harbiy ittifoqini tuzishga da'vat qildi. G'olib davlatlar o'rtasidagi keskin ziddiyatlar va nizolar tufayli okkupatsiya qilingan Germaniya hududi 1947–1949-yillarda ikkiga bo'linib ketdi (GDR va GFR). Dunyoning bo'linishi yana real tus oldi.

Keyingi yillarda G'arbiy davlatlar AQSh boshchiligida Sovet Ittifoqiga nisbatan bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Bu tadbirlar orasida dunyo miqyosida “kommunizmga qarshi salib yurishi”ni e'lon qilgan “Trumen doktrinasi”ning (1947-yil) qabul qilinishini, amerikacha siyosatni qo'llab-quvvatlashga zamin yaratgan “Marshall rejasi” (1948–1952-yillar)ga ko'ra, bir qator G'arbiy Yevropa davlatlariga investitsion yordam dasturini, 1949-yilda Atlantika harbiy-siyosiy bloki – NATOning tashkil etilishi, shuningdek, Osiyoda ham SEATO, SENTO, ANZYUS kabi amerikaparast bloklarning tashkil etilganligini ko'rsatib o'tish kerak.

Antikommunistik kurashning boshida AQSh turardi. AQSh hukumati rahbarlari urush tugagan kundan boshlab, dunyo hamjamiyatidagi yetakchilik mavqeini yanada mustahkamlashga harakat qila boshlagan edi. 1949-yilgacha, ya'ni SSSR o'z atom (1953-yil vodorod) bombasiga ega bo'lgunga qadar, AQSh bu sohada yakka

¹⁷⁹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Потсдамская_конференция](https://ru.wikipedia.org/wiki/Потсдамская_конференция)

xo'jayin edi. Vashington Amerika Davlatlarining Tashkiloti (OAG), Xalqaro Valyuta Fondi va Butunjahon banki, Savdo va tariflar bo'yicha Bosh Shartnoma (GATT), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot Tashkiloti (OESR) va boshqalarda yetakchi mavqega ega edi. AQSh 40–50-yillarda Koreya yarim oroli, Yaqin Sharq, Kongo va Kiprda ro'y bergan nizolar chog'ida BMT Bosh Assambleyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu nizolarga Sovet Ittifoqining to'g'ridan-to'g'ri aralashishini BMT orqali cheklab qo'yishga erishdi. Xuddi mana shu yillarda ko'zga ko'ringan gazeta magnati G.Lyuis: “Urushlarga barham berish uchun AQSh ta'sirini shu darajada oshirish kerakki, “Pax American”, ya'ni “Amerika asri” hukmronlik qilsin”, degan g'oyani ilgari surgan edi¹⁸⁰.

Biroq AQSh harbiy-siyosiy jihatdan katta kuch-qudratga ega bo'lsa-da, dunyoda yakkahukmron bo'lish vazifasini uddalay olmadi. Xalqaro maydonda AQSh o'z ta'sir doirasini qat'iy mustahkamlashga intilayotgan yana bir qudratli davlat – SSSR bilan hisoblashishga majbur edi.

Sovet Ittifoqi ham AQSh kabi urushdan harbiy-siyosiy jihatdan qudratli davlat bo'lib chiqdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro munosabatlarni tinch yo'l bilan amalga oshirish masalasi ko'ri-la boshlagan davrdan boshlab Sharqiy Yevropaning bir qator davlatlari (Bolgariya, Chexoslovakiya, Ruminiya, Vengriya, Polsha, Albaniya, Yugoslaviya) va Osiyo (Xitoy, Vyetnam, KXDR va boshqalar) SSSRning bevosita ta'sir doirasiga tushib qoldi. Shunday qilib, dunyo siyosiy maydonida sotsialistik tizim yoki sotsialistik lager mamlakatlari yuzaga keldi. 60-yillarning boshlariga kelganda (1959-yil yanvarda Kubada inqilob g'alaba qozongan) bu tizimga Kuba ham qo'shildi.

1949-yilda Sharqiy Yevropa sotsialistik mamlakatlarining O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYoK) tashkil etildi. Keyinchalik bu tashkilotga Mo'g'uliston, Kuba va Vyetnam ham qo'shildi. Sotsialistik lagerni jiplashtirish va NATOning harbiy xavflarini bartaraf qilish maqsadida 1955-yilning may oyida Varshavada SSSR va Sharqiy Yevropaning sotsialistik hamkorlikka kirgan Polsha, Chexoslovakiya, Ruminiya, Bolgariya, Vengriya, GDR va Albaniya (1968-yilda Albaniya Shartnomani bir tomonlama bekor qilgan) davlatlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi Shartnoma imzolandi. Shu Shartnoma asosida Varshava harbiy-siyosiy pakti (Varshava Shartnomasi Tashkiloti) tuzildi.

¹⁸⁰ Кичкилов Х., Файзуллаева М. Энг янги тарих (1945–2010 йиллар). – Тошкент: ЯНГИ НАШР, 2011. – Б. 445.

Ikkinchi jahon urushidan keyin mustamlakachilik siyosatining tanazzulga yuz tutish jarayonlari, g'oyaviy-siyosiy jihatdan turli rivojlanish yo'llarini tanlagan mustaqil davlatlar tashkil topishiga olib keldi. Natijada, dunyo bir-biridan iqtisodiy taraqqiyoti, turmush tarzi va dunyoqarashlari jihatdan tubdan farq qiladigan uch guruhga: kapitalistik, sotsialistik va rivojlanayotgan davlatlar guruhiga ajraldi.

Karib inqirozi

1962-yil sentyabrda SSSRning "S-4" raketalaridan 40 tasini Kubaga yashirincha olib borib joylatirilishi Karib inqirozining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

1962-yil 22-oktyabrda AQSh prezidenti Jon Kennedi Amerika radio va televideniyesi orqali nutq so'zlab, sovet raketalarining Kuba hududiga joylashtirilganligidan AQSh xalqini xabardor qildi.

23 va 24-oktyabrlarda N.Xrushchev J.Kennedi nomiga maktub yo'llab, Bayonot berdi. 25-oktyabrda Moskvaga AQSh qo'shinlarining jangovar holatga keltirilganligi va ikki kun ichida Kubaga bostirib kirishiga buyruq berilganligi to'g'risida xabar keldi.

26-oktyabrda N.Xrushchev J.Kennediga maktub yo'llab, agar AQSh Kubaga bostirib kirishdan voz kechsa, SSSR o'z raketalarini Kubadan olib chiqib ketishini aytdi. 27-oktyabrda birinchi xatga qo'shimcha ikkinchi xat yoziladi. Unda sovet rahbari AQShga o'z raketalarini Turkiyadan olib chiqib ketish shartini qo'yadi. AQSh hukumati ikkala shartni ham bajarishga rozi bo'ladi. Shu tariqa 1962-yil oktyabrda termo-yadro urushi xavfini keltirib chiqargan Karib inqirozi bartaraf qilindi.

Xalqaro munosabatlar tizimining "sovuq urush"i davrida Uchinchi dunyo mamlakatlari

Osiyoning buyuk davlatlaridan biri Hindiston Ikkinchi jahon urushi oxirlarida ham inglizlarning mustamlakasi bo'lib qolayotgan edi. Ammo milliy ozodlik harakatlari tufayli 1947-yilda Pokiston va Hindiston kabi ikkita mustaqil davlat tashkil topdi.

Xitoy ikkita urushlar orasidagi davrda yarim mustamlaka davlatidan 1945-yilga kelib BMT xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi va buyuk davlat statusiga ega bo'ldi. Mamlaktdagi fuqarolar urushi natijasida 1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topdi.

1950–1953-yillarda Koreyadagi harbiy to'qnashuvlar natijasida bir-biriga qarama-qarshi ikkita mustaqil davlat paydo bo'ldi.

Vyetnamliklar 50-yillarda fransuz mustamlakachilariga qarshi kurashib, Denbenfuda mustamlakachilar qo'shinini mag'lubiyatga

uchratdilar. Fransuz qo‘shinlarining qator mag‘lubiyatlari (ayniqsa, 1954-yil Denbenfu atrofida) hamda jahondagi tinchliksevar kuchlarning talabi natijasida Fransiya hukumati urushni to‘xtatishga va 1954-yil Jeneva bitimini imzolashga majbur bo‘ldi. Biroq, Janubiy Vyetnam ma‘murlari 1955-yil oktyabrda Janubiy Vyetnamni mustaqil respublika deb e‘lon qildi va mamlakatda terrorchi rejim o‘rnatildi. Mamlakat AQSh harbiy bazasiga aylandi. 1964-yil avgust boshlarida bir necha harbiy istehkom va aholi punktlari, 1965-yil 7-fevraldan VDRning janubiy viloyatlari, keyinchalik butun mamlakat AQSh aviatsiyasi tomonidan bombardimon qilindi. Urush davrida AQSh 41 mlrd dollar xarajat qildi, 56,5 ming AQSh askar va zobiti halok bo‘ldi, 303,6 ming harbiy esa yarador bo‘ldi. Shuncha xarajat va yo‘qotishlar bilan ham AQSh sharmandalarcha mag‘lubiyatga uchradi. 1972-yil yanvariga kelganda AQSh prezidenti R.Nikson ma‘muriyati mag‘lubiyatni tan oldi¹⁸¹.

1973-yil yanvarda Parijda urushni to‘xtatish va Vyetnamda tinchlik o‘rnatish to‘g‘risida bitim imzolandi. 1976-yil iyulda Shimoliy va Janubiy Vyetnamni birlashtirish tugallandi, Vyetnam Sotsialistik Respublikasi tuzildi¹⁸².

Urushdan keyingi davrdagi xalqaro munosabatlarni tartibga solishda eng muhim masalalardan biri Yaqin Sharq muammosi edi. 1948-yil 14-mayda Isroil davlati tashkil topdi. Falastinning mustaqillik uchun qilayotgan sa‘y-harakatlari inobatga olinmadi. Natijada Arab–Isroil (haligacha hal bo‘lmagan) urushlari kelib chiqdi.

1967-yildagi urush chog‘ida Isroil Falastinning (Jordan daryosining g‘arbiy qirg‘og‘i va G‘azo sektori) va uni qo‘llab-quvvatlab turgan Suriya va Misrning kattagina yerlarini bosib oldi. Isroil 90-yillarga kelibgina Falastinga muxtoriyat berishga majbur bo‘ldi¹⁸³.

Ikki qutbli jahon tizimining zaiflashuvi

Uchinchi dunyo davlatlarining siyosiy faolligi xalqaro munosabatlar tizimining transformatsiyasi uchun kuchli omil bo‘ldi. 1967-yilgi Isroil–Arab davlatlari urushi BMTning Yaqin Sharqdagi obro‘cini tushirib yubordi. Dominikan Respublikasida, Yaqin Sharqda va Chexoslovakiyada bo‘lib o‘tgan inqirozlar, Vyetnam va Yamandagi

¹⁸¹ Кичкилов Х., Файзуллаева М. Энг янги тарих (1945–2010 йиллар). – Тошкент: ЯНГИ НАШР, 2011. – Б. 452.

¹⁸² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 2. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 511-515.

¹⁸³ Кичкилов Х., Файзуллаева М. Энг янги тарих (1945–2010 йиллар). – Тошкент: ЯНГИ НАШР, 2011. Б. 453–454.

urushlar, Nigeriyadagi fuqarolar urushlari davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini o'zgartirish zaruratini keltirib chiqardi. Mana shunday sharoitda Qo'shilmaslik harakati jahon munosabatlarida katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Qo'shilmaslik harakatining oliy darajadagi birinchi konferensiyasi 1961-sentyabrda Belgradda bo'lib o'tdi. Unda 25 ta davlat ishtirok etib, Yugoslaviya, Hindiston, Misr, Indoneziya va Gana davlatlarining tashabbusi bilan chaqirilgan edi¹⁸⁴. Keyingi o'n yilliklar davomida harakatning tarkibi va geografiyasi kengayib bordi hamda 1983-yilga kelib uning a'zolari soni 101 taga etdi. Jahon mamlakatlarining 2/3 qismini birlashtirgan bu harakat dunyoda tinchlikni saqlash, davlatlar o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlashda jahon siyosatining muhim omillaridan biriga aylandi.

OPEK* ning tashkil topishi va unga a'zo bo'lgan davlatlar rivojlangan davlatlar iqtisodiy tazyiqidan ozod bo'lishni maqsad qilib qo'yishi ikki qutbli siyosat sxemasiga bir qator o'zgarishlar kiritdi.

XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya

XX asrning oxirgi o'n yilida xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, ikki qutbli dunyo tizimi buzildi, globalashuv jarayoni, ayrim mamlakatlar iqtisodiy qudratining keskin o'sishi xalqaro munosabatlarga ham ta'sir o'tkaza boshladi. Xalqaro siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar katta yettilik (G-7; Group of Seven), yigirmattalik (G-20; The Group of Twenty) mamlakatlari qabul qilgan qarorlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Jahonning katta 7 talik davlatlari (G-7):

AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, Fransiya, Yaponiya.

Jahonning katta 20 talik davlatlari (G-20):

Argentina, Avstraliya, AQSh, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, JAR, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Hindiston.

Hozirgi kundagi dunyoning siyosiy-iqtisodiy jarayonlariga va xalqaro vaziyatga nazar tashlansa, quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

¹⁸⁴ Ўша жойда. – Б. 454.

* OPEK (neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti – 1960-yil 10–14-sentyabrda tashkil topgan, 1961-yil yanvardan faoliyatini boshlagan. Shtab-kvartirasi Vena (Avstriya)da.

XX asrning oxirgi choragi – XXI asr boshlarida dunyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda geosiyosiy strategiya muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xalqaro vaziyat tubdan o‘zgarib ketdi.

Ma’lumki, ilgari jahonda ikki qarama-qarshi tizim – SSSR va AQSh yetakchi bo‘lgan, bir-biriga g‘oyaviy jihatdan zid ikki blok mavjud edi. Dunyoning xavfsizlik muvozanati ham xuddi shu ikki blokning o‘zaro muxoliflik munosabatiga asoslangan edi.

Birinchi, sobiq sotsialistik lagerning parchalanishi oqibatida davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Jahonda iqtisodiy-siyosiy bo‘linish ro‘y berdi. Kuchlar markazi ilgari ikki joyda bo‘lsa, endilikda o‘z taqdirini o‘zi belgilash orqali ichki imkoniyatlarni ishga solish, har kimning o‘z aravasini o‘zi tortish zarurati tug‘ildi.

Ikkinchi, jahonda mulkiy tengsizlik kuchaydi, ya’ni, sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut va ziddiyatlar kuchaya boshladi. Bu holat jahon resurslarini taqsimlashda yaqqol ko‘rinadi. Tabiat resurslari aslida rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblanadi. Lekin, sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlar bu boyliklarni nazorat qilishni o‘z qo‘llariga olishga intila boshladi.

Uchinchi, dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita turli xavf-xatarlar mavjud bo‘lib qoldi. Garchi yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo‘lsa-da, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar tahdidi, xalqaro terrorchilik, xalqaro giyohvandlik moddalari savdosi, OITS (SPID), turli pandemiyalar kabi umumbashariy muammolar hamon tahlikali holatda saqlanib qolmoqda.

To‘rtinchi, jahon miqyosida umumiy taraqqiyot odamlar bilimdonligini oshirib, dunyoqarashining o‘zgarishiga, kommunikatsiyalar yuksalishiga, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta’siriga olib keldi.

Beshinchi, rivojlanishning hozirgi bosqichida har qanday mamlakatning nufuzi, avvalo, uning eng yangi texnologiyalarni qabul qilishi va undan foydalanish qobiliyatiga qarab belgilanadigan bo‘ldi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi vaziyatda dunyo mamlakatlari, ularning ayrimlari siyosiy-iqtisodiy sohada qanchalik taraqqiy etgan bo‘lishiga qaramay, xalqaro munosabatlarda qatnashishga, dunyodagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik vaziyatlar, xalqaro terrorchilik, giyohvandlik va giyohvand moddalari savdosi, turli pandemiyalar kabi umuminsoniy global muammolar bilan

hisoblashishga majburdirlar. Mazkur muammolar davlatlarning xalqaro, mintaqalararo va ayrim davlatlararo integratsiya jarayonlarida faol bo‘lishni taqozo etadi.

Mazkur davlatlar 400 dan ortiq¹⁸⁶ xalqaro, xalqaro-mintaqaviy tashkilotlar hamda ularning sohalararo alohida bo‘limlari va boshqa assotsiatsiyalar, qo‘mitalar doirasida yoki ayrim davlatlar bilan o‘zaro doirada jahon siyosiy-iqtisodiy jarayonlarida qatnashadilar.

XX asrning oxirgi o‘n yilligi – XXI asrda dunyo xalqaro muvozanatiga xavf-xatar solayotgan, xalqaro munosabatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan asosiy omillardan biri – turli mintaqalardagi harbiy mojarolar va urushlardir. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Gruzin – Abxaz urushi (1992 – 2008-yy.)
- Efiopiya – Eritreya urushi (1998 – 2000-yy.)
- Buyuk Afrika (2-Kongo) urushi (1998 – 2002-yy.)
- Afg‘oniston urushi (2001 – 2021-yy.)
- Iroq urushi (2003 – 2011-yy.)
- Iroqda fuqarolar urushi (2011 – 2017-yy.)
- Suriyada fuqarolar urushi (2011 –)
- Ukraina (Donbass) urushi (2014 –)
- Ozarbayjon – Armaniston urushi (2020-y.)
- Efiopiyada fuqarolar urushi (2021 –)
- Isroil – Falastin inqirozi (2021-y.)
- Rossiya – Ukraina urushi (2022 –)

Mustaqil O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishtiroki

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 10-oktyabrda Gruziya Respublikasi sobiq ittifoq respublikalari orasida birinchi bo‘lib tan oldi. 1991-yil 15–19-dekabrda O‘zR birinchi Prezidenti I.Karimov Turkiya Respublikasi Prezidenti Turg‘ut O‘zol taklifiga binoan Turkiya Respublikasida rasmiy safarda bo‘ldi. Bu rasmiy safar O‘zbekiston Prezidentining mustaqil davlat boshlig‘i sifatida birinchi chet el safari edi. 1991-yil dekabr oyining oxirgi o‘n dekadasi respublikamiz tashqi siyosati tarixiga voqealarga boy o‘n kunlik sifatida kiradi. Chunki, bu davrda mamlakatimizni dunyoning ko‘plab davlatlar tan oldi. O‘zR birinchi Prezidenti 1992-yil 29-yanvardan 2-fevralgacha Shveysariyada bo‘lib, Jahon iqtisodiy anjumanida ilk marotaba ishtirok etdi.

¹⁸⁶ Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Т. “Академия”. 2005. Б. Б. 8.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishi O‘zR Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan: “O‘zR xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”¹⁸⁷.

O‘zbekiston mustaqil davlat bo‘lgach, xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektga aylandi va faol diplomatik munosabatlarga kirishdi. 1991-yil dekabrda 1992-yil iyul oyigacha bo‘lgan davr mobaynida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O‘zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi¹⁸⁸. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 142 ta¹⁸⁹ davlatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Toshkentda 44 ta chet el elchixonalari, 1 ta bosh konsullik, 8 ta faxriy konsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a’zosi bo‘lib, mamlakatimiz turli xil ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi¹⁹⁰.

1992-yil 30-yanvarda O‘zbekiston EXHTga qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov:

- 1992-yil 2-martda O‘zbekiston BMTga a’zo bo‘ldi. 1993-yil 26–28-sentyabrda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida nutq so‘zlab, O‘zbekistonni jahonga tanitdi;
- 1995-yil 24-oktyabrda BMT Bosh Assambleyasining yubileyi – 50-sessiyasida;

¹⁸⁷ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. <https://lex.uz/docs/-20596>

¹⁸⁸ Халиқова Р.Е. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи (тўқув қўлланма). – Тошкент. 2021. – В. 170.

¹⁸⁹ <https://mfa.uz/uz/pages/strani-krtariye-uzbekistan-ustanvil-diplmaticheskiye-ttrsheniya>

¹⁹⁰ <http://www.uzbekistan.org.ua/uz/uz-uzbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati.html>

- 2000-yil 8-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik sammiti”da;
- 2010-yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik rivojlanish”ga bag‘ishlangan majlisida;
- 2017-yil 19-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi.

1993-yil 24-oktyabrda Toshkentda Xolid Malik boshchiligida BMTning O‘zbekistondagi Vakolatxonasi ochildi. 2002-yil 18 – 20-oktyabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofi Annan, 2010-yilning aprel oyida Pan Gi Mun, 2017-yilning iyun oyida Antoniu Guttereshlar respublikamizga tashrif buyurganlar.

2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiysida Prezidenti Sh.Mirziyoevning tashabbusi “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilish taklifi kiritildi. O‘zbekistonning bu taklifi BMT tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi. Bu esa xalqaro maydonda O‘zbekistonning sa’y-harakatlariga berilgan yuksak e’tirofdir¹⁹¹.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni to‘la qaror toptirish uchun xalqaro sharoitlarni yaratish, tinchlik, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun barcha davlatlar bilan teng huquqli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Nazorat savollari:

1. Birinchi jahon urushidan keyingi qaysi holatlar Yevropada fashizmning shakllanishiga turtki berdi?
2. 1918–1945-yillardagi xalqaro munosabatlar va diplomatiyaning xarakteri va yo‘nalishlari...
3. Ikkinchi jahon urushi arafasida Yevropada kuchlar nisbatining o‘zgarishi xalqaro munosabatlarga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
4. Ikkinchi jahon urushini keltirib chiqargan asosiy shartnomalarni aytib bering
5. Ikkinchi jahon urushidan keyingi dunyoda xalqaro munosabatlarning xarakterli xususiyatlarini sanab bering
6. “Sovuq urush”ni keltirib chiqargan asosiy omillarni ko‘rsatib bering

¹⁹¹ B’sha joyda. – B. 175-176.

7. Ikki qutbli dunyoda xalqaro munosabatlar va diplomatiyaning asosiy yo‘nalish va maqsadlari haqida fikr bildiring
8. Xalqaro tashkilotlarning diplomatik munosabatlardagi o‘rni haqida fikr bildiring
9. XXI asrda xalqaro maydondagi global muammolarni sanab bering
10. Xalqaro munosabatlarda “mayin kuch” orqali ta’sir o‘tkazish nimanani anglatadi
11. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatda e’tirof etilishining huquqiy asoslarini sanab bering
12. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatda e’tirof etilishining iqtisodiy omillarini sanab bering

Glossariy:

“Ajoyib yakkalanish” siyosati – biror-bir davlatning ittifoq yoki guruhlarga qo‘shilmaslik va hech qanday majburiyatlarni o‘z zimmasiga olmaslik siyosati. Masalan, XIX asrning oxirida Angliya biron-bir harbiy ittifoqqa yoki guruhga qo‘shilmadi. Ingliz hukumati an’anaviy “ajoyib yakkalanish” siyosatiga amal qilib, hech qanday majburiyatlar bilan o‘zini bog‘lamaslikni afzal ko‘rdi.

Akkreditatsiya – xalqaro huquqda davlatning diplomatik vakolatxona boshlig‘i yoki biron-bir xalqaro tashkilotda doimiy vakili lavozimiga tayinlash va lavozimini bajarishga kirishishi bilan bog‘liq xatti-harakatlar majmui.

Amfiktioniya – “amfiktion” so‘zidan olingan bo‘lib, “atrofida yashovchi” degan ma‘noni bildiradi. Qadimgi Yunonistonda xalqaro munosabatlarning bir shakli. Asosan, mashhur ibodatxonalar ma‘lum bir xudolarga bag‘ishlangan ittifoqlar shunday nom bilan atalgan.

Angelos, Keryuks (*qad.yun.* “elchi” yoki “xabarchi”) – jamoatlar va polislari o‘rtasidagi nizolarni hal etgan maxsus vakillar.

Antalkid sulhi – mil. avv. 327-yilda tuzilgan. Sulhga ko‘ra, Eron Kichik Osiyoda o‘z hokimiyatini tikladi, eronliklar flotiga Egey dengiziga chiqishga ruxsat berildi, yunon polislari ustidan nazorat Spartaga topshirildi.

Apokrisiariy yoki poklisar (*yunon.* “javob olib kelish”, “javob keltirish”; *lot.* “apocrisarius”) – elchi, cherkov ishlari bo‘yicha advokat, Romeya Imperiyasida diplomatik lavozim. Cherkov-ma‘muriy mazmuniga ko‘ra apokrisiariy imperator saroyidagi va oliy fuqarolik yoki cherkov muassasalarida arxierey yoki monastir bosh ruhoniysining vakili. Apokrisiariy oliy ruhoniylar va imperatorlar vositachi hisoblanadi. Cherkov apokrisiariyasi Vizantiyada V asrdan ma‘lum. Imperator Yustinian I ularga mahalliy cherkovlar boshliqlari ustidan moliya va tartib-intizom nazoratini olib borish huquqini bergan.

Apostol nunsiatursasi – Vatikanning oliy darajadagi diplomatik missiyasi, elchixonasi yoki elchilikning ekvivalenti. Apostol nunsiaturasining boshlig‘i nunsiy* deb atalgan. Papa nunsiyasi (rasman – Apostol nunsiyasi) Muqaddas Toj (papalikning norasmiy nomi)ning biror-bir mamlakatdagi yoki xalqaro tashkilotdagi (Mas., Arab Ligasi davlatlaridagi) doimiy diplomatik vakili sifatida Favqulodda va muxtor rangi(darajasi) ega elchi hisoblanadi. Bundan tashqari, nunsiy

* **Nunsiy** (*lot.* nuntius) – “xabarchi” so‘zidan olingan bo‘lib, cherkov diplomatik rangi (darajasi) ma‘nosini bildiradi.

papalik va biror-bir davlatlardagi katolik cherkovini bogʻlab turuvchi vakil sifatida, barcha yeparxiya yepiskoplari ustidan nazoratni amalga oshiradi va yepiskoplar tanlovida muhim rol oʻynaydi¹⁹³.

Aramey shartnomasi – mil. avv. 192–188-yillarda Rim va Salavkiylar oʻrtasidagi urush nihoyasida (mil. avv. 188-yilda) tuzilgan. Shartnomaga koʻra, Salavkiylar Egey dengiziga chiqish huquqidan mahrum boʻlgan.

Artxashastra – Mauriya hukmdori Chandragupta (mil. avv. 321–297 yy.)ning bosh maslahatchisi Kautilya (yoki Vishnagupta) tomonidan yozilgan siyosiy va iqtisodiy risola¹⁹⁴.

Audiensiya (*lot.* audientio – eshitish) – davlat organlarining yuqori lavozimini egallagan shaxslarni qabul qilish rasmiy marosimi (odatda, chet el rasmiy vakillarini, xususan, elchilarni qabul qilish marosimi).

Avantiyura – real kuch, sharoit va imkoniyatlarni hisobga olmasdan, tavakkaliga boshlangan oxiri voy ish, xatti-harakat (mas., harbiy avantiyura, siyosiy avantiyura va h.k.).

Axeya ittifoqi – mil. avv. 280 – mil. avv. 146-yillarda mavjud boʻlgan. Makedoniyaga qarshi yunon shaharlarini birlashtirgan ittifoq. Unga Peloponnesning katta qismi (Spartadan tashqari) va yirik shaharlar – Argos, Sikion, Korinf, Megara, Megalopol kirgan¹⁹⁵.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti – 1945-yil 25-aprelda San-Fransiskoda tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Nizomi 1945-yil 26-iyunda 50 davlat vakillari tomonidan qabul qilingan, 1945-yil 24-oktyabrdan kuchga kirgan, bosh qarorgohi Nyu-Yorkda joylashgan.

Busi – syogun hokimiyati (Yaponiya)da harbiylar tabaqasi.

Davlat – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlariga ega boʻlgan hukmron tuzilma. Davlat tuzilishi boʻyicha oddiy (unitar) va murakkab (federativ va konfederativ) shakllarga boʻlinadi.

Deklaratsiya – biror mamlakatning oʻz mustaqilligi yoki siyosiy qarashlariga oid holati (pozitsiyasi)ni ifodalovchi hukumatlararo bayonoma va bayonot.

Delegatsiya (*lot.* delegatio) – tayinlash, yuborish.

Denonsatsiya (*fran.* denonser – eʼlon qilish, uzish) – xalqaro huquqda ikki tomonlama xalqaro shartnoma amal qilishini toʻxtatishning yoki koʻp tomonlama xalqaro shartnomadan chiqishning keng tarqalgan

¹⁹³ https://ru.wikipedia.org/wiki/Апостольская_нунциатура

¹⁹⁴ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Артхашастра>.

¹⁹⁵ <https://history.wikireading.ru/92754>

usuli. Denonsatsiyaga oid umumiy qoidalar Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yil Vena konvensiyasida bayon qilingan.

Despotiya yoki despotizm (yunon. despot – xo'jayin, hukmdor, to'ra) – cheklanmagan hokimiyat. Despotizm – davlat boshqaruv shakli, avtokratiyaning bir ko'rinishi, ya'ni yuqori davlat hokimiyati mutloq hukmdor yoki tor doiradagi shaxslar qo'lida mujassamlashgan jamiyat.

“Devon ar-rasolat” – Abbosiylar davlatida tashqi ishlar vazirligi.

De-fakto tan olish – mavjud davlat va hukumatlar tomonidan biror mamlakatda paydo bo'lgan davlat yoki hukumatni tan olishning an'naviy shakli. Buning sabablarini ko'rsatish shart emas. Odatda, tan olayotgan davlat yangi hukumat yoki davlatning uzoq yashashi mumkinligiga ishonchsizlik bilan qaraganda qo'llaniladigan yoxud ma'lum vaqt o'tguncha yangi xalqaro huquq subyekti yoki uning hukumatini rasman va to'liq tan olish niyati yo'qligini ifodalaydi. De-fakto tan olishda diplomatik aloqalar o'rnatish shart emas, ayrim hollarda konsullik munosabatlari o'rnatish mumkin. Bu tan olayotgan davlat mazkur hukumatning mavjudligi bilan hisoblashadi va u bilan biror masala bo'yicha hamkorlik qilishi mumkinligini anglatadi. De-fakto tan olingan davlat bilan hamkorlik turli sohalarda bo'lishi mumkin, chunki xalqaro munosabatlarda suveren davlat sifatida qatnashadi. De-fakto tan olish de-yure tan olishdan farq qilmaydi¹⁹⁶.

De-yure tan olish – to'liq tan olish. U mamlakatda vujudga kelgan yangi davlat yoki hukumatni xalqaro maydonda mavjud davlat hamda hukumatlar tomonidan rasmiy tan olishning an'naviy shakli bo'lib, diplomatik aloqalar o'rnatishga olib keladi. Tan olishning bu turi tan oluvchi davlatning mazkur davlat bilan to'liq diplomatik munosabatlar o'rnatishga tayyor ekanligini ifodalaydi¹⁹⁷.

Devolyutsion urush – 1667–1668-yillarda Fransiya va Ispaniya o'rtasida Ispaniya Niderlandi uchun bo'lgan urush. Urush Fransiyaning Gabsburglarga tegishli janubiy Niderlandiya hududlariga da'vo qilishdan boshlangan. Urushga bahona sifatida o'sha hududlarda (asosan, Brabantda) amal qiluvchi “devolyutsion huquq”ni talab qilishi bo'ldi. Unga ko'ra, ota ikkinchi marta uylansa, merosga egalik huquqi birinchi oilasidan bo'lgan farzandlarga o'tishi (“devolyutsiya qilinishi”) belgilab qo'yilgan. Urush 1665-yilda ispan qiroli Filipp IV ning vafotidan so'ng boshlandi. Uning birinchi xotinidan bo'lgan qizi Mariya Tereza fransuz qiroli Lyudovika XIV ning xotini edi. Lekin, ispan

¹⁹⁶ Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент: “Академия”, 2005. – Б. 26.

¹⁹⁷ Ўша жойда. – Б. 26.

taxtiga Filippning ikkinchi turmushidan bo‘lgan o‘g‘li Karl II Gabsburg o‘tirdi. Urush 1668-yilda Uchlar ittifoqining tuzilishi va Fransiyaning ayrim hududlarni qo‘lga kiritishi, lekin asosiy da‘volaridan voz kechishi bilan tugadi.

Devolyutsion huquq (*lot.* *volvere* – aylantirmoq, o‘ramoq) vorislik huquqi; birinchi nikohdan bo‘lgan farzandlarning, agar otionalari ikkinchi turmush qursa, barcha mol-mulkka egalik qilish huquqi.

Diaspora (*yun.* *diaspora* – tarqalish). Falastindan tashqarida tarqalgan yahudiylar (*Bobil asirligi davridan, mil. avv. VI a.*) majmui. Hozirgi adabiyotda diaspora deb o‘z vatanidan tashqarida yashovchi etnik guruhlariga aytiladi¹⁹⁸.

Diplomatiya (*yunon.* “ikki buklangan qog‘oz” degan ma‘noni bildiradi) – Qad. Yunoniston va Rimda taxtakach muqova ichiga solingan xat elchilarga ular vakolatini tasdiqlovchi ishonch yorlig‘i yoki hujjat sifatida taqdim etilgan. Hozirgi ma‘nodagi diplomatiya – davlatning tashqi siyosatini belgilovchi xalqaro munosabatlarning amaliy usullari va amaliyotidir.

Diplomatik immunitet – chet el diplomatik vakillariga, maxsus missiyalarga, davlatlarning xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi vakillariga, ularning rahbarlari va xodimlariga beriladigan huquq va imtiyozlar majmui.

Diplomatik munosabatlar – xalqaro huquq me‘yorlariga va xalqaro muloqot tajribasiga ko‘ra davlatlar o‘rtasida rasmiy munosabatlarni yuritishning asosiy shakli.

Diplomatik inqilob yoki “ittifoqlarning ag‘darilishi” – Yetti yillik urush arafasida Fransiya–Prussiya, Avstriya–Buyuk Britaniya diplomatik ittifoqlarning buzilishi va yangi Fransiya–Avstriya hamda Buyuk Britaniya–Prussiya ittifoqlarining tashkil topishi. Bu ittifoqlar 1756-yil yanvardagi Angliya va Prussiya o‘rtasida Vestminster konvensiyasida hamda Fransiya–Avstriya o‘rtasidagi ikki Versal shartnomalarida shakllandi.

Doktrina – (*lot.* *doctrina*) – ta‘limot, ilmiy yoki falsafiy nazariya, siyosiy tizim, bosh nazariya yoki siyosiy tamoyil (prinsip).

Drednoutlar – (*ingl.* *Dreadnought* – “mard, dovyurak, qo‘rqmas”) (birinchi shu toifadagi kemanding nomi) – XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan artilleriya harbiy kemalari avlodi.

Duta – qadimgi hind manbalarida “elchi” ma‘nosini bildirgan.

¹⁹⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 3. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 287.

Ekklesiya (*qad.yun.* ἐκκλησία – majlis, yig‘ilish; *qad.yun.* ἐκκαλέω – “chaqirmoq, chorlamoq”) – polis hokimiyatining oliy organi. Unda jamiyatning muhim masalalari, urush va tinchlik masalalari hal qilingan, qarorlar qabul qilingan, ayrim mansabdor shaxslar saylangan¹⁹⁹.

Etoliya ittifoqi – Qad. Yunonistonda mil. avv. 367 – 189-yillarda mavjud bo‘lgan²⁰⁰.

Farmon huquqi – Boburiy Avrangzeb Olamgir (1658–1707-yy.) davrida Hindistonda yevropaliklarga berilgan bojsiz savdo qilish huquqi.

Federat (*lot.* foederati, foedus) – ittifoq. Masalan, Rim Imperiyasining chegara hududlarida yer va boshqa imtiyozlar evaziga harbiy xizmat qiluvchi varvar qabilalari federatlar deb atalgan. 1871-yildagi Parij kommunasi jangchilari ham o‘zlarini federatlar deb atashgan.

Fetsial (kohinlar)lar kollegiyasi (*lot.* fetiales) – Qad. Rimda 20 kishidan iborat bo‘lib, bir umrga saylangan. Fetsiallarning faoliyati qat’iy ravishda yashirin olib borilar edi. Ularning faoliyatiga oid turli qoidalar mavjud bo‘lib, faqatgina ruhoniylar tushunadigan sehrli so‘zlari bo‘lgan.

“Fuqarolar huquqi” (*lot.* jus civile) – Qad. Rimda fuqarolarining o‘zaro munosabatlarini tartibga solish uchun yaratilgan huquqiy me‘yor.

Geosiyosat (*geografik siyosat*) – siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyosat termini muayyan bir mamlakat o‘rni, tabiiy boyliklari, iqlimi va boshqa geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga (geografik-siyosiy strategiyasi va h.k.ga) muayyan ta‘sirini ifodalash uchun ishlatiladi. Geosiyosat tushunchasini birinchi bor shved olimi Rudolf Chellen (1864–1922-yy.) ilmiy muomalaga kiritgan.

Globalashuv – iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar va boshqa turli sohalarda milliy davlat chegaralarining shaffoflashuvi jarayoni.

Gorizontal bo‘yicha ittifoqlar – qadimgi Xitoyda mayda davlatlarning shimol va janub bo‘yicha ittifoqlari (davlatlararo munosabatlarning “szunxen” faylasuflar maktabi yaratgan nazariyalaridan biri)²⁰¹.

Hashshoshiylar – (*arab.* hashish chekuvchilar, giyohvandlar). Ismoiliiylar ichidagi yashirin terrorchilik bilan shug‘ullangan firqa tarafdorlari. XI asr oxirida Eronda ismoiliiylar

¹⁹⁹ https://w.histrf.ru/articles/article/show/ekkliesiia_dr_ghriech_kklesia_sobraniie

²⁰⁰ https://ru.wikipedia.org/wiki/Этолийский_союз

²⁰¹ https://dic.academic.ru/dic.nsf/china_philosophy/661/ /школа

harakatining bo‘linib ketishi natijasida paydo bo‘lgan. Asoschisi Hasan ibn Sabboh (1124-yil vafot etgan). Eronning shim.-g‘arbidagi tog‘lar orasida joylashgan Alamut qal‘asi hashshoshiylar jamoasining markazi bo‘lgan. Hashshoshiylar harakati Suriya va Livanda, keyinchalik Hindistonda ham tarqalgan. U Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi qarmatlar harakati bilan uzviy bogliq. Hashshoshiylar xalifalik va saljuqiylarga qarshi kurashgan.

Iezuittlar (lot. “Societas Jesu” – “Iso jamiyati”) – 1534-yilda Ignatij Loyola tomonidan asos solingan va 1540-yilda Pavel III tomonidan tasdiqlangan Rim-katolik cherkovi erkaklar ordeni (avliyo Ignatij ordeni).

Ieromaniya – Qad. Yunonistonda “ilohiy tinchlik”.

Ieromnemlar – Qad. Yunonistonda “ilohiy tinchlik”ni saqlovchilar va diniy bayramlarni tashkil etuvchilar.

Ikkinchi Axen sulhi – Avstriya merosi uchun urush yakuni bo‘yicha tuzilgan sulh shartnomasi. Dastlabki tinchlik shartnomasi 1748-yil 30-aprel va 18-oktyabrda Fransiya va Buyuk Britaniya (Niderlandiya bilan birgalikda) o‘rtasida tuzilgan. 28-oktyabrda shartnomaga Avstriya qo‘shilgan. Sulh shartnomasida avvalgi tuzilgan Breslavl va Drezden shartnomalari hamda Pragmatik Sanksiya (1713-yildagi) tasdiqlangan. Shartnomaga ko‘ra, Angliya, Fransiya va Ispaniya urushgacha bo‘lgan davrdagi egalik qilgan hududlarini saqlab qoldi; Angliya va Fransiya esa bosib olgan yerlarini (Luisburg (Shim. Amerika) va Madras (Hindiston)) bir-biriga qaytardi. Niderlandiya esa urushdan quruqlikdagi katta hududlaridan ayrildi va kuchsiz davlatga aylanib qoldi. Axen tinchlik kongressi 1756-yildagi Diplomatik inqilobga sharoit yaratdi.

Infratuzilma (lot. infra – past va structura – tuzilish) – iqtisodga oid adabiyotlarda XX asrning 40-yillari oxirida paydo bo‘lgan atama, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi xo‘jalik tarmoqlari kompleksini anglatadi. 1) Iqtisodiyot va insonlar faoliyatining umumiy shartlarini ta‘minlab beruvchi xalq xo‘jaligi tarmoqlari majmui (mas., ishlab chiqarish infrastrukturasi); 2) moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining faoliyati uchun zarur bo‘lgan inshootlar, bino, tizim va xizmatlar majmui.

Interdikt (lot. interdictum – taqiqlash) – rim-katolik cherkovi tomonidan barcha cherkov marosimlarini (jumladan, ibodat qilish, nikoh o‘qitish) taqiqlash.

Kalliy sulhi – mil. avv. 449-yil (yunon-fors urushlari soʻngida)da Suzada Eron podshosi bilan tuzilgan tinchlik bitimi. Afina elchilik missiyasi boshligʻining ismi Kalliy boʻlganligi sababli ushbu bitim shunday nomlangan²⁰².

Kamikadze (yapon. kami – “ilohiy”, kadze – “shamol”, yaʼni “ilohiy shamol”) – moʻgʻullar 1274 va 1281-yillardagi Yaponiyaga qarshi dengiz hujumida kuchli tayfun moʻgʻul qoʻshinlarini halok qildi. Yaponiya tarixida bu tayfun “kamikadze” – “ilohiy shamol” nomini oldi.

Kapitulyatsiya – 1) kapitulyatsiya, taslim boʻlish, tiz choʻkish; 2) tengsiz shartnoma, kapitulyatsiya (gegemon davlat bilan qaram mamlakat oʻrtasidagi bir tomonlama imtiyozli shartnoma); 3) taslim boʻlish, tan berish, yengilganligini boʻyniga olish²⁰³.

Katolik ligasi – 1576-yilda Fransiyada gertsog Genrix Giz tomonidan tashkil etilgan Katolik partiyasi (ligasi). Partiyaning maqsadi gugenotlarga qarshi kurash va feodal zodagonlar tomonidan markazlashgan qirol hokimiyatini cheklash boʻlgan. Fransiyada 1576, 1585–1594-yillarda faoliyat koʻrsatgan.

Koalitsiya (lot. coalitio – ittifoq) – biror-bir maqsad yoʻlida davlatlar, siyosiy partiyalar va shunga oʻxshashlarning ittifoqi, birlashmasi.

Kommyunike (frans. comyuniqe, lot. communico – xabar qilaman) – davlatlar oʻrtasida xalqaro shartnomalar toʻgʻrisida yuritilgan muzokaralar haqidagi rasmiy xabar.

Konglomerat (lot. conglomeratus – “toʻdalangan, yigʻilgan, toʻplangan”) – turli-tuman narsalarning birlashmasi, betartib qorishiq, assorti.

Konvensiya (lot. conventio – shartnoma, bitim) – koʻp tomonlama xalqaro bitim va shartnomalar turi boʻlib, koʻrilayotgan maxsus sohada davlatlarning oʻzaro huquq va majburiyatlarini oʻrnatadi.

Konsullik (lot. consul – maslahatchi) – bir davlatning boshqa davlat hududida oʻz mamlakati, uning yuridik shaxslari va fuqarolari manfaatlarini himoya qilish, ikki davlat oʻrtasida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga yordam berish uchun tayinlanadigan mansabdor shaxs.

Kontragent (lot. contrahens – shartnoma tuzuvchi) – shartnoma tuzgan har ikki tomonning biri.

²⁰² https://ru.wikipedia.org/wiki/Каллиев_мир

²⁰³ Русча-ўзбекча луғат. Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси. – Тошкент .1983. – Б. 420.

Konsistoriya (lot. consistorium – yig‘ilish joyi; kengash) – Rim papasi tomonidan chaqiriladigan va boshqariladigan katolik kardinallari majlisi; Rossiya, Germaniya va Avstriyada yepiskoplik qoshidagi ma‘muriy-boshqaruv organi.

Konsortsium (lot. shirkat, ishtirok etish) – kompaniyalar, banklarning kapitaltalab, juda keng ko‘lamdagi iqtisodiy loyihani amalga oshirish yoki qarzlarni hamkorlikda joylashtirish uchun tuzilgan vaqtinchalik birlashmasi.

Kontrreformatsiya (lot. contra – “qarshi”+ reformatio – “reformatsiya”) – XVI–XVII asrlarda Yevropada katoliklarning reformatsiyaga qarshi va Rim-katolik cherkovining mavqeini tiklash maqsadida olib borgan diniy-siyosiy harakati.

Konfessiya – (lot. confessio “e‘tiqod” yoki din, mazhab) – ma‘lum bir diniy aqidalarga e‘tiqod qilishning bir turi va shu diniy aqidalarga e‘tiqod qiluvchilar guruhi (mas., musulmonlar konfessiyasi, xristianlar konfessiyasi va h.k.)

Korinf kongressi – mil. avv. 338/337-yilda Korinfda barcha polislar vakillari qatnashgan va butun Yunonistonga tegishli masalalar yuzasidan chaqirilgan kongress. Ushbu kongressda Spartadan tashqari barcha yunon polisleri qatnashadi.

Kvestor²⁰⁴ (lot. “surishtirmoq”, “tekshirmoq”, “tergov qilmoq”) – Qad. Rimda dastlab konsulning biror-bir maxsus vakolatsiz yordamchisi bo‘lgan. Keyinchalik ularning vakolati mustaqilroq bo‘lgan: ular tribun komissiyasi tomonidan saylanadigan bo‘lib, ikki sohaga ixtisoslashgan – jinoyat sud ishlarini olib borish hamda davlat xazinasini va arxivini boshqarish. Lekin, jinoyat sud ishlari konsul qo‘lida bo‘lganda, kvestorlar uning yordamchisi sifatida dastlabki tergov (surishtiruv) ishlarini amalga oshirganlar.

Kvinkverema²⁰⁵ (lot. quinquiremis, quinque – “besh”+ remus – “eshkak”) yoki **pentera** (yunon. πέντε – “besh”) – besh qator eshkakli harbiy kema, trier hajmidan katta.

Kuriya²⁰⁶ (lot. cūria) – Qadimgi Rimda senat va boshqa rasmiy majlislar o‘tkaziladigan bino. Bundan tashqari, aholi guruhlari (tabaqalari) va ma‘muriy birlik; Rim imperiyasi mahalliy boshqaruvining bir qismi, ya‘ni provinsiyalarda munitsipal jamoalarning

²⁰⁴ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Квестор>

²⁰⁵ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Квинквирема>

²⁰⁶ <https://ru.wikipedia.org/wiki/курия>

shahar kengashi (shahar senati); qadimgi rim ayoli (mil. avv. VI – mil. V asrlarda) kabi ma'nolarni ham anglatadi.

Kurfyurist (*nem.* saylovchi-knyaz) – Muqaddas Rim imperiyasida XIII asrdan imperatorni saylash huquqini olgan knyaz.

Lamiya urushi – mil. avv. 323/322-yilda Afina boshchiligidagi davlatlarning Makedoniyaga qarshi urushi. Makedoniyaning g'alabasi bilan tugaydi.

Legat (*lot.* legatus, legare – buyurmoq, tayinlamoq, vakil qilib yubormoq) Rim senati elchisi; Rim papasining shaxsiy topshiriqlarini bajaruvchi vakili.

Legistlar (*lot.* lex – qonun) – qirol maslahatchisi lavozimini egallagan huquqshunoslar va qonunshunoslar. Ular Rim huquqini ishlab chiqqanlar va joriy qilganlar.

Levant (*fran.* Soleil levant – quyosh chiqishi) – O'rta Yer dengizi sharqiy qismi (Suriya, Livan, Isroil, Iordaniya, Misr, Turkiya va boshqalar)ning umumiy nomi, torroq ma'noda – Suriya, Isroil, Livan.

Logistika – inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta'minlashni boshqarish tizimi.

Logistika tizimi – u yoki bu ishlab chiqarish korxonalarini, xizmat ko'rsatish muassasalari, o'quv yurtlari asosiy faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlovchi infratuzilmalar tizimi.

Logofet drama (*yun.* λογοθετης του δρωμου – Logofet Drama) – Vizantiya imperiyasida pochta muassasasi boshlig'i.

Lugal (*shum.* “katta odam”) – Shumer shahar-davlatlarida urush paytlarida harbiy harakatlarga rahbarlik qilish uchun xalq yig'ini tomonidan saylanadigan harbiy yo'l boshchi. Keyinchalik lugal unvoni umrbodlik maqomini oldi.

Lyan – Qadimgi Xitoyda asosiy pul birligi (1 lyan – taxm. 31,25 gramm kumushga teng), 1 lyan 1200 mis tanga (o'rtasi kvadrat teshik)ni tashkil qilgan.

Magistr offis – (*lot.* magister officiorum) – Rim imperiyasining so'nggi davrlarida oliy fuqarolik mansabi. Saroy ma'muriyati uning boshqaruvida bo'lgan (jumladan, u saroy xizmatchilari jinoyatlarini sud qilish huquqiga ega bo'lgan). Unga imperiya devonxonasi (kanselyariyasi), maxfiy xizmat va imperatorning shaxsiy gvardiyasi bo'ysungan. Bundan tashqari, elchilik qabullarini va tarjimonlarni boshqargan.

Mamlakat – “davlat” tushunchasiga yaqin, lekin madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohaga nisbatan kengroq ma'noga ega bo'lib,

xalqning urf-odatlari, madaniyati, tili kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Memorandum (lot. memorandum – esda tutmoqlik) – diplomatik hujjat; biror davlatning diplomatik yo‘l bilan muhokama qilinishi lozim bo‘lgan masalalar yuzasidan o‘z nuqtai nazarini bayon qilib yozgan nomasi. Odatda notaga ilova qilinadi yoki boshqa mamlakat vakiliga shaxsan topshiriladi.

Missiya (lot. missio – jo‘natmoq) – 1) muayyan topshiriq bilan boshqa mamlakatga yuborilgan vakillar; 2) bir davlatning boshqa davlatdagi (elchixonadan farqli ravishda) vakili tomonidan boshqariladigan doimiy diplomatik vakolatxonasi.

Moki (*Chelnok*) **diplomatiyasi** – uchinchi davlat (vositachi) ishtirokida va u ilgari surgan shartlar asosida bir qator muzokaralar o‘tkazish orqali davlatlar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish vositalaridan biridir. 1974-yil boshida AQSh Davlat kotibi Genri Kissinjer Quddus va arab poytaxtlari o‘rtasida keyinchalik “moki diplomatiyasi” deb nomlangan birinchi raundni boshlagan.

“Muqaddas ota” (lot. pater patrus) – Qad. Rimda fetsiallar kengash (kollegiyasi) raisi. Senat urush e‘lon qilish haqida bayonot berganda, “muqaddas ota” dushman shahar chegarasiga uchi yongan va qonga belangan nayzani tashlab kelar, tinchlik sulhi tuzilayotganda esa, shartnoma matnini o‘qib eshittirar edi.

Nota – bir davlat hukumatining boshqa davlat hukumatiga yozma ravishdagi rasmiy diplomatik murojaati.

Manu – qadimgi hind qonunlari to‘plami. Ushbu qonunlarning hozirgacha yetib kelgan qismi mil. avv. I asrga oid bo‘lib, she‘riy shaklda yozilgan.

Mandala (qad. hind. “doira”, odatda “davlat doirasi”) – qadimgi hind diplomatiyasining konsepsiyasi.

Muxtor (*elchi*) (*arab.* saylangan, tanlab olingan, ixtiyori o‘zida) – biror ish qilish huquqi bo‘lgan, ixtiyoriga biror ish topshirilgan.

NATO (North Atlantic Treaty Organization) – Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti. 1949-yil 04-aprelda AQSh tashabbusi bilan tuzilgan, 1949-yil 24-avgustdan kuchga kirgan harbiy-siyosiy tashkilot. 1997-yilgacha 40 davlat a‘zo bo‘lgan²⁰⁷.

Papa kuriyasi – yoki Rim kuriyasi (lot. *Curia Romana*) – Muqaddas Toj va Vatikaning oliy ma‘muriy-boshqaruv organi.

²⁰⁷ Страны мира и международные организации: справочник. Москва: Гардарики, 2004. – С. 128.

Pensionariy – XV–XVIII asrlarda Niderlandiya provinsiyalari shtatlarida oliy mansabdor shaxs. Qo‘shma respublikasi provinsiyalari (Niderlandiya inqilobidan keyin tashkil topgan)da savdo oligarxlaridan 5 yil muddatga saylanadigan Buyuk pensionariy (huquqiy maslahatchi) muhim lavozim hisoblangan.

Pentarxiya (yunon. πεντά – besh + αρχία – hokimiyat) – besh hokimiyat.

Preventiv – oldini oluvchi, ogohlantiruvchi (mas., preventiv siyosat, preventiv diplomatiya va h.k.).

Pilagorlar – ittifoqchi davlatlarning siyosiy vakillari.

Pireney sulhi – 1659-yil 7-noyabrda Fransiya bilan Ispaniya o‘rtasida tuzilgan tinchlik shartnomasi. Pireney sulhi natijasida Ispaniya qudratli davlat mavqeini yo‘qotdi va ispanlar tarixi “oltin asri” tugadi.

“Pomestye haqida kapitulyariy” (lot. Capitulare de villis) – taxm. 800-yilda Buyuk Karl tomonidan qirol yer-mulklarini boshqarish to‘g‘risida ishlab chiqilgan farmon. Lotin tilida yozilgan. Farmon o‘sha davrdagi yirik feodal yer egaligi tashkil etilishi, krestyanlikning asosiy turlari, erkin kishilarni qaramlikka tortish va ekspluatatsiya shakllari haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Postglossator – XIV asr o‘rtalarida glossatorlar o‘rniga kelgan italyan huquq maktabi sharhlovchilar.

Pragmatik sanksiya – 1549-yilda Muqaddas Rim imperiyasi imperatori Karl V tomonidan imperiya 17 provinsiyalarini qayta tuzish va ma‘muriy bo‘linishni markazlashtirish borasida qabul qilingan qonun; 1713-yil 19-aprelda Muqaddas Rim imperiyasi imperatori Karl VI tomonidan qabul qilingan taxt merosi to‘g‘risidagi qonun.

Prokseniya (mehmondo‘stlik) – Qad. Yunonistonda dunyoviy turdagi xalqaro aloqalar va xalqaro huquqning bir ko‘rinishi. Prokseniya alohida shaxslar, urug‘lar, qabila yoki butun boshli davlatlar o‘rtasida amal qilingan. Diplomatik aloqalar proksenlar orqali amalga oshirilgan.

Qo‘shilmaslik harakati – o‘z tashqi siyosatida harbiy-siyosiy blok va guruhlarda ishtirok etmaslikni e‘lon qilgan davlatlarni birlashtirgan harakat. Bu harakat 1961-yilda tashkil topgan, 2002-yil ma‘lumotiga ko‘ra 113 ta davlat a‘zo²⁰⁸.

Ratifikatsiya (lot. ratus – tasdiqlangan, fasio – qilaman) – ahdlashuvchi davlatlarning vakillari tuzgan xalqaro shartnomani davlatning oliy hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanishi.

²⁰⁸Там же. – С. 127.

Rajputlar – Pokiston va Shimoliy Hindistonda varna-kshatriylar tarkibidagi etno-tabaqa guruhlari.

Regent (*lot. regens* – boshqaruvchi, idora qiluvchi) – hukmdorning yoshligi, kasalligi yoki yo‘qligida davlat boshlig‘i vazifasini kollegial (regent kengashi) yoki yakka (regent) vaqtincha amalga oshiruvchi.

Rekuperator (*lot. recuperator*) – Qad. Rim jamoasida boshqa qabilalar bilan aloqalarni olib boruvchi maxsus tayinlangan shaxs. Odatda bunday vazifalarga tayinlangan kishilar soni 3 kishidan 5 kishigacha bo‘lib, Rim va qo‘shni qabila hamda shaharlar o‘rtasidagi munozarali masalalarni hal qilgan. Mil. avv. II–I asrlarda rekuperatorlar sudi Rim provinsiyalari aholisining noiblar ustidan qilgan arzlari va shikoyatlarini ham ko‘rib chiqqanlar.

Rezident – 1) milliy qonunlar qat‘iy odat bo‘lgan muayyan davlatda qayd etilgan yoki doimiy yashaydigan yuridik va jismoniy shaxs; 2) josuslik sohasida faoliyat yuritadigan bir davlat razvedkasining boshqa davlatdagi noqonuniy vakili; 3) elchi (diplomatik vakil)²⁰⁹.

Sammit – 1) davlat boshliqlarining uchrashuvi; 2) oliy darajada ikki yoki bir necha davlat delegatsiyalarining uchrashuvi, kelishuvi.

Sargrad – Konstantinopol (Istambul)ning qadimgi Rusda atalishi.

Senyor – feodal jamiyatida: o‘z hududida har qanday hokimiyatni qo‘lga olgan yer egasi. Ispaniyada: janob.

Sillagos – Qad. Yunonistonda simmaxiyaning oliy organi.

Simmaxiya – Qad. Yunonistonda harbiy-siyosiy ittifoq.

Suriya urushlari – Salavkiylar va Ptolomeylar davlati o‘rtasida mil. avv. III asrning 80-yillaridan to mil. avv. 217-yilgacha davom etgan urush. Urush to‘xtab-to‘xtab 4 marta bo‘ladi va yakunda Salavkiylarning mag‘lubiyati bilan tugaydi.

“Strasburg qasami” – 842-yil 14-fevralda tuzilgan. G‘arbiy franklar qiroli Karl II Yaltiroqbosh (Kalbosh)ning akasi – Sharqiy franklar qiroli Lyudovik II Nemis bilan katta akalari Lotarga qarshi kurashish to‘g‘risidagi shartnoma, qasamyod.

Stautxauder (*niderl. stadhouders* – yer egasi) yoki **Shtatgalter** (*nem. Statthalter* – noib) – qator Yevropa davlatlarida shu davlatga tegishli biror-bir hududda davlat hokimiyati va boshqaruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs.

Strategiya – yirik miqyosdagi tizim rivojini belgilab beradigan tamoyil, uzoq muddatli maqsadlarning amalga oshirish qonun-qoidalari,

²⁰⁹Халқаро муносабатлар. – Тошкент: “Академия”, 2006. – Б. 81.

rejalari ma'lum faoliyat doirasida amalga oshiriladigan taktik sa'y-harakatlar ketma-ketligi.

Syogun (yapon. "sarkarda", "qo'mondon") – 1192-yildan to Meydzi inqilobi (1868-yil)gacha Yaponiyaning katta qismini (Kiotodagi imperator saroyidan alohida) boshqargan harbiylar guruhi (syogunat).

Syuzeren (fran. suzerain) – o'z yeridan mayda feodallar (vassal feodallar)ga ijaraga yer bergan yirik yer egasi. Vassal feodallar syuzerenga bo'ysungan.

"Szun xen" maktabi – qadimgi Xitoyda Guy Gutszi (mil. avv. IV–III asrlar) tomonidan asos solingan faylasuflar maktabi. Maktabning nomi ikki turdagi davlatlararo ittifoqlarning nomidan kelib chiqqan – "szun" (vertikal bo'yicha ittifoq yoki shimol-janub ittifoqi) va "xen" (gorizontal bo'yicha ittifoq yoki sharq-g'arb ittifoqi). Bu yerda diplomatlar ham tayyorlangan, xalqaro munosabatlarning turli konsepsiyalari ishlab chiqilgan.

Chegara delimitatsiyasi – kelib chiqishining aniq tasviri va boshqa davlat bilan tuzilgan kelishuvga muvofiq holda kartaga tushirilgan davlat chegaralari holatini aniqlash va jo'natish.

Chegara demarkatsiyasi – delimitatsiya haqidagi kelishuvga asoslanib, mahalliy hududda maxsus chegara belgilari mavjudligini anglatuvchi davlat chegarasini o'rnatish²¹⁰.

"Teng davlatlar" konsepsiyasi²¹¹ (xitoy. "di go") – "teng davlatlar" tamoyili, ya'ni "o'rtadagi podsholiklar"ning o'zaro munosabatlari amaliyotidan kelib chiqqan va davlatlar o'rtasidagi teng huquqli munosabatlar asoslangan.

TRASEKA (Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport tarmog'i) – 1993-yil may oyida Bryusselda Markaziy Osiyo respublikalari, Qozog'iston, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya davlatlarining savdo va transport vazirlari ishtirokida o'tkazilgan konferensiyada bu yo'lakni qurish dasturi qabul qilingan.

Utrent sulhi – 1713-yil aprelda tuzilgan ispan merosi uchun kurashga yakun yasagan tinchlik sulhi. Sulh bir tomonda Fransiya va Ispaniya, ikkinchi tomonda Buyuk Britaniya, Gollandiya respublikasi, Muqaddas Rim imperiyasi, Portugaliya, Savoya o'rtasida tuzilgan. Unga qo'shimcha sifatida 1714-yil martda Rashtatt sulhi, 1714-yil sentyabrda esa Baden shartnomasi tuzilgan.

²¹⁰ Ўша жойда. – Б. 119.

²¹¹ http://roii.ru/publications/dialogue/article/40_6/barinova_e.b./interactions-of-china-with-western-territories-in-antiquity-and-the-middle-ages

Van – qadimgi Xitoyda hukmdor unvoni, Yevropadagi podsho, qirol unvonlariga to‘g‘ri keladi. Bu unvon Shan sulolasi (mil. avv. 1600–1027-yy.) davridan ma‘lum. Chjou oliy humdorlari o‘zlarini “van”, ya’ni “Ven-van” – “ma’rifatli podsho”, deb ataganlar²¹².

Verden shartnomasi – 843-yil avgustda Verden sharhrida tuzilgan Buyuk Karl imperiyasini taqsimlash to‘g‘risidagi kelishuv. Buyuk Karlning o‘g‘li Lyudovik I Xudojo‘yning o‘g‘illari Lotar I, Lyudovik II Nemis va Karl I Yaltiroqbosh (Kalbosh)lar o‘rtasida tuzilgan.

Vergeld (*nem.* wyor – odam + gyolt – narx) – german varvarlar qonuniga ko‘ra, erkin kishini o‘ldirganlik uchun to‘lov badali. Vergeld qonli xun olish odatini siqib chiqargan. Germaniyada vergeld to‘lov amaliyoti XVI asrning oxirlarigacha saqlanib qolgan.

Vertikal bo‘yicha ittifoqlar – qadimgi Xitoyda mayda davlatlarning g‘arb va sharq yo‘nalishlari bo‘yicha ittifoqlari (davlatlararo munosabatlarning “szunxen” faylasuflar maktabi yaratgan nazariyalaridan biri).

Vestfaliya sulhi – 1648-yil 15-may va 24-oktyabrda Myunster va Osnabryukda imzolangan ikki tinchlik sulhi. Sulh natijasida Muqaddas Rim imperiyasidagi O‘ttiz yillik urushga yakun yasaldi. Ayrim holatlarda 1648-yil 30-yanvarda Ispaniya va Birlashgan Niderlandiya provinsiyalari o‘rtasida imzolangan 80 yillik urushning tugaganligi to‘g‘risidagi tinchlik shartnomasi ham tushuniladi. Vestfaliya tinchlik sulhi birinchi zamonaviy diplomatik kongress (majlis) natijasi hisoblanadi. U Yevropada suveren davlat konsepsiyasiga asoslangan yangi tartiblarning joriy etilishini boshlab berdi. Myunster va Osnabryukda qabul qilingan qoidalar to 1806-yilgacha Muqaddas Rim Imperiyasi konstitutsion qonunining bir qismi sifatida qoldi.

Xalqaro huquq subyekti – xalqaro huquq me‘yorlari bilan tartibga solingan xalqaro huquqiy munosabatlarning qatnashchilari xalqaro huquq subyektlari, deb ataladi.

Xalqlar huquqi (*lot.* jus gentium) – Qad. Rimda boshqa qabilalar bilan o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun yaratilgan huquqiy me‘yor. “Xalqlar huquqi” o‘zining mohiyatiga ko‘ra, xalqaro aloqalarga oid dastlabki huquq me‘yorlari edi.

Xartiya – (*yun.* chartes – qog‘oz, yorliq). 1) o‘rta asrlardagi (shaharlar va kommunalar Xartiyasi, Erkinlikning buyuk Xartiyasi va b.) va yangi zamonda (B.Britaniya 1838-yilgi Xalq Xartiyasi) ommaviy-huquqiy va siyosiy tUSDagi hujjat. Xalqaro huquqda odatda Deklaratsiya

²¹² [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Ван_\(титул\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Ван_(титул))

soʻzining sinonimi sifatida qoʻllanilib, majburiy kuchga ega boʻlmaydi, xalqaro aktning umumiy qoidalari va maqsadini ifodalaydi (mas. yangi Yevropaning Parij Xartiyasi); 2) eski qoʻlyozma.

Xuasya (yoki xua, sya) – xitoylarning qadimgi ajdodlari. Tinch okeani mongoloidlari. Taxminan mil. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmi – III ming yillikning birinchi yarmida sino-tibet tilida soʻzlashuvchi elatlar oʻrtasida boʻlinish natijasida ajralib chiqqan etnik guruh. Mil. avv. XIII asrda paydo boʻlgan qudratli Shan (In) davlati integratsion jarayonlarni kuchaytirdi. Xan imperiyasi davrida xuasya asosida xanszu – xitoylar yadrosi shakllandi²¹³.

Yuynshi – Chjango hukmdorlarining saroylari qoshida hukmdor nomiga boshqa podsholiklardan yetib kelgan barcha maktublarni qabul qilish, hamda kelgusi muzokaralar uchun maʼlumotlar tayyorlash bilan shugʻullanuvchi mansabdor shaxs (lar).

Yevangeliya uniyasi – yoki Protestantlar uniyasi (nem. *Protestantische Union*) – 1608-yil 14-mayda Agauzen (Ansbax)da tuzilgan Muqaddas Rim imperiyasidagi 8 ta protestant knyaz va 17 protestant shaharlarining katoliklarga qarshi ittifoqi. Uniya boshligʻi kalvinist kurfyurist Pfals Fridrix IV edi.

YevrAzES – Davlatlararo (xalqaro) iqtisodiy tashkilot. 2000-yil 10-oktyabrda Belorussiya, Qozgʻiston, Qirgʻiziston, Rossiya, Tojikiston Prezidentlari Ostona shahrida imzolagan shartnoma asosida taʼsis etilgan.

Yevropa Ittifoqi – 1992-yil 7-fevralda tuzilgan Maastrixt (Niderlandiya) bitimiga asosan 1993-yilda tashkil topgan xalqaro mintaqaviy tashkilot²¹⁴.

Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) – faoliyati 1975-yilda Xelsinkida imzolangan Yakunlovchi hujjat, 1990-yilda Parijda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Xartiya, 1992-yilda Xelsinkida qabul qilingan Deklaratsiya kabi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. 55 davlatni birlashtirgan (2002-y. maʼlumot)²¹⁵.

Yunon-Fors urushlari – mil. avv. 500–449-yillarda yunon va forslar oʻrtasida boʻlib oʻtgan urush. Urush besh davrga boʻlinadi va mil. avv. 449-yilda Kalliy sulhi tuzilishi bilan yunonlar foydasiga hal boʻlgan.

²¹³ <https://bigenc.ru/archeology/text/4671997>

²¹⁴ Страны мира и международные организации: справочник. – Москва: Гардарики, 2004. – С. 127-128.

²¹⁵ Там же. – С. 128.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arslonzoda R. Manbashunoslik (darslik). Farg‘ona: “Classik” nashriyoti, 2022.
2. Бернштам А.Н. Древняя Фергана. Ташкент. 1951.
3. Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент. 2005.
4. Jahon tarixi (Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi). Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Navro‘z, 2018.
5. История дипломатии. Том 1. Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1940.
6. История дипломатии. Том 2. Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1945.
7. История дипломатии. Том 3. Москва: Огиз-Соцэкгиз, 1945.
8. История дипломатии. Москва: Политиздат, 1959. Т. I.
9. История международных отношений. Учебное пособие. Т. I. Москва. 2002.
10. Кичкилов Х., Файзуллаева М. Энг янги тарих (1945–2010 йиллар). – Тошкент: ЯНГИ НАШР, 2011.
11. Крушкоть Ю.С. Қадимги дунё тарихи. Тошкент. “Ўқитувчи”. 1974.
12. Нуждин О.И. История международных отношений в средние века. Курс лекции. Екатеринбург. Изд. Уральского университета. 2001. S.99-107.
13. Потёмкин В. История дипломатии. Т. I. Москва. 1941-1945.
14. Ртвеладзе Э. Цивилизации государства, культуры Центральной Азии. Ташкент. 2005.
15. Русча-ўзбекча луғат. Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси. Тошкент. 1983.
16. Семёнов В.Ф. Ўрта асрлар тарихи. Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
17. Сборник документов по истории нового времени буржуазные революции 17-18 вв. Под.ред.В.Г.Сироткина. М., 1990.
18. Страны мира и международные организации: справочник. Москва: Гардарики. 2004.
19. Халқаро муносабатлар. Тошкент. “Академия”. 2006.
20. Холиқова Р.Е. O‘zbekistonning eng yangi tarixi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent. 2021.
21. Холлиев А., Татыбаев А. История международных отношений и дипломатии. Учебно-методическое пособие. Ташкент. 2002.
22. Хрестоматия по новой истории (1640–1870). Пособие для учителя. М., 1890.
23. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. Фарғона. 2013.

24. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (Янги давр XVI–XVIII асрлар). Тошкент. “O‘zbekiston”, 2016.
25. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (Энг янги давр 1918–1945 йиллар). Тошкент. “O‘zbekiston”, 2018.
26. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (Энг янги давр 1945–2017 йиллар). Тошкент. “O‘zbekiston”, 2019.
27. Ўзбек дипломатияси тарихидан (тарихий очерклар ва лавҳалар). Тошкент. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети. 2003.
28. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Т. 3, 4, 6, 9, 10.

Internet manbalari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-20596>
2. Ахейский и Этолийский союзы. <https://history.wikireading.ru/92754>
3. Всемирная история. Том 4. Эллинистический период <https://history.wikireading.ru/218335>
4. Дипломатия Древней Индии. https://studopedia.ru/8_204621_glava--diplomatiya-drevney-indii.
5. Дипломатия Древнего Китая. https://studopedia.ru/8_204622_glava--diplomatiya-drevnego-kitaya.
6. Дипломатия Древнего Рима. https://diphis.ru/diplomatiya_drevnego_rima-c19.html
7. Дипломатия Древнего Рима основные черты римской дипломатии. <https://studfile.net/preview/1791773/>
8. Дипломатическая служба Ватикана. <https://students-library.com/library/read/108787-diplomaticeskaa-sluzba-vatikana>
9. История международных отношений. Учебное пособие. Том I. Москва. 2002. С. 69; <https://obrazovaka.ru/istoriya/tridcatiletnyaya-voyna-kratko.html>.
10. История папства. https://ru.wikipedia.org/wiki/История_папства
11. Международные связи Древней Греции. https://studopedia.ru/8_204623_mezhdunarodnie-svyazi-drevney-gretsii.
12. Секреты Византийской дипломатии. <https://litresp.ru>
13. Становление Папского государства и его дипломатической службы <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=728008>
14. https://ru.wikipedia.org/wiki/Маркоманская_война

15. <https://studfile.net/preview/9775759/page:5/>
16. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:
Мирные_договоры_древности](https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:Мирные_договоры_древности)
17. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:
Мирные_договоры_Средневековья](https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:Мирные_договоры_Средневековья)
18. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:
Мирные_договоры_XVI_века](https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:Мирные_договоры_XVI_века)
19. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:
Мирные_договоры_XVII_века](https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:Мирные_договоры_XVII_века)
20. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:
Мирные_договоры_XVIII_века](https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:Мирные_договоры_XVIII_века)
21. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:
Мирные_договоры_XIX_века](https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:Мирные_договоры_XIX_века)
22. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:
Мирные_договоры_XX_века](https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:Мирные_договоры_XX_века)
23. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:
Мирные_договоры_XXI_века](https://ru.wikipedia.org/wiki/Категория:Мирные_договоры_XXI_века)
24. <http://historic.ru/books/item/f00/s00/z0000054/st205.shtml>
25. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Сан-Стефанский_мир](https://ru.wikipedia.org/wiki/Сан-Стефанский_мир)
26. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Антифранцузские_коалиции](https://ru.wikipedia.org/wiki/Антифранцузские_коалиции)
27. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Семилетняя_война](https://ru.wikipedia.org/wiki/Семилетняя_война)
28. <https://history.wikireading.ru/154716>. Маргусский договор, или
Дипломат с мечом в руке

MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu: Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi (1-qism).....	6
2-mavzu: Qadimgi Sharqda xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi.....	20
3-mavzu: Qadimgi Yunoniston diplomatiyasi.....	36
4-mavzu: Qadimgi Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.....	49
5-mavzu: O‘rta asrlarda Yevropada xalqaro munosabatlar va diplomatiya.....	62
6-mavzu: O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.....	86
7-mavzu: XVI-XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.....	113
8-mavzu: XIX–XX asr boshlarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.....	127
9-mavzu: Eng yangi davrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.....	137
Glossariy.....	158
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	173

M.RASULOV

*Xalqaro munosabatlar va
diplomatiya tarixi*

Texnik muharrir: R.Axmedov

Badiiy muharrir: H.Ismoilov

Sahifalovchi: S.Rahimova

Bosishga ruxsat etildi: 2023-yil. Nashriyot bosma tabog‘i –11.


Shartli bosma tabog‘i – 5,5. Bichimi 84x108 1/32.

Adadi 100.

«Poligraf Super Servis» MChJ

Manzil: 150100, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, Aviasozlar

ko‘chasi, 2-uy.



«ClassiC»
nashriyoti

